

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/04.06.2021.Fil.72 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK:

MUXAMMADOVA MAXBUBA MO'MINOVNA

**HASANXOJA NISORIY TAZKIRASIDA IKKI SULOLAGA MANSUB
IJODKORLAR TALQINI**

10. 00. 02 - O'zbek adabiyoti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

**Ilmiy rahbar: Hayitov Shavkat Ahmadovich,
filologiya fanlari doktori, professor**

Buxoro – 2023

MUNDARIJA

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)	3
I BOB. “MUZAKKIRI AHBAB”DA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIY IJODKORLAR TALQINI	12
1.1. Nisoriy Bobur va Humoyun haqida.....	12
1.2. Muallif adabiy-estetik qarashlarining Komron Mirzo she’riyatidagi ifodasi.....	31
1.3. Mirzo Askariy, Hindol Mirzo, Mirzo Abdulqosim iste’dodi va ma’naviy olamining eng muhim qirralari.....	41
Bob bo’yicha xulosa.....	59
II BOB. HASANXOJA NISORIY TAZKIRASIDA MUHAMMAD SHAYBONIY VA SHAYBONIY IJODKORLARGA MUNOSABAT	61
2.1. Muhammad Shayboniy Nisoriy talqinida.....	61
2.2. Tariqat ahlining Qul Ubaydiy hayoti va ijodiga ta’siri.....	73
2.3. Shoh – darvesh konseptining Rustam Bahodirxon timsolidagi ilmiy-badiiy ifodasi.....	96
Bob bo’yicha xulosa.....	112
III BOB. SHOH-SHOIRLAR SILSILASINING TAZKIRANAVIS NAZARIGA TUSHGAN IZDOSHLARI	114
3.01. Shoh-shoir Aziziy: adabiyotimiz tarixining o’z izohlari.....	114
3.02. Boburiylar va shayboniylar: adabiy aloqa va o’zaro ta’sir masalalari...	123
3.03. Abdullatif Bahodirxon: Ulug‘bek Ko‘ragonga payravlik hosilasi.....	132
3.04. Tazkirada ijodkor Sultonlar she’riyatiga munosabat.....	139
Bob bo’yicha xulosa.....	157
UMUMIY XULOSALAR	159
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	162

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida har bir xalq milliy adabiyoti tarixiga oid tazkira janridagi adabiy-tarixiy manbalarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Tazkiralarda adabiy tafakkur tarixi, adabiy-tanqidiy, adabiy-estetik qarashlar va davr adabiyotining ayrim nazariy masalalari, turli tillarda asar yozgan ijodkorlar adabiy merosini qiyosiy tahlil etish, adabiy aloqa va ijodiy ta'sir masalalarini keng ilmiy tekshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon tamaddunining har bir bosqichida milliy adabiyotlar taraqqiyoti tamoyillarining xos xususiyatlarini aniqlash, har bir xalqning o'ziga xos milliyliigi va ma'naviyati uning adabiyotida aks etishi bilan aloqador umummilliy masalaning badiiy-estetik, ma'rifiy-tarbiyaviy mavqeyini, jamiyatning nafaqat ma'naviy, balki, ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rnini belgilashda tazkira ma'lumotlariga tayanish alohida o'rin egallaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida tazkiralarni o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Tazkiralardagi ma'lumotlar turli yo'nalishlarda ilmiy muomalaga tortilib, ular haqida muhim fikrlar bildirilyapti. Tazkiralarda ijod ahli davriy, jug'rofiy, ijtimoiy, sulolaviy, avtobiografik asoslarga ko'ra qalamga olingan. She'r ahlini sulolaviy tarzda o'rganish Alisher Navoiy "Majolisun-nafois"ning yettinchi majlisida yorqin nazarga tashlanadi. Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" (1566) tazkirasida esa "Muqaddima"dan keyin "Maqola" sarlavhasi ostida alohida bob ochib, shayboniy va boburiy ijodkorlar sulolaviy tarzda muayyan tarixiy-tadrijiy aspektida tadqiq qilingan. Som Mirzo Safaviyning "Tuhfayi Somiy" (1550-1560) tazkirasida ham yaxlit bob safaviylar sulolasi hamda temuriy, boburiy, shayboniylar orasidan yetishib chiqqan shoir-amaldorlar ijodini o'rganishga yo'naltirilgan.

Istiqlolga qadar Vatanimiz tarixida yorqin iz qoldirgan shoh-shoirlar ijodini mafkuraviy cheklanishlarsiz o'rganish imkoniyati yo'q edi. U yoki bu sulolaga mansub kattayu kichik she'r ahlini yaxlit tarzda tadqiq qilish yo'li esa mutlaqo bog'langan edi. Sho'ro tuzumining siyosiy bo'ronlari o'tmishda qoldi. "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi yengilmas sarkarda

va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz"¹ uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Olimlarimizning tadqiqotlarida tazkiralarning davriy, jug'rofiy, ijtimoiy, avtobiografik asosda qisman o'rganilgan bo'lsa-da, sulolaviy tarzda tadqiq qilinmagan. Ayni ta'kid Hasanxoja Nisoriy tazkirasiga ham daxldor bo'lib, "Muzakkiri ahibob"ni sulolaviy asosda chuqur o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ -2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida" farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda "Taraqqiyot yo'limizning shiddati yanada oshaveradi" mavzusidagi Oliy majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so'zi, 2018-yil 29-dekabr.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida o‘tgan asrning boshlaridan bugunga qadar Sharq xalqlari adabiyoti tarixi, jumladan, o‘zbek adabiyoti tarixiga oid tazkira janridagi asarlar olimlar tomonidan tadqiq qilinib kelmoqda. A.Mutallibov, S.G‘aniyeva, A.Sattorov, A.Zaxir, I.Abdullayev, R.Qobilova, I.Bekjonov, A.Habibullayev, S.Samandarova, F.Akramov, B.Norik kabi olimlarning tadqiqotlarida tazkiralар matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishida tadqiq qilingan.² Atoqli olim B.Ahmedovning tadqiqotlarida tazkiralар manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan.³ M.Shayxzoda, V.Abdullayev, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jayev, A.Mirzoyev, R.Muqimov, H.Qudratullayev, M.Mirzaahmedova, A.Ibrohimov, U.Karimov, I. Bekjonov, N.Jumayev, I.Adizovanning darslik, qo‘llanma, monografiya va maqolalarida mumtoz adabiyot tarixi muammolari, u yoki bu davr adabiy hayoti, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid tarixi, adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir masalalarini yoritishda tazkiralarga murojaat qilingan.⁴

² Муталлибов Абду Гани. “Тухфат ул-ахбоб” - антология Кары Рахматуллы Ашур Мухамедова. Автореф. дисс...канд. филол. наук. - Ташкент, 1945; Ганиева С. “Мажолис ун-нафоис” Алишера Навои (литературно-исторический анализ и критический текст 3 и 4 маджинсов). Дисс...канд. филол. наук. – ЛГУ, 1956; Саттаров Абдулло. “Тухфаи Соми” Мирзо Сафави как первоисточник для изучения персидско-таджикской литературы XV первой половины XVI вв. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Душанбе, 1972; Абдураззак Захир. Текстологическое исследование антологии Афзали Пирмасти “Афзалат-таъкор фи зикр- иш-шуаро в-ал-ашъор”. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Ташкент, 1973; Абдуллаев И. Поэзия на арабском языке в Бухаре при Саманидах (X в.). Дисс. ... канд. филол. наук Ташкент, 1963; Абдуллаев И. “Йатимат ад-дахр” источник по истории арабоязычной литературы народов Моварауннахра и Хорасана. Дисс. докт. филол. наук. - Москва, 1977; Кабулова Р. Традиции “Мажолис ун-нафоис” Алишера Навои в тюркоязычной литературе. Диос канд. филол. наук. - Ташкент, 1979; Бекчанов И. Хасанхожа Нисорийнинг “Музакири ахбоб” тазкираси ва XVI аср ўзбек адабиёти. Филол. ф. номз... дисс. Тошкент, 1993; Хабибуллаев А. Антология “Ал-иджаз вал-иджаз” ас-Саалиби как литературный памятник. Дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1994; Самандарова С. XX аср ўзбек тазкиралари Филол. ф. номз... дисс. - Тошкент: 1996; Акромов Ф.М. Тазкира “Нусхаи зебои Джахонгир Мутриби источник к изучению литературной жизни Мавераннахра и Индии XVI - начала XVII вв”. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук -Душанбе, 1998; Норик Б.В. Антологии Хасана Нисари и Мутриби Самарканди как источники по истории письменной культуры Мавераннахра XVI - первой трети XVII вв. Автореф. дисс. канд. ист. наук.С. - Петербург, 2005.

³ Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Писменные памятники). - Ташкент: Фан, 1985. - С. 165-173; Ахмедов Б. Мутриби и его антологий / Сборник: Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. Ташкент: Фан, 1986. -С. 33-44; Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. -Тошкент: Ўқитувчи, 1994. - Б. 277-286.

⁴ Хайитметов. А Алишер Навоийнинг адабий – танкидий қарашлари.- Тошкент : ЎзФА , 1959.Валихўжаев Б., Муқимов Р. Оид ба як тазкираи авали асри XVII ва муаллифи он / СамДУ асарлари. Янги серия. Самарқанд, 1961. - № 114; Муқимов Р., Валихўжаев Б. Чанд суҳан оид ба як тазкира // Садои Шарқ. - Душанбе, 1961. - №9.- С.150-154; Валиходжаев Б. Мутриби и его “Тазкират уш-шуаро” // Материалы третьей объединенной научной конференции ученых города Самарканд. - Самарканд, 1961. - С. 182- 185; Валихўжаев Б. XV-XIX асрлар ўзбек адабий-танкидий қарашлари тарихидан /СамДУ асарлари. Янги серия №138. Самарқанд, 1964. - 5.16-19. Мирзаахмедова М. Хасан Нисорий ва унинг “Музакири ахбоб” тазкираси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1965. - № 4. - 5. 70-73. 20 Абдуллаев В., Валихўжаев Б. “Мажолис ун-нафоис” типдаги бир тазкира ҳақида (Мутрибий ва унинг “Тазкират уш-шуаро”си) Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1965. - № 5. - Б. 18-23; Шайхзода М.Тазкирачилик тарихидан.- Шайхзода М. Асарлар.Олти томлик,4 – том.- Тошкент ,1972.Б.295-346;Валихўжаев Б.Ўзбек адабиётшунослиги тарихи . X-XIX асрлар. - Тошкент :Ўбекистон , 1983, Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи (XVII асрдан XIX асрнинг иккинчи ярмигача) Тошкент: Ўқитувчи, 1967. Б. 8-12; Ўзбек-адабиёти тарихи. 3-том (XVI асрдан XVII асрнинг 70-йилларигача).- Тошкент: Фан, 1978. - Б. 143-144; Мирзоев А. Адабиёти (ёри барои дарси адабиёти асрҳои XVI-XIX) тоҷик. Душанбе: 1964; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи, 1976. - Б. 223-234; Иброҳимов А. XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари. Тошкент: Фан,1976; Каримов У. Адабиёти тоҷик дар асри XVI. -Душанбе: Дониш – 1885.-С .87-107. Қудратуллоев Ҳ. Навоийнинг адабий эстетик олами.-Тошкент Адабиёт ва санъат , 1991.Бекчанов.И , Мутрибий тазкиралари муҳим

Filologiya fanlari doktori R.Vohidov Alisher Navoiy adabiy faoliyatining shakllanish jarayoni, ulug‘ mutafakkirning zamondoshlariga munosabati, izdoshlariga ta’siri kabi masalalar talqinida “Majolisun- nafa’is” qaydlariga tayangan holda mushohada yuritadi.⁵ Istiqlol davrida yaratilgan ayrim tadqiqotlarda tazkira ma’lumotlariga komil inson qiyofasi manzaralari nuqtayi nazaridan yondashish tamoyili kuzatiladi.⁶ T.Sultanov tadqiqotida Hazrat Navoiyning “Majolisun-nafa’is” va Sodiqbek Sodiqiyning “Majma’ ul-xavos” tazkiralari shakl, mazmun, g‘oya va uslub jihatidan qiyoslangan.⁷

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida I.Bekjonovning nomzodlik dissertatsiyasida manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida o‘rganilgan.⁸ Olim ushbu tadqiqoti orqali “Muzakkiri ahbob”ni ilmiy muomalaga kiritdi. “Muzakkiri ahbob” I. Bekjonov tomonidan fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi.⁹ Dissertatsiyani yozishda nomlari ko‘rsatilgan va boshqa o‘zbek, tojik hamda jahon adabiyotshunoslarining ilmiy ishlari e’tiborga olindi. Tadqiqotimizda hozirga qadar amalga oshirilgan ishlardan farqli ravishda Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida sulolaviy asosda tahlil qilindi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasining “O‘zbek adabiyotining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Hasanxoja Nisoriy tazkirasida keng tasvir etilgan shayboniy hamda boburiy ijodkorlar she’riyati va shaxsiyatini sulolaviy tarzda tadqiq etishdan iborat.

адабий манба (“Тазкират уш шуаро “ “Нусхаи зебои жаҳонгир” . XVI аср иккинчи ярми – XVII асрн биринчи чораги) Тошкент : Мумтоз сўз , 2009.Жумахўжа Н., Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи XVI -XIX аср биринчи ярми -Тошкент . Ношир, 2019,Б. 5-147.

⁵ Воҳидов.Р “Навоийнинг икки дурдонаси”.Тошкент:Фан,1992. Б. 53 – 110; Воҳидов .Р , “Алишер Навоийнинг ижод мактаби “.-Бухоро:Бухоро.1994.Б.69 – 164.

⁶ Ҳайитов.Ш. Алишер Навоий насрида комил инсон образи (улуғ шоир маноқиблари асосида).Ф.ф.докт.дис – Фарғона,2020.

⁷ Султанов.Т.Алишер Навоий ва Озарбайжон адабиёти: тарихий илдишлар, анъаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида).Ф.ф.ф (PhD)дис.автореф.: - Тошкент,2019.Б.20-23.

⁸Бекчанов.И Ҳасанхожа Нисорийнинг “Музаққир аҳбоб” тазкираси ва XVI аср ўзбек адабиёти.Филол.ф.номз.дисс. – Тошкент:1993.

⁹ Нисорий Ҳ.Музаққир аҳбоб.Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. – Тошкент: Халқ мероси,1993.

Tadqiqotning vazifalari:

“Muzakkiri ahbob” ma’lumotlari asosida boburiy hamda shayboniy ijodkorlar she’riyati va shaxsiyatiga xos xususiyatlarni aniqlash;

shoh va shoir, podshoh va sarkarda, inson va ijodkor sifatidagi fazilatlar uyg’unligini shayboniylar hamda boburiylar timsoli orqali kuzatish;

boburiy va shayboniylarning tasavvufga, xususan, naqshbandiya tariqatiga ixlosi, irfon ahlining irshodi sharofatiga yuksak e’tiqodu ishonchini tahlillar asosida ko’rsatish;

davlat boshqaruvida suxandonlik, she’r va shoirlik, fasohat bilan so’zlashning o’rni hamda ahamiyatiga baho berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasini tanlandi.

Tadqiqotning predmetini yirik olim Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasini sulolaviy asosiga ko’ra talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, sotsiologik, biografik va germeneytik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Hasanxoja Nisoriy tazkirasidan keng o’rin berilgan boburiy va shayboniy ijodkorlar qalamiga mansub nazm namunalari yaxlit tarzda g’oyaviy-badiiy tahlil qilinib, boburiy hamda shayboniylar sulolasiga mansub shoirlarning voqelikka o’z tafakkuri, o’z nuqtayi nazari bilan qarashga qodir ijodkor ekanliklari isbotlangan.

boburiy hamda shayboniy ijodkorlarning poetik tajribalari buyuk mutafakkir Alisher Navoiy va Sharq adabiyotining boshqa iste’dodli vakillari asarlariga uyg’un tatbiq etilib, ularning mavzu, g’oya, mazmun, badiiy obraz poetikasi nuqtayi nazaridan o’ziga xosliklari aniqlangan;

“Muzakkiri ahbob” muallifi hamda shayboniy va boburiylar bilan naqshbandiya tariqati arboblari o’rtasida kechgan insoniy, ijodiy munosabatlar tazkira ma’lumotlari asosida dalillangan.

“Mahbubul-qulub”da “Shayx Shoh Ziyoratgohiy” nomi bilan tanilgan, ammo shaxsi to’la oydinlashmagan shayxning “Muzakkiri ahbob” dagi “Mavlono Kalon Ziyoratgohiy” nomlari bilan zikr qilinganligi, uning XIV asrning oxirgi choragi va XV asrning birinchi yarmida Xuroson poytaxti Hirotda yashaganligi, u haqidagi fikr-mulohazalar qiyosiy-tipologik tahlil orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

sharq adabiyoti tarixida keng o’rin tutgan “shoh va darvesh”, “amaldor va so’fiy” masalasiga boburiy hamda shayboniy ijodkorlarning munosabati oydinlashtirilgan;

ijtimoiy mavqega ko’ra jamiyatning sarvari, yuksak ma’rifiy dunyoqarash egasi sifatlarini uyg’unlashtirgan “suratan shoh va siyratan darvesh” konsepti aniq ilmiy dalillar, tarixiy shaxslarning hayotiy timsoli orqali asoslangan;

“Muzakkiri ahbob” muallifining boburiy hamda shayboniy amaldor-ijodkorlar bilan shaxsiy munosabatlari va bu munosabatlarning ilmiy-ma’rifiy ahamiyati yoritilgan;

mutafakkir olimning sulolaviy talqin asosida yaratgan ilmiy asari uslubining adabiy-estetik asoslari ko’rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi undagi nazariy ma’lumotlarning tarixiy-ilmiy manbalardan olinganligi, foydalanilgan usullar va yuzaga chiqarilgan fikr-qarashlarning qiyosiy-tipologik, sotsiologik, biografik, tarixiy-qiyosiy, germenevtik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu ishda ilk marta shayboniylar va boburiylar qoldirgan badiiy mahsulot yaxlit mazmunli estetik birlik sifatida tahlil qilindi. Bu usul adabiy merosining ko’p yoki kamligidan qat’i nazar har bir iste’dodli ijodkorning adabiyot tarixida tutgan o’rni hamda rolini ilmiy-nazariy jihatdan to’laqonli tasavvur qilish imkonini beradi. She’riyatning xos xususiyatlari, shoir uslubi va uning shakllanish omillari, badiiyat sirlari, an’anaviylik, ijodiylik masalalarini to’g’ri tushunish uchun uslubiy asos yaratadi.

Mumtoz adabiyot tarixiga istiqlol ilmiy tafakkuri nuqtayi nazaridan yangicha nazar solish, ko'p muammolarni qayta baholash va ilmiy asoslarda yechish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini o'rganish va tarixini yaratishda, o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek adabiyotshunosligi tarixi, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik kabi yo'nalishlarda o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar, xrestomatiya, darsliklar tayyorlashda, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurslar o'tishda muhim manba bo'lib xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boburiy va shayboniy ijodkorlar she'riyati hamda shaxsiyatiga xos xususiyatlar, ularning poetik mahorati qirralari bo'yicha erishilgan ilmiy natijalardan:

Hasanxoja Nisoriy tazkirasidan keng o'rin berilgan boburiy va shayboniy ijodkorlar qalamiga mansub nazm namunalari yaxlit tarzda g'oyaviy-badiiy tahlil qilinib, boburiy hamda shayboniylar sulolasiga mansub shoirlarning voqelikka o'z tafakkuri, o'z nuqtayi nazari bilan qarashga qodir ijodkor tahlillaridan OT-F 1– 030 raqamli “O'zbek adabiyoti tarixi” ko'p jildlik monografiyani (7jild) chop etish” (2017-2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 13-apreldagi 01/10-735-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha mumtoz adabiy an'analar tadriji tamoyillariga doir yangi ilmiy- nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan.

boburiy hamda shayboniy ijodkorlarning poetik tajribalari buyuk mutafakkir Alisher Navoiy va Sharq adabiyotining boshqa iste'dodli vakillari asarlariga uyg'un tatbiq etilib, ularning mavzu, g'oya, mazmun, badiiy obraz poetikasi nuqtayi nazaridan o'ziga xosliklariga doir ilmiy xulosalardan “PZ-20170926459 raqamli “Navoiyshunoslik tarixi” (XX – XXI asrlar)” (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 13-apreldagi 01/10-735-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning tazkira janridagi ma'lumotlarni muhim ilmiy-nazariy xulosalarga kelish imkoniyati kengaygan.

“Muzakkiri ahbob” muallifi hamda shayboniy va boburiylar bilan naqshbandiya tariqati arboblari o‘rtasida kechgan insoniy, ijodiy munosabatlar tazkira ma’lumotlari asosida ilmiy-nazariy xulosalardan Buxoro viloyat teleradio kompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Asrlarning asraganlari”, “Najot bilimda” teleko‘rsatuv va radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-apreldagi 3-26-sonli ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning kitobxonlikka qiziqishini oshirishga, ularning o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, xususan, Buxoro adabiy muhiti bilan mukammal tanishishiga erishilgan.

Mahbubul-qulub”da “Shayx Shoh Ziyoratgohiy” nomi bilan tanilgan, ammo shaxsi to‘la oydinlashmagan shayxning “Muzakkiri ahbob” dagi “Mavlono Kalon Ziyoratgohiy” nomlari bilan zikr qilinganligi, uning XIV asrning oxirgi choragi va XV asrning birinchi yarmida Xuroson poytaxti Hirotida yashaganligi, u haqidagi fikr-mulohazalar qiyosiy-tipologik tahlil haqidagi xulosalardan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi huzuridagi “Nilufar” adabiy to‘garagi, shuningdek, viloyat, shahar va tumanlarda faoliyat ko‘rsatayotgan to‘garak mashg‘ulotlarida, mumtoz adabiyot tarixini o‘rganish va targ‘ib etishga bag‘ishlangan tadbirlarda foydalanilgan (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limining 2023-yil 11-apreldagi 19-sonli ma’lumotnomasi). Natijada adabiyotimiz tarixiga oid adabiy manbalar yangicha ilmiy talqinlarda to‘garak a‘zolariga taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta respublika, 3 ta xalqaro konferensiyalarda qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 22 ta ilmiy ish, jumladan, 1 risola, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning hajmi 173 sahifani tashkil etadi.

**I BOB. “MUZAKKIRI AHBOB”DA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
VA BOBURIY IJODKORLAR TALQINI
1.1 Nisoriy Bobur va Humoyun haqida**

Benazir shoir, qomusiy olim, yirik davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zidan ulkan ma’naviy xazina qoldirdi. Jahon tarixida hali hech bir sulola Bobur va boburiylar singari shohlik va shoirlikni mohirona uyg‘unlashtira olgan emas. Bobur Mirzo bilan boshlangan ijod silsilasi uning farzandlari—Humoyun Mirzo, Komron, Askariy, Hindol va Gulbadanbegim; nabiralari—Akbarshohning o‘g‘li Nuriddin Muhammad Jahongirshoh, Shoh Jahon va uning o‘g‘li Abu Zafar Muhyiddin, Muhammad Avrangzeb, Boburning chevarasi bo‘g‘iniga mansub nafis ijodkor Zebunnisobegim faoliyatida davom etdi. Ularning har birida favqulodda iste’dod sohibi Boburga xos fazilatlar yangi qirralar bilan takrorlandi. Bobur va boburiylar tarixi, ma’naviy merosi o‘nlab olimlar tomonidan tadqiq qilingan.¹⁰ Tadqiqotchilar birinchi va asosiy manba sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarlariga tayanadilar. Ammo shuni ham qayd qilish lozimki, Bobur va boburiylarning hayot yo‘li, ilmiy va adabiy merosi xususida mulohaza yuritilar ekan, ularning zamondoshlari yozib qoldirgan asar va xotiralar, adabiy, tarixiy va manoqib asarlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan qaraganda Faxriy Hiraviy “Ravzat us-salotin” (1551-1555) tazkirasining sohibqiron Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan uchinchi bobidagi Bobur podshohga atab bitilgan qismi tahlili munosabati bilan aytilgan taniqli olim Burobiya Rajabovanning quyidagi fikrlari chuqur ilmiy asosga ega: “To‘g‘risi, tadqiqotchilar uchun Bobur va uning o‘g‘illari haqidagi tarixiy, ishonchli ma’lumot “Boburnoma” yoki “Humoyunnoma”dek mukammal manba bo‘lmasligi mumkin. Ammo bu kabi fiqralarda aytilgan xabar, lavha, ayniqsa, baho, munosabat hamda targ‘ibot tadqiqotchilarning Bobur podshoh va boburiylarga bo‘lgan e’tiborini, qiziqishini yanada oshirish bilan birga, ular haqida yangi bir tadqiqotlar qilishiga turtki bo‘lishi, zamin hozirlashi ham mumkin”.¹¹ Mirzo Bobur va farzandlari haqidagi tarixiy va adabiy ma’lumotlar XVI asrning taniqli shoiri, olimi va davlat arbobi

¹⁰ Олимов М. Ўзбек бобуршунослиги тарихидан. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1989, 3-сон. –Б.3-9.
Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

¹¹ Ражабова Б. “Равзат ус-салотин”да Бобур подшоҳ зикри. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2019, 4-сон.–Б.78.

Hasanxoja Nisoriy e'tiboridan ham chetda qolmagan. Olimning 1566-yilda yozib tugallangan "Muzakkiri ahbob" tazkisasi bu jihatdan katta ilmiy qimmatga ega. Asar maqola qismining ikkinchi lavhasi Bobur va uning o'g'illariga bag'ishlangan. Nisoriy Bobur va boburiylarga ayrica ixlos bilan qaraydi, ularning hayoti, fe'l-atvori, fazilatlari haqida samimiy fikrlar aytadi, ijodiga xolisona munosabat bildiradi. Tazkira ikkinchi ruknining birinchi fasli "O'tkinchi jahondan mangulik mulkiga ko'chgan Chig'atoy sultonlari zikrida" deya nomlangan bo'lib, uning Mirzo Boburga bag'ishlangan qismiga qo'yilgan sarlavhada shoh va shoirning shajarasi yorqin aks ettirilgan: **"Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh bin Mirzo Umarshayx bin sulton Abusaid Ko'ragon bin Sulton Muhammad bin Mironshoh mirzo bin Amir Temur Ko'ragonning – tangri go'rini yog'duga to'ldirsin – muqaddas yodi"**.¹² Sarlavha Mirzo Boburning sohibqiron Amir Temurga evara ekanligi xususida aniq va tiniq ma'lumot beradi. Sarlavhaning yana bir ilmiy qimmat shundaki, uzoq yillar davom etib kelgan "buyuk mo'g'ul imperiyasi" atrofidagi bahslarga tarixiy hujjat sifatida aniqlik kiritadi. 1526-yildan 1856-yilga qadar (330 yil davomida) Hind mulkida hukmronlik qilgan sulolaning turkiy xalqqa mansubligi va u haqda mulohaza yuritilar ekan, buyuk mo'g'ul hukmronligi emas, balki boburiylar sulolasi saltanati xususida mulohaza yuritish tarixiy adolat mezonlariga rost kelishini asoslaydi. Sarlavha ostidagi dastlabki jumla Mirzo Boburning botiniy qudrati va jur'ati bilan jahongir Amir Temur sulolasining eng shijoatli vakili ekanligi, Vatan, ajdodlar zamini, kindik qoni tomgan tuproqni, buyuk Temurbek asos solgan davlatni saqlab qolish uchun mardonavor kurash olib borganligi, ammo siyosiy vaziyat bunga yo'l qo'ymaganligi tafsilotlari talqiniga bag'ishlangan: "Chig'atoy sultonlarining eng sarasi va zo'r shijoatlisi edi. Shamsir zarbi bilan Movaronnahr mamlakatlariga ega bo'lib, uni saqlab qolishda ko'p sa'y – harakatlar va jonini ayamasdan jahdu jadallar ko'rsatdi. Mardona to'qnashuvlar qildi, ammo, taqdir o'qiga tadbir qalqoni dosh bera olmagach, biror natija chiqara olmadi". Bayt:

¹² Нисорий Х. Музакири ахбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 51.

On chi sa'y ast, man talabash binamudam,
In qadar hast, ki tag'yiri qazo natavon kard.¹³

Hasanxoja Nisoriyning “taqdir o‘qiga tadbir qalqoni bardosh bera olmasligi” haqidagi istiora san’ati bilan ziynatlangan fikrlari hamda mazkur mulohazalarining tasdig‘i sifatida bitgan “Ne sa’y harakatlar bor bo‘lsa men qildim, ammo taqdir degan narsa ham bor ekanki, yozig‘ni o‘zgartirib bo‘lmas ekan” mazmunida tojik tilida bitgan bayti tazkiranavis ustoz Alisher Navoiyning quyidagi hikmatlarini xotiramizda tiklaydi: “Sa’y bila azal qismatin ortturay degan yog‘in rishtasig‘a gire uray der, vajt bila qalam yozg‘on qazoni qaytaray degan qurug‘ yerda kema suray der”¹⁴. Ma’lumki, “Boburnoma” va boshqa manbalarda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrni zabt eta olmagach, 1503-yilning sentabr oyida Kobul va G‘aznani qo‘lga kiritadi. “Muzakkiri ahbob” muallifi bu haqda yozmaydi. Mirzo Boburning Movarounnahrda muvaffaqiyatsizlikdan so‘ng Hindiston mamlakatini zabt etganligi haqida mulohaza yuritadi. Hindistonning juda azim o‘lka ekanligi, hind xalqining kelib chiqishi, bu yurtning ajoyib-g‘aroyib hayvonot va qushlar olami haqida qiziqarli lavhalarni hikoya qilgach, “Mamlakat podshohi Kobulni ham olmaguncha, u Hind yurtiga loyiq emasligi”, - Hind xalqining aqidalaridan biri ekanligidan o‘quvchini ogoh etadi.

Ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimiz va adabiyotshunosligimizda badiiyat masalasi doimo diqqat markazida bo‘lgan. Ayni ta’kid ilmiy nasrga, jumladan, “Muzakkiri ahbob”ga ham daxldordir. Ilmiy nasrda istiora san’atidan foydalanish Hasanxoja Nisoriy san’atkorligining asosiy qirralaridan biri sifatida nazarga tashlanadi. Mirzo Boburning Movarounnahrda yirik va mustahkam davlat vujudga keltirish uchun intilishlari barbod bo‘lgach, Hindistonni zabt etishi va katta imperiyani vujudga keltirishi “Muzakkiri ahbob”da quyidagicha tasvirlangan: “Mulk qo‘ldan ketgach, tab’ to‘tisi hind shakaristoniga mayl bildirib, dengiz mavjli e’tiborini Hindiston mamlakatlarini egallashga sarf

¹³ O‘sha asar. –B.51-52

¹⁴ Навоий А. МАТ.20-жилдлик,14-жилд. Тошкент: Фан, 1998. –Б.52.

qilib, qorong‘ulik o‘lkasini quyosh yog‘duli qilichi shu’lasi nurlari bilan charag‘on etib, humoyun tole’ tufayli muxolif lashkariga shikast yetkazib, feruz baxt bilan shohlikning feruz taxtiga hazrat Dehlida komron o‘ltirdi”.¹⁵

“Muzakkiri ahbob” tarjimoni Ismoil Bekjon Hasanxoja Nisoriy ifodasidagi lafziy nazokat va jozibani o‘zbek tilida mohirona aks ettira olgan. Ma’lumki, Bobur va boburiylar Hindistonda mahalliy aholining diniy e’tiqodlari, urf-odatlariga erkinlik berdilar, ularga xayrixohlik va chuqur hurmat bilan qaradilar. Barcha sohalarda g‘oyatda ulkan obodonchilik ishlarini amalga oshirdilar. Xalqdan olinadigan ayrim soliqlarni bekor qildilar, ba’zi qabilalarda amal qilib kelinayotgan vafot etgan er bilan tirik xotinini birga kuydirish qoidasini man qildilar. Fikrimizcha, “Muzakkiri ahbob” muallifi “qorong‘ulik o‘lkasini quyosh yog‘duli qilichi shu’lasi nurlari bilan charog‘on etib” ifodasi orqali Bobur va boburiylar tomonidan amalga oshirilgan, yuqorida ayrimlari eslatilgan ezguliklar mohiyatini ixcham va ta’sirchan aks ettira olgan.

Hasanxoja Nisoriy yuqoridagi fikrlariga o‘z ijodidan, “Muallif”dan sarlavhasi ostida bayt keltirish bilan yakun yasaydi:

Humoyunfol Bobur podshoh shohi jahon bo‘ldi.

Ki Hind olib, muxolif askariga komron bo‘ldi.¹⁶

Muallif ijodiga mansub mazkur bayt, birinchidan, Mirzo Bobur Hindiston davri hayotining xulosasi sifatida, ikkinchidan, shoh va shoir hayotidan keltirilgan lavhaning davomi va yakuni sifatida xizmat qiladi. Va tazkirashunosning ilmiy asarda nazmdan foydalanishda o‘z uslubiga ega bo‘lganidan darak beradi.

“Muzakkiri ahbob” muallifi Hindiston tarixida hali kutilmagan buyuk saltanatga asos solgan Mirzo Bobur tabiatidagi insonsevarlik va odamiylik, oliyjanoblik va saxovat, himmat va muruvvat singari umumbashariy xislat-xususiyatlarga alohida e’tiborni tortadi: “Bobur podshoh bir necha muddat o‘sha Hind mamlakatining saltanat taxtida mutamakkin bo‘ldi. Kimki jahonpanoh dargohiga iltijo qilgan bo‘lsa, podshohning in’omidan bahramand bo‘ldi va fazl

¹⁵ O‘sha asar. –B.52.

¹⁶ O‘sha joyda.

dasturxonini ne'matidan quruq qolmadi".¹⁷ Quyidagi bayt esa tazkiranavis fikrini xulosalash, yakunlash vazifasini bajargan:

“Zi abri kaftash shud ravon qatrayi boroni jud,
Sho‘st xatti ehtiyoj az varaqi ro‘zgor”.¹⁸

Baytda istioraning biri-biri bilan mantiqan chambarchas bog‘langan uch shodasi mavjud: “kafti buluti”, “saxovat yomg‘iri tomchilari”, “turmush varaqlari”, “ehtiyoj xatlari”. Ijodkor badiiy tafakkur dahosining mahsuli – tarhi toza istioralar ijtimoiy-axloqiy mazmuni (saxovat), muallif g‘oyaviy niyatining yorqin nazariga tashlanishini ta‘min etgan.

Jahongir Amir Temurdan boshlab barcha temuriyzodalar, jumladan Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzo ham ayri-ayri ixlos va e‘tibor bilan qaragan naqshbandiya tariqati arboblari, xususan, Hoja Ahrori Valiy va shu ulug‘ shayxning avlodlarigacha Bobur Mirzoning e‘tiqodi poydoru ustuvor ekanligiga “Muzakkiri ahhob” muallifi alohida diqqat qiladi: “Podshohning naqshbandiya oliy xonadoniga irodat nisbati bor edi. Yuqori shon-shavkatli bobosi va saltanat nishonli otasining hazrat xoja Ahrorga irodati bo‘lgan Bobur podshoh ham bu ulug‘lar xonadoniga nisbatan izzat-ikromni soatma-soat oshirar va biron daqiqa bu ishni kanda qilib, g‘aflatda qolmas edi. Barcha darvishlarga lutf eshigini ochib, niyozmandlik yumushini bajo keltirardi”.¹⁹

Tazkiradan keltirilgan so‘nggi jumla “Boburnoma” muallifining suyukli o‘g‘li Komronga yo‘llagan quyidagi o‘gitlarini xotiramizga keltiradi: “... Xoja Ubaydullohkim, imdod qilibdurlar, to g‘oyat bu ishlarning davlati ul azizlarning himmatidindur. Ul silsilaning murid va as‘hobi podshohzoda deb senga kelsalar, zinhor akrom va e‘zozlarini mar‘iy tutib, alarning borisida taqsir qilmag‘aysen. Alarkim, ishq bobida bo‘lurlar, sevarlarning itini ham sevarlar”.²⁰ “Muzakkiri ahhob” muallifining Zahiriddin Muhammad Bobur e‘tiqodi haqida “Barcha darvishlarga lutf eshigini ochib, niyozmandlik yumushini bajo keltirardi”, - deya

¹⁷ O‘sha joyda.

¹⁸ O‘sha joyda.

¹⁹ O‘sha asar.B. –53

²⁰ “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”.1990,19 октябр.

g‘oyat xolis va adolatli xulosani dadil aytishi uning betakror ma‘naviy-ruhiy olam sohibi ekanligiga dalolatdir.

Mirzo Boburning naqshbandiya tariqatiga muhabbati va ixlosi, irfon ahlining irshodi sharofatiga yuksak ishonchi “Muzakkiri ahbob”dan keltiriladigan quyidagi iqtibosda yanada yorqin aks etgan: “Hazrat Maxdumiy mullo Xojagiy Kosoniyga – sirlari muqaddas bo‘lsin – bir bo‘lak oltin quymasini niyoz tariqasida yuborib yonida o‘zining ushbu qit‘asini ham shohid qilgandi. Qit‘a:

Dar havoï nafsï gumroh umr zoye kardayem,
Peshi ahlullloh az atvori xud sharmandayem.
Yak nazar afkan ba so‘i mo, ki az rohi vafo,
Xojagayro mondayem, xojagayro bandayem”²¹

Hazrat Mahdumiy Mullo Xojagiy Kosoniy XV asrning oxirgi choragidan XVI asrning ikkinchi yarmiga qadar Farg‘ona vodiysi, Karmana va Buxoroda yashab faoliyat ko‘rsatgan. Temuriylar sulolasining inqirozi, shayboniylar sulolasining vujudga kelishi va dastlabki hukmronligi yillarida yashab ijod qilgan Hazrat Mahdumiy Mavlono Kosoniy shayboniylar sulolasiga mansub Jonibek Sulton va Ubaydullaxonlar saroyida katta nufuzga ega bo‘lgan. “Muzakkiri ahbob”dan keltirilgan iqtibos mazmunidan anglashiladiki, Maxdumi A‘zam nomi bilan shuhrat taratgan bu buyuk mutasavvuf olim va tariqat piriga Mirzo Bobur ham yuksak hurmat ko‘rsatgan. Ixlos ramzi sifatida Maxdumi A‘zam Kosoniy Dahbediyga oltin hadya qilib, unga irfoniy ma‘no bilan yo‘g‘rilgan bir qit‘asini ilova qilgan. Filologiya fanlari doktori Dilorom Salohiy manbalarni sinchiklab o‘rganish natijasida “Muzakkiri ahbob” muallifi garchi asar haqida hech narsa demasa-da, aslida Mirzo Bobur Hazrat Mahdumiy Mavlono Kosoniyga ixlos qo‘ygan piri murshidi sifatida ruhoniy piri Xoja Ahrori Valiyning “Volidiya” asari she‘riy tarjimasini va unga qo‘shib tuhfa tariqasida bir bo‘lak oltin va bir qit‘asini yuborganini qayd qiladi. Olima Hazrat Mahdumiy Mavlono Kosoniyning XVI asr boshlarida yaratilib, 30 ga yaqin so‘fiylik ruhida yozilgan risolalar sharhidan iborat

²¹ O‘sha asar. –B.53

“Majma’ar-rasoil” to‘plami tarkibidagi “Risolayi Boburiya” asariga o‘quvchi diqqatini qaratadi. Va murshidi komil Mahdumi A’zam Kosoniy Dahbediy qalamiga mansub “Risolayi Boburiya”ning Zahiriddin Muhammad Bobur yuborgan hadya munosabati bilan yozilganligini ilmiy asoslaydi. “Risolayi Boburiya” Dilorom Salohiy tomonidan chuqur tahlil qilingan va muhim ilmiy-nazariy xulosalarga kelingan.²² Hasanxoja Nisoriy o‘z ilmiy uslubi talab-tamoyillaridan kelib chiqib, “Risolayi Boburiya” nomini tilga olmasa-da, “Podshoh uchun ham bir kishi risola yozibdi”, - deyish bilan Mahdumi A’zam Kosoniy Dahbediyga ishora qilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki “Muzakkiri ahbob”da o‘nlab shayxu murshidlar, tariqat arboblarning hayot yo‘llari va asarlari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Hasanxoja Nisoriy “Majma’ar-rasoil” mundarijasidan ham xabardor bo‘lgan.

Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Mirzo Bobur shaxsi barcha hamida sifatlar, solih amallar, ma’naviy go‘zalliklar bilan ziynatlangandir: “Bobur podshohning fazilatlari bisyor va kamolotlari beshumordur”.²³ “Kamolotlari beshumor” ifodasi orqali tazkiranavis shoh Boburning komil inson sifatidagi fazilatlari adadsiz ekanligini hamda badiiy va ilmiy jihatdan yetuk asarlar yaratganligi ma’nosini bir yo‘la mohirlik bilan o‘quvchiga yetkaza olgan. Keyingi jumlada tazkiranavis olim, podshoh Boburning “Aruz risolasi”ni tavsiflash, fiqhshunoslikka oid “Mubayyin” risolasini eslatish, turkiy va forsiy she’riyatidan namunalar keltirish bilan o‘z mulohazalarini asoslaydi. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Mirzo Boburning aruz nazariyasiga bag‘ishlangan risolasi – javohiru durlar bilan to‘liq bir dengiz. Musulmonchilik ruknlari sharhiga bag‘ishlangan “Mubayyin” esa muallifning donishmandligidan nishona. “Muzakkiri ahbob” ning mulohaza yuritilayotgan jumalari sa’j san’atida bitilgan. Zaxmatkash mutarjim Ismoil Bekjon ham musajja’ jozibasini tarjimada san’atkorona aks ettira olgan.

Ma’lumki, Mirzo Bobur ikkita devon tuzgan. Bu devonlar ilmda “Kobul devoni” (1519) va “Hind devoni” (1529) deb yuritiladi. “Kobul devoni” hozirgacha

²² Салоҳий Д. Бобурнинг буюк эътиқоди. Самарқанд: Имом Бухоро халқаро маркази, 2019. –Б.96.

²³ O’sha asar. –B.53

topilgan emas. “Hind devoni” esa turli sarlavhalar ostida bir necha marta joriy yozuvimizda chop etildi. Mirzo Bobur she’riyatining asosini g’azal (119 ta) va ruboiylar (231 ta) tashkil etadi. Hassos shoir ikki tilda she’rlar yozgan. Zamonaviy adabiyotshunosligimizda tojik-fors tilidagi satrlari e’tirof etilsa-da, tahlil qilinsa-da, miqdor jihatidan kam bo’lganligi uchun adabiy hodisa ma’nosidagi zullisonaynlik Zahiriddin Muhammad Boburga nisbatan dadil qo’llanilmaydi.²⁴ “Muzakkiri ahbob” muallifi esa “turkiy va forsiyda yaxshi she’rlari bor”, - deya ta’kidlash bilan, fikrimizcha, Mirzo Boburni zullisonayn shoir sifatida e’tirof qiladi. Tazkirada Zahiriddin Muhammad Bobur g’azallaridan uch namuna keltirilgan bo’lib, dastlabki g’azal fors-tojik tilidadir.

Xarobatiyu rindu mayparastam,
Ba olam harchi mego’yand hastam.
To ba zulfi siyahash dil bastam,
Az pareshoniy olam rastam.²⁵

Matni keltirilgan g’azalda Bobur Mirzoning rindlik maslagiga munosabati yorqin aks etgan. Tazkiranavis Mirzo Bobur forsiy she’riyatiga zargarona yondashgan, namuna tanlashda mahorat ko’rsatgan. Matni keltirilgan misralar suratani yirik bir davlatning sultoni bo’lsa-da, ko’ngil amri, tabiati, fe’l-atvori bilan dunyo va uning boyligi, davlatu shuhratiga bog’lanib qolmagan, siyratan faqirlik va fanopeshalikka moyil Bobur Mirzo shaxsini tiniq namoyon qiladi.

Hasanxoja Nisoriy Bobur Mirzoning bir matla’si “g’oyatda dilpazir va ajoyibu benazir chiqqan”ligini alohida ta’kidlaydi:

O’lum uyqusidin bo’ldum jahon fikridin osuda,
Meni istasangiz, ey do’stlar, topqaysiz uyquda.²⁶

²⁴ Валихўжаев Б. Захриддин Муҳаммад Бобур ва адабиёти тожик. // Масъалаҳои филология ва робитаи адабий. – Самарқанд, 1977. Б 5-11. Валихўжаев Б. Захриддин Бобур ва тожик адабиёти. // Адабий мерос. – 1977, 8-сон, –Б.78-90. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 82-90. Исҳоқов Ё. Захриддин Муҳаммад Бобурнинг форс-тожик тилидаги шеърлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1967, 3-сон. –Б. 47-50.

²⁵ O’sha asar. –B.51-53.

²⁶ O’sha asar. –B.54.

Gʻazal tarkibidagi quyidagi baytning esa “koʻp sudmand va vaʼz aytish uchun dilpisand” ligiga oʻquvchisi eʼtiborini tortadi:

Nekim taqdir boʻlsa ul boʻlur, tahqiq bilgaysen,
Erur jangu-jadal, ranju-riyozat barcha behuda.²⁷

Nega “Muzakkiri ahbob” muallifi aynan shu baytga urgʻu bergan va Zahiriddin Muhammad Bobur sheʼriyati haqidagi mulohazalariga shu bayt bilan nuqta qoʻygan. Chunki, fikrimizcha, serqirra isteʼdod sohibi Zahiriddin Muhammad Boburning butun insoniy va ijodiy, shohlik va sarkardalik faoliyatini gʻazal matnidan keltirilgan bayt ixcham nurlantirib turadi. Tavakkul ahli ahloqining mohiyatida ham ayni mohiyat turadi. Tavakkul – hech qanday vositasiz sabablarning sababchisiga, yaʼni Oллоhga itoat qilmoqdir. Zero, azal kotiblari yozgan qismatining qudratli qoʻli oldida har qanday matoh yaroqsiz. Qazo mashʼalasining shuʼlasi qarshisida vosita uchquni soʻniq.

Zahiriddin Muhammad Bobur va Hasanxoja Nisoriy kabi komil insonlar – komil musulmonlar, Haqning ulugʻsifatlarini anglagan, maʼnaviy farogʻat sohiblari ayni mohiyatni teran his qilganlar.

“Muzakkiri ahbob”da mulk va taxt vorisi Humoyun Mirzoning axloqiy fazilatlari, podshoh va sarkarda, inson va ijodkor sifatidagi xususiyatlari talqiniga keng oʻrin berilgan. Tazkiranavis, eng avvalo, uning zotida asl insoniy xislatlar mujassamlanganligi, davlat ishlari bilan qanchalik band boʻlmasin, ilm tahsili uchun vaqt topa olishiga oʻquvchi eʼtiborini tortadi.

Sharqda “soʻz hunari” (Kaykovus) yuksak darajada ulugʻlangan, u insonni hayvondan farqlaydigan vosita sifatida keng talqin qilingan. Davlat boshqaruvida esa suxandonlik, fasohat bilan soʻzlay olish tayanch talab - tamoyillardan biri hisoblangan.

Hasanxoja Nisoriy suxandonlikni Humoyun Mirzo isteʼdodining noyob qirradi sifatida talqin qiladi: “Yulduzlar sonicha sipohli bu podshohning yoqimtoy zotida eng oliy sifatlar mujassam edi. Jahonbonliq ishlarining koʻpligiga qaramay

²⁷ Oʻsha joyda.

ilm tahsili va suxandonlik mashg‘ulotini ham tark etmas, hamda bade’ so‘zlari fasohat va balog‘atda yuqori darajaga ega edi. Shirin nutqida “so‘zning yaxshisi qisqasi va dalillisidir” mazmuniga ko‘ra oz so‘z bilan ko‘p fikrni bayon qilardi, uzundan-uzoq ma’nilarni inshoda ravo ko‘rmasdi”.²⁸

Insho san’ati qadimgi adabiy turlardandir. XI asrdan XIX asrgacha bo‘lgan manbalarda “insho” atamasi faqatgina maktublarnigina ifodalamay, davlat boshqaruvi tizimiga daxldor farmon va yorliqlarni, muayyan yo‘nalishni o‘zida aks ettirgan devonxona hujjatlari va turli xil rasmiy ish qog‘ozlarini ham aks ettirgan. Davlatni idora etishning muhim bir sohasi sifatida unga bag‘ishlab maxsus qo‘llanmalar yaratilgan, pandnomalarda insho san’ati ustozlarining kasb xususiyatlari ustida atroflicha mulohaza yuritilgan. Hazrat Alisher Navoiy zamonasining dovrliq olimi Husayn Voiz Koshifiyning “Mahzanul-insho” asari, ulug‘ Navoiy Samarqandda faqih Fazlulloh Abullaysiy huzurida mutolaa qilgan Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chahor maqola” (1156) pandnomasi shunday qo‘llanmalar sirasiga kiradi. Hukmdor uchun davlatni idora etishning muhim bir talabi – el orasidan zarur xizmatchilarni tanlab bilishda, deb bilgan Nizomiy Aruziy Samarqandiy o‘z pandnomasining dastlabki bobini farmon, manshur, yorliq hamda davlatning turli rasmiy hujjatlarini tayyorlaydigan dabirlik kasbining xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlagan. Shu sohaning taniqli vakillari hayotidan ibratli lavhalar keltirib, kasbning davlat va jamiyat taqdiridagi ijtimoiy mohiyatini ochib bergan, muhim hayotiy xulosalar chiqargan. Xuddi shunday g‘oyaviy-uslubiy jilo noyob axloqiy-huquqiy, ma’rifiy-irfoniy xazina “Qobusnoma”da (1092) ham kuzatiladi. Unsurul Maoliy Kaykovus yozma nutqni mukammal egallamoq, sohib idrok bo‘lmoq, kotiblik sir-asrorlarini anglamoq, ramziy so‘zlarni teran his qilmoq haqida pishiq ko‘rsatmalar beradi.²⁹ Hasanxoja Nisoriy ta’biri bilan aytganda Hazrat Muhammad Humoyun bin Muhammad Bobur kabi fasohatda va balog‘atda yuksak maqomga erishgan insho san’ati namoyandalari hayotidan maroqli lavhalar keltiradi. “Muzakkiri ahbob” muallifi Humoyun

²⁸ O‘sha joyda.

²⁹ Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Истиқлол, 1994. –Б. 133-139.

Mirzoning falakiyot (astronomiya), riyoziyot (matematika), muhandislik (geometriya) ilmiga katta qiziqish bilan qaraganligi, hatto boburiyzodaning bu sohadagi kamolotini ta'riflashga "bayon qalami ojiz" ekanligini alohida qayd qiladi. Tazkirada qalamga olingan shaxs iste'dodining qirralari – fanning hakamiyot, riyoziyot tarmoqlariga oid atama va iboralarni o'rnida va me'yorida bejirim qo'llaydi: "Podshoh adl tab'ining e'tibor nuqtasi ma'dal-un-nahor ostida bo'lgan va taqvimmasir nazari mintaqatul-burujda sayr qilgan. Mustaqim zehning mustaviy sathining sahni chegarasi shu darajaki, aql ko'zining shio' (radius) chizig'i uzunligi undan bir belgi ham bo'lolmaydi va salim tab'ining katta doirasi to'qqiz muhit o'lchovichalik bo'lib, falak kurrasi uning qutridan bir nuqta kabi ham ko'rina olmaydi".³⁰ Keltirilgan iqtibos va undan keyingi jumla tarkibidagi "adl tab'i", "taqvimmasir nazari", "mustaqim zehni", "aql ko'zi", "salim tab'i", "farosat oti", "usturlobosor nazari", "tili qilichi", "ishonch dastasi" kabi istiora va sifatlashlar tasvir asosida turgan shaxs ma'naviy olamini o'quvchi ko'zi oldida yorqin aks ettiradi. Hasanxoja Nisoriy bitiklari g'oyaviy, ilmiy, ma'rifiy ahamiyatga molik bo'lish bilan birga yuksak badiiy qimmat ham kasb etadi. **Teran ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan yuksak fikrlarni go'zal badiiy shaklda aks ettirish "Muzakkiri ahbob" muallifining tasvir uslubiga xos xususiyatdir.**

Tazkiranavis Humoyun Mirzoning jangovor qobiliyati va sarkardalik salohiyati tasvirida ham **ilmiy va badiiy tasvirni mohirona uyg'unlashtirgan:** "Shijoat va kurashda tengi yo'q edi. Jangoh sari yurish bayrog'ini baland ko'targanda, baxt yulduzi muqaddas tepalikda ko'rinish berarkan, dushmanning davlat quyoshini botqizmaguncha, qaytish yo'lga qadam bosmasdi. Sharif otasi vafotidan so'ng Hindning ko'p shaharlarini qon oqizuvchi o'tkir qilichi bilan egallab oldi".³¹ Hasanxoja Nisoriy ilmiy uslubining o'ziga xosligi shundaki, istiora, sifatlash kabi badiiy-tasviriy ifodalar unda ilmiy tafakkur o'zanlariga uyg'un ravishda fikr bayoniga mantiqiy muntazamlilik bag'ishlaydi. Ilmiy tahlil

³⁰ O'sha asar. –B.54-55.

³¹ O'sha asar. –B.55.

tiniqligi, dalillash tadriji va ilmiy matnning ta'sir quvvatini ta'minlaydi. O'quvchiga ilmiy ma'lumotlarni tez va oson idrok etish imkoniyatini beradi.

“Muzakkiri ahbob”dagi har bir so‘z, har bir ifodadan asar muallifining Mirzo Bobur va uning farzandlariga ixlosu e’tiqodi o‘zidan xabar berib turadi. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Humoyun podshohning qadami yetgan har bir qarich yer tabarruk, uning jangdagi g‘alabasidan nishon berib turgan balandlik ham oddiy joy emas, balki “muqaddas tepalik”dir. Saxovati qarshisida esa Hotami Toyning saxiyligi nursizlanib qoladi. Humoyun Mirzoning shijoati va jang maydonidagi jasorati talqiniga bag‘ishlangan fikrlarni umumlashtiruvchi va yakunlovchi qit’ada talmeh va mubolag‘a san’atlari yuksak badiiy shaklda uyg‘unlashgan. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Humoyun Mirzoning o‘tkir qilichi – bahodirlik va pahlavonlik ramzi. U Rustam haqida bitilgan yuzlab dostonlarning yuziga batlon raqamini chekdi. Hotam ismini o‘z saxovatli yozuvi ostiga yashirgan bu zafarpanoh Hotami Toy qissasini to‘la o‘qib uqdi:

“Tig‘i tu girifta arsayi olamro,
Barham zada dostoni sad Rustamro.
Ey shohi jahonpanoh dasti karamat.
Tay karda tamomi qissayi Hotamro”³²

Humoyun Mirzoga bag‘ishlangan fiqrada sharq mumtoz adabiyoti tarixida keng o‘rin tutgan **shoh va darvesh munosabatini** ham tazkiranavis e’tibordan soqit qilmagan. “Bobur Mirzo hayoti tavsilotlari va ilmiy-badiiy ijodiga murojaat etadigan bo‘lsak, bevosita “shoh va shoir” kabi “shoh va darvesh” ta’rifi ham bir tarixiy shaxs timsolida namoyon bo‘lganligini ko‘ramiz”.³³ Naqshbandiya peshvosi Mahdumi A’zam Kosoniy Dahbediy tomonidan “darveshlar muxlisi va e’tiqodmandi, ularning mahbubul qulubi”³⁴ deb ulug‘langan Zahiriddin Muhammad Boburning to‘ng‘ich farzandi Humoyun Mirzo ham naqshbandiya tariqatiga yuksak ixlos bilan qaragan. Siyratan irfonga tashna bo‘lib, hamisha

³² O‘sha joyda.

³³ Салохий Д. Бобурнинг буюк эътиқоди. Самарқанд: Имом Бухоро халқаро маркази, 2019. –Б. 10.

³⁴ Махдуми Аъзам Дахбедий. Рисолаи Бобурия. Таржимон, сўзбоши ва тадқиқот муаллифи Комилжон Каттаев. – Самарқанд, 2015. –Б. 29.

darveshlarga ehtiyoj sezgan: “Oliy mansabligiga qaramay niyoz boshini darveshlar tomon o‘g‘irgan edi va o‘zini ular vujudidan ehtiyojsiz sezmasdi. Va hazrat xojayi buzrgvor Bahouddin Naqshbandning ulug‘ xonadoniga mehr hamda xoja Ahrorning majid avlodiga bo‘lgan muhabbat urug‘ini pursokin sinasi mazra‘sig‘a qadagan edi”.³⁵ Tazkiradan keltirilgan iqtibosda ilmiy va badiiy uslub, tanosub va istiora san‘atlari nozik uyg‘unlashib, Hazrat Bahouddin Naqshband, Xoja Nosuriddin Ubaydulloh Ahrori Valiy va u kishining avlodlariga bo‘lgan Humoyun Mirzoning ixlosu e‘tiqodi haqida o‘quvchida yorqin tasavvur hosil qiladi. Boburiy zodaning tariqatga munosabati, tariqat pirlariga mehru muhabbati talqiniga bag‘ishlangan nasriy bitiklarga xulosa, qissadan hissa tariqasida bitilgan, “Muallif”dan sarlavhasi ostida keltirilgan baytda ham tanosub va istiora san‘ati qonuniyatlari amal qiladi:

“Zi mazrayi dili man donayi muhabbat juy,
Ki habbi hubbi tu dar har gile nameboshad”.³⁶

Badiiy matndagi “dala”, “urug‘”, “tuproq” so‘zlari tanosub san‘atini hosil qilsa, “dilim dalasi”, “muhabbat urug‘i” birikmalari istiora san‘atining unsurlaridir.

Nisoriy talqinicha, Humoyun Mirzo sofdil va nekbin inson bo‘lganligi uchun uning latif tab‘i “ajib xayolot”lar tuhfa qilgan: “ Va shu jumladan biri shukim, yer kurrasini unsurlar va falaklar bilan to‘la chizib, tegishli ranglar bilan bo‘yab, har falakda uning jismlarini joylagan”.³⁷ “Muzakkiri ahbob”ning bu va bundan keyingi jumllarida Humoyun Mirzo nujum, riyoziyot, handasa ilmining nozik did bilimdoni, turli soha va saviyadagi odamlar ko‘nglidagi dardu armonlarni anglay olguvchi, yeru osmondagi ezguliklarni uyg‘unlashtirishga qodir qalb me‘mori sifatida talqin qilinadi. Nisoriy talqinicha, bugungi atamalar bilan aytganda, Humoyun Mirzo – yetuk yulduzshunos, astronom, matematik, muhandis. U sayyoralarning hol va harakatlarini, yulduzlarga oid hukm va qonunlarni, oy va oyni burjlarini, ularning darajalarini, quyosh doirasi va unga oid nuqtalarni,

³⁵ O‘sha asar. –B.56.

³⁶ O‘sha joyda.

³⁷ O‘sha joyda.

quyosh darajasining yuksalishi va pasayishini g'oyatda yaxshi bilgan. Va yerda odamlar aro munosabatlarni sayyoralarning hol va harakatlariga, darajalariga, oy va oyning burjlariga, quyosh va oy doirasiga muvofiq har xil maqom va turfa xil rangi jiloda tuza olgan: "Humoyun podshoh sayyoralari podshohining taxtgohi bo'lgan to'rtinchi doirani o'zining shavkatli qo'nish joyiga aylantirib, Jamshidlik o'rindig'ida o'ltirib, barcha sher yuraklar qurshovida Asad burjidan Quyoshdek porlab ko'ringan. Bahrom maqomi bo'lmish beshinchi doirada qurollangan muborizlar qon oqizuvchi nayzalarini xuddi Aqrab (chayon) nishlaridek dushman qonini to'kishga qayrab, ularni yaqinlashtirmaslik uchun shay turganlar".³⁸ "Muzakkiri ahbob" sahifalaridan nazarga tashlanadiki, Hasanxoja Nisoriy serqirra iste'dod sohibi bo'lgan. Agar muallifning o'zi falakiyot, riyoziyot va handasa ilmlaridan puxta xabardor bo'lmaganida, Humoyun Mirzoning eslatilgan sohalardagi faoliyati haqida bu darajada aniq va yorqin ma'lumot bera olmas edi. Hasanxoja Nisoriy musiqa ilmining nozik qirralarini ham teran anglagan. She'rshunoslik, yulduzshunoslik, musiqashunoslik ilmini o'z shaxsida uyg'unlashtirgan olimgina Humoyun podshoh haqida quyidagicha fikrlashi va yozishi mumkin: "Aqlu zako egalari va yorug' ko'ngilli dono dabirlar esa Utorid makoni bo'lgan ikkinchi doirada Javzo kabi xizmat mintaqasi (kamari)ni beliga bog'lab, nazar o'qini mulozimat nishoniga to'g'irlab o'ltirganlar. Zahrobadanli Zuhra makoni bo'lmish uchinchi doirada bazm ahli o'tirishga jazmu azm aylab, maishat changini ishrat Qonuniga urib, jonga quvvat beruvchi nag'malar va ruhga ozuqa beruvchi tovushlar bilan ushshoq ko'ngliga navo yetkazib majlis mezonini mu'tadil qilganlar".³⁹ Humoyun Mirzoning munajjimlik va muhandislik salohiyatiga alohida e'tiborni tortgan Hasanxoja Nisoriy bir yo'la o'sha jumalalarda uning yaxshiyu yomon ko'nglini topa olishi, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning jamiyatdagi o'rni va darajasini aniq belgilay olishi va ular bilan o'rni va mahallida muloqot qilib, ma'rifiy majlislar o'tkazishiga ham urg'u beradi. Tazkiranavis talqinlaridan kelib chiqqan holda Humoyun podshoh ma'rifat

³⁸ O'sha joyda.

³⁹ O'sha joyda.

davrasiga chorlab, suhbatga tortgan ijtimoiy toifalarni shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Oyga mansub kishilar;
2. Aqlu zako egalari, yorug‘ ko‘ngulli ijodkorlar;
3. Mutrib va mug‘anniylar;
4. Sarkardalar, qo‘shin sardorlari;
5. Vatan himoyachilari, yurt sarhadlarini qo‘riqlovchilar;
6. Solih va obid kishilar;
7. Mulozimlar (davlat xizmatidagi kishilar), dabirlar va shirin so‘z pirlar.

Yuqorida tasnif qilingan yetti toifa kishilar quyidagi yetti doira va makonda manzil tutadilar:

1. Oy doirasida;
2. Utorud makonida;
3. Zuhra makonida;
4. Asad burjida;
5. Bahrom maqomida;
6. Mushtariy maslahatgohida;
7. Zuhal mahalgohida.

Tazkiranavis ustozlari Hazrat Alisher Navoiy kabi Hasanxoja Nisoriy nazd-nazarida ham kim qanday o‘rinda va qaysi sohada faoliyat ko‘rsatmasin, u yurtga va xalqqa foyda yetkazishi, Vatan va elga xizmat qilishi zarur. Jumladan, munajjimlar tomonidan “Sa‘di akbar”, “Falak qozisi” deya ta‘riflangan, makoni oltinchi falakda bo‘lgan “Mushtariy maslahatgohi”da (Yupiter planetasida) maqom tutgan zohid va obid kishilar Humoyun podshoh qalamravida yashayotgan xalqqa duo bilan katta naf‘ yetkazadilar, yurtni balo-qazolardan asraydilar: “Va Mushtariy maslahatgohi bo‘lgan oltinchi doiraga solih va obid kishilar mushtariy bo‘lib, iqomat bilan kamon kabi chilla o‘ltirib, duoyi xayr o‘qlarini aniq nishonga otganlar”.⁴⁰ Bahromi falakda (Mars sayyorasida) joylashgan qurollangan vatan

⁴⁰ O‘sha asar. –B.56-57.

himoyachilari kunu tun sergak turib, dushmanni yurt sarhadlariga yaqinlashtirmaydilar: “Bahrom maqomi bo‘lmish beshinchi doirada qurollangan muborizlar qon oqizuvchi nayzalarini xuddi Aqrab (chayon) nishlaridek dushman qonini to‘kishga qayrab, ularni yaqinlashtirmaslik uchun shay turganlar”.⁴¹ Tazkiranavis yuqoridagi tasnifu talqinlardan keyin Humoyun Mirzo sarvarligida o‘tgan o‘sha adabiy yig‘inlardan kichik bir lavha keltiradi. Unda hikoya qilinishicha, Humoyun podshoh ahli dil do‘stlar bilan dilkash suhbat quradi. Nafosat davrasi ahlining libosi, kiyimlari boshdan oyoq rasm qilinganidek yulduzlar, osmon jismlari, sayyoralar rangiga uyg‘un yashil tusda edi. Ittifoqo, majlis ahlidan biri shu kungi yashil bazmga o‘zga rangli kiyimda keladi. “Muzakkiri ahbob” dan o‘qiymiz: “Podshoh: - Nega bugun rasmga binoan o‘zingni yashil – ko‘kka o‘rab kelmading? – deb so‘rabdilar. Haligi odam: - Podshoh majlisining o‘zi meni yashillatib (yashnatib) – ko‘kartadi, deb kelaverdim, - deya javob bergan ekan. Bu so‘z podshohga xush yoqib, chindan ham uni ko‘kartib – yashnatib, xurram, qilibdilar”.⁴² Ijod ahli ko‘nglidagi ma‘rifatning fayzu barokotini his qilmay turib, uning shirin va hazilomuz lutfidan zavq olib bo‘lmaydi. Yirik shoir va mutafakkir, buyuk e‘tiqod sohibi Zahiriddin Muhammad Boburning farzandi arjumandi Humoyun Mirzo odamlar qalbidagi pokiza tuyg‘ularni teran mushohada eta olgan.

Hasanxoja Nisoriyning otasi Ibodulloh Sayyid Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja 1533-1543-yillarda Balxda o‘n yil davomida shayx ul islom mansabida faoliyat ko‘rsatgan. Riyoziyot, falakiyot, astronomiya fanlarini mukammal o‘rgangan Hasanxoja Nisoriy ham shu shaharda yashab, Kamoliddin Qo‘noq madrasasida handasa fanidan dars bergan.⁴³ Nisoriy yuqorida nomlari eslatilgan fanlarning sirlarini o‘zi kabi yaxshi o‘zlashtirgan Humoyun Mirzo shaxsiga katta qiziqish bilan qaragan va Hindistonga borib u bilan uchrashish orzusida bo‘lgan. Hindiston podshosi bilan yuzma-yuz uchrashib, uning suhbatini

⁴¹ O‘sha asar. –B.56.

⁴² O‘sha asar. –B.57.

⁴³ O‘sha asar. –B.4.

olgach, yuqorida yozganlarini yana ham mukammallashtirib, tahrir qilib yer va samoviy mavjudotlar holat va harakatlarini uyg'unlashtirgan tarzda Humoyun Mirzo o'tkazgan g'aroyib anjumanlarning maqsadi va mohiyatini hayotiy, yana-da tabiiy yoritmoqchi bo'lgan. Ammo Humoyun Mirzoning tasodifiy vafoti tufayli tazkiranavisning bu maqsadi amalga oshmay qolgan: "Bu faqirning xotirida edikim, chun mulozamat izzati nasib etsa, har bir manzilasi kurraning yarmi bo'lgan ikki gunbazda shakllar, doiralar, kenglik, uzunliklar hamda fazo, dengiz, o'lkalardan iborat yer va osmon xususiyatlarining barchasini hakim (astronom)lar tayin qilgan tarzda bayon qilmoqchi edim, ammo vaqt vafodorlik qilmadi. Misra': - Ey baso orzu ki xok shuda – Ey tuproqqa ko'milgan qanchadan-qancha orzular".⁴⁴ Hasanxoja Nisoriy Humoyun podshohning she'riyatga ma'nau yaqinligini va shu bois ruh halovati uchun nazm ahlini o'z oliy majlisiga chorlab turishini alohida ta'kidlaydi. Hindiston shohining latif tab'idan namuna sifatida ikki forsiy va bir turkiy g'azal matla'ini keltiradi. Sharq she'riyatida hijron alamidan, g'amning kuchliligidan qonga aylangan oshiq dili g'unchaga tashbih qilinadi. Humoyun Mirzoning forsiy she'riyatidan namuna sifatida keltirilgan dastlabki g'azal matla'ida shoir g'unchaga emas, g'uncha qatlariga o'quvchi e'tiborini qaratib, dili g'uncha kabi qat-qat qon bog'laganini, birinchi qati yetmaganday ikkinchi qati ham qonga to'lganini ta'kidlar ekan, obrazli fikrni kuchaytirib ifodalashga erishadi:

"Az g'ussa g'uncha sifat tah ba tah dilam xun ast,
Ki bovujudi yake nisbati duyve chun ast".⁴⁵

O'ziga xos uslubiy jilo Humoyun Mirzoning forsiy she'riyatidan namuna tarzida keltirilgan ikkinchi g'azal matla'ida ham nazarga tashlanadi:

"Hargiz nakunam yodi tu to zor nagiryam,
Kam yod kunam az tu ki bisyor nagiryam".⁴⁶

Mumtoz she'riyatda yorga sodiq oshiqning qonli ko'z yoshlar to'kishi uning hijrondagi iztiroblari, ayriliq azoblarini ifodalaydi. Humoyun Mirzo g'azalida

⁴⁴ O'sha asar. –B.57.

⁴⁵ O'sha joyda.

⁴⁶ O'sha joyda.

talqin qilingan oshiq esa zor-zor yig‘lamaguncha ma’shuqani eslay olmaydi, ko‘p fig‘on chekmaslik, yig‘lamaslik uchun ham ma’shuqani imkon qadar kamroq yodiga keltirishga harakat qiladi.

Humoyun Mirzo ijodidan keltirilgan turkiy matla’ ham o‘ziga xos poetik fikr, tasvir tarzi, his-tuyg‘ular mutanosibligiga ega:

“Men ki bulbuldek guledin kuymisham ohang ila,
O‘t solibtur jonima ruxsoraye gulrang ila”.⁴⁷

Mumtoz she‘riyatda oshiqning ma’shuqa hajrida kuyib yonishi bulbulning gul shavqida o‘rtanishiga muqoyasa qilinadi. Humoyun Mirzoning turkiy she‘riyatidan misol tariqasida keltirilgan matla’ning dastlabki misrasi shaklan o‘ziga xos bo‘lganligi uchun yuqorida eslatilgan an’anaviy tushunchani o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq, jozibaliroq gavalantirishga xizmat qiladi. Baytning ikkinchi misrasidagi “ruxsoraye gulrang” ifodasi g‘azal mat’aiga o‘ziga xos toza ruh bag‘ishlaydi, ma’shuqa latofatini yana ham tiniqroq gavalantiradi. Misra matnidan ma’shuqa go‘zallikda gulga monand yuz, rang sohibasi bo‘lganligi uchun oshiq jismini yoqdi, natijada joni o‘rtangan oshiq gul hajrida kuylagan bulbuldek bu ohangni (baytni, g‘azalni) tuzdi, degan ma’no ham kelib chiqadi.

Humoyun Mirzoning vafoti sanasi va sababi “Muzakkiri ahbob”da aniq berilgan: “962 yili rabbi’ul- avval oyining juma kunisi (1556-yil 24-yanvar) Dehli shahrida zinadan tushayotgan asnoda azon tovushiga quloq solish uchun to‘xtagan va shunda hassasi uchi sirpanib, yiqilib tushgan”.⁴⁸

Hasanxoja Nisoriy sharq she‘riyatidagi tarixiy voqealar sanasini abjad hisobi bilan ifodalovchi kichik she‘riy janr – tarix yozish an’anasini yaxshi egallagan. Tarix san’ati va janrida nodir badiiy asarlar yaratgan. U Humoyun Mirzoning vafoti voqeasi, sanasi va tafsilotlarini tarix she’rda quyidagicha ixcham aks ettirgan:

“Humoyun podshoh o‘ftod az bom,
Bataqribi azoni shom o‘ftod.
Chu pursidand ta’rixash biguftam,

⁴⁷ O’sha joyda.

⁴⁸ O’sha joyda.

“Humoyun podshoh az bom o‘ftod”.⁴⁹

Hindiston shohining vafoti sanasi kichik she’rning so‘nggi misrasida aks etgan bo‘lib, “Humoyun podshoh az bom o‘ftod” satridagi harflarning sonli ifodasini jamlasak, 963 raqami hosil bo‘ladi. Misra tarkibidagi so‘zlar harflarning son ko‘rsatkichlari qo‘shilganda nazarda tutilgan raqam kelib chiqqanidek, tarix she’r yakunlovchi satrining ma’no jihatidan ham asar mazmuniga to‘la mos kelishi Hasanxoja Nisoriyning mohir tarixnavis ekanligini ko‘rsatadi.

XVI asrning shoirlaridan Husayn Sadr Humoyun motamiga bag‘ishlab tojik-fors tilida marsiya yozgan. “Muzakkiri ahbob”da marsiyadan bir bayt keltirilgan. Baytning mazmuni quyidagicha: “Falakdan xursand bo‘ladigan hollarning orasida, to‘satdan bir holat yuzaga keldiki, uni aytishdan tillar lol bo‘lib qoldi” (Ismoil Bekjon tarjimasi).

Hasanxoja Nisoriy Humoyun Mirzoning qabri Hindiston poytaxti Dehlida ekanligi va “anjumsipoh podshoh” – Abulmuzaffar Jamoliddin Muhammad Akbar qabr atrofida muhtasham imorat barpo qilganligini aytadi.

“Muzakkiri ahbob” muallifining qayd qilishicha, oliy imorat Muhammad Mirak tomonidan bunyod qilingan bo‘lib, u Anushirvon dahmasini eslatib turar ekan.

Hasanxoja Nisoriyning Humoyun Mirzo qabri atrofidagi imoratni “Hozir bu yer Anushirvon dahmasini esga solib turibdi”, - deb yozishi ham olimning Humoyun podshoh va barcha boburiylarga bo‘lgan yuksak ehtiromining ifodasidir. Xulosa shuki, Hasanxoja Nisoriy serqirra iste’dod sohibi Zahiriddin Muhammad Boburning insoniy va ijodiy, shohlik va sarkardalik faoliyatini o‘z tazkirasida teran yoritgan.

“Muzakkiri ahbob”da mulk va taxt vorisi Humoyun Mirzoning axloqiy fazilatleri, podshoh va sarkarda, inson va ijodkor sifatidagi xususiyatlari talqiniga keng o‘rin berilgan.

⁴⁹ O‘sha asar. –B.58.

Hasanxoja Nisoriy suxandonlikni Humoyun Mirzo iste'dodining noyob qirrasini sifatida talqin qiladi.

1.2 Muallif adabiy-estetik qarashlarining Komron Mirzo she'riyatidagi ifodasi

Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahhob” tazkirasining Komron Mirzoga bag'ishlangan maqolasi quyidagi bayt bilan boshlangan:

Muhammadast uro nom chun rasululloh,
Che nek nom shahe lo iloha illalloh .⁵⁰

Alisher Navoiy “Hayratul-abror” dostonining oltinchi maqolatida (XXXII bob) ota-onaning farzand tarbiyasidagi dastlabki burchi, eng avvalo, o'z zurriyotiga yaxshi nom qo'yimoqlik ekanligini takidlaydilar:

Ulcha erur tiflg'a shoyista ish,
Bilki kichiklikda erur parvarish.

Qatrag'a chun tarbiyat etti sadaf,
El boshig'a chiqqucha topti sharaf.

Birisi qo'yimoqlik erur yaxshi ot,
Kim desalar yetmagay andin uyot. ⁵¹

“Muzakkiri ahhob” muallifi talqinicha, podshohning ismi Sarvari koinot, Rasuli Akramning (s.a.v.) muborak nomlari kabi Muhammaddir, u qanday yaxshi nomli shohdir. Bayt Allohning borligi va birligiga dalolat qiluvchi “lo iloha illalloh” bilan xotima topgan. “Illalloh” ilohiy kalimasi baytning birinchi misrasidagi “rasululloh” so'zi bilan qofiya hosil qilib, she'rning ta'sirchanligini, jozibadorligini ta'min etgan. Tazkiranavis mazkur ilohiy so'zlar vositasida o'z falsafiy mushohadasini jozibali va ta'sirchan aks ettiradi va iymonning asosi – kalimayi tayyibaga o'quvchi e'tiborini tortadi.

Hasanxoja Nisoriyning naqshbandiya silsilasining sadoqatli muridi va as'hobi ekanligi “Muzakkiri ahhob”ning har bir satridan yorqin nazarga tashlanib turadi. Tahlil qilinayotgan baytni ham Hazrat Bahouddin Naqshbandning “lo iloha” o'zga

⁵⁰ O'sha asar –B. 60.

⁵¹ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 7-жилд. –Тошкент: Фан, 1991. –Б.158.

ma'budning inkori, "illalloh" Alloh borligining isboti aqidasi ichdan nurlantirib turadi.

"Muhammad Komron podshoh bin Bobur podshohning muqaddas yodi" sarlavhasi ostidagi satrlarning alifbosidan kelib chiqadigan qat'iy xulosa shuki, Muhammad ismi Komron Mirzoga kuchli ma'naviy – ruhiy madad berdi, uning vujudiga teran jismoniy, fikriy va hissiy quvvat ato etdi. Shuning uchun ham u: "Chin shariatning mustahkam iplarini yanada quvvatliroq qilish va o'tgan payg'ambarlarning saidi – Olloh rasuli Muhammad alayhissalomning hukmlarini tartib-batartib bajo keltirish yo'lida ko'p say'-harakatlar qilardi".⁵² Hasanxoja Nisoriy Komron Mirzoni nozik siyosat yurgizishga qodir, odil va xalqparvar, hushyor va sinchkov amaldor sifatida talqin qiladi: "Mazlumlarning arz-dodini, kerak-gadikini o'zi so'rardi va ularning devon mahkamasi oldida sarg'ayib turishlariga yo'l qo'ymas edi".⁵³ Tazkirada qalamga olingan Muhammad Komron ish faoliyatidagi ayni fazilat 1091-yilda yaratilgan Abu Ali al-Hasan ibn Ali Is'hoq at-Tusiy Nizomulmulk "Siyarul-muluk" asarining "Podshoning mazlumlarni qabul qilishi, odil va yaxshi xulqli bo'lishi haqida"gi uchinchi faslida bitilgan quyidagi so'zlarni xotiramizga keltiradi: "Agarda podshoh bir joyga o'tirib qolsa, u yerda dahliz, eshik va parda paydo bo'ladi. G'arazli kishilar va sitamgarlar shundan foydalanib, zulm chekayotkanlarni podsho oldiga qo'ymaydilar".⁵⁴ "Muzakkiri ahbob"dan yuqorida ko'chirilgan jumladan keyin berilgan ikki baytlik masnaviy muallifning Komron Mirzo haqida aytgan mulohazalarini sharhlashga, quvvatlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'sha ixcham satrlar XI asrda faoliyat ko'rsatgan yirik davlat arbobi Nizomulmulkning No'shiravon tilidan aytgan: "Nega endi saroyimiz eshigi sitam qiluvchilar uchun ochig'u sitam ko'rganlarga yopiq...Chunki zulm ko'rgan biror mutazallim saroyimizga kelsa, uni mening oldimga kirib, holini aytishga qo'ymaydilar", - hayotiy mulohazalari bilan g'oyatda uyg'undir:

⁵² O'sha asar. –B. 60.

⁵³ O'sha joyda.

⁵⁴ Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. – Тошкент: Адолат, 1997. –Б. 21.

Ba xud purs faryodi mazlumro,
Judo soz az ankabin mumro.

Ba devon maandoz faryodi u,
Ki shoyad zi devon buvad dodi u.

Mazmuni: Zulm yetganlar dodini o‘zing so‘ra, asaldan mumini ajrat – ajrim qil. Ularning ishini devon mahkamasiga tashlab qo‘yma, balki unga ozor yetkazgan joy o‘sha devon idorasining o‘zidir.⁵⁵ Shayboniylarning Abdulazizxon, Rustam sulton, Abdulquddus sulton kabi davlat arboblari saroyida sadrlik lavozimida faoliyat ko‘rsatgan Hasanxoja Nisoriy davlat va uning boshqarilishi bilan aloqador ishlar hamda saroy va saroy a‘yonlariga bog‘liq ko‘pgina sir-sinoatlardan yetarlicha xabardor bo‘lgan. Matni keltirilgan masnaviy muallif hayotdan olgan saboqlarning ixcham badiiy ifodasidir.

Hazrat Alisher Navoiy asarlarida saxovatli inson hosildor daraxtga, mavj urib turgan dengizga, qimmatbaho gavharga, mushki anbarga, balandparvoz lochinga, yuksak chinorga, xirmon-xirmon donga, xazina beruvchi bulutga tashbih qilinadi.⁵⁶ Mumtoz ijodkorlarimiz asarlarida adolat va saxovatning mamlakat taqdiridagi ulkan ahamiyatini targ‘ib etish yetakchi o‘rin tutadi. Komil jamiyatni barpo etishning bu ikki tayanch ustuni Hasanxoja Nisoriyning ham doimo e‘tiborida turgan. Butun tazkira davomida xalqqa sarvarlik qilgan yoki shunday mas‘uliyatli vazifaga da‘vogar badiiy ijodga aloqador shaxs haqida mulohaza yuritilar ekan, uning komillikka xos ikki muhim fazilati – adolat va saxovat – e‘tibordan soqit qilinmagan. Komron Mirzoning mazlumlarning arz-dodini o‘zi tinglashi va asaldan mumni ajratgan kabi haqiqatni o‘zi aniqlashi, jaf chekkanlarning ishini devon mahkamasida faoliyat yurituvchi a‘yonlarga tashlab qo‘ymasligini alohida ta‘kidlash bilan uning odilligiga urg‘u bergan “Muzakkiri ahbob” muallifi navbatdagi ixcham jumlada Muhammad Komron podshoh bin Bobur podshohning komillikka xos ikkinchi tayanch fazilatiga e‘tiborni tortadi:

⁵⁵ O‘sha asar B. –60.

⁵⁶ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998. –Б.79-80.

“Saxovatda vasfi cheksiz va shijoat bobida tengsiz edi”.⁵⁷ “Muzakkiri ahbob” tarjimoni Ismoil Bekjon tazkiranavis fikrlarining badiiy latofatini bejirim saqlagan. Tasvirning noyoblighi mutarjim mahorati tufayli o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi. “Saxovat” va “shijoat” kalimalarining ham harfi raviyda, ham vaznda mosligi saj‘i mutavoziyni (to‘liq saj‘), “cheksiz” va “tengsiz” so‘zlarining hamvaznliligi esa saj‘i mutavozinni (vazndosh saj‘) yuzaga chiqargan. Natijada fikrning salmog‘i kengayib, ta’sir kuchi yanada ortgan. Tahlil qilinayotgan jumla mukammalligini ta’minlashda faol ishtirok etgan “shijoat” so‘zi orqali muallif Komron Mirzo shaxsidagi uchinchi fazilatga – shiddat va kurashchanlikka, qat’iyatga e’tiborni tortgan. Uning “shijoat bobida tengsiz”ligi Qandahordagi jangi va shu jang sanasining abjad hisobidagi badiiy ifodasi bilan dalillangan. Jang g‘alabasining sanasini ifodalovchi so‘zning ma’no jihatdan tarixiy voqelikka uyg‘unligi ham Hasanxoja Nisoriy nazaridan soqit qolmagan: “Qandoharda katta jang qildi va turkman (safaviylar) lashkaridan ko‘pini o‘ldirdi. Ta’rixi ham “Bizad Komron podshoh Somro” – (939). Mazmuni Komron podshoh Som (eronlik) ni yanchdi.⁵⁸

Hazrat Alisher Navoiy adabiy merosida irshod talqiniga bag‘ishlangan shunday ruboiy mavjud:

Kimniki bu yo‘l qat‘ig‘a soldi taqdir,
Pir amrini qilmasa, kerakdur tag‘yir.
Onsiz qadam ursa, angla makru tazvir,
Mal’un desa behroqki, degaylar bepir.⁵⁹

“Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” kitobidan o‘qiymiz: “Bilgilkim, irodat (ixlos bilan tariqat yo‘liga kirish) ulug‘ davlatdir va agar u murid qalbiga nish ursa, barcha saodatlarning urug‘i shudir... Shubhasiz, kimnikim irodati yo‘qdir, uning saodati ham bo‘lmas”.⁶⁰

⁵⁷ O‘sha asar –B. 60.

⁵⁸ O‘sha joyda.

⁵⁹ Навоий А. Махбуб ул-кулуб. БСМ хазинасидан 27780 рақамли қўлёзма. V. 70.

⁶⁰ Кошифий, Хусайн Воиз. Футувватномаи султоний. Ахлоқи Муҳсинӣ. Рисолаи Ҳотамия. – Душанбе: Адиб, 1991. – Б.25.

Qaysi janrda yozilishidan qat'i nazar shaxs kamolotining ayni eng muhim qirrasini aksariyat Sharq allomalarining asarlarida chetlab o'tilmagan. "Muzakkiri ahbob"dan o'qiydiz: "Irodati nisbati (Komron Mirzoning - M.M.) Hazrat shayxi mutlaq xoja Abdulhaq bin hazrat xoja Ko bin hazrat xoja Nosiriddin Ubaydulloga – tangri sirlarini muqaddas qilsin – edi".⁶¹

Muhammad Komron bin Bobur podshohning piri xoja Abdulhaq bobosi naqshbandiya tariqatining peshvosi xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahror rahnamoligida takmilga mashg'ul bo'lgan. Shariat, maqomat va tariqat asoslarini egallagan. So'fiylikning yo'riqlarini amaliy, ruhiy jihatlari o'rgangan. Ilohiy ma'rifatni egallash yo'lidagi barcha yo'riqlar, irodati va ishorat shartlarini bajargan. Orifi komil Xoja Ahrori Valiy rahnamoligida tariqat hosilasi – ma'rifat oftobidan nur olib, tavihd maqomiga yetgan. Bu xususda "Muzakkiri ahbob"da quyidagi ixcham qaydlar mavjud: "Va hazrat xoja Abdulhaq ulug' bobosining suhbatini sharafini topgan, alarga ergashib tariqat maslaklarini bosib o'tib haqiqat mamlakatlariga yetishgan edilar".⁶²

Hasanxoja Nisoriy va Komron Mirzo e'tiqod qo'ygan falsafiy ta'limotga (naqshbandiya) ko'ra, suhbat odobiga rioya qilish qat'iy talablardan biri edi, "suhbat orqali ko'ngilni ko'ngilga ulash, hikmatu karomat bilan ta'sir etish xush ko'rilar edi" (N.Komilov). Irfon sohiblarining suhbatini komil inson shaxsini shakllantirishda muhim omil hisoblangan.⁶³ Barcha boburiylar kabi "ma'rifat sarchashma"larini izlab topish va ularning orifona suhbatlaridan bahramand bo'lish Komron Mirzo uchun ham xos xususiyat ekanligini tazkiranavis alohida ta'kidlagan: "Janob podshoh har qanday holatda ham fozillar muloqotidan xoli bo'lmaganlar. Shoirlaru nadimlarga bajoni dil xursandlik bilan iltifot ko'rsatganlar".⁶⁴

⁶¹ O'sha asar. –B. 60.

⁶² O'sha joyda.

⁶³ Хайитов Ш. Алишер Навоий насрида комил инсон образи. (Улуғ шоир маноқиблари асосида).Филология фанлари бўйича докторлик (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. –Б. 64.

⁶⁴ O'sha asar. –B.63.

Komron Mirzoni iste'dodli ijodkor sifatida e'tirof etgan Hasanxoja Nisoriy uning forsiy va turkiy tillarda yaxshi she'rlari borligiga o'quvchi e'tiborini tortadi va har ikkala tildagi she'rlaridan tazkirada bittadan namuna keltiradi.

Komron Mirzoning tojik-fors tilidagi g'azali an'anaviy oshiqona g'azallardan tubdan farq qiladi. Unda ma'shuqa go'zalligi madh qilinmagan. Oshiqona g'azallarga xos oshiq ruhiyati tasviri, arzi holi, hijronu sog'inchi kabilar badiiy talqin mag'zida turmaydi. G'azal nozik mutoyiba bilan yo'g'rilgan bo'lib, oshiq odob va hurmat qoidasiga muvofiq, tavoze' bilan bog'langan hayoning ichki vazniga mutanosib ravishda "Ul sarv yana etagini yuqoridan uribdi-ku, nima, birov iltijo bilan uning etagidan osilibdimu?" deya o'zini bilib-bilmaslikka olib, zarif mutoyiba bilan so'z boshlaydi. Matla'danoq Komron Mirzoning muayyan raviya, poetik ifoda tarziga ega bo'lgan ijodkor ekanligi yarq etib nazarga tashlanadi. Uning barcha she'r ahli kabi salaflar ijodxonasida kamolga yetgan bo'lsa-da, o'zi mustaqil ravishda yangi usul-uslublar ixtiro qilishga qodir shoir ekanligini namoyon qiladi:

Boz domani xud on sarv va bolo zada ast,

Kas ba domanash magar dasti tamanno zada ⁶⁵

Tasvir g'oyatda samimiy, tabiiy va hayotiy. O'quvchi qalbiga yaqin. Shoir yoki lirik qahramon ma'shuqani maxsus ta'rifu tavsif qilmasa-da, ona tabiatning noyob mo'jizasi sarv (istiora san'ati) muqoyasasida ma'shuqa timsoli butun go'zalligi va latofati bilan o'quvchi ko'z oldida nomoyon bo'ladi. Inson ruhiyati ko'tariladi. Qalbdagi chiginlar yechilib, g'ashliklar tarqaladi. Nozik mutoyiba, mayin tabbasum bilan yo'g'rilgan satrlar dillarga rohat bag'ishlaydi.

Qur'oni karim "Yusuf" sur'asining 23 va 25-oyati karimalaridan o'qiymiz: "U (Yusuf) uyida bo'lgan ayol (ya'ni, Zulayho, uning husni malohatiga oshiqu beqaror bo'lib) uni yo'ldan urmoqchi bo'ldi. Eshiklarni mahkam berkitib, "kelaqolgin", deganida, (Yusuf) aytdi: "Alloh saqlasin"...(Ikkalasi ham) eshik tomonga chopishdi va (Zulayho Yusufga yetib olib) uning ko'ylagini orqa

⁶⁵ O'sha joyda.

tomondan yirtib yubordi”.⁶⁶ G‘azalning navbatdagi bayti uchun mazkur oyati karimalar g‘oyaviy asos bo‘lgan. G‘azal janri tabiatidan kelib chiqqan shoir talmeh san’ati vositasida bir kichik ishora orqali o‘quvchi e’tiborini ilohiy qissa voqealariga tortgan. Komron Mirzo ilohiy qissa haqiqatidan ijodiy ravishda zariflik bilan, hayo va ibo qoidalariga muvofiq foydalangan.

Yusuf va Zulayho nomi bilan aloqador voqealar talqini jahon xalqlari adabiyoti tarixidan mustahkam o‘rin olgan. Xususan, turkiy va forsiy xalqlar adabiyoti tarixida mazkur mavzuda ko‘p asarlar yaratilgan. Sayyor syujetli asarlar turkumiga mansub Yusuf va Zulayhoning ishqiy-maishiy sarguzashtlari mavzuida dunyoning yigirmaga yaqin tillarida bir yuz ellikdan ortiq asarlar bitilgan.⁶⁷ Yozma adabiyotda yaratilgan “Yusuf va Zulayho”larning bosh manbai Qur’oni karim bo‘lsa-da, og‘zaki va yozma badiiy adabiyot o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro ta’sir tufayli folklor xazinasidagi afsona, asotir, rivoyat, ertak kabi janrlarning stilizatsiyasi yozma adabiyotdagi Yusuf va Zulayho sarguzashtlari talqinida kuzatiladi. Qur’on, xalq badiiy tafakkuri va boshqa ilohiy, irfoniy manbalardan nur olgan Yusuf va Zulayho qissasi folklor va yozma adabiyotda qayta-qayta ishlanish jarayonida Qur’oni majidda bo‘lmagan ayrim lavhalar uning mag‘zidan o‘rin olgan. Badiiy ijod namoyandalari Qur’oni karimdagi “Yusuf” surasiga ijodiy munosabatda bo‘lib, uning mohiyatidan jiddiy uzoqlashmagan holda Yusuf alayhissalom sarguzashti bayoniga juz’iy o‘zgartirishlar kiritganlar. Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy” asari tarkibidagi “Qissayi Yusuf Siddiq alayhissalom”da Komron Mirzo g‘azali tahlili munosabati bilan keltirilgan oyati karimalar haqiqatiga aniq va tiniq rioya qilingan. Qissa oxirida esa Zulayhoning Allohga qilgan munojotlari, iltijolari ijobat bo‘lganligini badiiy dalillash uchun qissa voqealariga uyg‘un yangi hikoyat keltirgan. Unday o‘qiymiz: “Aytmishlar: bir kun Yusuf Zulayhoga o‘g‘radi, tutqali yetti. Zulayho qochdi. Yusuf so‘ngidin yugurur erdi. Zulayhoning ort etagindin tutdi, tortdi ersa,

⁶⁶ Куръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. –Б.155.

⁶⁷ Сафарова Х.Хазрати Юсуф-гўзаллик тимсоли.-Тошкент: Ислам университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2003. – Б.55

yirtildi”.⁶⁸ Mazkur ixcham hikoyat Komron Mirzo tomonidan quyidagicha badiiy inkishof etilgan.

Kashishi shaq buvad in ki mahi Kanoniy

Oqibat dast ba domoni Zulayho zada ast .

Mazmuni : Bu ishq hiylasidan kanon oyi Yusuf choro topa olmay, oxir Zulayho etagiga yopishdi.⁶⁹

Yusuf alayhissalom ishq fi roqida Zulayho u kishini quvib, ko‘ylaklarini tortib yirtgan edi. Endi esa Yusuf alayhissalom Zulayho ishq fi roqida uni quvlab, yelkasidan ushlab tortib, ko‘ylagini yirtadilar. Bir-birlarida haqlari qolmaydi. Qissada yuqoridagi so‘zlar Yusuf payg‘ambarga farishta tilidan aytiladi.

Mumtoz adabiyotda nimani yozishdan ko‘ra, uni qanday yozish bosh tamoyil ekanligi nuqtayi nazaridan masalaga yondashilsa, har ikkala ijodkorning (Rabg‘uziy va Komron Mirzo) ham o‘ziga xos iste’dod sohibi ekanligi ayon bo‘ladi.

Komron Mirzoning o‘zbek tilidagi g‘azalida ishq, hijron va visol haqida so‘z yuritiladi. Ma’shuqa husnining sifatini eshitgan oshiq uni ko‘rishga zor bo‘lib, visol umidi bilan yashaydi. Intizor oshiq “Diydoring menga muyassar bo‘ladimi?”– degan savol bilan ma’shuqaning o‘ziga ochiq murojaat etadi:

Eshitib husnning sifotin bo‘lmisham zoring sening,

Yorab, o‘lg‘aymu muyassar bizga diydoring sening.⁷⁰

Zohiran oshiqning hijrondagi iztiroblari, his-tuyg‘u va istaklari ifodalangan baytda orifona ma’no ham bor. G‘azalda dunyoviy ishq bilan ilohiy ishq, majoziy ma’no bilan haqiqiy ma’no uyg‘unlashgan. Tabiat va nabotot olamidagi har bir mavjudotda Allohning go‘zal sifatlarini mushohada qilgan oshiqi pok ayriliq azoblaridan qutulishga, yor vasliga yetishga intiladi. G‘azal matla’ida lirik qahramon “Yorab” deb Yaratganga tavajjuh etsa, g‘azalning ikkinchi baytida “Ey Masihodam” deya munojot qiladi. Sharqda Isoi Masih timsoliga murojaat qilmagan

⁶⁸ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. –Б.165.

⁶⁹ О‘sha asar. –В.63.

⁷⁰ О‘sha joyda.

ijodkor kam topiladi. Mumtoz she'riyatda ma'shuqaning so'zi o'likka jon baxsh etuvchi Masih nafasiga tenglashtiriladi. Ikkinchi baytda shoir badiiy tafakkur dahosining ko'lami tazod san'ati ko'zgusida yorqin namoyon bo'lgan. Tazod san'ati oshiq iztiroblarini, ruhiy-ma'naviy olamini yorqin ifoda etgan:

Ey Masihodam, yeturgil mujdayi vaslingni kim,
O'lgali yetmish firoqing ichra bemoring sening ⁷¹

Hijron, ayriliq azobidan bulut yomg'ir quygani kabi ko'zlaridan achchiq yosh to'kilayotgan oshiq va uning bu ahvoliga beparvo la'l kabi aqiq lablaridan shakar to'kilayotgan, shirinlik sochilayotgan ma'shuqa ruhiyati tasviri uchinchi baytda ta'sirchan ifodalangan. Tashbih va istiora san'atlari tasvirga o'ziga xos poetik mazmun bag'ishlagan:

Ko'zlarim guharfishon bo'ldi aningdekkim sahob,
Shakarafshon bo'lg'ali la'li shakkarboring sening. ⁷²

G'azalning matla'ida qanday g'oya yotgan bo'lsa, maqta'gacha shu g'oya rivojlantirilgan. G'azalda mazmun butunligi va yaxlitligi ta'minlangan. G'azal mag'zida turgan oshiq obrazini Haq tolibi timsolida, uning ayriliq azobida chekkan iztiroblarini talab maqomidagi oshiqi pokning holat va kechinmalari mazmunida ham anglash mumkin.

Yorning madhi va vasfi, ("Ey Masihodam", "shakarafshon", "la'li shakarbor"), vasldan xushxabar keltirishini yorning o'zidan iltijo qilib so'rash, oshiq-tolib holidan yorni ogoh etish ("o'lgali yetmish firoqing ichra bemoring") kabi tushunchalar to'rtinchi baytda quyidagicha davom ettiriladi:

Shavqdin parvonadek boshingdin uyrulsam ne tong,
Tiyra ko'nglumni yorutsa ruxsoring sening. ⁷³

Oshiq ma'shuqa atrofida parvona kabi aylanganidek, oshiqi pokning Tavhidga, yagonalikka – Allohga qarab intilishi tabiiy ehtiyojdir. Yoki o'z aslidan ajralgan ruh muhtoj va mushtoq bo'lib, o'z asli Mutlaq Ruhga sog'inib talpinishi

⁷¹ O'sha joyda.

⁷² O'sha joyda.

⁷³ O'sha joyda.

tabiiy ehtiyojdir. Oshiqning matlubi (ma'shuqa) yuzini Haqning ramzi, tajallisi ma'nosida ham talqin qilish mumkin. Oshiq sham' kabi ma'shuqa boshida parvona bo'lishi, cheksiz iztirobu ishtiyoqlari, chekkan hadsiz-hisobiz jafoyu aziyatlari behuda ketmasligini, ma'shuqa ruxsori ko'nglini yoritishini umid qiladi. Shoir oshiq kechinmalarini yanada chuqurroq yoritish, ruhiy holatini aniqroq ifoda etish maqsadida uni parvonaga qiyos qiladi. Sharq mumtoz adabiyotida qo'llangan yuzlab, minglab so'zlar ramziy ma'noga ega. Mumtoz adabiyot asarlari matnida qo'llangan ana shunday so'zlar ma'rifiy-badiiy timsollarni yuzaga keltirgan. Sham va parvona, rind va soqiy, gul va bulbul, shoh va gado, samandar va o't shu kabi timsollar sirasiga kiradi.⁷⁴ Sharq mumtoz adabiyoti tarixida shunday majoziy, ma'rifiy-badiiy timsollar talqiniga bag'ishlab maxsus asarlar yozilgan. Hazrat Alisher Navoiy "Majoliun-nafois"ning birinchi majlisida Xuroson fozillaridan "tab'i xub va suluki marg'ub" Mavlono Ruhiiy Yoziriyning "Bulbul va gul", "Sham va parvona" sarlavhalari ostida yozgan asarlariga "ko'p riqqat ko'rguzubtur" deya yuqori baho beradilar.⁷⁵ Tahlil qilinayotgan g'azalning to'rtinchi baytida oshiq o'zini parvonaga mengzaydi. Lirik qahramonning ma'shuqaga intilishi parvonaning shamga intilishiga monand. Sham' ma'rifiy-badiiy adabiyotda ilohiy ishq ramzi. Parvona shavq shiddatidan sham' shu'lasiga intilib, nur sari talpinaveradi, o'zini shu'laga uraveradi. Oqibat olovga qo'shilib yonadi, butun vujudidan ayriladi. Nurga singib ketadi.

Fors-tojik tilidagi adabiyotda Nizomiy Ganjaviiy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Nuriddin Abdurahmon Jomiiy badiiy-irfoniiy adabiyotning mumtoz namunalarini yaratdilar. Yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlar orasida buyuk fors-tojik shoiri Xusrav Dehlaviiy ham bor. Komron Mirzo g'azalining maqta'idan o'qiymiz:

Komron, Xusrav kabi she'ring topar husni qabul,
Chunki bordur husn ahli vasfi ash'oring sening.⁷⁶

⁷⁴ Воҳидов Р. Неъматов Ҳ. Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. –Тошкент: Ёзувчи, 2001. –Б.107.

⁷⁵ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 13-жилд. –Тошкент: Фан, 1997. –Б.20-бет.

⁷⁶ O'sha asar. –Б.63

Mutlaq husn, kamol va jamol sohibi Haq subhanahu va taolodir. Komron Mirzo o‘z g‘azalida zohiriy va botiniy ma’nolarni mohirona uyg‘unlashtira olgan. U badiiy – orifona adabiyotning buyuk namoyandasi Xusrav Dehlaviy she’riyati kabi o‘z g‘azalining qabul topishini umid qiladi.

“Muzakkiri ahbob” muallifi sohibdevon shoir Muhammad Komron ijodidan tanlagan har ikkala g‘azal ham sodda va ravon uslubda bitilgan. Ularda oshiq va ma’shuqa ruhiy holatining latif tasvirini, o‘ziga xos badiiy ifodasini kuzatish mumkin.

Komron Mirzoning zohiriy ma’nolar zamiriga yuksak mahorat bilan orifona ma’noni ham singdira olishi uning o‘ziga xos iste’dod sohibi bo‘lganligidan nishon beradi.

1.3 Mirzo Askariy, Hindol Mirzo, Mirzo Abdulqosim iste’dodi va ma’naviy olamining eng muhim qirralari

Mirzo Askariy. “Muzakkiri ahbob”ning “Mirzo Askariy ibn Bobur podshoning muqaddas yodi” sarlavhali ixcham maqolasi quyidagi uch ixcham jumla bilan ochiladi: “Xushtab’ podshohzoda edi. Ilmu fazlga katta mayli bor edi. Fozillarni rioyatsiz qoldirmasdi”.⁷⁷ Mirzo Askariy qalbida she’riyatga muhabbat, ilmga tashnalik, ilm ahliga yuksak ehtirom va ma’rifiy olamga sidqiy ixlos oila muhitida shakllangan. Avvalo, ota qoni bilan uning vujud-vujudiga singgan. Ayni fikr Zahiriddin Muhammad Boburning barcha farzandlariga ham daxldordir. Nafaqat “Muzakkiri ahbob”, XVI asrdan XX asrgacha yaratilgan o‘nlab tazkiralar, adabiy, tarixiy manbalarda bitilgan boburiylar haqidagi ma’lumotlar ham yuqoridagi mulohazamizni to‘la tasdiqlaydi.

Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur latif tab’lik, badiiyat, tarix, hikmat, harb, nabotot, tabiat, musiqiy, shariat, tariqat ilmida komil, sharq xalqlarining ming yillar davomida shakllangan madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati nurini o‘ta notinch, sargardonlikda kechgan hayoti qo‘ynida asrab, farzandlari qalbiga shu nur shu’lasi bilan qo‘r sola olgan fidoyi otadir.

⁷⁷ O‘sha asar. –B.64.

Tarixiy manbalarning guvohligiga ko'ra, Balx shahri eramizdan avvalgi VII asrdan ma'lum bo'lib, Yunonistonda uni Baqtra deb ataganlar. Mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan qadimiy shahar uzoq tarix davomida mustamlakachilik istilolaridan omon qolmagan. Ahamoniylar davlatiga, keyinchalik Aleksandr (Iskandar) mamlakatiga qaram bo'lgan. Iskandar saltanatining inqirozidan so'ng, yangi barpo etilgan Yunon-Baqtriya davlatining poytaxtiga aylangan. Miloddan avvalgi II asrdan Kushon davlati tarkibiga o'tgan bu shahar Xitoy, Hindiston bilan savdo aloqalarini olib borgan. G'aznaviylar (962-1148), g'uriylar (1148-1206) davrida ham o'z mavqeini saqlab qolgan Balxni 1221-yilda mo'g'ullar vayronaga aylantirgan. Balx Temur va temuriylar davriga oid tarixiy va adabiy manbalarda jumladan, Hazrat Alisher Navoiy asarlarida tez-tez tilga olinadi. "Buyuk ipak yo'li"da joylashgan, savdo-sotiq va hunarmandchilik keng rivojlangan Balx shahri temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar davrida ham katta nufuzga ega bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Sulton Husayn Boyqaro 901(1495-1496) yilda Hisorga yurish qilganida Balxga yetib, "Movarounnahr viloyati maslahati uchun Balxni Badiuzzamon Mirzog'a bergani, ya'ni valiahd shaxzodani Balxga hokim etib tayinlagani haqida xabar beradi".⁷⁸ Tarixiy manbalarda "Ummul-bilod" ("Shaharlar onasi") nomi bilan e'zozlanib kelingan bu shaharni Hazrat Alisher Navoiy "Majolisun-nafois"ning yettinchi majlisi – Boyqaro Mirzoga bag'ishlangan o'n to'rtinchi maqolasida "Qubbatul islom" nomi bilan tilga oladilar. "Muzakkiri ahbob" muallifi ham bu qadimiy maskanni shunday sharaflil unvon bilan e'zozlashni ma'qul ko'rgan: "Bir necha kun Xudo taqdiri bilan Qubbatul-islom Balxga tashrif buyurdi".⁷⁹ **Mirzo Askariy** o'sha davrda yirik ilmiy markazga aylangan Balxga aniq maqsad bilan borgan, biroq siyosiy vaziyat uning bu shaharda doimiy yashab, faoliyat ko'rsatishiga yo'l bermagan. Buni "Muzakkiri ahbob"dagi quyidagi talqinlardan ham anglash qiyin emas: "Ammo, u yerda qola olmay, katta zavq-shavq bilan yo'l azobini rohat bilib, Mug'ilon tikani bosh og'rig'idan shikoyat qilmay, Rost yo'lidan Hijoz ohangini

⁷⁸ Бобур. Бобурнома. –Тошкент:Ўзбекистон,ФА нашриёти, 1960, –Б.94.

⁷⁹ О'sha asar. –Б.64.

qilib, uning ayriliq vodiysigicha keltirib to‘kib, ko‘ngliga quyilib kelgan fikrlarni nazm libosida havola qilgan”.⁸⁰ “Muzakkiri ahbob”dan ko‘chirilgan iqtibos tarkibida yana e‘tibor qilish zarur bo‘lgan beshta muhim masala bor:

1. Katta zavq-shavq bilan yo‘l azobini rohat bilish;
2. Mug‘ilon tikani bosh og‘rig‘idan shikoyat qilmaslik;
3. Rost yo‘lidan Hijoz ohangini qilmoq;
4. Ayriliq vodiysigicha bo‘lgan alamlarni she‘r vodiysiga keltirib to‘kmoq;
5. Ko‘ngliga kelgan fikrlarni nazm libosida havola qilmoq.

“Yo‘l azobi” deganda Makkatulloh yo‘lidagi safar mashaqqatlari nazarda tutilgan. “Muzakkiri ahbob” muallifi Mirzo Askariyning Makka safarini ishq yo‘lidagi solik holatiga uyg‘un talqin qilgan. Ayni masalaning mohiyatini yetarli anglash uchun yana Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilish kerak bo‘ladi. Hazrat Alisher Navoiy nasriy asarlaridan nazarga tashlanishicha, o‘zini qiynoq va uqubatlar girdobiga tashlab tariqat maqomlarini bosib o‘tayotgan solik ikki dunyo saodatini va‘da qilib, payg‘ambarlar martabasini ko‘rsatsalar ham, u tomonga qiyo boqmaydi va hatto o‘ziga in‘om qilinayotgan bunday iltifotni rad yoki qabul qilishni ko‘nglidan kechirmaydi. Uning nazarida quyosh zarradan qadrsiz, toshqin daryo tomchidan miqdorsiz, asl maqsad yo‘lida yog‘ilgan o‘qlardan boshini himoya qalqoniga yashirmaydi. Agar o‘sha o‘qlar bir ko‘zini nobud qilsa, ikkinchi ko‘zi bilan yo‘lida davom etadi.⁸¹ Tazkira matnidan ko‘chirilgan iqtibos tarkibidagi “katta zavq-shavq” birikmasi yetakchi muddao ifodasi uchun xizmat qiladi. Askariy Mirzo shu darajada kuchli husnu tavajjuh bilan Allohning uyi-Makkatullohga yuzlanganki, bu tavajjuh boburiyzoda uchun Haj yo‘lidagi mushkulotlarni oson qilib, azobni rohatga aylantirgan.

“Majolisun-nafois” va “Muzakkiri ahbob”ning qiyosiy tahlillari misolida kuzatilgani kabi Hasanxoja Nisoriy bu o‘rinda ham Mirzo Askariy shaxsi orqali sidqiy ixlos bilan qilingan Haj tavofini “yuksalish me‘roji” maqomida talqin qiladi.

⁸⁰ O‘sha joyda.

⁸¹ Хайитов Ш. Алишер Навоийнинг кўнгил гулшани. – Бухоро: Бухоро давлат университети нашриёти, 2000. –Б.156.

Mug‘ilon-Makka yo‘lidagi cho‘lning nomi. “Muzakkiri ahbob”da keltirilgan matndagi “Mug‘ilon tikani” birikmasi ham o‘z, ham ko‘chma ma’nosiga ega. Har qanday o‘simlik qurib-qovjirab qoladigan, bepoyon, suvsiz, jazirama sahroda faqat yantoq, tikangina o‘sadi. Bu “sahro malikasi” cho‘ldagi ko‘pgina jonzotlar va yuzlab chaqirim masofani suvsiz va ozuqasiz bosishga qodir sahro kemasi – tuya va ulov vazifasini bajaradigan boshqa hayvonlar uchun tiriklik manbai hisoblangan. “Muzakkiri ahbob”ning aksariyat jumllarida istiora san’atini muvaffaqiyat bilan qo‘llab, tasvir teranligi va ta’sirchanligini ta’minlashga erishgan Hasanxoja Nisoriy bu o‘rinda “Mug‘ilon tikoni” istioraviy ifodasi orqali Makka yo‘lidagi mashaqqatlar va bu mashaqqatlarni mardonavor yengib o‘tgan Askariy Mirzoning shikoyatu tangdillikdan hazar qiladigan shijoatli inson ekanligini ta’kidlash uchun keltirgan.

Hijoz-Makka shahrida joylashgan Saudiya Arabistonidagi viloyat nomi. Muqaddas sajdagoh sharafiga o‘n ikki maqomdan oltinchisi ham “Hijoz” deb atalgan. Sharq shoirlari adabiy mushohadada “Hijoz”ning har ikkala ma’nosidan mohirona foydalanib, g‘oyat ta’sirchan, hayratomuz lavhalar yaratganlar. Mazkur so‘zning o‘ziga xos ikki ma’nodagi ifoda imkoniyatini Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi baytida ham kuzatish mumkin:

Ey mug‘anniy, tut “Iroq” ohangiyu ko‘rguz “Hijoz”

Kim Navoiy xotiri bo‘lmish Xurosondan ma’lul.⁸²

Buyuk mutafakkir satrlari keng va chuqur ma’no qirralariga ega. Unda ulug‘ shoirning o‘z davri ijtimoiy muammolari bilan bog‘liq ruhiy holati yorqin ifodasini topgan. Shuningdek, matni keltirgan baytni o‘qiboq, “Vaqfiya”da bitilgan: “Islomim shaxsi besh hisdan birining o‘ksukligi jihatidan noqis bo‘lmag‘ay va musulmonlig‘im panjasi bir barmoq yo‘qlig‘idan ma’lul bo‘lmag‘ay”⁸³ satrlari o‘quvchining xotirasida tiklanib, islom hajini o‘tash va Rasuli Akram s.a.v.) qabrini ziyorat qilish ulug‘ Navoiyning armonga aylangan orzusi ekanligi xayolga keladi.

⁸² Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1- китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. –Б.306.

⁸³ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 261-262.

Maqomlarning tarixiy, nazariy, estetik mohiyatidan yetarli xabardor bo‘lmay turib, yuqoridagi kabi jozibali va mukammal bayt yaratish imkondan tashqaridir. “Iroq” va “Hijoz” kabi joy va maqom nomlarini ikki ma’noda qo‘llab, badiiy matnga shaklan va mazmunan moslab tushirish ham ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Hazrat Alisher Navoiy O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari musiqa amaliyotida qo‘llangan o‘n ikki maqom va shashmaqoning nazariy va amaliy tizimidan puxta xabardor bo‘lgan.

Oshiq - talabgorning tariqat yo‘liga kirishi, iztiroblari, sayri va manzillarini o‘n ikki maqomning xususiy nomlari mohiyati kesimida tariqat maqomlariga bog‘liq ma’naviy yuksalish g‘oyasining o‘ziga xos badiiy in’ikosini Alisher Navoiy ijodi misolida o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Hasanxoja Nisoriy shashmaqom tarkibidagi ikkinchi maqom (“Rost”) va o‘n ikki maqom tizimidagi oltinchi maqom (“Hijoz”) nomlari va ma’nolaridan Askariy Mirzoning Haj safari mohiyatini yoritishda mohirona foydalangan.

I.Rajabov, O. Ibrohimov, O.Matyoqubov kabi maqomshunos olimlarning asarlaridagi ishoralariga ko‘ra, oshiqu pokning suluk yo‘lidagi manzillari Haj safariga qiyos etilgan. Shunga ko‘ra, “Hijoz”-Makka va Madina joylashgan yo‘lning asosiy maqsad timsolini, “Buzurg” safar poyoniga yetganini anglatadi.

Milliy musiqaning teran ma’no va ohanglari, usullari, o‘n ikki maqom nomlarining tasavvuf adabiyotida Haj yo‘li safarini ifodalash uchun qo‘llanib kelingan ramzlari fikrni tazkira janriga xos ixcham bayon qilishda Hasanxoja Nisoriyga qo‘l kelgan. Tanosib va istiora san’atlari asosiga qurilgan jumla bo‘laklari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, biri-birini taqozo qiladi: “Rost yo‘lidan Hijoz ohangini qilib, uning ayriliq vodiysigicha keltirib to‘kib, ko‘ngliga quyilib kelgan fikrlarni nazm libosida havola qilgan”.⁸⁴

Hasanxoja Nisoriy ilmiy asarda “Rost” va “Hijoz”ning ma’no oqimlaridan foydalanib, zohiriy va botiniy mazmunni san’atkorona uyg‘unlashtirgan. Zohiran, Mirzo Askariyning Haj safarini ifodalovchi jumla aslidan ajralgan ruhning Mutlaq

⁸⁴ Ўша асар. –Б.64.

ruh tomon intilishi, Haq vasliga talabgor oshiqning hijrondagi iztiroblari, hiskechinmalarini ham ifoda etadi. Ilmiy talqin asosida turgan tarixiy shaxsning (Mirzo Askariy) ayriliq dardi bilan tug'ilgan, ayriliq otashida yetilgan iztiroblarini "she'r vodiysiga keltirib to'kishi", hijron mushohodasidan qalbida paydo bo'lgan "fikrlarini nazm libosida havola qilishi" uning o'ziga xos iste'dod sohibi ekanligini teran dalillaydi.

Ilmiy va badiiy uslub uyg'unligida tazkirada qalamga olingan shaxs iste'dodining eng muhim qirrasini maqom nazariyasi va amaliy tomonlariga bog'lab bu darajada nozik talqin qilish har qanday tazkiranavisning qo'lidan keladigan ish emas, albatta. Mazkur dalil Hasanxoja Nisoriy shaxsida bir necha sohaning bilimdonligi uyg'unlashgan, degan asosli xulosaga olib keladi.

"Muzakkiri ahbob" muallifi Mirzo Askariyning Haj yo'lida bitgan g'azallaridan birgina namuna keltirish bilan cheklangan. G'azal quyidagi matla' bilan boshlanadi:

To kard Xudo ruzi man vodii g'amro,
Dar ishq salohast arabrovu ajamro⁸⁵

Ishq bor ko'ngilda dard bor, g'am bor. Beorom, yoniq qalbning buyuk iztiroblari, pokiza ruhning uchqur, so'ngsiz parvozlari bor. Qayg'u, ruhiy iztiroblar insonning yuragini ma'naviy kirlardan tozalaydi. Ko'ngilni yumshatadi. G'am tortgan, dard chekkan inson shafqatsiz, bag'ritosh, o'zgalar taqdiriga beparvo bo'lmaydi. Ko'rinadiki, Mirzo Askariy qalamiga mansub g'azalning dastlabki misrasi teran ma'noga, yirik axloqiy-ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy qimmatga ega. "Ishq aro shohu gado teng, balki gado fuzun. Gar gadolig' aylar o'lsa, ishqning yag'mosidin", - deydilar. Hazrat Alisher Navoiy. Oshiq jamiyatdagi ijtimoiy toifasiga qarab ham, boyligiga qarab ham, amal-mansabiga qarab ham ajratilmaydi. Askariy Mirzo g'azali matla'ining ikkinchi misrasida qat'iy ta'kidlanganidek, oshiq yashash manzili, millati, irqiy belgilariga ham qarab ajratilmaydi: "Ishq yo'lida arab ham, ajam ham baravar". Ishq yo'li-poklik, tenglik, musaffolik yo'li.

⁸⁵ O'sha joyda.

Askariy Mirzo g'azal matla'idayoq ishqu oshiqlikning asl mohiyatini nafis va nozik ifodalay olgan.

Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Husn va Dil, Gul va Navro'z, Yusuf va Zulayho, G'arib va Shohsanam, Tohir va Zuhro ishqni qismat bilgan, ibrat ramziga aylangan oshiqu mashuqlardir. Askariy Mirzo o'z g'azalining navbatdagi baytida ana shu ishqu yo'lini qismat bilganlarning darslik kitobiga nazar tashlaydi:

Majnunni nazar kard sui noqayi Layli,
Az didani u kard faromush alamro ⁸⁶

Mirzo Askariy talqinicha, Layli ketayotgan karvonga ko'zi tushishi bilan Majnun o'zidagi barcha alamlarni unutib yuboradi. Baytda badiiy ijodning o'zak falsafasi – ijodkorning o'z so'zi, o'z ruhi o'z qiyofasi muhrlangan. Shoir oshiq ruhiyatini g'oyatda to'g'ri aks ettirgan. Chin oshiq uchun ma'shuqadan kerakliroq, uning rizosidan muhimroq, undan qudratliroq kuch yo'q. U kichik bir ishora bilan oshiqni tog'dek og'ir yukdan xalos qila oladi. Xuddi shunday holatning betakror dunyosini umrboqiy san'at asarini yaratgan istagan iste'dodli ijodkorning badiiy talqinlaridan topish mumkin. Badiiy ijodning imkoniyatlari cheksiz. Bunda nazm va nasrning, zamon va makonning farqi yo'q.

Buyuk Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining "**Ota-ona orzusi**" sarlavhasi ostidagi sahifalarni eslang. Otabek girdobda qolgan, har tomonlama iskanjaga tushgan, ota-ona orzusi oldida ojiz va chorasiz qolgan bir vaziyatda Kumushbibining "bir kulib boqishi" uni g'am g'arqobidan saodat sohiliga olib chiqadi: " U bu yer tagidan bir kulib boqish ta'siri bilan ustidagi tog'dek bosib yotgan "orzu" ni ag'darib solgan va qushdek yengil tortgan edi".⁸⁷

"Sahvu xato bashariyat lozimidir".⁸⁸ Ayni haqiqatni teran anglagan inson hech qachon o'zini farishtaga mengzab, o'zgalardan ayb izlamaydi. Taqdirning xayrli follari qarshisida g'urur va kibrga ham berilmaydi. O'zining kim bo'lishidan qat'i

⁸⁶ O'sha joyda.

⁸⁷ Қодирий А. Ўткан кунлар. Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. –Б. 169.

⁸⁸ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. –Б.304.

nazar banda ekanligini hech qachon unutmaydi. Mirzo Askariy g‘azalining to‘rtinchi baytida ayni masalaning o‘ziga xos badiiy talqini kuzatiladi:

Bar lavhi mozoram binavisid zi badu nek,
Onkas ki bidonad raqami lavhu qalamro⁸⁹

G‘azalning uchinchi va beshinchi baytlari Haq subhonahu va taologa yo‘naltirilgan. “Yuzida oy to‘laligicha aks etgan”, “Ey, Oy”, “Yuzing havasini qilganim” ifodalarida murod Allohdir:

Go‘fti ba ruhash moh tamom ast bar asar,
Dar huzrati u arz makun da‘voi kamro
Chun, Askariy, ey mah, havasi rui tu kardam,
Dar olami hasty chu nihodam qadamro⁹⁰

Ruhan pok, yuksak ma‘rifatli kishidagina shunday axloq nuri zuhr etadi. Ruhana hur, botinana erkin hayot sohibi bandaga niyoz ko‘rgazmaydi. Uning niyozmandligi faqat Haqning o‘ziga qaratilgan bo‘ladi. Mavlono Jaloliddin Rumiyo yozadilar: “Bandadan emas, Allohda ista va tilanki, bunday ato sohibining huzurida tilanchilik qilish ayni muddaodir.”⁹¹

Yorug‘ olamga (foniyo dunyoga) ko‘z ochgan kunimda Sening (Allohnig) jamolingni ko‘rish orzusi bilan yashayman, deydi g‘azal maqta‘ida shoir. Mirzo Askariy baytining ma‘nosini teran anglashimizda Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi bitiklari mufassal sharh vazifasini o‘taydi: “Har kim adam nihonxonasidin vujud anjumanig‘a qadam urubdur va bu baqosiz oromgohda bir nafas o‘lturubdur, yana qaytib, asli vatang‘a azm etmak kerak va qaydin kelubdur yana ul yon ketmak kerak.”⁹² Inson jismi tuproqdan qorilgan, ruhi – ilohiy. Asli ilohiy bo‘lgan ruhning o‘z asl manbai Allohga qo‘shilish umidida intilishi esa tabiiydir.

“Muzakkiri ahbob”dagi ishoralarga ko‘ra, shunday g‘oyaviy yo‘nalishdagi g‘azallarni Mirzo Askariy ko‘p va xo‘b yozgan. Tazkira janri talab - tamoyillaridan kelib chiqib, Nisoriy ulardan faqat birinigina o‘z kitobiga kiritgan.

⁸⁹ O‘sha joyda.

⁹⁰ O‘sha joyda.

⁹¹ Румий, Жалолиддин. Ичиндаги ичиндадир. –Тошкент: Ёзувчи, 1997. –Б.140.

⁹² Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 116.

“Muzakkiri ahbob”dagi “ko‘ngliga quyilib kelgan fikrlarni nazm libosida havola qilgan” kabi qaydlardan ayon bo‘ladiki, Askariy Mirzo iste’dodli shoir bo‘lib, uning tab’i hech qiyinchiliksiz rangin g‘azallar tuhfa qilgan.

Hindol Mirzo. Hasanxoja Nisoriy “Muhammad Hindol podshoh bin Bobur podshohning muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi dastlabki jumlada o‘z tasvir uslubiga ko‘ra, Muhammad Hindolning fazilatu salohiyat qirralari bilan o‘quvchini tanishtiradi. Uni shijoatda e’tirof etilgan, saxovatda chig‘atoy ulusi orasida barchaga ma’lum amaldor ekanligini ta’kidlaydi. Mirzo Askariyni “Fozillarni rioyatsiz qoldirmas edi”, – deb ta’riflasi, “Fozillarning murabbiysi edi”, - deya Muhammad Hindolning fozilparvarligiga alohida urg‘u beradi. Solih kishilarga foyda yetkazish, ularni qo‘llab-quvvatlash, ularga ma’naviy-ruhiy madad yetkazish Muhammad Hindolga xos xususiyat bo‘lgan. Eslatilgan fazilatlarining aksariyati Mirzo Boburning boshqa farzandlari tabiatida ham mavjudligi “Muzakkiri ahbob” sahifalaridan nazarga tashlanadi.

Fikrimizcha, quyidagi ikki xislat esa tazkirada Muhammad Hindol ma’naviy olamining o‘ziga xos mahsuli sifatida talqin qilingan: “Husnixatga juda ishtiyoqmand bo‘lib, kitoblar yig‘ishda ham ko‘p savobli - harakatlar qilgan”.⁹³ Chiroyli yozuv va undagi so‘zlar imlosida harflarga qo‘yilgan (arab yozuvida) nuqtalarni go‘zallar yuzidagi xolga tashbih qiladilar, Hazrat Alisher Navoiy. Ulug‘ mutafakkir talqinicha, xattu xol go‘zallar yuziga ko‘rk baxsh etganidek, chiroyli xat va unga qo‘yilgan nuqtalar oq qog‘oz jamolini bezaydi. Xushxat xattot so‘zga husn beradi, o‘quvchiga farog‘at yetkizadi. Agar yozuv chiroyli va to‘g‘ri bo‘lmasa, u istagan bilim sohibini tashvishga soladi.⁹⁴ Ayni masalada Zahriddin Muhammad Bobur fikrlari ham Hazrat Alisher Navoiy qarashlari bilan uyg‘un. Zahriddin Muhammad Boburning Humoyun Mirzoga yozgan maktublarining biridan o‘qiyimiz: “Xatingni xud tashvish bila o‘qusa bo‘ladur, vale asru mug‘laqtur... Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas...Xatingni xud har tavr qilib o‘qisa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsud tamom mafhum

⁹³ O‘sha asar.B.64.

⁹⁴ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 26-27.

bo‘lmaydur... Takalluf qilay deysen, ul jihatdin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari betakulluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham sanga tashvish ozroq bo‘lur, ham o‘qig‘uchig‘a”.⁹⁵

Zahriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, sarkarda, iste’dodli shoir adib, zukko tarixchi, zakiy olim, mohir tarjimon, musiqachi, fiqhshunos, tabiatshunos bo‘libgina qolmay, nozik did xattot ham bo‘lgan. Keyinchalik bu sifat uning Muhammad Hindol kabi farzandlarida yangi qirralar bilan takrorlangan. Arab yozuv madaniyatida asosiy o‘rin tutgan xattotlik san‘atini mukammal egallamasdan, yangi bir yozuvni ixtiro qilish imkondan tashqari edi. Adabiyot, san‘at, tarix va ilm-fanning turli sohalarida mukammal asarlar yaratgan Mirzo Bobur xattotlik kasbini ham san‘at darajasida egallagan. Yozuvning madaniy hayotdagi o‘rni, uning o‘z millati uchun ahamiyati va o‘z xalqi uchun ijodiy qudratini teran anglab 20 yoshida “Xatti Boburiy”ni kashf qilgan.

“Kimki xatning mashqidan biror nafas bo‘sh o‘tirar ekan, xinaning rangidek xati ham qo‘ldan o‘chib ketadi”, - deydi qit‘alaridan birida yarim asrga yaqin kitobat san‘ati bilan shug‘ullangan, mashhur xattot Mir Ali Hiraviy.⁹⁶ “Muzakkiri ahbob”da Muhammad Hindolning shunday mashaqqatli va mas’uliyatli sohaga g‘oyat ishtiyoqmandligining ta’kidlanishi boburiy zodaning mustahkam iroda va o‘ziga xos fazli kamol sohib ekanligini ko‘rsatadi.

Xattotlar sulolasiga mansub Mirzo Abdul Fattoh Mahdixonning shaxsiy kutubxonasida o‘n mingdan ziyod qo‘lyozma kitoblar saqlangan. Buxoroning bu xushxat kotibi qatag‘on yillarida nohaq qamoqqa olingach, qo‘lyozma kitoblar talon - taroj qilingan. Qur‘on va boshqa nodir kitoblarning anchagina qismi CHK xodimlari tomonidan tashib ketilgan.⁹⁷

“Muzakkiri ahbob”dan nazarga tashlanishicha, Muhammad Hindol ham xattotlik san‘atiga sidqiy ixlos bilan kitob yig‘ishdek ziyokorlikni o‘z faoliyatida uyg‘unlashtirgan.

⁹⁵ Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1960Б – 420-421.

⁹⁶ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. Тошкент: Фан, 1971. –Б. 65.

⁹⁷ Hayitov Sh, Axmadova Z. Qo‘lyozmada tarix sadosi . Toshkent: Navro‘z, 2017. – Б. 8.

Bobur va boburiylarga bag‘ishlangan boshqa fiqralardan farqli ravishda “Muzakkiri ahbob”ning Muhammad Hindolga bag‘ishlangan sahifasida siyosiy voqealar tafsilotiga oz bo‘lsada, o‘rin berilgan Hasanxoja Nisoriyning qayd etishicha, Hindiston podshosi Humoyun Mirzo Bangolada qolib ketganida markaziy hokimiyatni egallash uchun urinishlar bo‘lgan. Muhammad Hindol sharoitdan foydalanmoqchi bo‘lib, hukumatga qarshi bosh ko‘targan toju-taxt talabgorlarining harakatlariga chek qo‘yib, xutbani o‘z nomiga o‘qitadi va podshohlik taxtiga erishadi. U mamlakatni egallash uchun akasi Humoyun Mirzoning tarafdorlaridan bo‘lgan Shayx Pulni qatl qildiradi. Humoyun Mirzo Bangoladan qaytib kelgach esa barcha saroy a‘yonlari va mulozimlar kabi akasining xizmatiga kirishadi.

Zahriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”ning 932 (1525) yil voqealari bayoniga bag‘ishlangan sahifalarida o‘zining o‘sha yillardagi harbiy va iqtisodiy salohiyatini tarixda Hindistonni zabt etgan Sulton Mahmud va Hindistonning o‘sha davrdagi Boburga muxolif podshosi Ibrohim Lo‘diy bilan qiyosiy tahlil etar ekan, yozadi: “Manga taalluq viloyot Badaxshon va Qunduz va Kobul va Qandahor edi, vale bu viloyatlardin mu’taddun bih nafye yo‘q edi”.⁹⁸ “Muzakkiri ahbob”da ma’lumot berilishicha, Muhammad Hindol ancha vaqt Bobur Mirzo tilga olgan Badaxshon hukumatini boshqargan. U keyinchalik “Aka-ukalar nizosi sababli chiqqan janglardan birida halok bo‘lgan”.⁹⁹ “Muzakkiri ahbob”dagi Hindiston saltanati bilan aloqador ziddiyatli voqealar va Muhammad Hindolning vafoti tafsilotlari Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asaridagi aka-ukalar o‘rtasida kechgan qayg‘uli lavhalar tasviri bilan muvofiq keladi.

Latif qalbda ezgu – ardoqli fikrlar yashaydi. Yurakda ildiz otgan o‘sha ezgulik, go‘zallik mushohadasidan ko‘ngilda paydo bo‘lgan zavqu surur “nazm libosida” (Navoiy) oq qog‘oz bag‘riga sochilib, o‘zidan ishq, vafo, sadoqat, nazokat, latofat nurlarini taratadi. Tazkiranavis talqinicha, Muhammad Hindolning latif ta’bi bor. Xususan u quyidagi ruboiyni yaxshi aytgan:

⁹⁸ Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. –Б. 248.

⁹⁹ O‘sha asar. –B.65.

Zi on qatrayi shabnam ki nasimi sahari,
Az abr judo kunad ba sad hiylagariy.
To ba ruxi gul chekonad, ey rashki pary,
Haqqo ki hazor bor pokizatary ¹⁰⁰

Tong – mumtoz adabiyotda vasl darakchisi. U go‘zallikka, ezgulikka mushtoq inson qalbiga farah bag‘ishlaydi, ko‘ngilni ravshan qiladi. Mumtoz adabiyotimizda saboga murojaat qilish; mayin, yoqimli shamol yoki tong yeli vositasida yaqinlarga xabar yo‘llash, arz aytish usuli keng amal qiladi.¹⁰¹ Matni keltirilgan ruboiyda Muhammad Hindol tashxis san’ati imkoniyatlaridan mohirona foydalanib, latif tasvir yaratgan. Sahar nasimi (“nasimi sahari”) iborasi asosida hosil qilingan shaxslantirish usuli poetik tasvir mundarijasiga o‘ziga xos jilo bergan. Insonga xos hiyla qilmoq, ajratib olmoq, to‘qimoq xususiyatlarining tong nasimiga ko‘chirilishi ruboiyda ifodalangan g‘oyaga yorqinlik va jozibadorlik bag‘ishlagan.

Tong nasimi – ruboiyda poetik timsol. Muhammad Hindol qalamiga mansub ruboiy matnidagi ikkinchi poetik timsol – “shabnam qatrası” (“qatrayi shabnam”). Ruboiyning dastlabki misrasidayoq yagona o‘rında yonma-yon qo‘llab, bir yo‘la ikki poetik timsolni tasvir maydoniga olib kirish har qanday ijodkorning ham qo‘lidan kelaveradigan ish emas. Badiiy matnda ikki poetik timsol biri-biri bilan tabiiy ravishda bog‘langan. Mana shu ikki poetik timsol oshiqona ruboiyga falsafiy ruh bergan. Poetik g‘oyaning mukammal, ta’sirchan chiqishiga asos solgan.

“Shabnam qatrası” – poetik timsolidan sohir qalam sohibi Hazrat Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida bir necha o‘rında, bir necha marta, har xil rang va jiloda mohirona foydalanib, poetik tasvirning tarhi toza namunalarini yaratganlar. Bu o‘rında ulug‘mutafakkir nasriy asarlaridan birgina misol keltirish bilan cheklanamiz. Hazrat Alisher Navoiy Haq subhanahu va taoloning sabutiy sifatleri talqinida “shabnam qatrası” poetik timsolidan san’atkorona istifoda etib, badiiy kalomning mo‘jizakor qudratini o‘quvchi ko‘z ollida namoyon qiladilar: “Azamati bog‘ida sipehri davvor bir nilufardin kam va qudrati olloda nujumi sobita ba

¹⁰⁰ O‘sha joyda.

¹⁰¹ Хайитов Ш. Жавоммардлик ҳақиқати, Тошкент : Фан , 2005. –Б 33

sayyora ul nilufar yuzida bir necha **qatrayi shabnam**".¹⁰² Mazkur parchada ulug' adib manbalarda to'qson to'qqiz xil nomlangan Haqning sabutiy sifatlaridan ikkitasini – "Azim" va "Qodir" ma'nolarini badiiy dalillash uchun "shabnam qatrasini" poetik timsolini tasvir maydoniga olib kirgan.

Muhammad Hindol ruboiyda **tong nasimi** va **shabnam qatrasini** poetik timsollarini oshiqning tuyg'u-taassurotlari, hissiyotlari bilan nozik bog'laydi. Shoir ona tabiatning nafis bir lavhasi – tongda gul yuziga qo'ngan shabnam tomchilari bilan malak surat mashuqa siymosida monandlik ko'radi. **Shabnam qatrasini** va poklik ramzi mashuqa qiyosiga o'quvchi e'tiborini qattiq tortib, undan keyin o'zining qat'iy xulosasini o'quvchi hukmiga xavola qiladi: ey Yor, sen tongda gullar yuziga qo'ngan musaffo **shabnam qatralaridan** ham ming karra pokiza va tiniqroqsan: "Haqqo ki hazor bor pokizatory". Uchinchi misrani yakunlovchi "ey parilarning rashkini keltiruvchi" ("ey rashki pary") undalmasi ruboiyning so'ngi misrasida ifoda etilgan yuqoridagi xulosaning yanada tabiiy, ta'sirchan chiqishiga zamin hozirlagan.

Baholi qudrat tahlil qilganimiz ruboiyga ustoz Abduqodir Hayitmetovning quyidagi fikrlari mohiyatidan kelib chiqib, baho bersak Muhammad Hindolning ruboiynavislik mahorati haqida xolisona xulosaga kelish imkoniyati yuzaga keladi: "Ruboiy – to'rt misradan iborat tugal lirik asardir. Unda lirik qahramonning ichki kechinmalari nihoyatda siqiq, ammo nihoyatda ravshan va aniq, o'ta xarakterli; ifodali tasviriy obrazlar vositasi bilan aks ettirilishi kerak... ruboiy muzika va qo'shiqning avj momentini eslatadi. Bunda fikr bilan birga his-tuyg'ular ham barobar tug'yonga kelib g'oyani mo'ljaldagi yuksaklikka ko'tarib chiqishga yordamlashadi."¹⁰³

Muhammad Hindol bir ruboiy misolida o'z badiiy iqtidori tajassumini namoyon eta olgan taronayi ruboiyda mumtoz Sharq she'riyatiga xos an'anaviy g'oya – mahbuba go'zalligi ona tabiatning nozik bir lavhasi qiyosida g'oyatda ta'sirchan ifodalangan.

¹⁰² Навоий.А. Махбуб-ул кулуб.Қиёсий матн.Москва-Лелинград , В 1-2

¹⁰³ Хайитметов А. Навоий лирикаси. Тошкент: Фан, 1961. –Б. 59-60.

Mirzo Abdulqosim. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”dan Zahridin Muhammad Boburning she’r yozishga iqtidori bor bo’lgan faqat bitta nabirasigagina o’rin bergan. Bu Komron Mirzoning farzandi Mirzo Abdulqosimdir.

Hazrat Alisher Navoiy 459 tab’ ahli haqida ma’lumot berilgan “Majolis-ul-nafois”ning faqat uch-to’rt maqolasidagina ijodkorning tashqi qiyofasidagi go’zallikka o’quvchi e’tiborini tortadilar. Alisher Navoiy tazkiraning ikkinchi majlisida shox Abulqosim Bobur homiyligida kamolot kasb etgan, asli Turshiz viloyatidan bo’lgan Mavlono To’tiy haqida yozadilar: “Yaxshi shakllik va yaxshi xulqlik yigit erdi”.¹⁰⁴ “Majolisun-nafois”ning uchinchi majlisida mashhadlik shoir Mavlono Moniyga bag’ishlangan ixcham maqolaning esa ibtidosida ham, xotimasida ham husn ta’rifi ulug’ mutafakkir nazaridan soqit qolmagan: “Sohibjamol va zarif va ra’no yigitdur... chun husni bor, husnixati va husni kalomi dog’i bor, har ne qilsa anga tegar”.¹⁰⁵

“Majolisun-nafois”ning temuriy ijodkorlarga bag’ishlanib, yigirma ikki tab ahli haqida ma’lumot berilgan yettinchi majlisidagi o’n oltinchi maqolasi ham ijodkorning tashqi go’zalligi tasviriga bag’ishlangan so’z bilan boshlangan: “Sulton Badiuzzamon Mirzo – husnu surat va husni siyrat bila orasta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila pirosta yigitdur”.¹⁰⁶ “Majolisun-nafois”da xo’b tab’liq, tez idroklik, qaviy hofizalik, sho’x zehinlik, shikasta nafsliq, tavozu’ va ta’zimlik, darveshvash, yaxshi axloqlik, parhezkor va murtoz, pisandiyda atvorliq, odamiysheva, salim tab’, pok zehin, pisandiyda zotlig’, hamida sifotlig’, karimul-axloq, saxiy va ayyosh, hunarparvar, xush muhovara, xushtab’ va dardmand, shirin adolig’, natoyiji tab’da el ko’ngliga marg’ub, zarif va ra’no kabi ijod ahli tarifi yo’naltirilgan o’nlab sifatlashlar mavjud. Shunday go’zal sifatlarga loyiq ko’rilgan ijodkorlarning surati ham siyratiga mos kelishi ulug’ Navoiyning talqinlaridan anglashilib turadi. Ammo bevosita ochiq-oshkor ijodkorning tashqi ko’rkamligi

¹⁰⁴ Navoiy A. Muqammal asarlar t’uplami. 20 jildlik, 13-jild. –Toshkent: Fan, 1997. – B.38.

¹⁰⁵ Navoiy A. Muqammal asarlar t’uplami. 20 jildlik, 13-jild. –Toshkent: Fan, 1997. –B.83.

¹⁰⁶ Navoiy A. Muqammal asarlar t’uplami. 20 jildlik, 13-jild. –Toshkent: Fan, 1997. –B.169.

tasviri bilan boshlangan maqolalar “Majolisun-nafois”da juda kam. Shunday uslubiy jilo “Muzakkiri ahbob”da ham kuzatiladi. “Mirzo Abdulqosim bin Komron podshohning muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi maqolaning alifbosi surat tasviri bilan boshlanadi: **“Xushsurat va xushxulq podshozodadur”**.¹⁰⁷ Hasanxoja Nisoriy Abdulqosim Mirzoning avval tashqi go‘zalligini alohida ta’kidlab, keyin uning hamida axloq sohibi ekanligiga o‘quvchi e’tiborini tortgan. Uch kalimadan iborat ixcham jumlaning avvalida “xushsurat” so‘zining, undan keyin “xushxulq” so‘zining raqam qilinishi yuqoridagi mantiqdan kelib chiqqan. Hazrat Alisher Navoiy ham, Hasanxoja Nisoriy ham tashqi ko‘rinishi, jismoniy qiyofasi boshqalardan keskin ajralib turadigan tab’ ahliga nisbatan shunday poetik usulni qo‘llaganlar.

Odamning siyrati, ma’naviy, ruhiy go‘zalligi bir qarashdayoq nazarga tashlanmaydi. Uning suratidagi, tashqi qiyofasidagi go‘zallik belgilari esa birinchi qarashdayoq inson dilidagi qulfga kalit soladi, uni sehrlaydi. O‘ziga jazb etadi. Shuning uchun “Majolisun-nafois”da Sulton Badiuzzamon Mirzoga bag‘ishlangan maqolani boshlab beruvchi birinchi kalima “husni surat” bo‘lsa, Mirzo Abulqosim ta’rifida Hasanxoja Nisoriy dilida ochilgan birinchi kalima “xushsurat” bo‘lgan.

Xullas, Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Mirzo Abulqosim suratan va siyratan Zahridin Muhammad Boburning zurriyotlari ichida go‘zallik namunasi bo‘lgan.

Hasanxoja Nisoriy talqinlaridan ayon bo‘ladiki, Alloh taolo Mirzo Abulqosimga mamlakatni olib uni boshqarish uchun yetarli aql va farosatlilik iqbolini, yoqimli siyratu fazilatlarining barchasini bergan: “Maqsadi hosillik va riyosat asari baxtli toleidan ko‘rinib, mamlakat olishlik va aqlu farosatlilik iqboli yetuk xulq-atvoridan bilinib turibdi”.¹⁰⁸

“Muzakkiri ahbob”dan keltirilgan iqtibos mantig‘idan muallifning o‘z zamonasi shohlarida ko‘rishni istagani – fazilatlar aniq nazarga tashlanadi: niyati to‘g‘rilik va maqsadi aniqlik, to‘g‘ri siyosat yurita olish, baland tolelilik, mamlakat olish va uni saqlay bilish, yetuk aqlu farosat va yoqimli xulq-atvor sohibi bo‘lmoq.

¹⁰⁷ O‘sha asar. –B. 67.

¹⁰⁸ O‘sha joyda.

“Muzakkiri ahbob” muallifi yuksak husnu rag‘bat bilan qaragan shahzodaning o‘z iqtidorini namoyon qilishiga siyosiy vaziyat yo‘l bermagan. U Gvilyorda mahbus sifatida saqlangan: “Hind shaharlari ichida mustahkam qo‘rg‘on va mahkam qal‘a bo‘lmish Gvilyorda mahbus bo‘lib, misra: “guftori sabab bulbullardek qafas ichra” tutqun qolgan”.¹⁰⁹

Ma‘lumki, aka-uka Humoyun Mirzo va Komron Mirzo o‘rtasidagi toj-taxt talashishlar podsho akaning farmoni bilan ukaning ko‘ziga mil tortish fojiasi bilan intiho topgan. Hindiston mamlakati hukmronligi uchun aka-ukalar orasida kechgan bunday keskin siyosiy voqealar ularning farzandlari, jumladan, Komron Mirzoning o‘g‘li Mirzo Abdulqosim taqdirida ham o‘zining qora izlarini qoldirgan. U podshoh amakisining farmoniga bo‘ysunishiga majbur bo‘lgan. Gvilyor qal‘asining tazkirada berilgan tasviridan ayon bo‘ladiki, Mirzo Abdulqosim u yerda qattiq nazorat ostida saqlangan.

Hazrat Alisher Navoiy yozadilar: “Odamiyning yaxshirog‘i uldurkim, porso va pok bo‘lg‘ay va haq so‘zin ayturda bevahmu bok bo‘lg‘ay”.¹¹⁰ Mirzo Abdulqosimning qamoqda saqlanishiga bir tomondan Humoyun Mirzo va Komron Mirzo o‘rtasidagi hokimiyat talashishlar, qonli nizolar sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘zining dadilligi, haqiqatni, rost so‘zni aytishda jur‘atliligi, qo‘rqmasligi va eng asosiysi nodir iste‘dod sohibi ekanligi sabab bo‘lgan ko‘rinadi. Chunki Hasanxoja Nisoriy so‘z orasida “Guftori sabab bulbullardek qafas ichra tutqun qolgan” misrasini qistirib o‘tgan.¹¹¹

Ota-bobolari e‘tiqod qo‘ygan naqshbandiya tariqati talablariga Abdulqosim Mirzo har qanday vaziyatda ham chin ixlos bilan amal qilgan. Hazrat Bahouddin Naqshbandning “Hushi dar dam” rashhasi mohiyatiga ko‘ra, inson hayotining har on, har bir lahzasi ogohlik bilan kechmasa, inson qalbini zang bosib qoladi. Lahzalar Alloh yodi, Alloh fikri, Alloh zikri bilan ma‘rifat xirmonini bunyod etishga sarflangandagina inson umri behuda ketmaydi. Abdulqosim Mirzo

¹⁰⁹ O‘sha joyda.

¹¹⁰ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 120.

¹¹¹ O‘sha asar. –B. 67.

mustahkam va mahkam (yopiq) qal'a Gvilyorda tutqunlikda saqlangan, "ammo shunga qaramasdan kamol kasb etmoq va taraqqiy topmoqqa mashg'ul bo'lgan va sharif vaqtini oye' ketkazmagan", maftunkor g'azallar yozgan. Hasanxoja Nisoriy Abdulqosim Mirzo ijodidan ikki g'azal matla'ini namuna sifatida keltirgan:

Nadorad kas zi xubon soidy k-on nozanin dorad,
Zi xubi onche boyad mohi man dar ostin dorad ¹¹²

Lirik qahramon ma'shuqa go'zalligini zo'r zavq va shavq bilan tasvirlagan. Xususan, ko'ngil visolga tashna bo'lgan onlarda go'zalning bir husniga o'n husn qo'shilib, oshiqni o'z diydoriga mushtoq qilganligini satrlar mag'zidan anglash qiyin emas. "Qissasi Rabg'uziy" shahodatiga ko'ra, hazrati Havvo g'oyatda sohibjamol bo'lgan ekanlar. U kishidagi husn o'n sakkiz ming olamdagi hech bir yaratilmishda bo'lmagan. Bu go'zallik siri "Qissasi Rabg'uziy"da quyidagicha asoslangan: "Xabarda andog' kelur, izi azza va jalla ko'rkn yuz ulush qildi. To'qson to'qqizni Havvog'a berdi. Bir ulushni qamug' olamlig'larg'a berdi. Ul bir ulushni yana o'n ulush qildi. To'quzni Yusufg'a, bir ulushni olamlig'larg'a berdi". ¹¹³

Ayol – go'zallik ramzi. Go'zallikka rag'bat Hazrati Odamdan meros. Odam Ato farzandlari ko'nglida otameros o'sha rog'iblik, moyillik jazava qilgan lahzada go'zallik o'zining sehrli kuchini namoyon qiladi. Oshiq ko'ziga o'zining mahbubasidan ko'rqliroq yana bir sanam aslo yo'qday ko'rinadi. Oshiqdagi rag'bat, sidqiy mayl suyuklining bir husniga ming husn qo'shadi. Oshiq ruhiyatidagi ayni holat tasviri Mirzo Abdulqosim g'azalidan ko'chirilgan matla'da o'ziga xos jiloda badiiy tajassumini topgan.

"Muzakkiri ahbob"da Mirzo Abdulqosim she'riyatidan yana quyidagi bayt keltirilgan:

Andak istig'noi u ushshoqro dilxun kunad,
Gar ba qadri husn istig'no kunad kas, chun kunad ¹¹⁴

¹¹² O'sha joyda.

¹¹³ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 1-жилд. –Тошкент: Фан, 1987. –Б. 19.

¹¹⁴ O'sha asar. –B. 68.

Mirzo Abdulqosim baytda tarhi toza tasvir va talqin yaratgan. Istig‘noni husn qiymatini o‘lchaydigan tarozining noyob toshiga qiyos qilgan. Ijodlor shahzoda haq. Faqat xotin-qiz zotigagina xos istig‘no tabiiy namoyon bo‘lgandagini go‘zalning husniga husn qo‘shadi. Istig‘no yasama bo‘lsa, har qanday go‘zalning ohorini to‘kadi. Istig‘no ayol zotiga in‘om qilingan ilohiy inoyat. Bunday inoyatni Haq subhanahu va taolo yuzdan, mingdan bir ayolga taqdir qiladi. Har qanday go‘zalda kuzatilmaydigan bu g‘ayri alomat Husn naqqoshining mohir qo‘li bilan go‘zallarning go‘zali, eng baxtiyor ayol tabiatiga ra‘no gulining suvi bilan bitiladi.

Ma‘naviy-ruhiy go‘zallikka monand jismoniy qiyofa istig‘no hosilasi – nafis harakat va qiliqlar bilan uyg‘unlashib, mislsiz joziba va sehr kuchini ko‘rsatadi. Ko‘zlarni qamashtiradi. Pokiza nazarlar undan nur, beg‘ubor ko‘ngillar undan quvvat oladi.

Xushtab‘lik, tez idroklilik, ilmu fazlga moyillik, fozilparvarlik va hunarparvarlik Mirzo Bobur farzandlarining ko‘ngliga umr bo‘yi harorat bag‘ishlagan, hayot yo‘llarini yoritgan, ezgulikka da‘vat qilgan. Ularni zakovatli ma‘rifatparvar, sidqiy ilmparvar maqomiga ko‘targan.

BIRINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Hasanxoja Nisoriy o‘zi istagan, orzu qilgan ma‘rifatli shoh fazilatlarini Bobur va Humoyun timsolida ko‘rgan. Bobur va boburiylarning mardligi, adolati, odamiyligi, shoir va olimligi “Muzakkiri ahbob” muallifining komil inson haqidagi qarashlari bilan uyg‘un kelgan.

“Muzakkiri ahbob” dagi talqinlar Bobur va boburiylar hayotiga doir ayrim ma‘lumotlarni to‘ldiradi, ba‘zi tarixiy haqiqatlarni yorqin, aniq va tiniq aks etishiga asos sifatida xizmat qiladi.

Tazkira sahifalaridagi har bir so‘z, har bir ifodadan asar muallifining Mirzo Bobur va uning farzandlariga ixlosu e‘tiqodi o‘zidan xabar berib turadi.

Bobur va Humoyun faoliyatida ba‘zi ziddiyatli nuqtalar: siyosiy vaziyat taqozosiga ko‘ra qattiqqo‘llik, ayovsizlik holatlari ham bo‘lgan. Ammo “Muzakkiri ahbob” da bunday holatlar deyarli tilga olinmagan. Nisoriy ularning faqat ijobiy fazilatlarini, ezgu ishlarini qalamga olgan.

Zullisonayn shoir Komron Mirzoning forsiy va turkiy she‘riyatida dunyoviy ishq bilan ilohiy ishq, majoziy ma‘no bilan haqiqiy ma‘no mohirona uyg‘unlashtirilgan. Istiora, tashbih va talmeh san‘atlari tasvirga o‘ziga xos poetik mazmun bag‘ishlagan. Ijodkorning zohiriy ma‘nolar zamiriga yuksak mahorat bilan orifona ma‘noni singdira olishi uning nodir iste‘dod sohibi ekanligini yetarlicha dalillaydi.

Mirzo Askariy, Hindol Mirzo, Abdulqosim Mirzo kabi boburiylar sulolasiga mansub ijodkorlarning “Muzakkiri ahbob” da namuna sifatida keltirilgan g‘azal va ruboiylarida oshiq ruhiyati, arzi holi hijronu sog‘inchi, tuyg‘u taassurotlari, hissiyotlari nozik aks ettirilgan. Ularda oshiq va ma‘shuqa ruhiy holatining latif tasvirini, o‘ziga xos badiiy ifodasini kuzatish mumkin.

II BOB. HASANXOJA NISORIY TAZKIRASIDA MUHAMMAD SHAYBONIY VA SHAYBONIY IJODKORLARGA MUNOSABAT

2.1. Muhammad Shayboniy Nisoriy talqinida

“Muzakkiri ahbob”ning “Foniy davlatdan mangulik mulkiga safar qilgan Chingiziy sultonlar jamoasi zikrida” sarlavhasi ostidagi maqolasi birinchi ruknining birinchi fasli Shayboniyxonga bag‘ishlangan fiqra bilan boshlanadi. Maqolada Shayboniy qalamiga mansub bir ta’rix, bir tuyuq va bir tarixiy g‘azal matnidan ikki bayt keltirilgan.

“Shahid bo‘lgan baxtli xoqon Abulfath Muhammad Shayboniyxon ibn Shoh Budog‘ sulton bin Abulxayrxonning – go‘ri nurga to‘lsin – muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi dastlabki jumlar Muhammad Shayboniyxonning Hazrat Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqatiga ixlosu e’tiqodini yoritishga yo‘naltirilgan. Modomiki, gap tariqat va uning peshvosiga xonning e’tiqodi haqida ekan, tazkiranavis o‘z so‘zlarini zehnu zakovat, fazlu farosatda mumtoz, Haq asroriga oshno, ruhiy kamolotga erishgan, insonlar o‘qishi va eshitishini chin ko‘ngildan istaydi va ma’no ahliga “qalbi pok ahli safolar”, “topqirlikda mohir zukkolar”, “quyosh yog‘duli yorqin ko‘ngillilar” sifatlashlari bilan murojoat qiladi: “Qalbi pok ahli safolar va topqirlikda mohir zukkolarining quyosh yog‘duli yorqin ko‘ngillaridan yashirin qolmasinkim, Bayt:

Xoqoni sa’idu xon bin xon ,
Dar gardishi tosi charxi gardon”¹¹⁵

“Dunyoga hirs qo‘ygan kishining ko‘ziga dunyodagi har bir yoqimli narsa uning nafsi, uning hirs uchun yaratilgandek ko‘rinadi. Dunyo esa uning hirsini qo‘zg‘atish uchun yasanib tovlanishda davom etaveradi. Oqibat, u insonni yeldirib-yugurtirib ado qiladi. Xoliq bandanigina unuttirib, nafsu havoning quliga aylantiradi”¹¹⁶ Faqat tariqatga sidqiy ixlosgina insonni bunday halokatli ofatdan asrab qoladi. “Muzakkiri ahbob” muallifi ayni haqiqatni ilmiy va badiiy ifoda

¹¹⁵ O‘sha asar. –B.17.

¹¹⁶ Хайитов Ш. Алишер Навоий насрида комил инсон образи. (Улуғ шоир манокиблари асосида). Филология фанлари бўйича докторлик (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация, –Б.204.

uyg'unligida mohirona aks ettirgan: "Baxtli xoqon va xon o'g'li xon, bu aylanuvchi falak gardishida—dunyoning yaltiroq bezaku naqshlari va hayot-mamot tashvishlaridan ko'z ka'bataynini yiroq tutib, balki yolg'onchi taqdir naqshu nigor bandidan o'zni xalos etib va dilni Naqshbandga bog'lab, suv va tuproq naqshi mushohadasidan jonu dil sirini anglab, bu shatranj maydonida murod naqshi (o'yini)ga talabgor bo'lib, xuddi maqoldagidek borliqdan yo'qlikka ko'chguncha dovur Naqshband nomi bilan mashhur oliy hazrat, qudsiy manzilat xoja Bahol-ul-haq val-haqiqata vad-dunyo vad-dinning sharif ma'naviyatlari maqomiga yuz tutib...".¹¹⁷ "Ko'z ka'batayni", "naqshu nigor bandi", "suv va tuproq naqshi mushohadasi", "jonu dil siri", "shatranj maydoni", "murod naqshi" istioralari yagona mantiq rishtasiga marjondek tortilib, fikrning g'oyaviy-badiiy quvvatini behad yuqori darajaga ko'targan. Bu hayoti dunyoda insonning hirsini qo'zg'ab, o'ziga mahliyo etadigan yaltiroq bezaku naqshlar ming-minglab topiladiki, inson o'sha naqshlardan ko'zlarini asrab ("ko'z ka'bataynini yiroq tutib"), ro'yo-yolg'on dunyo go'zalliklari naqshu nigori bandidan o'zini qutqara olsa, dilni Naqshbandga bog'lay oladi. Ko'zni yashnatadigan naqshlardan xalos bo'lmay turib, o'zlikdan chiqib bo'lmaydi, o'zlikdan kechmay turib, Naqshbandga dilni bog'lab bo'lmaydi. Tazkirada keltirilgan matndagi "suv va tuproq naqshi mushohadasidan jonu dil sirini anglab" istioraviy ifodasi yanada teran ma'noga ega. Adabiy manbalarda suv - soflik va saxovat, tuproq - sabr, chidam, kamtarinlik, hamida axloq ramzi sifatida talqin qilinadi. "Jonu dil sirini anglash" insonning o'zligini anglashi demakdir. Tazkiranavis talqinicha, "suv va tuproq naqshi mushohadasi" inson qalbini nafsoniy dunyoga bog'lanib qolishdan, dunyoparastlik illatidan tozalaydi. Ko'ngilni nur kabi yoritib, uni ma'rifatga, insoniylik sirlarini kashf etishga chorlaydi. Dunyoning yaltiroq naqshu nigorlari bandidan qutulish sari qadam tashlagan inson Hazrat Bahouddin Naqshbandning ostonasiga niyozmandlik bilan yuzlanib, shu "maqsud qiblasini va murod ka'basi"ni (Navoiy) o'zi bilan Haq o'rtasida vosita bilsa, ulug' Xoja himmatidan yuksak martabalarga

¹¹⁷ O'sha asar. —B.17.

erishadi, tilaklari ijobat bo‘ladi. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Muhammad Shayboniyxon Hazrat Bahouddin Naqshbandga xuddi shunday e‘tiqodda bo‘lgan:”...o‘zining kishi hayratini oshiruvchi har bir ishida ul oliyshon ostonga niyozmandlik bilan boqib, ul muqaddas joyni vosita bilib, izzatli Xazrat ulug‘ nomidan yuqori darajot va yaxshi hojotlar tilaganlar”.¹¹⁸

Hasanxoja Nisoriy ma‘lumotlariga ko‘ra, Muhammad Shayboniyxon siyosiy voqealarga aralashguniga qadar Amir Abdulali hukmronligi zamonida Buxoroda yashagan. Ayrim kishilar alg‘ov-dalg‘ovga sabab bo‘ladigan xatti-harakat bilan uni Buxorodan chiqib ketishiga majbur qila boshlaganlar. Shunda Muhammad Shayboniy panoh izlab o‘z yashash manzilini Hazrat Bahouddin Naqshbandning mozori yaqiniga ko‘chiradi. Va Bahouddin Naqshbandning nabiralari-Nizomiddinxoja Mir Muhammad Naqshband xizmatiga kiradi. Ma‘lum muddat Allohga chin ko‘ngildan ibodat qilib, xolis bandalik xizmatini ado etgan, tabarruk ostonada tavof va xizmat sharafiga muyassar bo‘lgan Muhammad Shayboniy ketishga ijozat so‘raydi. Xoja Mir Muhammad ruxsat bermaydilar, shundan keyin u yana bir necha muddat Hazrat Bahouddin Naqshband mozori boshida istiqomat qilib, toat-ibodatga mashg‘ul bo‘ladi.

O‘z jummalari mag‘zida Qur‘oni karim oyatlari va Hadislarni keltirib, fikrlarini dalillash Hasanxoja Nisoriy ilmiy uslubiga xos xususiyatdir. “Muzakkiri ahbob”dan o‘qiymiz: “Bir kuni Xoja Mir Muhammad debdilarki, **“g‘ayb kalitlari uning oldida”** bo‘lgan buyuk fattoh o‘z ochqichlaridan bir kalitni kifoyatli kaftingizga qo‘yadirgan ko‘rinadi. Ammo bu ishning yuzaga chiqishi Turkiston viloyati taraflarida ro‘y berajak”.¹¹⁹ An‘om surasining 59-oyati karimasi ilmiy mushohada uchun asos bo‘lgan. Oyati karimaning to‘liq matni quyidagicha: “G‘ayb (yashirin ish va narsalar) kalitlari Uning huzuridadir. Ularni Undan o‘zga bilmas. Yana quruqlik va dengizdagi narsalarni ham bilur. Biror yaproq (uzilib)

¹¹⁸ O‘sha joyda.

¹¹⁹ O‘sha asar. –B.19.

tushsa (ham) uni bilur. Yer zulmatlari (qa'ri)dagi urug' bo'lmasin, ho'lu quruq bo'lmasin, (hammasi) aniq Kitob (Lavhul-mahfuz) da yozilgandir".¹²⁰

Hazrat Alisher Navoiy "Avliyullohga voqe' bo'lg'on xavoriqu odotu karomat bayoni" sarlavhasi ostida "Nasoyimul-muhabbat"da tasavvuf shayxlarining g'ayb olami bilan aloqadorligi, kelajakni oldindan ko'rishlari, kashfu karomatlarining bir necha ko'rinishlarini talqin qiladilar. Irfoniy-vajdiy idroki g'oyatda baland, laduniy ilm sohiblari ramz va ishoralar bilan ham buyuk insonlarning kelajagidan xabar berganlar. Ammo bunday vaziyatlarda yuksak mantiqiy tafakkur kuchiga ega bo'lgan, zehni zakosi baland kishilargina basirat sohiblarining ramzu ishoralari mohiyatiga yetgan va undan bahrmand bo'la olgan. "Nasoyimul-muhabbat" dan o'qiymiz: "Bobo Sungu zamon majzublaridan ermish. Andxud qasabasida bo'lur ermish. Sohibi botin kishi ermish. Ramzlarin bilganlar natija topar ermish. Temurbek Xuroson mulki azimatig'a yuruganda Andxudqa yetganda mashhurdurki, Bobo xizmatig'a borg'andur. O'lturg'ondin so'ngra Bobo ilayida bir sufrada yaxna et erkandur. Quyning yaxna to'shin olib, Temurbek sari otibdur. Temurbek g'oyati aqlu zakosidin debdurki, Xurosonni yer yuzining ko'ksi debdurlar. Ani Bobo bizga havola qildi, deb bu bashorat bila yurub, Xuroson mulkini olibdur.¹²¹ Bobo Sungu va Jahongir Amir Temur muloqotida kuzatilgani kabi Mir Muhammad Naqshband Muhammad Shayboniy taqdiriga yozilgan yashirin amirni ramzlar orqali ma'lum qilmagan, ochiq-oshkor bayon qilgan. Muhammad Shayboniyning hokimiyatga erishish uchun siyosiy harakatlarni qayerdan boshlashi kerakligini ham aniq aytgan. Naqshbandiy shayxning bu karomati tarix haqiqati bilan isbotlanganligi Muhammad Shayboniy hasbi-holidan ma'lum.

Hasanxoja Nisoriy tazkirada Muhammad Shayboniyning g'ayb asroridan ogoh pirning ishoratiga rioya qilib, 12 yil ichida Turkistondan Xuroson chegarasigacha bo'lgan hududlarni o'z qalamraviga olib, temuriylarning ikki buyuk poytaxti

¹²⁰ Куръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур.-Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. –Б.134.

¹²¹ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: Фан, 2001. –Б. 427-428.

Samarqand va Hirotida o‘z nomiga xutba o‘qitganini qayd qiladi va o‘z mulohozalariga Qur’oni majid Oli Imron surasining 26-oyati karimasi bilan nuqta qo‘yadi: “Va ular bu bashoratli ishoratga rioya qilgach, deyarlik o‘n ikki yil davomida Turkiston viloyatidan Domg‘on (Xuroson) chegarasigacha yerlarni o‘z tasarrufi doirasiga kiritib, dorussaltana Hirot va Samarqandda o‘z humoyun otlariga xutba o‘kitganlar va izzatu baxt taxtida shodmon o‘lturganlar. **“Aytgil, ey Xudoyim mulk podshohi sensan, uni xohlagan kishingdan olasan va xohlagan kishingga berasan”**”.¹²²

Hasanxoja Nisoriy “Shahid bo‘lgan baxtli xoqon Abulfath Muhammad Shayboniyxon ibn Shoh Budog‘ sulton bin Abulxayrxonning – go‘ri nurga to‘lsin – muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi maqolada Xoja Mir Muhammad Naqshbandning xalq orasida keng tarqalgan, g‘aroyib, ilohiy olam bilan aloqador karomatlaridan yana bir namuna keltiradi. Xoja Mir Muhammadga nisbat beriladigan o‘sha g‘aroyib karomatning mohiyatiga yetmoq uchun avvalo, qadimul-ayyomdan turkiy xalqlarning turmush tarzidan keng o‘rin olgan ovchilik va qushchilik hunari haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lish zarur. Tarixiy va adabiy manbalarda qayd qilinishicha, har bir amaldor saroyida qushchilik kasbi bilan shug‘ullanuvchi xodimlar bo‘lgan. Ular ov qushlarini boqib, ov jarayoniga tayyorlash bilan shug‘ullangan.¹²³ Sharq pandnomalarida bunday kishilar alohida ijtimoiy toifa vakillari sifatida talqin qilinadi.¹²⁴ Ularga xos ijobiy va salbiy xususiyatlar qalamga olinadi.¹²⁵ Bunday kishilar qushchilik hunarida mukammal tajriba hosil qilgach, ovchilar boshlig‘i (qushbegi) va undan ham yuqoriroq mansablarga loyiq ko‘rilgan.

“Muzakkiri ahbob”da yozilishicha, Xoja Mir Muhammad Naqshband Buxoro hokimi bilan ovga chiqadilar. Biroq o‘sha ovda u kishining yonlarida ov qushi bo‘lmagan. Buni sezgan hokim: “Nima hech narsa ovlamadingizmi hali xojam?” – deb avliyullohga kinoya qiladi. Kosa tagida nimkosa borligini his qilgan Xoja

¹²² O‘sha asar.B.20., Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.1-juz.Toshkent:Hilol–nashr, 2022.B.313., Qur‘oni karim.Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur.-To‘shkent:Mu‘nir, 2021. –B. 624.

¹²³ Navoiy A. Muqammal asarlar tўplami. 20 jildlik, 15-jild. –To‘shkent: Fan, 1999. –B. 89.

¹²⁴ Navoiy A. Muqammal asarlar tўplami. 20 jildlik, 14-jild. –To‘shkent: Fan, 1998. –B. 40-41.

¹²⁵ Navoiy A. Muqammal asarlar tўplami. 20 jildlik, 13-jild. –To‘shkent: Fan, 1997. –B.154.

hazratlari kinoyali gapdan ranjiydilar. Hokimga qarab: “Siz ov qushisiz sayd qilib bo‘lmaydi, deb o‘ylaysizmi?” – deydilar va shunqorni chaqiruvchi tablni chaladilar. Shu zahoti bir chiroyli, semiz o‘rdak Xoja va Hokimning oyoqlari oldiga qulab tushadi. Hazrati Xoja qushni qo‘llariga olib, uchirib yuboradilar.

Hasanxoja Nisoriy ushbu g‘aroyib lavhaga o‘z ijodidan masnaviy keltirish bilan yakun yasaydi:

Har gah ki tabl bozi tu ovoz mekunad,
Murg‘i dilam ba so‘i tu parvoz mekunad.¹²⁶

Tanosib (lochin, qush, parvoz) va istiora (“qalb qushi”) san‘atlari bilan ziynatlangan masnaviy chuqur mazmunga ega. Haq oshiqlarining nafasi bir yeldurki, u manmanlik xashagini supurib tashlaydi. Odamlar qalbini o‘ziga jazb etib, kishilarda ma‘rifiy tuyg‘uni tarbiyalaydi. Murshidi komil hayotidan keltirilgan lavha favqulodda xislatli, avliyo insonning oddiy kishilardan farqli jihatini yorqin sathda ko‘rsatgan.

Hasanxoja Nisoriy Muhammad Shayboniyni adabiyotga, olimu fozillarga yuksak e‘tiqod va hurmatda bo‘lgan, noyob va serqirra iste‘dod sohibi sifatida talqin qiladi va uning ijodidan bir ta‘rix va bir tuyuqni namuna sifatida keltiradi.

“Muzakkiri ahbob”da Muhammad Shayboniy ijodidan namuna sifatida keltirilgan ta‘rixda tasavvufning mashhur shayxlaridan biri, kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubroning vafoti sanasi yoritilgan. Muhammad Shayboniy ta‘rix-she‘rda “shahidlar shohi” (“shahi shuhado”) ifodasi orqali 1221-yilda mo‘g‘il bosqinchilariga qarshi kurashda halok bo‘lgan vatanparvar tariqat pirining siymosini va vafoti sanasini birgina baytda san‘atkorona aks ettirgan:

Oning ta‘rixidur shahi shuhado,
Yana bir alif birla bo‘lur ado.¹²⁷

Ko‘pgina darslik, monografiya va maqolalarda tadqiqotchilar Muhammad Shayboniyni badiiy ijodiga munosabati haqida mulohaza yuritir ekanlar, “Muzakkiri ahbob” ma‘lumotlariga tayangan holda yuqorida eslatilgan ta‘rix-

¹²⁶ O‘sha asar. –B.20.

¹²⁷ O‘sha joyda.

she'ni hamda "yobular" so'zining urug' va ot turi ma'nolaridan mohirlik bilan foydalanib yaratilgan tajnisli tuyuqni misol sifatida keltiradilar.

Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Imomiddin Nasimiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy kabi turkiyo'y, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy singari zabardast fors-tojik shoirlari ijodidan ilhomlangan Muhammad Shayboniyning 320 g'azal, 16 ruboiy, 13 tuyuq, 11 to'rtlik, 5 ta'rix va 48 muammo yozganligi Istambulda, "To'pqopi" saroyi muzeyi xazinasida saqlanayotgan notugal devoni orqali ilm ahliga ma'lum.¹²⁸

Tabiiyki, "Yaxshi she'rlari bor" deb ta'kidlagan Hasanxoja Nisoriy Muhammad Shayboniy she'riy merosi va uning janrlar tarkibidan yetarli xabardor bo'lgan. Ammo tazkira janri tabiati va talab-tamoyillaridan kelib chiqqan holda uning ijodidagi besh ta'rixdan va o'n uch tuyuqdan bittadan namuna keltirish bilan cheklangan. Ba'zi ishlarda "So'g'd ichinda o'lturubdur yo bular" deb boshlanuvchi she'r haqida **"...quyidagi tuyuqni ham Shayboniyga nisbat beradilar"** kabi ifodalar uchraydi.¹²⁹

Bunday ifodalar Hasanxoja Nisoriy ma'lumotlarini oz bo'lsa-da shubha ostiga qoldiradi. "Muzakkiri ahbob" Shayboniy va shayboniylar tarixi, siyosiy faoliyati va ularning ma'naviyatga munosabati haqida ma'lumot beruvchi eng ishonchli manba bo'lib, tazkiradagi dalillarga turlicha munosabatda bo'lish ilmiy adolat mezonlariga rost kelmaydi. Munozara yuritilayotgan masala xususida Hasanxoja Nisoriy yozadi: "Bu tuyuqni ham manzur bo'larlik aytgan:

So'g'd ichinda o'ltururlar yobular,

Yobularning mingan oti yobular.

Yobularning ilgidan el tinmadi.

Yo bular bo'lsin bu yerda yo bular."¹³⁰

¹²⁸ Ochilov E. Shayboniy ijodida Navoiy an'analari.//O'TA. 2020, №1. –B.39-43.

¹²⁹ Қосимов Б. Жумахўжа Н. Ўзбек адабиёти тарихи 10-синф учун дарслик. Тошкент : Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 2001. –Б.18.

¹³⁰ O'sha asar.–B.20.

“Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida har bir zamon ijodkorlari o‘z davri dunyoqarashi, voqelikni idrok qilish, tushunish salohiyati, ta’bi, didi, ma’naviy ravnaqi ehtiyojlaridan kelib chiqib turli adabiy janrlarda badiiy mushohada yuritgan... Shu ma’noda adabiy janrlarning shakllanishi va taraqqiyoti ijod jarayonining xos qonuniyatlari bilan birga tarixiy hayot, ijodkor yashayotgan ijtimoiy-siyosiy voqelik va ilohiy-irfoniy g‘oyalar zaminida tug‘ilgan teran tafakkur takmili bilan aloqadordir”.¹³¹ Tuyuq- mumtoz adabiyotning eng murakkab janrlaridan biri. U ijodkordan keng muhokama yuritishni, chuqur nazariy bilimni talab qiladi. To‘rt misradan iborat ixcham matnga muhim bir g‘oyani singdirish, bir so‘zni uch o‘rinda uch xil ma’noda qo‘llash, shu bilan birga vazn, qofiya va badiiyat talablariga to‘la amal qilish uchun shoirda katta iste’dod bo‘lishi zarur.

Hasanxoja Nisoriy shoir va olim sifatida ayni haqiqatni teran anglagan.

O‘quvchida Muhammad Shayboniyning shoirlik iste’dodi, tuyuqnavislik mahorati haqida yorqin tasavvur hosil bo‘lishi uchun janrning arab lisonida bitilgan bir namunasini keltirgan:

Fi zoviatil – hajr anisiy – u’diy,

Val muhabbata favqa nar qalbi u’diy.

Monautu maqosidi va lo mau’diy,

Yo afiyati ajaztu u’diy-u’diy.¹³²

Arabiy matn mazmuni “Muzakkiri ahbob” tarjimoni Ismoil Bekjon tomonidan o‘zbek tilida quyidagicha ifodalangan:

Ayriliq burchagiga chekingan ey yorim, qayt,

Muhabbatingdan yurakka tushmoqda cho‘g‘ uddan.

Na maqsadim hosil, na va’dangga vafo bu payt,

Huzuringga yetmoqdan ojizman, qil madad, kel-qayt.¹³³

Tajnis moddasi “u’diy” kalimasining ma’nolarini olim quyidagicha sharhlaydi: “Bu arabcha tuyuqning birinchi satridagi “u’diy” “qayt”, ikkinchisida

¹³¹ Хайитов Ш.А. Алишер Навоий насрида комил инсон образи (улуғ шоир манокиблари асосида) докт.дисс.. -Фарғона, 2022, —Б.68.

¹³² O‘sha asar.—B.21.

¹³³ O‘sha joyda.

“o‘tin, ud daraxti”, uchinchisida “va’da”, oxirida esa “kel – qayt” ma’nolarini bildiradi”¹³⁴

Arab tilida bitilgan tuyuq muallifini “Muzakkiri ahhob” muallifi aniq aytmagan. Hasanxoja Nisoriy “Chunonchi, buyuklardan biri aytmishlar” deyish bilan cheklangan. Qiyos va Muhammad Shayboniyning shoirlik salohiyati haqida tasavvur paydo qilish uchun keltirilgan arab tilidagi tuyuqning Sayfiddin Boxarziy qalamiga mansubligi iste’dodli olim va mohir tarjimon Ismoil Bekjon tomonidan aniqlangan.

Sayfiddin Boxarziy yashab faoliyat ko‘rsatgan davr Ismoil Bekjon izohida XIV asr tarzida ko‘rsatilgan. Nuriddin Abdurahmon Jomiyning “Nafohatul-uns fi hazoratul-quds” va Hazrat Alisher Navoiyning “Nasoyimul-muhabbat min shamoyimul-futuvvat” asarlaridan nazarga tashlanishicha, **Sayfiddin Boxarziy XIV asrda emas, XIII asrda yashagan.** U Xorazmda kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubrodan tasavvuf ta’limotini o‘rgangan. Shayx Najmiddin Kubro rahnamoligida ikki marta chilla o‘tirib, “azim riyozatlar” tortib, ruhiy-ma’naviy kamolot kasb etgan.¹³⁵ Mo‘g‘ullar istilosi arafasida Najmiddin Kubro tomonidan Buxoroga yuborilgan. Mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi qattiq kurashgan. Xalq orasida katta nufuzga ega bo‘lgan Sayfiddin Boxarziy bilan mo‘g‘ul hukmdorlari murosa qilishga majbur bo‘lganlar. “Shayxul – olam” unvoni bilan shuhrat taratgan Sayfiddin Boxarziy arab va fors tillarida “Sharh al asmo al husno”, “Risola dar ishq”, “Voqeayi xilvat”, “Ruboiyot”, “Ro‘znoma”, “Vasiyatnoma” asarlarini va ko‘plab teran ma’noga ega bo‘lgan to‘rtliklar bitgan. Umrining asosiy qismini Buxoroda o‘tkazgan Sayfiddin Boxarziy shu sharif shaharda vafot etgan:

“Olti yuz ellik sakkizda olamdan o‘tibdur va qabri Buxorodadur. Shayxul olamg‘a mashhurdur”, - deb yozadilar Alisher Navoiy.¹³⁶ Hasanxoja Nisoriy 40 yildan ortiq Buxoroda yashab, Buxoro madrasalarida dars bergan murshidi komil Sayfiddin Boxarziyning ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ijodiy faoliyatidan

¹³⁴ O‘sha joyda.

¹³⁵ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: Фан, 2001. –Б. 295-296.

¹³⁶ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: Фан, 2001. –Б. 296.

yetarli xabardor bo'lgan. Muhammad Shayboniy ijodining janr nuqtayi nazardan o'zigagina xos yetakchi tamoyillaridan birini yorqinroq sathda ko'rsatish uchun Sayfiddin Boxarziy ma'naviy merosiga nazar tashlagan. Murshidi komilning arab tilida bitilgan tuyuqlaridan birini tazkirada keltirgan.

Hazrat Alisher Navoiyning "Xazoyinul-maoniy" devoniga 13 ta tuyuq kiritilgan bo'lib, fard, qit'a, ruboiy kabi kichik she'riy janrdagi asarlariga nisbatan kam hisoblanadi.¹³⁷ O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ulug' Navoiydan keyin eng katta ma'naviy meros qoldirgan Muhammadrizo Ogahiyning "Ta'vizul - oshiqin" devonida Sharq mumtoz adabiyotining o'n to'qqiz janridagi asarlar jamlangan. "Ta'vizul - oshiqin" tarkibida 10 ta tuyuq bor.¹³⁸

Ijodkor tuyuq yaratishda tajnisning turli ko'rinishlaridan so'zlarning shaklan bir xilligi va yaqinligiga ko'ra foydalanar ekan, badiiy tasvir vositalarini muhim g'oya, chuqur hayotiy va insoniy mohiyatni ifoda etish maqsadiga bo'ysundiradi. Bu esa o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Chunki tuyuq janrining bosh qonuniyati qofiyaning tajnisli bo'lishi har qanday iste'dodli shoirning o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun janr qonuniyatlariga to'la amal qilgan holda ham mazmun, ham badiiyat jihatdan mukammal tuyuq yaratish shoirdan katta mahorat talab qiladi. Muhammad Shayboniy devonida 13 tuyuqning mavjudligi uning o'ziga xos iste'dod sohibi ekanligidan darak beradi. Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahhob"da boshqa she'riy janrdagi asarlaridan emas, tuyuqlaridan, bir namuna keltirish bilan Muhammad Shayboniyning o'zbek mumtoz she'riyatidagi tajribasi va o'ziga xos iste'dodini ilmiy jihatdan nozik asoslagan.

"Muzakkiri ahhob"da Muhammad Shayboniyning bir g'azalidan ham ikki bayt namuna keltirilgan. Tadqiqotchilar nazaridan soqit qolib kelayotgan ushbu ma'lumot muhim ilmiy qimmatga ega. Shuning uchun ham biz bu xususida kengroq to'xtalishni ma'qul ko'rdik. G'azalning yozilish tarixi haqida "Muzakkiri

¹³⁷ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1- китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. –Б. 385.

¹³⁸ Матякубова М. Огахий ижодида кичик шеърлий жанрлар. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.автореферати. –Тошкент, 2000.–Б.12.

ahbob”da qaydlar mavjud: “Deydilarki, xon, Hazora qal’asi fathiga otlanganda bir g’azal bitib, Hiri shayxul-islomi va qozisi Ixtiyorga yuboribdi. Mana bu bir necha bayt o’sha g’azaldan bitilayotur”.¹³⁹ Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Hazara nomi bilan yuritilgan tuman Buxoro yaqinida joylashgan bo’lib, Shayboniyxon uni 1499-yilda zabt etgan. Demak, Hirot shayxul-islomi va qozisiga yo’llangan g’azal shu tarixiy voqea munosabati bilan bitilgan. Axloqiy-ijtimoiy yo’nalishda yozilgan Muhammad Shayboniy g’azali keskin tanqidiy ruh bilan yo’g’rilgan:

Mandin salom ul shayxu Ixtiyorga,
Na Ixtiyorkim, ul chug’ul, rishvaxorga ¹⁴⁰

Muhammad Shayboniy ko’p qirrali va keng qamrovli fiqh ilmidan yaxshi xabardor bo’lgan. Qur’on va sunnat hukmlariga tayangan holda jamiyat a’zolarining huquq va burchlari, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar majmuiga oid nizomu tartiblarni shariyati islomiya ahkamlari doirasida anglamasdan turib yuqoridagi kabi baytni bitish mushkul. Shuningdek, amaldorning aybini yuziga aytish uchun shoirda yuksak insoniy va ijodiy jasorat bo’lishi zarur. Yetuk davlat arbobi va huquqshunos Muhammad Shayboniy xalq birligi, davlat parchalanmasligining asosi – qonun, qonun binosining tayanchi esa elning yaxshi va yomon ishlari ustidan hukm chiqaruvchi qozi ekanligini teran anglagan. Qozi o’z g’arazini ko’zlash, ikkiyuzlamachilik, shar’iy hiylalar to’qish illatlaridan holi bo’lishi darkor. U hukm vaqtida xolis bo’lmog’i, oshna-og’aynigarchilikka yo’l qo’ymasligi, o’z vazifasini suiste’mol qilmasligi zarur. Agar qozi pora berib, qozilik lavozimiga erishgan bo’lsa, pora olib qonunni buzishi aniq.

Muhammad Shayboniyning qozi Ixtiyor faoliyatiga keskin tanqidiy munosabati baytning ikkinchi misrasida ruju’ san’atini keltirish bilan ta’sirchan ifodalangan. Shoh-shoir qozi faoliyatidagi eng xatarli, davlat va jamiyatni muqarrar halokatga olib boradigan illatni favqulodda jasorat bilan fosh qilgan.

Mumtoz adabiyotimizning taniqli namoyandalari bilan qiyoslaganda mohir tuyuqnavis ijodkorlar qatorida turuvchi Muhammad Shayboniyning tajnisli

¹³⁹ O’sha asar. –B.21.

¹⁴⁰ O’sha joyda.

soʻzlardan foydalanish, shakldosh soʻzlar vositasida qofiya yaratib, gʻoyalar mohiyati va timsollar qiyofasini ochish salohiyati tahlil qilinayotgan gʻazalda ham yorqin nazarga tashlanadi:

Tangri inoyati bila qavmi Hazorani,
Andoq qilayki, tajriba boʻlsin hazorgʻa ¹⁴¹

Baytdagi qofiyadosh “hazora” soʻzlari shaklan toʻla uygʻun boʻlib, ikki xil maʼnoni ifodalaydi: birinchi misrada joy maʼnosini, yaʼni Xazora qalʼasi maʼnosini bildirsa, ikkinchi misrada miqdor sonni ifoda etuvchi “ming” maʼnosini anglatadi. Alloh inoyati va madadi bilan Hazora qalʼasini zabt etib, qalʼa ichida yashayotgan kishilarni shunday zeri dast qilayki, bu ming kishiga yoki ming zafar panohga saboq boʻlsin, - demoqchi boʻladi sarkarda shoir.

“Muzakkiri ahbob” muallifining Hirot qozisiga yoʻllangan gʻazal matnidan soʻng bitgan quyidagi qaydlari nihoyatda yuksak maʼrifiy qimmatga ega: “Qozi Ixtiyor turkiy tilni bilmas ekan, uning uchun turkiy til qonun-qoidalari kitobini bitib yuboribdi”.¹⁴² Ayni muhim tarixiy maʼlumot Muhammad Shayboniy nafaqat oʻz davrining eʼtiborli hukmdori, balki oʻz ona tilining ahamiyatini teran idrok eta olgan va uning nufuzini keng yoyishga intilgan madaniyat arbobi ekanligini koʻrsatadi.

Muhammad Shayboniy islom qonunshunosligi ilmidan yetarli xabardor boʻlgan. Qurʼon va sunnat hukmlariga tayangan holda jamiyat aʼzolarining huquq va burchlari, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar majmuiga oid nizomu tartiblarni shariyati islomiya ahkamlari doirasida chuqur anglab, tarhi toza baytlar bitgan. Jamiyat aʼzolarining, jumladan, mansab kursisida oʻtirgan amaldorlarning aybini yuziga dadil aytib, ulardagi nuqsonlarni yuksak insoniy va ijodiy jasorat bilan fosh qilgan.

2.2. Tariqat ahlining Qul Ubaydiy hayoti va ijodiga taʼsiri

Hasanxoja Nisoriy Ubaydulloxonni oʻz sulolasi nufuzining fidoyi himoyachisi, oqil va tadbirkor hukmdor, Buxoroning sadoqatli va fidokor farzandi

¹⁴¹ Oʻsha joyda.

¹⁴² Oʻsha joyda.

sifatida talqin qiladi. “Muzakkiri ahbob” sahifalaridan nazarga tashlanadiki, g‘ayrat va shijoat, qat’iyat va matonat Ubaydullo Bahodirxon shaxsiyatida yetakchilik qilgan. Ubaydulloxon kuchli e’tiqod va irodatda bo‘lgan XVI asr naqshbandiya tariqatining murshidi komili Mir Abdullo Yamaniy undagi himmat va shijoatga, sabot va matonatga yanada kuchli ruhiy quvvat bergan. Buxoro va Samarqand, butun Movarounnahr Xurosonda Mir Arab nomi bilan shuhrat taratgan Mir Abdullo Yamaniy Ubaydullo Bahodirxonning har bir ishga astoydil kirishib, muvaffaqiyatli yakuniga yetkazishida uni faol harakatga ilhomlantirgan.

“Muzakkiri ahbob”ning “Abdulg‘ozi Ubaydullo Bahodirxon bin Mahmud sulton bin Shoh Budog‘ sulton ibn Abulxayrxonning – go‘ri Alloh nuriga to‘lsin – oliy bayonli muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi maqolasi Ubaydullo Bahodirxon shaxsiyatining sarkarda sifatidagi qirrasiga o‘quvchi e’tiborini tortish bilan boshlangan. Jangu jadallar barcha zamonlarda hamxotirjamlik bilan qabul qilinadigan hodisa bo‘lmagan. Chunki urush holatida minglab insonlarning hayoti, shirin turmushi, mamlakat taqdiri qil ustida turadi.

Ana shu mohiyatdan kelib chiqib, muhoraba yoki davlat boshida turgan sarvarning jismu jonida kechadigan ruhiy zilzilalarni his qilish qiyin emas. Ubaydullo Bahodirxon ana shunday vaziyatlarda o‘z jasurligi va shijoati bilan g‘amning og‘ir yukini Shayboniyxonning yelkasidan mardonavor olib tashlagan. “Muzakkiri ahbob” muallifi Ubaydullaxon shaxsiyatidagi ayni muhim nuqtani ohorli istiora va sifatlashlar bilan bayon qilar ekan, badiiy so‘zning lafziy nazokati va jozibasi ilmiy matnga toza ruh va jon bag‘ishlaydi: “Aksar muhoribalarda oliy lutfu karamlar egasi bo‘lmish amakisi xizmatida turib, g‘am-tashvish dog‘ini o‘zining obdor o‘tkir tig‘i sayqali bilan uning dil oynasidan yuvib ketkazgan”.¹⁴³

Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Haq subhonahu va taolo qayerda mulku davlat eshigini Shayboniyxon yuziga ochgan bo‘lsa, u darvozaning kaliti Ubaydullo Bahodirxonning g‘alaba rasmi bilan ziynatlangan qilichining sharofatidandir.

¹⁴³ O‘sha joyda.

Agar Shayboniyxon qaysi o'lkaga qo'shin tortsa, u shahar Ubaydullo Bahodirxonning bandlarni ochuvchi tig'isiz qo'lga kiritilmagan:

“Fathu inoyatlar eshiklarini ochuvchi Hazrat qayerda davlat qobusini Shayboniyxon yuziga ochgan bo'lsa, uning kalitini Ubaydulloxonning fath oinli qilichisiz tasavvur etish mumkin emas va qayerda davlatu mulk oshig'i to'y hashamini hozirlasa, suyuklining yuzi Ubaydulloxonning zafar keltiruvchi tig'i oynasisiz jamol ko'rgazmas edi”.¹⁴⁴

Tazkiradan keltirilgan iqtibosda “g'am-tashvish dog'i”, “dil oynasi”, istioralari; ikkinchi iqtibosda esa “fathu inoyat eshiklari”, “davlat qopusi (darvozasi)”, “davlatu mulk oshig'i”, “to'y hashami”, “suyuklining yuzi”, “zafar keltiruvchi tig'i oynasi” istioralari so'z san'atining mislsiz qudratini namoyon qilgan.

Urush – zo'rlik va zo'ravonlik maydoni. U shafqatsizlik, toshyuraklikni yoqtiradi. Nafis adabiyot va adabiyotshunoslik esa odamlar qalbiga ta'sir etishning nozik yo'llarini izlaydi. Vatanimiz tarixida saltanat surgan sulolalarning o'zaro talashib-tortishishganliklari, qonli janglari, ayovsiz kurashlari aslida tarixiy haqiqat. Tarixiy haqiqatdan esa hech qachon ko'z yumib bo'lmaydi. “Muzakkiri ahbob” muallifi dahshatli muhorabalarni ham o'ziga xos tasvir usullari orqali nozik va nafis ifodalaydi.

Harbiy sohaga aloqador voqealar talqiniga hayratomuz badiiy lavhalarni singdiradi. Binobarin, tazkiradan yuqorida keltirilgan iqtibosda dahshatli urushning boshida turgan Muhammad Shayboniyga nisbatan “mulku davlat oshig'i” tasviriy ifodasini qo'llasa, qonli jang natijasida qo'lga kiritilajak o'lka yoki shaharni “suyuklining yuzi” perefrazasi orqali aks ettiradi.

Ubaydullo Bahodirxonning harbiy sohadagi muvaffaqiyatlarini Mir Abdullo Yamaniyning ogohlighi sharofatidan, deb bilgan “Muzakkiri ahbob” muallifi Turku Ajamu Arab xalqlarini “zanjiri irodati bila giriftori beqayd” (Navoiy) qilgan Mir Arabning silsilasi haqida ixcham ma'lumot beradi. “Muzakkiri ahbob”da qayd

¹⁴⁴ O'sha asar. –B.22.

qilinishicha Ubaydulloxonning piri Mir Abdulla Yanamiyga qabul nazari Hazrati xoja Ahrori valiydan hosil bo'lgan. Xoja Ahrorga irodat nisbati Yaqub Charxiydan yetib, Yaqub Charxiy Hazrat Bahouddin Naqshbandning muridi bo'lganlar.

Hasanxoja Nisoriy ma'lumotlariga ko'ra, Shayboniy vafotidan keyin Movarounnahr viloyatlarining barchasi o'zbekxonlar qo'lidan chiqqan. Zahiriddin Muhammad Bobur Badaxshon hukmdori Xon Mirzo bin Sulton Mahmud Mirzo bin Abusaid Ko'ragon hamda Shoh Ismoil Safaviy ko'magida 1510-yildan keyin uchinchi marta Movarounnahrni zabt etgan.

Hasanxoja Nisoriy siyosatni ham, ilohiyotni ham, tasavvufni ham, tarixni ham yaxshi bilgan. "Muzakkiri ahbob" sahifalarida u tarix ilmining mukammal bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi. Tazkiranavis 1510-yildan keyingi Vatanimiz tarixini komil ishonch bilan bayon etadi: "To'qqiz yuz o'n yettinchi yili mazkur Amirning nafis nafasleri sharofati sabab Hazrat Ubaydullo Bahodirxon uch ming qurollangan chavandoz bilan kelib, oltmish ming kishiga qarshi jang qilib **"Allohning izni bilan ozchilik ko'pchilik ustidan g'alaba qiladi"** karimasi mazmuniga ko'ra dushman ustidan g'alaba qozonib, Movarounnahr mulkini butunlay qo'lga kiritganlar".¹⁴⁵

Hasanxoja Nisoriy hijriy 917 yilda milodiy 1511-1512-yillarda o'zbekxonlarning Movarounnahrni qayta egallashini, avvalo, murshidi komil Amir Abdulla Yamaniyning karomati, undan keyin Ubaydullo Bahodirxonning shijoati natijasi ekanligini qayd qiladi. 60 ming kishilik ulkan qo'shin ustidan Ubaydullo Bahodirxon sarkardaligidagi 3000 askarning g'alaba qilishini Allohning muqaddas kitobi – Qur'oni karimdan oyat keltirish bilan dalillaydi. Zahmatkash mutarjim Ismoil Bekjon oyati karimaning "Baqara" surasidan olinganligini to'g'ri aniqlagan.

Ammo "Muzakkiri ahbob" tarjimasining "Izohlar" qismida oyati karimaning 2-suradagi o'rni bir oz yanglish belgilangan: "Qur'on, 2-sura, 251-oyat".¹⁴⁶ Aslida

¹⁴⁵ O'sha joyda.

¹⁴⁶ O'sha asar. –B.293.

esa Hasanxoja Nisoriy 2-suraning 249-oyati karimasidan iqtibos keltirgan: “Qanchadan-qancha oz sonli guruhlar Allohning izni bilan ko‘p sonli guruhlar g‘olib kelgan”.¹⁴⁷ “Baqara” surasining 249,250,251,252-oyatlari Allohning izni bilan oz sonli mo‘minlarning ko‘p sonli kofirlar ustidan g‘olib kelishi haqidagi ilohiy xabarlarni o‘z ichiga oladi. Alloh bunday g‘alabani sabrli, mo‘min, qat’iyatli, doimo Allohni unutmaydigan, qiyinchliklardan qo‘rqmaydigan, hamma ish **“Allohning izni bilan”** amalga oshishiga ishonchi komil, muqarrab bandalariga berishi yuqorida eslatilgan oyati karimalarda chuqur talqin qilinadi. Va podshoh Tolutning oz sonli mo‘minlar bilan g‘oyatda katta qo‘shinga ega bo‘lgan qudratli lashkarboshi Jolut ustidan g‘alaba qilganligi dalil sifatida keltiriladi. Mufasssirlar ayni ilohiy haqiqatni hijriy ikkinchi yilning ramazon oyida Badr jangida payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom sarvarliklaridagi musulmonlarning kofirlar ustidan g‘olib chiqishlari bilan qiyoslaydilar. Manbalarda zikr qilinishicha, Makka mushriklarining 1000 kishilik to‘la qurollangan qo‘shini ustidan yarmi qurol-yaroqsiz Madina musulmonlari 313 kishi bilan olamshumul g‘alabani qo‘lga kiritganlar.¹⁴⁸ Imom Ismoil al-Buxoriy Baro ibn Ozib roziyallohu anhudan qilgan rioyatda: “Muhammad sallallohu alayhi vasallomning Badr urushida qatnashgan sahobalarining soni uch yuz o‘n necha kishi - Tolut bilan daryodan o‘tgan sheriklarining soniga teng kelganini gaplashar edik, u bilan faqat mo‘minlarga o‘tgan degan ekanlar”.¹⁴⁹

Tarixiy manbalarning guvohligiga ko‘ra, 1511-1512-yillarda Movarounnahr o‘zbekxonlar tomonidan qayta egallangach, Zahiriddin Muhammad Bobur yana 1512-yilning kuzida Ismoil Safaviy harbiy ko‘magi bilan Movarounnahr qo‘shin tortadi. Qarshi shahri qamal qilinadi. Shahar xalqi qal’ani qattiq himoya qiladi. Bundan g‘azablangan shoh Ismoilning Najmi Soniy laqabli lashkarboshisi Qarshini zabt etsa, butun aholini yoppasiga qatli om qilishga qaror qiladi. Mirzo Bobur va shoh Ismoil oldida katta nufuzga ega bo‘lgan ulug‘ kishilar bunday xunrezlikning

¹⁴⁷ Шайх Муҳаммад Содик. Тафсири ҳилол.-Toshkent:Hilol nashr, 2022. 1-жилд. –Б.241-242.

¹⁴⁸ Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Тошкент: Камалак, 1991. –Б. 35-36.

¹⁴⁹ Шайх Муҳаммад Содик. Тафсири ҳилол.-Toshkent:Hilol nashr, 2022. 1-жилд Б.242.

oldinini olishga harakat qiladilar. Ammo ularning asosli va adolatli xatti-harakatlari behuda ketadi. Qarshini egallagach, Najmi Soniy qatli om qilishga buyruq beradi. 15 ming kishi qilichdan o'tkaziladi. Bunday xunrezlik Movarounnahr xalqining shialardan va Boburdan qattiq g'azablanishiga sabab bo'ladi.

Najmi Soniy Buxoroni qo'lga kiritishidan oldin o'zbekxonlar tomonidan qattiq himoyalangan G'ijduvonni zabt etishga qaror qiladi. Shahar qamal qilinadi. Zahiriddin Muhammad Boburning G'ijduvon qamalini davom ettirmaslik haqidagi maslahatiga shia lashkarboshisi rozilik bermaydi.

O'zbekxonlarning Movarounnahrni yana qo'ldan chiqarishi aniq bo'lib qoladi. Ammo murshidi komil Amir Abdullo Yamaniyning Turkistondan yetib kelishi bilan siyosiy vaziyat o'zgaradi. Mir Arab, avvalo, Ubaydullaxonni, keyin esa Jonibek sultonni, Abu Said Sultonni va Temur sultonni jangga undab, ularning qalbida g'alabaga bo'lgan qat'iy ishonchni paydo qiladi. O'zbekxonlarda har tomonlama ustun bo'lgan dushman bilan qal'adan chiqib jang qilish jur'ati paydo bo'ladi. Shunday janglarning birida Najmi Soniy Ubaydullaxon askarlari tomonidan o'ldiriladi. Bobur va shia qo'shini Movarounnahrni tark etishga majbur bo'ladi.

“Muzakkiri ahhob”da tarixiy jarayon bilan adabiy jarayon uyg'unlikda tahlil qilinadi. Tarixiy jarayonning ilmiy nasrdagi badiiy talqini tahlil markazida turgan shoir satrlariga sharh vazifasini bajaradi: “To'qqiz yuz o'n sakkizinchi yili (milodiy 1512-yil – M.M.) yulduzi kuygur, yomon yulduzli Najmning g'azoti voqeasi ro'y berdi. O'shanda ul badbaxtning tole' yulduzi izzat avjidan tubanlik tubiga enib, nobudlik quyoshi olovida kuyib kulga aylandi va boshidan toj durri va takabburlik g'ururi uchib ketib, jahannam sari ravona bo'ldi va bu bayt esa ul hazrat (Ubaydulloxon)ning ta'blari mahsulidir. Bayt:

Shud zi otashi muhoribayi sunniyoni pok,
Najmi sitora so'xtan rofiziyy halok.

(Mazmuni: Pok sunniylar urushi olovidan, yulduzi kuygur rofiziy Najm halok bo‘ldi). Va bu fath ham mazkur amir (Arab)ning oliy himmati tufayli nasib bo‘lgan.¹⁵⁰

Matni keltirilgan Ubaydiy masnaviysida 1512-yilning noyabrida o‘zbekxonlar bilan qizilboshlar o‘rtasida kechgan muhorabaning natijasi badiiy talqin qilingan. Mazkur tarixiy voqeaning ixcham tafsilotlari va ilmiy talqini Hasanxoja Nisoriy jumllarida o‘z ifodasini topgan. Tazkiranavisning o‘ziga xos uslubi va mahorati tufayli uning bitiklari Ubaydiy baytiga mufassal sharh vazifasini o‘taydi.

Ilmiy matn bilan badiiy matnda manba, g‘oya, timsol va tasvir uyg‘unligi bor. Ilmiy matn uchun ham, masnaviy uchun ham Qur‘oni karim “Najm” surasining dastlabki oyati karimasi: “Botib ketayotgan yulduz bilan qasamyod etamanki” g‘oyaviy asos vazifasini bajargan.¹⁵¹ Insoniyat tarixida yulduzga xudo deb sig‘inuvchi qavmlar bo‘lgan. Hazrat Alisher Navoiy yozadilar: “Har nekim baqosi payvasta emas, parastishg‘a shoyista emas”.¹⁵² Qaysi mavjudot o‘lmasdan abadiy yashash imkoniyatiga ega? Hech qaysi. Faqat Allohgina-Boqiy. Shunday bo‘lgach, sajda qilishga, sig‘inishga Ugina munosib. Oyati karima iymon va islom talablariga xilof ravishda ish tutadigan, Allohning yakkayu yagona qudrat sohibi ekanligini tafakkur qilib ko‘rmaydigan kishilarga eslatma – ibrat sifatida nozil qilingan. Ilohiy Kitob shahodatiga hamda bugungi zamonaviy falakiyot fanining ilmiy xulosasiga ko‘ra, har qanday yulduz ham botadi, portlaydi, kuyadi, titilib ketadi.¹⁵³ Xom sut emgan inson tabiatida shuhratparastlik, amalparastlik, izzattalablik jazava qilgan paytlarda ilohlik faqat Parvardigorgagina xos ekanligini unutib qo‘yadi. Bu hayoti dunyoda o‘ziga berilgan amal – mansab va boshqa eng katta imtiyozlar muvaqqat ekanligi xayolidan ko‘tariladi. Yerdan oyog‘i, osmondan boshi uziladi. Asli ismi Ahmad bo‘lib, harbiy sohadagi xizmatlari uchun Najmi Soniy laqabiga loyiq

¹⁵⁰ O‘sha asar. –B.23.

¹⁵¹ Курьони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур.-Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. –Б. 526.

¹⁵² “Махбуб ул- кулуб”. Қиёсий матн, Москва-Ленинград. –Б.106.

¹⁵³ Шайх Мухаммад Содик. Тафсири хилол.-Toshkent:Hilol nashr, 2022., 5-жилд. –Б. 625.

ko‘rilgan safaviy lashkarboshisi hayotdagi yutuqlaridan esankirab, o‘zligini unutgan. Faqat o‘z havoyi nafsi buyruqlariga ko‘ra ish tutib, o‘zgalar fikri bilan hisoblashmagan. Zahriddin Muhammad Bobur va o‘z mamlakatining qudratli podshosi shoh Ismoil yuksak hurmat qilgan Amir G‘iyosiddin Mahammad bin Amir Yusuf kabi ulug‘larning iltimoslarini mensimasdan Qarshi shahrida qatli om o‘tkazgan. Zahriddin Muhammad Boburning G‘ijduvon qamalini davom ettirmaslik haqidagi maslahatini nazar-pisand qilmagan. Natijada u o‘z kibriining qurboniga aylangan. Mutakabbirlikning bunday oqibati “Muzakkiri ahhob”da va tazkirada keltirilgan Ubaydiy qalami bilan bitilgan masnaviyda oyati karima surati va siyratiga g‘oyatda uyg‘un ravishda “yulduzi kuygur” (“sitora so‘xtai”) ifodasi orqali aks ettirilgan. Nasriy matndagi “yomon yulduzli” so‘z birikmasi orqali fikr yana ham kuchaytirilgan. **“Ul badbaxtning tole’ yulduzi, izzat avjidan tubanlik tubiga enib, nobudlik quyoshi olovida kuyib kulga aylandi”** kabi istioraning bir-biri bilan mustahkam zanjir kabi bog‘langan quyma tizmasi tarixiy haqiqatning ilmiy va badiiy talqiniga yangi jon va toza ruh bag‘ishlagan. Hasanxoja Nisoriy tahlil qilinayotgan jumlaning davomida ham istiora san‘atini nasriy matnga olib kirishni davom ettiradi. “Takabbur g‘ururi” istiorasi orqali o‘ziga bino qo‘ygan, shafqatsiz, xudbin sarkarda timsolining asl mohiyatini san‘atkorona ochadi.

“Muzakkiri ahhob” muallifi Ubaydullo Bahodirxonning ilmu fazl sohasidagi kamolotini go‘zal suratda va siyratda ta‘rifu tavsif qiladi. Tazkirada qalamga olingan shaxs iste‘dodining ayni qirradi to‘la va batafsil, latif bir uslubda oyatlar va hadislardan dalillar keltirish bilan ilmiy va badiiy kalom bahsi asosida bayon qilingan:

“Mulku davlat tashvishlariga qaramasdan Ubaydulloxonning malakiy sifat zoti “Inson o‘z himmati qanoti vositasida yuksaklikka ko‘tariladi” taqozosiga ko‘ra hamma oliy himmat va oliy g‘ayratini ilmu kamol mamlakatlarini qo‘lga kiritish hamda fazlu fazoil shaharlarini ishg‘ol qilish sari yo‘naltirgan”.¹⁵⁴Tarixiy shaxsning ko‘p qirrali va keng qamrovli faoliyatni uyg‘unlashtirish salohiyati

¹⁵⁴ O‘sha asar. –B.23.

tazkiranavisning ilmiy-nazariy, poetik kashfiyotlari bois tom ma'noda dolzarb ko'lam kasb etgan. Mamlakat olish va uni risoladagidek saqlash kabi shoh va sarkardaga tegishli faoliyat qirralari ilmu kamolda mumtoz, fazlu fazoilda benazirlik qirralari bilan uyg'unlashtirib ifodalangan. "Muzakkiri ahbob"dan matni keltirilgan iqtibosda bu poetik vazifa **"ilmu kamol mamlakatlarini qo'lga kiritish hamda fazlu fazoil shaharlarini ishg'ol qilish"** istioralari orqali amalga oshirilgan.

"Muzakkiri ahbob" ma'lumotlariga asoslanib, Ubaydullo Bahodirxon mukammal egallagan ilmlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Tasavvuf.
2. Hadis.
3. Fiqh.
4. Qiroat.
5. Tafsir.
6. Xattotlik.
7. Musiqa.

Ubaydullo Bahodirxon ilohiy ma'rifatni, ilohiy zot va sifatlarni, ma'rifiy hodisalar tafsili va haqiqatini chuqur anglagan. O'z she'rlarida nozik ma'nolarni so'fiyona ramz va ishoralar bilan ifodalab, yuzlab insonlarning qalbini ma'rifat nuri bilan yoritgan: "Tasavvufda fikrlari mazmuni asosli va kuchli namoyon bo'lar, baland ma'nolarni dilpisand iboratlar bilan bayon qilar edi".¹⁵⁵

Ubaydullo Bahodirxon tasavvufiy timsollar, tasavvuf tili va istilohlarining ma'nolarini chuqur mushohada qilgan. So'z va iboralarning ramziy, majoziy ma'nolaridan foydalanib, tarhi toza ruboiylar bitgan. "Muzakkiri ahbob"da Ubaydiyning ma'rifiy mazmundagi ruboiylaridan bir namuna keltirilgan:

Ahvoli nim, ey do'st, yake-du binam,
Har chiz, ki binam, hama bo o' binam.
Mustag'riqi "hu" chunon shudam dar hama hol,
Hu go'yamu "hu" bishnavamu "hu" binam.¹⁵⁶

Ruboiyda tavhid g'oyasi ilgari surilgan. Tavhid shariatda Haq subhanahu va taoloni yakkayu yagona deb bilmoq va til bilan zikr qilmoq. Bunda e'tiqod to'g'riligi, beg'uborligi, qat'iyiligi asosiy masala bo'lib, qolgan barcha amallar unga bog'langan. Ayni masalada ko'plab kitoblar tasnif qilingan. Olimlar orasida

¹⁵⁵ O'sha joyda.

¹⁵⁶ O'sha joyda.

jiddiy bahsu munozaralar bo‘lgan. Ana shu munozaralar asosida turli yo‘nalishlar kelib chiqqan. Ayniqsa, tariqatda tavhid muammosiga o‘zgacha e‘tibor qaratilgan.

Muhyiddin Ibnal Arabiy (1165-1240) talqinicha, Alloh ikki mohiyat – botin va zohirga ega yagona oliy haqiqatdir. Botinni ko‘rib bo‘lmaydi. Zohir olamdagi har bir narsada, Haqning har bir yaratilmishida namoyon bo‘ladi. Xudo borliqdan va borliq undan ajralgan tarzda mavjud emas. Bu Ibnal Arabiyning vahdatul-vujud ta‘limotida o‘z ifodasini topgan.

Ayrim ulamo va mutafakkirlar vahdatul-vujud, ya‘ni bandaning haq bilan birlashib ketish g‘oyasini kufr deb bilganlar. Alloh bilan birlashish g‘oyasi Ilohga nisbatan kamsitish deb qaralgan. Va bunday qarash qattiq tanqid qilingan.

“Muzakkiri ahbob”da keltirilgan ruboiy qahramoni barcha yaratilganlarni Yaratuvchining o‘zi bilan birga ko‘radi. Ko‘ziga Allohdan boshqa ko‘rinmaydi. Qulog‘i Allohdan o‘zgani eshitmaydi. Butun vujudi Alloh nuriga g‘arq bo‘lib, undan faqat “Alloh” degan nido chiqadi.

Ubaydullo Bahodirxon ko‘plab mutasavvif va ulamolar tomonidan turlicha munosabat bildirib kelingan tavhid g‘oyasiga yangicha talqin bag‘ishlagan. Bu uning mustaqil fikrga, teran bilim va dunyoqarashga ega bo‘lgan ijodkor ekanligini ko‘rsatadi.

“Muzakkiri ahbob”dan o‘qiymiz: “Va bu ruboiyni hazrat Mahdumiy mavlono Kosoniyga – sirlari muqaddas bo‘lsin – yuborgan. Ular bu ruboiyga yaxshi sharh yozganlar va ruboiy yaratuvchisi maqomotini bayon qilganlar”.¹⁵⁷ Buyuk tasavvufshunos olim Hazrat Mahdumi A‘zam Kosoniy Dahbediy Movarounhr va Xuroson xalqi, Zahridin Muhammad Bobur va shayboniy sultonlari nazdida katta e‘tiborga ega bo‘lgan. Asli ismi Xoja Ahmad bin Jaloliddin Kosoniy bo‘lgan olim ilmiy dunyoda Mahdumi A‘zam nomi bilan e‘zozlangan. Yirik allomaning XVI asr boshlarida yozilgan “Majma‘ar-rasoil” to‘plami “Risolayi Boburiya” “Risolayi sharhi ruboiyot” (“Sharhi ruboiyoti Ubaydiy”) “Sharhi yak g‘azali Ubaydulloxon”, “Sharhi 12 ruboiyoti forsiy” kabi 30 ga yaqin risolalardan tarkib topgan.¹⁵⁸

¹⁵⁷ O‘sha joyda.

¹⁵⁸ Салохий Д. Бобурнинг буюк эътиқоди.-Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2019. –Б.13-14.

Shayboniyxon 1503-yili Farg‘onani zabt etganida Mahdumi A‘zam Axsida bo‘lgan. Va u bir vaqtlar Boburning otasi Umar Shayx Mirzoning poytaxti bo‘lgan shu shaharga hokim qilib tayinlagan (1503-1509).

Xoja Ahmad bin mavlono Jaloliddin Kosoniy shaxsiga katta hurmat bilan qaragan Jonibek sulton Karmanaga hokim etib tayinlangach (1510), Mahdumi A‘zam shu shayboniy hukmdor taklifiga binoan Karmanaga keladi. Jonibek sulton vafotidan keyin esa yashash manzilini Buxoroga ko‘chiradi va umrining oxiriga qadar (1544) shu sharif shaharda yashaydi. Ulug‘ olim bilan bo‘lgan ma‘rifiy suhbatlar ta‘sirida Ubaydullo Bahodirxon Hazrat Mahdumi A‘zam Kosoniy Dahbediyga qattiq ixlos qo‘ygan. Xonning ustoz va piri Mir Arabga ixlos va e‘tiqodi qay darajada poydoru ustivor bo‘lsa, Mahdumi A‘zam Kosoniy shaxsiyatiga, ta‘limotiga ham Ubaydiyning ixlos va ishonchi undan kam bo‘lmagan. Rabboniy olim suhbatiga hamisha intiq bo‘lgan. Xon “baland ma‘nolar, dilpisand iboralar bilan bayon qilingan” (Nisoriy), o‘ziga xos obrazlar, timsollar, ramzlar bilan yo‘g‘rilgan so‘fiyona g‘oyalarga mos asarlarini Mahdumi A‘zam Kosoniy hukmiga havola qilgan. Ulug‘ olimning talqin va tafsiriga kuchli ehtiyoj sezgan. O‘z zamonasining zabardast adabiyotshunos olimi Hasanxoja Nisoriy Ubaydullo Bahodirxon va Hazrat Mahdumi A‘zam Kosoniy Dahbediy adabiy-ilmiy munosabatlariga aloqador tarixiy lavhaga e‘tiborni tortish bilan Ubaydiy dunyoqarashi, estetikasining noyob bir qirrasini san‘atkorona ko‘rsatgan.

Buyuk olim Mahdumi A‘zam Kosoniy Zahriddin Muhammad Bobur va Ubaydiy kabi ulkan ijodkorlarning fikr va g‘oyalar olami, tafakkur go‘zalligini teran anglagan. Ularning shaxsiga va ijodiga jiddiy e‘tibor bilan qaragan. Ijodini sinchiklab kuzatib borgan. Asarlariga sharh yozgan.

Manbalarning shahodatiga ko‘ra, VIII-XII asarlarda Movarounnahrda uch ming nafardan ortiq ajdodlarimiz hadis ilmi bilan shug‘ullanganlar. Ulardan ming nafari Samarqandda, olti yuz nafari Nasafda faoliyat ko‘rsatgan.¹⁵⁹ Hadis ilmining temuriylar va shayboniylar davridagi nufuzli mavqeda turgan allomalaridan biri

¹⁵⁹ Раҳимжонов Д. Ҳадис илмининг Насафдаги ривож. Имом ал Бухорий сабоқлари. 2006, №3. –Б. 173-174.

muhaddislar boshlig'i Mavlono Ro'zbehon Isfaxoniy (1458-1521) bo'lgan. "Muzakkiri ahhob"dan o'qiydiz: "Va Ubaydulloxon hadis fanida muhaddislar boshi xoja Mavlono Isfaxoniy shogirdidirki, alar sifati sharxi mashriqi mag'ribda mashhur, yog'duli qalbi chirog'doni mash'aldek purnur".¹⁶⁰ Sharqu G'arbda dovrug' taratgan, Mavlono Ro'zbehon Isfaxoniy "Muzakkiri ahhob" muallifi o'z ilmiy tasvir uslubining asosiy tamoyiliga sodiq qolib, istiora va tashbih san'ati ko'zguisida ("yog'duli qalbi chirog'doni mash'aldek purnur") tiniq aks ettirganidek, nurli fikr, nurli so'z, nurli amal sohibi bo'lgan. Ilohiyotchi, mutasavvif, tarixchi olim sifatida nodir asarlar meros qoldirgan. Qur'oni karimga forsiy tilda tafsir yozgan. Hadis kitoblariga sharhlar bitgan. Sunnat va bid'at jamoalari o'rtasidagi farqlarni aniq dalillar misolida asoslab, "Yomon yo'llardan qaytish" kitobini yaratgan. "Ulug' Tangri qalbimda undan boshqaga sig'inish yo'qligini, o'zi bilsa bas" hadisi mohiyatidan kelib-chiqib, jahriya tariqatidagi qoidalarni ham e'tibordan soqit qilmagan. U tasavvuf shayxlari shaxsiyatining nozik qirrasini bo'lgan karomatdan ham benasib bo'lmagan. "Muzakkiri ahhob" muallifi hali yorug' dunyoga ko'z ochmasidan soliha onaning tushiga kirib, "Hazrat Xoja buzurgorning nomini farzandingga qo'y", deb tayinlagan. Bola tug'ilganda, tabriklash uchun Ibodulloh Sayid Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja xonadoniga tashrif buyurgan. Iste'dodli adib va shoir Xoja farzandi dilbandini murshidi komilning huzuriga keltirgan.

Mavlono Ro'zbehon Isfaxoniy bo'lajak yirik shoir va olim Nisoriyga "Bahouddin Hasan" deb ism berganlar. Mavlono Ro'zbehon Isfaxoniy o'zbek-fors tojik tillarida she'rlar yozgan.

Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahhob" tazkirasi birinchi bobining dastlabki fasliga "Keksalik yoshiga yetib vafot etgan va Buxoroda dafn qilingan jamoat zikrida" deb sarlavha qo'yilgan. Mana shu sarlavha ostidagi birinchi maqola Xoja bin Ro'zbehon Isfaxoniyga bag'ishlangan. Maqolada xalq orasida Xoja Mavlono laqabi bilan mashhur bo'lgan Mavlono Ro'zbehon Isfaxoniyning she'riy

¹⁶⁰ O'sha asar. –B. 23-24.

merosidan rangin namunalar keltirilgan. Mavlono Roʻzbehonning hasbi holi, temuriy va shayboniy hukmdorlar, oʻz zamonasining Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja (Xoja) kabi maʼrifat dargʻalari, olimu shoirlari bilan insoniy va ijodiy munosabatlari haqida qimmatli ilmiy maʼlumotlar berilganki, ularni oʻrganish alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

Diniylik bilan dunyoviylikning uygʻunligi shaxsida kamol topgan shoh shoir Ubaydullo Bahodirxon fiqhda oʻz zamonasining peshvosi Mavlono Mahmud Azizondan, qiroat ilmida “hofizlar qaymogʻi” (Nisoriy) Mavlono Yormuhammad Qoriydan taʼlim olgan.¹⁶¹ Qurʼonni anglash va tushunishda tafsir kitoblarining oʻrni va ahamiyati gʻoyatda beqiyos. Shuning uchun qadimdan ilohiy kitob tafsirlariga jiddiy eʼtibor berib kelingan. Movarounnahrda tafsir ilmi rivoj topib, mufassirlar silsilasi yuzaga kelgan. “Muhaddislar sultoni” unvoni sohibi, ulugʻ ajdodimiz Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al –Buxoriy tafsir sohasida “at-Tafsir al-kabir” asarini yaratganlar, “al-Jomi as-sahih”da tafsirga oid mingdan ortiq hadisni jamlaganlar. Ubaydullo Bahodirxon mufassirlar silsilasini davom ettirib, Qurʼoni karim mutolasini osonlashtirish uchun oʻzbek tilida Ilohiy kitobga tafsir yozgan. Fiqhga bagʻishlab maxsus risola yaratgan.¹⁶² Tabiiyki, qattiq riyozat mahsuli boʻlgan bu asarlar shoh-shoir adabiy ijodiga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmagan. Qurʼoni majidning balogʻat va fasohat bilan bogʻliq jihatlari juda nozik uslubda Ubaydiy sheʼriyatiga singgan. Shoh shoir ijodining ayni muhim qirrasini oʻrganish kechiktirib boʻlmaydigan dolzarb vazifalardan biridir.

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, shayboniylarning aksariyati, jumladan, Ubaydiy ham hanafiy mazhabi va shu mazhab namoyandalariga yuksak eʼtiqodda boʻlgan. Oʻz xalqining fidoiy farzandi, yirik davlat va madaniyat arbobi Ubaydullo Bahodirxon ajdodlarimizning aqidaviy qarashlari, ijtihod va fatvolari Qurʼoni karimga asoslangani uchun ham tafsir va fiqh kitoblarini yaratgan. Turli mafkuralar kurashi davom etayotgan, odamlar ongi shuurini din orqali egallash jarayoni qizgʻin ketayotgan hozirgi davrda Qurʼoni karimni toʻgʻri anglash va

¹⁶¹ Oʻsha asar. –B.24.

¹⁶² Oʻsha joyda.

to'g'ri talqin qilish hamma ishdan zarurdir. Bunday yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar oyati karimalardan eng ishonchli dalil va eng kuchli omil sifatida foydalanayotgan ba'zi zararli oqimlarning kirdikorlarini fosh etishda g'oyatda qo'l keladi. Shunday ekan, Ubaydullo Bahodirxonning fiqh va tafsirga oid kitoblarini joriy imloga tabdil qilish, sinchiklab o'rganish va ilmiy tahlil natijalaridan kelib chiqadigan xulosalarni ilmiy jamoatchilikka va keng xalq ommasiga yetkazish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Sharq xalqlari madaniy hayotida xattotlar o'z zamonasining peshqadam ma'rifatparvari, fozil va qobil, kishisi ilg'or ziyolisi sifatida e'tirof etilgan. Arab harflari bilan yoziladigan nasta'liq, kufiy, riqo, suls va nasx xat turlari va ular asosida ixtiro qilingan o'nlab imlo uslublarining har biri san'at mo'jizasi sifatida qabul qilingan. Ubaydullo Bahodirxon iste'dodining yana bir nodir qirrasini xattotlik bo'lgan. Shoh-shoir ko'proq diniy va ilmiy asarlarni kitobat qilishda keng iste'molda bo'lgan nasx xatini nozik did bilan jozibador bitgan. "Muzakkiri ahbob"dan o'qiymiz: "Nasx xatini ham juda yaxshi bitardi. Siporalar yozganki, hozir ham tilovat yig'inlarida duo bilan o'qiladi".¹⁶³

Ko'ngil – ilohiy ma'rifat maskani. She'r va qo'shiq, musiqa va kuyning qalb tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati azaldan benihoya baland bo'lgan. Shuning uchun ham sarvari olam, Rasululloh (s.a.v.) "Musiqa nag'malari barcha nag'malar ichida Allohi taolo sirlaridan bir sir-sinoatdir" – deganlar. Yuksak kamolot sohibi, shoh shoir Ubaydullo Bahodirxonning musiqa ilmi va amaliyotiga munosabati ana shu hadis mohiyatidan kelib chiqadi. "Muzakkiri ahbob" muallifi buni teran anglagan: Va "Musiqa nag'malari barcha nag'malar ichida Allohi taolo sirlaridan bir sir-sinoatdir" mazmuniga ko'ra musiqa ilmiga ko'p e'tibor berardi va chalishi, aytishi jonfizo nag'malar hamda ruhafzo tovushlarga muvofiq kelardi. Ajoyib-g'aroyib naqsh (usul)larda dilfarib tarkibotlarni shunday ijro etardiki, iyqo' qonunlarini chaluvchi sozandalar va turli vaznlarda kuylovchi navozandalar hamda bastakor

¹⁶³ O'sha joyda.

mashshoqlar barchasi ul amallarga bir ovozdan tahsin aytib keladilar”, deb yozgan.¹⁶⁴

“Muzakkiri ahbob”dagi ishoralardan nazarga tashlanishicha, Ubaydullo Bahodirxon atrofidagi davlat xizmatchilarining aksariyati mol-dunyoga mukkasidan ketmagan, hirsu havasdan voz kechgan, botiniy olami boy, fozil kishilar bo’lgan. Ularning ko’pchiligi xonning harbiy yurishlarida shahid bo’lgan. Ba’zilari Ubaydulloxon vafotidan keyin amalu mansabdan voz kechgan. Haj ibodatiga borgan. Faqir go’shasini ixtiyor qilib, darveshona hayot kechirgan: “Va xoni jahonpanoh dargohining mulozimlari ko’pincha fozillar bo’lardi. Ularning ko’pchiligi shahidlikning azim davlati va g’azot saodatiga yetishganlar. Ayrimlari baytullo sharafiga musharraf bo’lib, faqirlik libosida umr kechirganlar”.¹⁶⁵

“Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati” mavzusida ustoz Abduqodir Hayitmetov rahbarliklarida Muhammad Abdullayev nomzodlik dissertatsiyasini yozdi. Olimning aniqlashicha, Qul Ubaydiyning eng katta asarlar to’plami 991 (1583) yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan kitobat qilingan. Mazkur qo’lyozma “Kulliyot” nomi bilan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida 8931 raqami ostida saqlanadi. Kulliyotning birinchi qismini forsiy devon (4-200-sahifalar), ikkinchi qismini arab tilida bitilgan she’rlar (201-210-sahifalar), uchinchi qismini turkiy devon (211-695-sahifalar) tashkil etadi. Qul Ubaydiyning turkiy devoni an’anaga ko’ra, hamdu na’t bilan boshlangan. Bir manoqib, “Masoil us-Salot” sarlavhasi ostida hikmatlar, 4 fard, bir tarjiband, salovot va bir hadis tarjimasi shu devon tarkibiga kiritilgan. 310 g’azal, 25 qit’a, 11 tuyuq, 445 ruboiy, 700 baytdan iborat 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor ham turkiy devondan o’rin olgan.

Qul Ubaydiy “Omonatnoma”, “Shavqnoma”, “G’ayratnoma”, “Sabrnoma” kabi axloqiy masalalar talqiniga bag’ishlangan asarlar ham yozgan. Bu manzumalarga Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko’chirilgan “Kulliyot”ning

¹⁶⁴ O’sha joyda.

¹⁶⁵ O’sha asar.B.29.

oxiridan o‘rin berilgan.¹⁶⁶ “Muzakkiri ahbob” muallifi tazkirada Ubaydullo Bahodirxonning ulkan adabiy merosidan bir turkiy, ikki forsiy g‘azal matnini keltirgan. “Muzakkiri ahbob” ning Abdulg‘ozi Ubaydullo Bahodirxonga bag‘ishlangan fiqrasida mavzu taqozosiga ko‘ra, bir forsiy ruboiy, bir forsiy masnaviy va bir forsiy bayt ham keltirilgan. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Ubaydulloxon she‘r ilmida sohibi vuquf, uning ta‘rifga, maqtovg‘a hech qanday ehtiyoji yo‘q. Turkiyda va forsiyda tiniq va ravon g‘azallar insho qilgan. “Muzakkiri ahbob”da matni keltirilgan birinchi g‘azal quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

Hayra fi jamolihi unzur fi kamolihi,
Kullu lison vosif fi sifati jamolihi.¹⁶⁷

Besh baytdan iborat g‘azal hamd sifatida yozilgan. Abadiy go‘zallik va komillik manbai Haq subhanahu va taoloning tengsiz jamoli va kamoli o‘n sakkiz ming olamni hayratga soladi. Jam‘i bashar jinsi uning husni sifati vasfi bilan band. Har bir til sohibi Haqning go‘zalligini zikr qiladi. Yetti osmon, Yer va undagi barcha jonzot, butun borliq Yorning go‘zalligi ta‘rifidan so‘zlaydi. G‘azalda oshiq pokning tariqatning turli maqomlaridagi holati yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Yor husni sifatini anglagan oshiq yor jamoli mushohadasidan hayratga tushadi. Yoridan, Haqqi mutlaqdan xabar topib, uning vasliga yetishga, u bilan qovushishga intiladi. **Talab** maqomiga ko‘tariladi. G‘azalning ikkinchi baytida oshiqning **ishq** maqomidagi iztiroblari, ishqdan **ma‘rifat** maqomiga ko‘tarilib, **istig‘no** martabasiga yetganligi tasvirlangan:

Az‘afani vifoquhu kammislihu ishtiyoquhu,
Ahariqoni firoquhu fi talabi visolihi.¹⁶⁸

Yor vasli hajri-firoqida tani yongan oshiq istig‘no maqomiga yetib, Haq ishq va mushohadasidan boshqa hamma narsadan ajraladi. O‘z maqsadi, tilagi – Xudodan boshqa barcha narsalarni rad etadi.

¹⁶⁶ Абдуллаев М.А. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти. Ф.ф.н.диссертациясининг автореферати. –Тошкент: 2000, –Б.11-12

¹⁶⁷ O‘sha asar. –B. 29.

¹⁶⁸ O‘sha joyda.

Gʻazalning uchinchi bayti **hayrat** maqomi talqiniga bagʻishlangan:

Azzo va jalla zikruka va lo oliho gʻayruki,
Hayyorat kullu vosif fi sifati jalolihi.¹⁶⁹

Oshiq Allohning muazzamu buyukligi, yataruvchining qudrati, goʻzalligidan hayratlanadi, ulugʻligi sifatleri oldida hayron qoladi.

Toʻrtinchi baytda Yor jamoli, cheksiz qudrati, azamatu buyukligi hayratidan oʻz vujudi – borligʻidan butkul ajralgan, oʻzidan xabar va oʻzligidan asar qolmagan oshiqning **tavhid** va **fano** maqomidagi holati ixcham uygʻunlashtirilgan: Bunda bayt magʻzida turgan “kuyib kul boʻldi” iborasi yetakchi mudao ifodasi uchun xizmat qiladi:

Man ashaqa liqouka yahrुकuhu firoquka,
Kayfa yakuvnu holuhu man rahoma biholihi.¹⁷⁰

Gʻazalning maqtaʼida Ubaydiy ham haqiqat xaridori, talab ahlidan ekanligi va Haq vasliga yetish umidi bilan yashayotganligi taʼkidlanadi. Oshiq shoir agar Haq subhonahu va taolo Oʻzi ravo koʻrsa, uni ham oʻz istagiga yetkazishini iltijo qilib soʻraydi:

Tolibuka Ubayduka minka huva yuriyduka.
Faaʼtihu muroduhu anta turidu bolihi.¹⁷¹

“Koʻngil–ilohiyot mazhari, tavhid nurining manbai, Vujudi Mutlaq aksi namoyon boʻladigan makon. Inson maʼrifat siridan koʻngil vositasida ogoh boʻladi hamda vahdat maqomiga koʻngil kamoloti orqali erishadi: “Koʻngil maʼrifat bogʻidin vahdat rayohinining esgan nasimidir va ruhoniyyat gulistonidin oshnoliq gullarining shamimidur”.¹⁷² Koʻrinadiki, Alisher Navoiy ilohiy-irfoniy manbalarda turli uslub va jilolarda zikr qilib kelingan koʻngil (ruh) haqiqatini oharli ramziy-istioraviy iboralar orqali mohirona ochadi”.¹⁷³ “Muzakkiri ahbob”da

¹⁶⁹ Oʻsha joyda.

¹⁷⁰ Oʻsha joyda.

¹⁷¹ Oʻsha joyda.

¹⁷² Navoiy A. Muqammal asarlar tўplami. 20 jildlik, 14-jild. –Toʻshkent: Fan, 1998. –B.92.

¹⁷³ Xayitov Ш. Алишер Навоий насрида комил инсон образи. (Улуғ шоир манокиблари асосида).Филология фанлари бўйича докторлик (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация, –Б.22.

Ubaydiy ijodidan namuna sifatida keltirilgan ikkinchi g‘azal xuddi shunday ramziy-istoraviy tasvir bilan boshlanadi:

Buy arbobi vafo az guli mo meoyad,
Ka’ba zi on ru ba tavofi dili mo meoyad.¹⁷⁴

Ubaydiy ko‘ngilni “gul” istorasi bilan ifodalagan. Mumtoz ijodkorlarimiz asarlarida vafo, hayo, sabr va shukr iymonning to‘rt mustahkam ustuni sifatida talqin qilinadi. Iymon – odamiylikning asosiy mohiyati. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotning nasrda va nazmda yaratilgan ko‘pgina namunalarida, jumladan, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining 17-tanbihida kimdagi vafo bilan hayo yo‘q, unda iymon yo‘q, iymoni yo‘q kimsada esa odamiylik yo‘q, degan qat’iy xulosaga kelingan.¹⁷⁵

Ma’rifatga intiq inson qalbidan iymon ahlining muattar hidi anqib turadi. Ubaydiy talqinicha, hatto Ka’batulloh ham iymon-e’tiqodi mustahkam, vafo ahlining xushbo‘y hidi bilan muzayyan ko‘ngilning ziyoratiga keladi. Hazrat Alisher Navoiyning “Hayratul-abror” dostoni ikkinchi maqoloti tarkibidagi she’riy hikoyat Ubaydiy g‘azali matla’iga mufassal sharh vazifasini o‘taydi. Unda hikoya qilinishicha, musulmon olamida mashhur so‘fiy Ibrohim Adham safar mashaqqatlarini tortib, 14 yil deganda Ka’batullohga yetib keladi. Ammo u kelganida Ka’ba o‘z o‘rnida yo‘q ekan. Muborak sajdagohning Robiayi Adviya istiqboliga chiqqanligini aytadilar. Ramziy hikoyatda Robia butun intilishlari, hayotining ma’nosi poklik va ezgulik timsoli Allohga arzi-niyoz bilan yo‘g‘rilgan fidoyi muhabbat sohibasi sifatida talqin qilinadi.

Haq oshiqlarining dargohiga soxtakorlik, riyo aslo yo‘l topa olmaydi. Bu manzilga yomon ishlarga molik, noqobil odam hecham qadam bosa olmaydi. Faqat sidqu sadoqat, iymon-e’tiqod yo‘lida rost turgan, Haq do‘stlarigina bu qarorgohga kela oladi:

Nest sari manzili mo qobili har noahle,

¹⁷⁴ O‘sha asar. B. 30.

¹⁷⁵ Хайитов Ш. Алишер Навоийнинг кўнгил гулшани. – Бухоро: Бухоро давлат университети нашриёти, 2000. –Б.126.

Har ki ahl ast ba sari mo meoyad.¹⁷⁶

Haqqi mutlaq visoliga erishishni istab talab vodiysiga kirgan solik o‘z yo‘lini biyobonda yo‘qotib qo‘ysa, Tangri do‘stlari karvonining qo‘ng‘irog‘ini eshitib, o‘z yo‘lini topa oladi:

Dar biyoboni talab solik gumgashta ba roh,

Ba sadoi jarasi mahmili mo meoyad.¹⁷⁷

“Odamlarning mushkulini oson qilish, adashganlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, yiqilganlarni suyash, umidsizlarga umid bag‘ishlash, g‘ariblarga ko‘mak berish, ayriqliq azoblarida qiynalayotganlarning dardiga davo izlash Tangri do‘stlarining doimiy hayot dasturidir”.¹⁷⁸ G‘azalning 4-baytida “may” so‘zi qo‘llanilgan. Filologiya fanlari doktori Najmiddin Komilov “may”ni “ilohiy ishq – ma‘rifat donish ishtiyoqining avji qiyomi, Yor jamoli mushohadasidan oshiq dilida paydo bo‘lgan kuchli zavq-ilhomning behad xursandlik, sururning ramziy ifodasi sifatida” talqin qiladi.¹⁷⁹ G‘azalning to‘rtinchi baytida ilohiy nur qalbida jilvalangan komil insonlar ma‘rifat nuri bilan bizning anjumanimizni yoritish uchun keladilar, deydi shoir:

Chehra afro‘xta imshab zi may on shame’i buton,

Bahri afro‘xtani maxfili mo meoyad.¹⁸⁰

G‘azalning maqta‘ini o‘qiymiz:

Har kujo dardi dile hast, Ubaydy, hosil,

Batavofi dili behosili mo meoyad.¹⁸¹

“Dardi shifo topgan dil” (“dardi dili hast hosil”) ifodasi orqali nafs qutqusi, dunyo tashvishlaridan ozod, qalb osoyishtaligiga erishishgan, vasl maqomiga yetgan orif inson nazarda tutilgan. “Murodiga yetmagan dil” (“dili behosili”) ifodasidan murod esa butun vujudi, ruhi shuuri bilan ruhi mutlaq sari, nurlar olami tomon talpinayotgan ko‘ngil sohiblaridir.

¹⁷⁶ O‘sha asar. –B.30.

¹⁷⁷ O‘sha joyda.

¹⁷⁸ Хайитов Ш. Алишер Навоий насрида комил инсон образи. (Улуғ шоир манокбилари асосида).Ф. ф. д. (DSc) дисс... –Б.175

¹⁷⁹ Алишер Навоий. Ғазалларига шарҳлар. Тошкент: Камалак, 1991. –Б. 100.

¹⁸⁰ O‘sha asar. –B.30.

¹⁸¹ O‘sha joyda.

Nega qayerda dardi shifo topgan dil bo'lsa, u murodiga yetmagan dillarni tavof etish uchun keladi? Chunki tariqat hosilasi - irfon sohibi bo'lishdan maqsad faqat o'zini ma'rifatga yetkazish emas. O'zidagi ma'rifatdan boshqalarni ham bahramand qilish, jiddu jahd bilan Murod Ka'basi tomon intilayotgan nomurod insonlarni tavof qilib, ularga qudrat va quvvat baxsh etishdir.

Nisoriy talqinicha, turkiy she'riyatda ham Ubaydiy qalami bahor buluti (qalamining abri-naysoni – istiora) kabi gavhar sochish hunarini ado etdi. Quyidagi g'azal xonning shuhrat taratgan she'rlaridandir:

Bir-bir ayting do'stlar dardimni dildor oldida,
Aytib-aytib yig'langiz zinhor-zinhor oldida.¹⁸²

G'azalda oshiq hissiyotlari, tuyg'ulari betakror va jozibador, ta'sirchan ifodalangan. Shoirning sodda va ravon uslubi o'quvchini o'ziga jalb etadi. G'azal matla'ining har ikkala misrasi mukarrar san'ati bilan boshlanib, bayt yana shu tasviriy vosita bilan ("zinhor-zinhor") yakunlangan. Maqsad – ishq dardini kuylash. Mavzu – an'anaviy, ammo talqin mutlaqo yangi. G'azalda ham zaminiy (insoniy), ham ilohiy ishq bir yo'la talqin qilingan. Ammo besh baytdan iborat g'azalning biron o'rnida ramziy-istioraviy iboralar, majoziy lafz va murakkab tashbihlar mutlaqo ishlatilmagan. Matla'ning birinchi misrasida o'zini o'rtayotgan ishq dardini ma'shuqa huzuriga borib, bir-bir izhor qilishlarini do'stlariga tayinlagan shoir, ikkinchi misrada o'zi muftalo bo'lgan bu dardni aytib-aytib, yig'lab-yig'lab dildorga yetkazishlarini ulardan o'tinadi. Shoir talqinicha, zinhor-zinhor bu dard oddiy til bilan aytadigan dard emas, ko'ngil tili bilan aytib yig'laydigan, yig'lay-yig'lay aytadigan dard. Matla' misralarining mukarrar san'ati bilan boshlanishi va bayt oxirida yana shu san'atning quyilib kelishi har qanday sun'iylik, shakl-pardoqlikdan xoli. Bu iste'dodli shoirning faqat o'zigagina xos obrazli fikrlashi mahsuli, oshiq ruhi va qalbini teran his qilishi natijasidir.

Mukarrar san'ati qonuniyatlari g'azalning ikkinchi baytida ham amal qiladi. Baytlar bir-biri bilan mustahkam bog'lanib, yetakchi g'oya ifodasiga xizmat qiladi.

¹⁸² O'sha joyda.

Lirik qahramonning tuygʻulari baytdan baytga oʻtgan sayin quyuqlashib, dardu iztirobi kuchayadi:

Sharhi birla, dedim ahvolimni bir-bir arz qil,
Ey sabo, bir lahza xilvat topsang ul yor oldida.¹⁸³

“Oʻzbek mumtoz adabiyotida shamol ifoda va tasavvuridan foydalanish muhim oʻrin tutadi. Saboga murojaat qilish, mayin yoqimli shamol yoki tong yeli vositasida yaqinlarga xabar yoʻllash, arz aytish usuli keng amal qiladi”.¹⁸⁴ Qul Ubaydiyning lirik qahramoni gʻazalning ikkinchi baytida oʻz dardu-ahvolini bir-bir tushuntirib yor oldida sharhlab bayon qilishni sabodan iltimos qiladi. Ammo buning bir sharti bor. Hech kim oshiqning ahvol-ruhiyatidan xabar topmasligi zarur. Shuning uchun ham sabo Yorni xilvatda uchratib, oshiq dardini uning oldida izohlashishi, sharhlashi darkor.

Saboga murojaat uchinchi baytda ham davom ettirilib, gʻazaldagi yetakchi gʻoya teranlashib boradi. Oshiqning oʻz koʻngil dardini, xususan, kimdan pinhon tutayotganligi ayon boʻladi:

Xasta koʻnglum dardini aytur mahalda ey sabo,
Voqif oʻlkim boʻlmasun zinhor, agʻyor oldida.¹⁸⁵

Koʻngil dasturxon emas. Uni har kimga ham ochib boʻlmaydi. Ammo hayotda har bir sohibi dilning oʻz “mahrami rozi” boʻladi. Odatda, inson shunday doʻstidan oʻz sirini yashirin saqlay olmaydi. Yuqorida kuzatilgani kabi Ubaydiyning lirik qahramoni avval darddosh, sirdosh birodariga, undan keyin saboga ishq dardi bilan bogʻliq mungli qissasini hikoya qildi. Va koʻngil dardini Yorga yetkazishni ulardan soʻradi. Ammo oshiqning gʻam-qaygʻu chekkanini, qiynalganligini, armonu iztiroblarini, qalb ogʻriqlarini agʻyor zinhor bilmasligi lozim. Gʻazalning toʻrtinchi baytini oʻqiymiz:

Na mango gʻamxorakim, anga holini degay,
Ne gʻamim yer, ne soʻzum aytur kishi bor oldida.¹⁸⁶

¹⁸³ Oʻsha joyda.

¹⁸⁴ Хайитов Ш. Жавонмардлик ҳақиқати.-Тошкент: Фан, 2005. –Б. 33

¹⁸⁵ Oʻsha asar. –B. 30.

¹⁸⁶ Oʻsha joyda.

Inson o‘zi uchun ichi kuymaydigan, yuragidagi dardini anglay olmaydigan kimsalarga o‘z ahvolini oshkor qilmasligi kerak. Teran falsafiy mazmun bor, shoir satrlarida. Insonni anglash tuyg‘usi hammada ham bo‘layvermaydi. Odam zotini anglash javharidan mosivo, loqayd va beparvo kishi hech qachon boshqalarning g‘amini cheka olamaydi. Inson insonni anglashi uchun u poklik va niyozmandlikni o‘z hayot tarziga singdirgan bo‘lishi kerak. Shundagina u oddiy xalq qalbini ham, ilmi holda oshno oriflar ko‘nglini ham mutlaqo zabt etadi.

G‘azal maqta‘i ruju‘ san‘ati asosiga qurilgan. Shoir oldingi baytlarda aytgan fikrlaridan qaytadi. Yor aslida uning dard ila holidan xabardor ekanligi, shunday ekan, oshiq dardini borib, Dildor oldida sharhlashga hech ehtiyoj yo‘q ekanligini ta‘kidlaydi:

Ey, Ubaydiy, bilgan ermish dard ila holingni yor,
Hojat ermas qilg‘asen dardingni izhor oldida. ¹⁸⁷

Komil e‘tiqodli, mutasavvuf shoir haq. **“Avval ham, oxir ham, zohir ham, botin ham O‘zi” (“Hadid”surasi, 3-oyat)** bo‘lgan Haq subhonahu va taolo o‘z bandalarining pinhonu oshkor harakatlaridan, sir-asrorlaridan, dardu hollari, o‘y-xayollaridan hamisha ogoh. Nurlar olami sari talpinayotgan, O‘ziga sig‘ingan, O‘zidan so‘ragan, O‘zidan tilangan bandalarining iltijolarini qabul qilib, murodlarini hosil qiladi.

Hasanxoja Nisoriy “Abdulg‘ozi Ubaydullo Bahodirxon bin Mahmud Sulton bin Shoh Budog‘ sulton ibn Abulxayrxonning-go‘ri olloh nuriga to‘lsin-oliy bayonli muqaddas yodi” sarlavhasi ostida boshdan oxir Ubaydiyini komil e‘tiqodli, iymoni butun shoh va shoir sifatida talqin etadi. Butun maqolani Ubaydullo Bahodirxonning yaxshi amal, ixlos va Alloh taoloning roziligini istash yo‘lidagi faoliyati ichdan nurlantirib turadi. Xuddu shunday uslubiy jilo maqola xotimasida ham yorqin nazarga tashlanadi: “Va ul hazrat (Ubaydullaxon-M.M) Haq nomini turkiyga tarjima qilgan. Qiroat ilmida ham foydali tasnifi borkim, hofizlarni xato qilishlaridan saqlab turadi”.¹⁸⁸ Bunday talqinlarga Ubaydullo Bahodirxon siymosi

¹⁸⁷ O‘sha joyda.

¹⁸⁸ O‘sha joyda.

ulkan ijtimoiy-siyosiy, serqirra ijodiy faoliyati zaminida vujudga kelgan islomparvar, iymonparvar, ma'rifatparvar va murabbiy bir inson sifatidagi xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi.

“Muzakkiri ahbob” nafaqat adabiy manba, balki qimmatli tarixiy manba hamdir. Unda XVI asrda ro'y bergan tarixiy voqealar, shayboniylar tarjimai holiga oid ma'lumotlar yorqin ifodasini topgan.

Yuqorida kuzatilgani kabi tazkiranavis maqola muqaddimasida Ubaydullo Bahodirxonning Movarounnahrda yirik va mustahkam davlat vujudga keltirish yo'lidagi intilishlari haqida mulohaza yuritadi. Ubaydiyning o'tkir zehni, salim tab'i, e'tiqod-irodati, tasavvuf, hadis, fiqh, qiroat, tafsir, husnixat sohasidagi ustozlari, obodonchilik faoliyati haqida ma'lumot beradi. Adabiy merosidan rangin namunalar keltiradi. Hasanxoja Nisoriy bitiklari talqinning ravonligi, dalillarning oydinligi, ma'nolarining yaqqolligi bilan e'tiborni tortadi. Tarixiy ma'lumotlar ishonch va qat'iyat bilan ilmiy va badiiy uslub uyg'unligida o'quvchiga havola etiladi.

“Abdulg'ozii Ubaydullo Bahodirxon bin Mahmud sulton bin Shoh Budog' sulton ibn Abulxayrxonning-go'ri Alloh nuriga to'lsin-oliy bayonli muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi maqolaning so'nggi jumlasini o'qiymiz: “Xon 940 yili o'z Humoyon otiga xutba o'qittirib davlat taxtiga baxtiyorlik ila o'ltirdi. 54 yoshida, 946 yilning zulqa'da oyi dushanba kunisi ustivo vaqtida nafis nafasi **“Ey tinchigan nafs!”** xitobini qabul qulog'i bilan eshitib, **“yaratuvchining oldiga rozi holda shod va xushhol bo'lib qayt”** amriga rozi bo'lib asl vataniga yuzlanib **“qudratli podshoh yoqtirganlari majlisi qarorgohida qaror topmoq istadi”**.¹⁸⁹ Ko'chirilgan iqtibos tarkibidagi “humoyon otig'a”, “baxtiyorlik ila”, “nafis nafasi”, “qabul qulog'i” sifatlash va istioralari tarixiy ma'lumotlarni tez va oson o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Tarix haqiqati adabiyotshunos olimning teran va tiyrak nigohi, sohir qalami bilan yoritilayotganidan xabar berib turadi.

¹⁸⁹ O'sha asar.B.30-31.

Badiiy ijod ahli va tarixiy shaxslar hayoti va ijodini ilmiy tadqiq etishda Ilohiy kitob oyatlaridan oʻrnida va meʼyorida mohirona foydalanish Hasanxoja Nisoriy uslubiga xos xususiyat. 940/1533-yili bosh xonlik taxtiga oʻtirgan Ubaydullo Bahodirxonning vafoti sanasi, oyi va kunini (“hijriy 946 yilning zulqada oyi dushunba kuni” – 1540-yil, 17-mart) aniq koʻrsatgan tazkiranavis shohmi, gadomi barcha jonzot foniyligini oyati karimalar shohidligida nozik asoslagan. Ilmiy matnda tazkiranavis mahorati tufayli “Fajr” surasining (89 sura) 27-28 - oyati karimalari¹⁹⁰ hamda “Qamar” (54-sura) surasining soʻnggi 55-oyati karimasi 182 maʼnolari teran uygʻunlashgan. 30 oyati karimadan iborat boʻlgan “Fajr” surasida musulmonlarni qiynab, Alloh taoloning buyruqlariga itoat qilmay kelayotgan Makka mushriklariga ulardan avval oʻtgan Od, Samud, Firʻavn qabilalarining achchiq qismati eslatiladi. Suraning 27-oyati karimasigacha boʻlgan qismida osiylar qismati, jahannam dahshatlari, havoyi nafsiga berilganlarning ogʻir azob-uqubatlari haqida zikr qilinadi. Suraning 27-28-oyati karimalari esa kofir va osiylar bogʻlanib, kishanlanib, dahshatli azobga, qiynoqlarga solinib turgan bir vaziyatda solih insonlarning, haqiqiy moʻmin-musulmonlarning ruhiga mujda oxirat saodati tarzda aks-sado beradi: “Ey hotirjam (sokin) jon! (Ato etilgan neʼmatlardan) rozi boʻlgan (va Alloh tomonidan) ham rozi boʻlingan holingda, Rabbing (huzuri)ga qaytgin!”.¹⁹¹ “Muzakkiri ahbob” muallifi Ubaydullo Bahodirxonni Haq subhonahu va taolo Oʻzi xitob qilib jannatiga chorlagan, solih amallari uchun bergan mukofotlariga rozi boʻlib ravzayi jinonga kiritgan ulkan baxt sohiblari qatorida koʻradi. Tazkiranavis “Fajr” surasining 27-28-oyati karimalaridan keyin “Qamar” surasining soʻnggi 55-oyati karimasini oʻz soʻzlari magʻzida keltirish bilan shoh va shoir Ubaydiy oxiratining obodligi haqidagi istagini yana ham qatʼiylashtiradi: “(Ular) qudratli podshohning (Allohning) huzuridagi sadoqat maqomida boʻlurlar”¹⁹² Oyat karima osiy bandalar doʻzaxda yonib turgan bir paytda solih

¹⁹⁰ Qarang: Куръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. –Б.594.

¹⁹¹ Куръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. –Б.594.

¹⁹² Куръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. –Б.531.

amal sohiblari daraxtlar ostidan zilol suvlar oqib turgan jannatlarda, Alloh taolo huzurida rohatda ekanliklaridan xabar beradi.

Niyati pok, amallari niyati bilan uyg'un, tilida va dilida ilohiy kalom bo'lgan insonga Alloh mehribon. Ikki kuch o'rtasidagi kurash, inson avlodini yorug'likka da'vat etish g'oyasi tazkiranavis jumllarining mag'z-mag'ziga singdirilgan.

Oyati karimalarini o'z jumllari mag'zida keltirish Hasanxoja Nisoriy ilmiy uslubida muhim o'rin tutadi. Talmeh san'atining bu ko'rinishi nafaqat muallif fikrini yorqin va teran ifodalashga xizmat qiladi, balki ilmiy asar salmog'i va zalvorini yuqori pog'onaga ko'taradi.

Hasanxoja Nisoriy talqinlaridan kelib chiqadigan qat'iy xulosa shuki, Ubaydullo Bahodirxon – oqil va tadbirkor davlat arbobi, mohir sarkarda. U jozibali sa'y-harakati bilan o'z zimmasidagi ana shu g'oyat og'ir va ma'suliyatli vazifalarni shoirlik va olimlik, haqiqiy va daqoyiq tahsili, aqliy va ilohiy-irfoniy bilimlarni mukammal o'zlashtirish bilan nozik uyg'unlashtira olgan.

2.3. Shoh – darvesh konseptining Rustam Bahodirxon timsolidagi ilmiy-badiiy ifodasi

Hasanxoja Nisoriy o'z zamonasining zukko allomasi sifatida yorug' olamga ko'z ochgan farzandga nom qo'yishi bilan bog'liq irim-udum, rasmu rusum va an'analardan mukammal xabardor bo'lgan. Sirtidan qaraganda sodda va oson ko'ringan bu jarayon aslida g'oyatda murakkab, uning zamirida har bir xalq, har bir sulola, har bir qavm tabiati, fe'lu atvori, axloqi, e'tiqodi, avlodlardan avlodlarga, zurriyotlardan zurriyotlarga o'tib yashab kelayotgan an'analari yashiringanligini chuqur anglagan.

“Muzakkiri ahbob” dagi “Abdulmuzaffar Rustam Bahodirxon ibn mag'firatul-mabrur hazrat Jonibek sulton bin Xojagum sulton bin Abulxayrxonning muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi maqola ta'bi nazmi bor shayboniy amaldorining ismi bilan aloqador hikmatga o'quvchi e'tiborini tortish bilan boshlangan: “Atoqli oti va dovrug'li nomining o'zi uning shijoatli zotiga

dalildir”.¹⁹³ Tazkiranavis o‘quvchi e‘tiborini Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” sining bosh qahramoni, beqiyos kuch-qudrat va shon-shuhrat sohibi Rustam va uning afsonaviy, mardonavor kurashlariga tortayotganligini anglash qiyin emas.

Hazrat Jaloliddin Rumiy talqinicha, inson suratdan ham sharaflanishiga loyiq. Siyrat odam zotining asl mohiyatini belgilaydi. Ammo inson shaxsida suratning ham o‘z o‘rni bor.

Insonning mohiyatini, o‘zligini suratdan ajratgan holda tasavvur qilish mushkul. Mavlono Rumiy tamsil keltirib, qobiqsiz o‘rik daraxti ko‘karmasligini o‘quvchiga eslatadilar.¹⁹⁴ “Muzakkiri ahbob” muallifi Rustam Bahodirxon shaxsi haqida mulohaza yuritir ekan, masalaning ayni jihatini ham e‘tibordan soqit qilmagan: “Kelishgan qaddi-qomati ham “qiyofat ilmi” qoidasiga ko‘ra mardlik va botirlikning to‘laqonli belgisi edi”.¹⁹⁵ Insonning qaddi qomati, tashqi ko‘rinishi, yuzidagi alomatlariga qarab tabiati, xususiyatlarini aniqlash qiyofat ilmi deb atalgan. Sharqshunos I. Bekjonovning yozishicha, miloddan avvalgi IV asrda yashagan mashhur olim Aristotel ham bu ish bilan shug‘ullanib, maxsus asar yozgan. Shu ilm amaliyoti bilan mashg‘ul bo‘lib, kitob yozgan alloma bu kabi tajribalar hamma vaqt ham aniq natija bermasligi, shunday ekan, bunday ilmga tayanib ish ko‘rishdan saqlanish zarurligini ham tayinlagan. Aristotel tajribalaridan olingan ijobiy xulosalarning hayotiy talqini Sharq adabiyoti sahifalarida ham nazarga tashlanadi. Fikrimizcha, shunday umrboqiy talqinni Alisher Navoiyning quyidagi hikmatlarida kuzatish mumkin: “Kulagach yuzluk xush axloqkim, nifoq kuduratidin bo‘lg‘ay yiroq gulshani behisht erur jilvagoh va maqomi va firdavsi a‘lodadur taharruk va oromi. Ochiq yuzidin xaloyiqqa nishot va chuchuk so‘zidin ulusg‘a inbisot...Osuda andin yoru ag‘yorki, mundoq kishi bo‘lsun umridin barxurdor”.¹⁹⁶

Qadimgi ajdodlarimiz istarasi issiq, ko‘rinishi yoqimli, ko‘rkam yuzli kishilardan yomonlik chiqmaydi, degan e‘tiqodda bo‘lishgan. Shuning uchun ham

¹⁹³ O‘sha asar.B.33.

¹⁹⁴ Румий, Жалоліддин. Ичиндаги ичиндадир. –Тошкент: Ёзувчи, 1997. –Б. 24.

¹⁹⁵ O‘sha asar. –B.33.

¹⁹⁶ Навоий А.Маҳбуб ул-қулуб.БСМ хазинасидан 27780 рақамли қўлёзма. –Б. 66.

mumtoz adabiyotimizdagi ma'naviy olami go'zal ijobiy obrazlarning sur'ati hamisha siyratiga mos keladi. Ichki tomondan bulg'anch, salbiy qahramonlarning tashqi olami ham, botini ham nafrat qo'zg'atadi.¹⁹⁷

“Muzakkiri ahbob” muallifi talqinicha Rustam Bahodirxonning siyrati surati bilan muvofiq, balki ortiqroq, botini zohiri bilan uyg'un, balki undan-da ko'rkamroq, tiniqroqdir. Yoshlik yillardan saltanat ishlari bilan shug'ullangan shayboniy hukmdor amal-mansab shavkati, zeb-ziynatga mahliyo bo'lmagan, kibr va g'ururga berilmagan: “Navqironlik bazmida saltanat jomidan doimo no'sh aylashiga qaramasdan, mulk olamida behush dam urmasdi va oliyhimmatlilik hamda buyuk xislatlilik sababli mulku davlat taxtini asosiy suyanchiq deb bilmay, suluk oyog'ini ilohiy me'roj poyasiga qo'yib, kamtarlik libosida yurib, bosgan har bir qadamidan nazar uzmasdi”.¹⁹⁸

Amal-mansab mastligi insonni asl mohiyatdan mosuvo qiladi. U necha yil mansab kursisida tursa shuncha muddat martaba shonu-shavkati, zebu-ziynatiga g'arq bo'lib adadsiz kunu oylarni, yillarni behudlik bilan o'tkazadi. Xo'ja Ahror Valiy aytar ekanlar: “Mening sizlarga dunyoni man etishim, dunyoni sizlardan darig' tutish ma'nosida emas, balki sizlarni dunyodan asramoq ma'nosidadir”¹⁹⁹ “Mulku davlat taxtini suyanchiq bilmaslik”, mansab tufayli erishilgan maqomdan o'zini yuqotmaslik, g'urur va faxrga berilmaslik, har qanday shonu shuhratni ham sovuqqonlik bilan qabul qilish komil insonga xos fazilatdir. Hasanxoja Nisoriy Rustam Bahodirxonni xuddi shunday darveshsifat shoh, insonni komil sifatida talqin qiladi. Ilmiy matnda o'z o'rnida keltirilgan “suluk oyog'i”, “ilohiy me'roj poyasi”, “kamtarlik libosi” istioralari tazkiranavis fikrlariga qat'iyat bag'ishlagan. Jumlani yakunlovchi so'zlar mag'ziga singdirilgan Hazrat Bahouddin Naqshbandning “nazar dar qadam” rashhasi ta'birning ravonligi, dalillarning oydinligi, ma'noning bejirimligini ta'min etgan. Tazkiranavis Rustam Bahodirxonning surati va siyrati haqidagi fikrlarini bayt keltirish bilan xulosalaydi:

¹⁹⁷ Хайитов Ш. Баркамол Инсон Тимсоли. Тошкент: Фан, 2003. –Б.70.

¹⁹⁸ O'sha asar. –В.33.

¹⁹⁹ Валихўжаев Б. Хожа Ахрор тарихи. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. –Б.76.

Rozy nashud, ki takya zanad bar sariri mulk,
Darveshro ki poyayi himmat baland bud.²⁰⁰

Hasanxoja Nisoriy haq. Oliyhimmatlilik–darveshning xos fazilati. “Xalq rizosidan haq rizosiga tolib” (Navoiy) darveshning qadami yetgan himmat poyasi har qanday toju taxtdan baland. Darvesh nazdida jon ham, jahon ham tuproqqa teng. Uning himmati oldida butun borliq va undagi mavjudotlar, jumladan, dunyo, uning boyligi, molu mulki, mansabi martabasi xas yanglig‘ qadrsizdir. Ayni haqiqat Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi satrlarida yana-da yaqqolroq aks etgan:

Jonu jahonni ko‘rubon xokcha,
Kavnu makon naqdini xoshokcha²⁰¹

Insonning hayotda dadil qadam bosishi, o‘qishi, ishlashi, yaratishi uchun kuchli jism zarur. Ammo har qanday baquvvat, ko‘rkam tana ham pokiza ruhga muhtoj. Jism ruh bilan obod. Ulug‘ Navoiy talqinicha, ruhsiz jism bir qaro tuproq yoki gulu rayhonsiz chaman. Ruhsiz jism mohiyatan tirik emas.²⁰² Shuning uchun ham komil insonning ruhi o‘z asli (ilohiy ruh) tomon doimiy harakatda bo‘ladi. Foniyl dunyo tirikligiga masrur va davlatiga mag‘rur bo‘lgan kishi asliy vatanga safar mohiyatini hech qachon anglamaydi. Ruh oynasini g‘ubor bosadi, natijada u safar asbobini tuzatmakka yaramay qoladi. Hasanxoja Nisoriy Rustam Bahodirxon shaxsi misolida ma‘naviy, ruhiy safar mohiyatini teran sharhlaydi. Qur‘oni karim oyatlari bilan uyg‘un naqshbandiya tariqati rashhalari tazkiranavis fikrlaridan ko‘zlangan hikmat va ma‘nolarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi: “Va garchi ruhining malagi tan mulkida mutamakkin bo‘lsa-da, **“Tog‘larni ko‘rib, ularni qotib qolgan deb o‘ylaysan”...ular esa bulutga o‘xshab suzib yuradilar**” karimasi mazmuniga ko‘ra taraqqiyot me‘rojiga qadam qo‘yib, **“Talvin tamkindan afzaldir**” ma‘nosini yuzaga chiqarib, moddiylik bekatlari orqali ma‘naviylik manzillarini bosib o‘tib, vatandagi safar yo‘lida hech charchash bilmasdi. Zohirda

²⁰⁰ O‘sha asar. –B.33.

²⁰¹ Navoiy A. Muqammal asarlar tўplami. 20 jildlik, 7-jild. –To‘shkent: Fan, 1991. –B.139.

²⁰² Navoiy A. Muqammal asarlar tўplami. 20 jildlik, 14-jild. –To‘shkent: Fan, 1998. –B.80.

suvratining sham'i turli xil mashg'ulotlarni yoritib tursa-da, botinda ma'naviyatning hayratni oshiruvchi olamiga g'arq bo'lib, **anjumanda xilvatning** jahonni yoquvchi shamini yoqib, suluk tariqatini qo'ldan bermasdi.²⁰³ Hazrat Alisher Navoiy safar asbobi- "solih amal va xamidi axloq" ekanligini qayd qilib, bunday maqomga erishish uchun inson shariat hukmlarini bajarishi va tariqat manzillarini bosib o'tishi zarur, deb yozadilar.²⁰⁴ Hasanxoja Nisoriyning talqinlaridan ayon bo'ladiki, faqr tariqiyga, darveshona hayotga moyillik Rustam Bahodirxonning tabiatida kuchli bo'lgan. U "**Safar dar vatan**", "**Sayr va harakat bir yerda barqaror turmoqdan afzal**" (hadis) hikmatlarining ma'nosini teran anglab, sulukka mashg'ul bo'lgan, moddiylik bekatlari orqali "ma'naviyat manzillarini" mardona bosib o'tayotgan Rustam Bahodirxon **bir komil rahnamo pirning irshodisiz** bu mashaqqatli safarni nihoyasiga yetkazish mushkuligini teran anglagan. Haq yo'lga qadam qo'ygan har qanday solik komil pir irshodidan ayru asl maqsadga yeta olmasligini his qilgan. Va o'zini komil bir hodiy (pir) xizmatiga yo'llashni Hasanxoja Nisoriyning otasi, o'z zamonasining murshidi komili, iste'dodli o'zbek shoiri va davlat arbobi Podshohxoja bin Abdulvahhobxojadan iltimos qilgan: "Xon dilining javohir saqlovchi qutisi **baqo** durlaridan xoli bo'lmasdi, la'l qutisini esa **fano** guharisiz ochmasdi. Bir zamonlar **bu faqirning otasi Podshohxojadan** "meni biror bir yetuk darvish xizmatiga tavsiya etib, shu orqali tasavvufda mukammallikka yetishtiring", deya doimo iltimos qilib, podshohlik sulukidan chiqib, tariqat maslaki soliklari qatoriga qo'shilish orzusida yurardi".²⁰⁵ Rustam Bahodirxon hayoti va shaxsiyati haqidagi fikr tazkiranavisning o'zi guvoh bo'lgan tarixiy lavha orqali aks ettirilyaptiki, bu muhim ilmiy qimmatga ega.

Rustam Bahodirxon Podshohxoja murojaat qilgan vaqtda Hasanxoja Nisoriyning otasi hazrat Ali avlodidan bo'lgan yirik tasavvuf olimi va shoir Shamsi Xalaf bilan ma'naviy suhbatlar tuzib yurgan paytlar bo'lgan.

²⁰³ O'sha asar. –B.33.

²⁰⁴ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 117..

²⁰⁵ O'sha asar. –B.34.

Hazrat Alisher Navoiy asarlarida Sulton Husayn Boyqaro “**darveshlar shohiyu, shohlar darveshi**” deb ta’riflanadi. Hasanxoja Nisoriy talqinlaridan a’yon bo’ladiki, Rustam Sultonning tabiatida yaratilishidan **faqrqa moyillik, siyratida foniylilik** bo’lgan. Ma’naviy-ruhiy zarurat, fikriy va hissiy tavajjuh o’z natijasini ko’rsatadi. O’sha kunlarning birida Rustam Sulton Podshohxoja bin Abdulvahhobxoja: “Hazrat Xizr alayhissalom uyingizga kelmoqdalar, kutishga tayyor turing” deydi. Podshohxoja aytadilar: “shundan so’ng namozni tugatib ko’z tutib o’tirgan edim, bir kishi kirib keldi va yuzidan niqobini oldi. Yuzi xuddi quyoshdek nur sochardi. Menda ajib bir kayfiyat hosil bo’ldi”.²⁰⁶ Podshohxoja bin Abdulvahhobxoja Mavlono Shamsi Xalafni ko’rganlarida Rustam Sultonning ko’ngliga solingan g’ayb hikmati va undan keyingi voqeani tariqat piriga aytib beradilar. “Muzakkiri ahbob”dan o’qiymiz: “Shundan so’ng mazkur xon Mavlono Shamsi Xalaf muridligi sharafiga musharraf bo’lgan”.²⁰⁷

Aslu nasabning pokligi insonga xotirjamlik bag’ishlaydi. Nasabi pokiza insonning ko’ngli to’q, qalbi sokin bo’ladi. Aslu nasabning ulug’ligi bilan faxr va g’ururga berilish esa ijtimoiy muhitda noxush vaziyatni yuzaga chiqaradi. Shaxs kamoloti uchun kerakli sifatlardan insonni uzoqlashtiradi. “Muzakkiri ahbob” muallifi mavzuning ayni qirralarini ham e’tibordan soqit qilmagan. “Bu oliy makon Rustamxonning Badaxshon saidlariga qarindoshligi bor edi. Ammo, pok saidlik va zohir sultonlik nisbatiga ega bo’lishiga qaramasdan, **“hamma narsaning tariqati odobdir”** mazmuniga amal qilib, Mavlono Shamsi Xalaf qayerda kavushini yechsalar, uni olib poygakda turib, go’yo hol tili bilan bu maqolni tarannum qilardi”.²⁰⁸ Tasavvufga oid manbalardan ayonki, tariqat pirlari, avvalo, o’z muridlaridagi g’ururni so’ndirish, ularni tariqat odobiga moslashtirishga asosiy e’tiborni qaratganlar. Muriddagi kibrni yo’qotish, uni tavozu’ga, xoksor bo’lishga o’rgatish asosiy ruknlardan biri sanalgan. “Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” kitobining muallifi Xusayn voiz Koshifiy tariqatning kichik

²⁰⁶ O’sha joyda.

²⁰⁷ O’sha joyda.

²⁰⁸ O’sha joyda.

va katta abjadlari haqida mulohaza yuritar ekan, kichik abjadning 14, katta abjadning 29 bosqichini raqam qiladi. “Futuvvatnomayi Sultoniyy”da kichik abjadning birinchi maqomi “xokisorlik bilan o‘zni tuproqqa aylantirish” ekanligi qayd etilgan.²⁰⁹ Badaxshon saidlariga qarindoshligi bor bo‘lgan Rustamxon shaxsida hamida axloq ibtidosi-kamtarinlik tabiiy namoyon bo‘lishini “Muzakkiri ahbob” muallifi shayboniy hukmdorning o‘z piriga munosabati orqali izohlaydi. Va o‘z mulohazalarini hadis keltirish bilan quvvatlantiradi. Sultronlik martabasiga ega bo‘lgan amaldor ustozni kovushini qayerda yechsa, uni olib poygakda turgan. Takabbur, o‘ziga bino qo‘ygan har bir insonga odamiylik yo‘lini ko‘rsatuvchi bu noyob fazilatning Rustamxon ko‘nglida hol tili bilan aytilgan hikmatini Hasanxoja Nisoriy o‘z ijodidan, “Muallifdan” sarlavhasi ostida bayt keltirish bilan sharhlaydi:

Agar bar sadri jalolam barand, sar niyafrozam,
Va agar ba safi noalam kashand or nadoram.²¹⁰

Mazmuni: Agar dabdabaning eng to‘riga o‘tkazsalar ham bosh ko‘tarib qiyo boqmayman, ammo agar poygakda joy ko‘rsatsalar ham mag‘rur turaman, chun or etmayman.

Izzattalablik, shuhratparastlik illatidan qutilgan inson uchun to‘r bilan poygakning farqi yo‘q. U kimxob ustida qanday o‘tirsas, faqrlilik bo‘yrasi ustida ham xuddi shunday bamaylixotir o‘tiradi. Ipak bilan palos, kimxob bilan bo‘yra orasida farq ko‘rmaydi. Odatda, izzattalablik hirsu havasidan mutlaqo ozod bo‘lgan bunday insonlar o‘tirgan poyga to‘rga aylanadi.

Rustam Bahodirxon o‘z piri Shamsi Xalafni juda qattiq hurmat qilgan. Keyinchalik bu hurmat murshidi komilga nisbatan pok muhabbatga aylangan. Hasanxo‘ja Nisoriy yozadi: “Mavlononing visol bazmini g‘animat bilib, unda diydor qadahini to‘latgancha sipqorardi”²¹¹

Ma‘naviy kamolotga intilgan Rustam Bahodirxon oqil va orif insonlarning suhbatiga hamisha intiq bo‘lgan. Mavloni Shamsi Xalaf vafotidan keyin ko‘plab

²⁰⁹ Кошифий, Хусайн Воиз. Футувватномаи султониӣ. Ахлоқи Мухсинӣ. Рисолаи Ҳотамия. – Душанбе: Адиб, 1991. – Б.15.

²¹⁰ O‘sha asar. –B.34

²¹¹ O‘sha asar. –B.35.

o‘z zamonasining orif darveshlari, solih kishilari bilan suhbatlar qurgan. Xususan, Movarounnahr xalqi va shayboniy sultonlari orasida katta nufuzga ega bo‘lgan Qosim shayx Azizonga (v.1578) ixlosi ustuvor bo‘lgan.: “Va a’lo hazrat mavlono Shamsi Xalaf vafotidan keyin yana aziz va ulug‘ mahdumlar bilan muloqot qilib, ifoda va istifodaga mashg‘ul bo‘lib, zamon darvishlari bilan suhbatlar qurganlar. Ayniqsa zamon murshidi va davron muqtadosi Qosim Shayx Azizonga ko‘proq e’tiqod qo‘ygan edi”.²¹²

Akademik B.Valixo‘jayev Movarounnahr va Xurosondagi tazkiranavislik an‘anasida XV asrga kelib ham tarixiy-zamonaviy, ham zamondoshlarga bag‘ishlangan tazkiralalar yuzaga kelganligini tazkira taraqqiyotining yorqin sahifasi sifatida qayd qilar ekan, yozadi: “Tarixiy-zamonaviy tazkiralarning mualliflari o‘zlari yashab ijod etgan davr shoirlari haqida so‘z yuritsalar, ularning ma’lumoti asosli, ishonchli bo‘lishi tabiiy. Chunki ularning muallifi tazkirada zikr qilingan shoirlar bilan yo shaxsiy suhbatda bo‘lishgan va yoki ishonchli kishilar orqali ulardan xabar topishgan. Ana shu nuqtayi nazardan zamondoshlarga bag‘ishlangan tazkiralarning afzaliyati ko‘zga tashlanib turadi”.²¹³

Hazrat Alisher Navoiy e’tiqodiga ko‘ra amalga bepisandlik, mansabdan o‘z ixtiyori bilan voz kechish yoki mansab kursisiga o‘tirish imkoni bo‘la turib, uni rad etish – saxovat. Oliyhimmat kishi shaxsida shunday sifat mujassam bo‘ladi: “Himmat ahlig‘adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat-valoyat xosi”.²¹⁴ Matndagi “valoyat” so‘zi valiylik, azizlik, xudoga yaqinlik ma’nolariga ega. Alisher Navoiy havoyi nafs ustidan g‘olib, mansab hirsidan ozod odamni valiylik darajasiga ko‘tarib, tavsif qiladilar. Xuddi shunday talqin “Muzakkiri ahbob” da ham bor: “So‘g‘d butunligicha Rustam nishon xonga muyassar bo‘lishiga qaramasdan, ul xon bu o‘lka hokimligini tark etib, riyozat mulkida hayot kechirardi”.²¹⁵ Keyinchalik Rustam sultonga Balx saltanati nasib qiladi. O‘sha paytda Hasanxoja Nisoriy Rustam sulton xizmatida bo‘lgan va u bilan birga shahar

²¹² O‘sha joyda.

²¹³ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X – XIX асрлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 23.

²¹⁴ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. Б.80.

²¹⁵ O‘sha asar. –B.37.

arkiga kirgan. “Muzakkiri ahbob” dan o‘qiyimiz: “Ammo shohlik taxtiga iltifot ko‘zi bilan qiyo ham boqmay, Ibrohim Adhamdek ul shohlik taxti bahridan ham kechdi”.²¹⁶ Shaharlar onasi Balx va uning saltanati ustida bahs yuritilar ekan, tazkiranavis yaxshi mushabbih topgan. VIII asrda yashagan Ibrohim Adham Balxda tavallud topgan va shu yerda saltanat surgan. Bir kuni ov paytida unga g‘aybdan nido keladi: “Sen bu ish uchun yaratilgan emassan”. Ana shu eslatma uning saltanatni tark etib, faqr yo‘lini tanlashga sabab bo‘ladi. Ba‘zi rivoyatlarda uning tavbasi, saltanatni tark etishi sababi boshqacha tushuntiriladi: Ibrohim Adham o‘z qasri devorining soyasida yotgan gadoning erkinligiga, faqirlik farog‘atiga tavajjuh qilib, saltanatning bahrida o‘tadi, tavba qiladi.

Kalobodiy va Aburahmon Sullamiyning yozishicha, g‘aybdan kelgan tanbeh ikki yo‘l bilan: farishtalar yoki Xizr eslatmasi orqali kelgan. “Sharhi taarruf” kitobida Balx hukmdorining tavbasi quyidagicha ko‘rsatilgan: Ovg‘a chiqdi. Ov orqasidan ot surdi. O‘sha ov (sayd) to‘xtab, yuzini Ibrohimga o‘girib aytdi: “Ey Ibrohim, seni buning uchun yaratmadi”. Ovdan qaytishida u shu tanbehni ot ustidagi egarning ko‘hasidan va o‘z yoqasidan eshitadi. Yana boshqa shunday rivoyat bor. Ibrohim o‘z saroyining tashqarisida bo‘lgan paytida tuyaboqar kiyimidagi bir kishi keladi va qasr ichiga kirmoqchi bo‘ladi. Undan so‘raydilar: “Qayon borursan”. Aytdi: “Ushbu rabotga”. Aytdilar: “Bu rabot emas, Ibrohim Adhamning qasridir”. So‘radi: “Bu qasrni u kimdan topgan?”. Aytdilar: “Otasidan”. Aytdi: “Otasi kimdan topgan?”. Dedilarki: “U ham o‘z otasidan”. Aytdi: “Oyo, rabot shuning uchundirki birov kelsa-yu, birov ketsa”. Ushbu so‘zni eshitib Ibrohim qattiq ta’sirlanadi. Aytuvchining orqasidan ergashadi. Aytuvchi Xizr alayhissalom edi. U Ibrohimni mol-mulkni tark etishga tashviq qildi. Shu sababdan Ibrohim o‘zining barcha narsasini tark qiladi. Yo‘lda bir cho‘ponni ko‘rdi. To‘nini yechib unga berdi. Uning choponini olib kiydi. Xotini va bola chaqalarini xudoga topshirib, dunyodan voz kechdi. Balxdan bosh olib chiqib ketdi. Ibrohim Adham Balxda saltanat sohibi bo‘lmagan, lekin kattagina boyligi bo‘lgan.

²¹⁶ O‘sha joyda.

U o‘z qo‘l ostidagi boylik va mol-mulkni tark qilgan. Keyinchalik uning bu harakati so‘fiylar rivoyatida: “Saltanatni tark etdi”, -deyish darajasiga borib yetgan, degan fikrlar ham bor.²¹⁷ Mulku saltanatni tark etib, Xurosondan chiqib ketgan Ibrohim Adham qo‘l kuchi mehnati bilan kun ko‘rgan. Umr bo‘yi qo‘l mehnati bilan topilgan yegulikdan boshqa narsani yemagan. Shomda (Arabiston) dasht ekinzorida qo‘riqchilik qilgan, bog‘bonlik bilan shug‘ullangan. Kufada savat to‘qigan. Va boshqa ko‘p joylarda o‘roqchilik qilgan.²¹⁸ Shuning uchun ham Ibrohim Adham badiiy va ilmiy adabiyotda saltanatdan, mol -mulkdan kechib, riyozat chekib yashagan g‘oyat kuchli, irodali, qudratli shaxs-barcha uchun ibrat namunasi sifatida talqin qilinadi. Hasanxoja Nisoriy Mavlono Shamsi Xalaf, Qosim Shayx Azizon, Xoja Mulloyi, Nuriy, Mavlono Vali Kuhzariy kabi o‘z zamonasining mashoyixlaridan ta‘lim olgan shayboniy amaldor Rustam Sulton shaxsiyatini yorqinroq ochish uchun Ibrohim Adham timsoliga murojaat qilgan.

Qurol-aslahasiz jangchi muhoraba maydoniga kira olmaydi. Botirning shiddati va matonati kurash natijasini belgilaydi. Ammo hayot-mamot jangida pahlavon qo‘lidagi qurolning sifati g‘alabaga olib keluvchi yetakchi omillardan biridir. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Abulmuzaffar Rustam Bahodirxon ibn Jonibek Sultonning jang maydonidagi mahorati barcha sultonlardan ustun. Buni xuddi “Shohnoma” qahramoni Rustam o‘zining barcha pahlavonlari bilan bir safda turganida “zafarlar erkasi, pahlavonlarning pahlavoni” (Shekspir ifodasi) ekanligi, qatorida tizilganlarning hammasidan ustunligi bilan qiyoslash mumkin. Balki undan ham maqomi balanddur: “Shukuhli zoti ustunligi sultonlar guruhi orasida xuddi Rustam doston jami pahlavonlari bilan turganida ham ancha ortiq edi”.²¹⁹ “Muzakkiri ahbob” muallifi Rustam Sultonni “Shohnoma” qahramoniga qiyos qilib, “Rustami soniy” deb ataydi. Va “Abdulmuzaffar Rustam Bahodirxon ibn mag‘firatul-mabrur hazrat Jonibek sulton bin Xojag‘um sulton bin Abulxayrxonning muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi maqolaning uch o‘rnida

²¹⁷ Заринкўб Абдулхусайни. Жустужў дар тасаввуфи Эрон. – Душанбе: Ирфон, 1992. –Б. 33.

²¹⁸ O‘sha joyda.

²¹⁹ O‘sha asar. –B.38-39.

Rustam Sulton hayot -mamot janglarida qo‘lida tutgan harbiy aslaha-anjomlarning she‘riy tavsifini beradi:

Shoh Rustam chun bigirad “pilpaykar”-ro ba dast,

Past sozad ro‘zi maydon paykari piloni mast.

Bar sari hark as, ki omad, bar sar omad umri o‘,

Har kiro zad bar kamar digar kamar hargiz nabast. ²²⁰

Mirzo Bobur 1519-1526-yillar orasida besh marta Hindistonga qo‘shin tortadi. So‘nggi navbat, 1526-yilning 21-aprelida Panipatda Zahiriddin Muhammad Boburning 12 ming kishilik navkari Hind hukmdori Ibrohim Lo‘diyning 100 ming kishilik qo‘shini bilan yuzma-yuz bo‘lib, muhorabada yengib chiqadi. Ibrohim Lo‘diy va Amirlarining ming chog‘lik jangovor fili ham bu jangda ishtirok etib, Mirzo Bobur navkarlarining ma‘lum muddat vahima va qo‘rquv ichida qolishlariga sabab bo‘lgan. Bu tarixiy dalilni keltirishdan maqsad hayot-mamot janglarida fillar ham qatnashganini eslatishdir. Hasanxoja Nisoriy matni keltirilgan she‘rning dastlab misrasida “pil paykar” ifodasini qo‘llagan. Rustam Sulton jang maydonida ishlatgan gurzi shunday nom bilan yuritilgan. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Rustam Sulton gurzini muhorabada qo‘liga olsa, mast fillarni ham yanchib tashlaydi. Uning gurzisi (“pil paykar”) kimning boshiga tushsa, o‘sha askarning hayot daraxti quriydi. Shoh agar o‘sha mahobatli “pil paykar” bilan kimning beliga ursa o‘sha navkar qaytib kamar taqmaydigan bo‘ladi. **Rustam Sulton Hasanxoja Nisoriyning muhokama yuritilayotgan satrlarini gurzisining (“pil paykar”) tishlariga o‘yib yozdirgan.** Va o‘zi ham gurzisi ta‘rifini quyidagicha masnaviyda vasf etgan:

Gurzi Rustam ba vazni shash man buvad,

Go‘iyo qullayi Damovand buvad.

Az baroi g‘azot rahbar shud,

Nomi o‘ gurzi “pil paykar” shud. ²²¹

²²⁰ O‘sha asar. –B.39.

²²¹ O‘sha asar. –B.38-39.

Shoh Rustam o‘z gurzisining vaznini aytib (olti man), uning mahobatini Dammo-dam tog‘ining cho‘qqisiga qiyos qiladi. G‘azot urushiga sarkardalik qilgani uchun qo‘lidagi gurzisi “pil paykar”, ya’ni “fil jussali gurzi” nomi bilan sharaflanganligini faxriya uslubida nazm silkiga tortadi.

Hasanxoja Nisoriy yana ikki o‘rinda Rustam Sultonga tegishli harbiy qurol-aslahalarni vasf etadi. Shayboniy amaldorning keskir qilichini nahanglar boshini yanchuvchi tubsiz dengiz bilan teng ko‘rgan tazkiranavis shoir yozadi:

Joi nahang bahru ajabki in teg‘i u,
Bahru astu mekunand nahangon az o‘ firor.²²²

Hasanxoja Nisoriy talqinicha, nahangning asl maskani-dengiz, nahang baliq dengizda o‘sadi, shohning qilichi ham dengizga qiyoslanadi. Ajablanadigan, hayratomuz jihati shundaki, nahanglar dengizda yashaydi, ammo bu dengizni (shohning tig‘ini, qilichini) ko‘rsa undan qochadi. Ramziy- istioraviy tasvir orqali Rustam Bahodirxonning boshqa sultonlardan ustunligiga urg‘u berilgan. “Muzakkiri ahbob” dagi quyidagi ixcham parchada esa Rustam Sulton o‘q-yoyining qiyofasi va holatini tasvirlash orqali shohning mahobatli, o‘tkir siyosiy arbob ekanligi ta’sirchan ifodalangan: “O‘q-yoyi to‘rtburchaklik edi va odamlarning ko‘zi uning qay biriga tushsa, singan o‘qqa o‘xshab, o‘zlarini bir burchakka olar edilar”.²²³ Hasanxoja Nisoriy tasviricha, pahlavonlar pahlavoni Rustam o‘q-yoyi kabi Rustami soniy (shoh-darvesh Rustam Bahodirxon-M.M) kamoni ham g‘oyatda noyobdir. Uning kamonidek kamon olamda topilmas, agar qaysidir kamonni Rustam Bahodirxon kamoniga o‘xshash desangiz, o‘sha kamon ham shoh kamonidan bir nishona, xolos:

Chun kamoni Rustami Sony dar in olam kam ast,
Gar buvad qavsi quzax, on ham kamoni Rustam ast.²²⁴

²²² O‘sha asar. –B.39.

²²³ O‘sha joyda.

²²⁴ O‘sha joyda.

Rustam Bahodirxonning “turkiy va forsiy tillarda yaxshi ash’ori va yoqimli guftorlari bor”ligini alohida ta’kidlagan tazkiranavis shohning barmog’idagi uzugiga naqsh qilib yozilgan quyidagi matla’ga o’quvchi e’tiborini tortadi:

Manam Rustam, on shahriyori daler,

Natarsam zi nar ajdahovu zi sher.²²⁵

Favqulodda yurakli amaldorgina o’z vazifasini risoladagidek ado eta oladi. Yurt sarvari o’tkir aql sohibi bo’lib, uning ilmi qilni qirq yorsa-yu, unda dov yurak bo’lmasa, u siyosat maydonida dadil, komil ishonch bilan qadam tashlay olmaydi. Bu masalaning zohiriy, dunyoviy tomoni. Rustam Bahodirxon g’azalining matla’i muhim botiniy ma’noga ham ega. Butun borlig’i bilan Allohga yuzlangan darvesh Xoliq-yaratuvchi, maxluq har qanday kuchu dahshatli shaklga ega bo’lmasin, yaratilmish ekanligini a’lo darajada anglaydi. Shuning uchun uning yuragiga hech kim va hech narsa, binobarin, ajdah ham arslon ham qo’rquv hissini sola olmaydi. Fikrimizcha, Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi so’zlari Rustam Bahodirxon baytiga ochqich vazifasini o’taydi: “Agar ollida sheru jayon yuzlansa, anga mo’rcha kelmagay yomon va agar pili domon uchrasa, ul hamon bo’lg’ay va pashsha hamon”.²²⁶

Allohdan o’zgaga hojatmand bo’lmagan, jism va jon qayg’usidan kechgan darvesh ruhiy holatining tasviri Rustam Sulton qalamiga mansub turkiy g’azal maqta’ida yorqin ifodasini topgan.

Bisyor hayal aylading, ey Rustami Soniy,

Jon bersang edi joningga jonona bo’lurding.²²⁷

Turkiy g’azal maqta’i Rustam Sultonning o’ziga xos san’ati va teran tafakkuridan guvohlik beradi. “Jon bersang edi, joningga jonona bo’lurding”. Alloh diydoriga mushtoq, qalbi ilohiy muhabbat bilan to’liq insongina shunday deyishi mumkin. Jon berib, jondan kechib visolga, Alloh vasliga musharraf bo’lishga ishonchi barqaror oshiqning mustahkam e’tiqodi talqinida ishtiyoq san’ati muhim

²²⁵ O’sha joyda.

²²⁶ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 62.

²²⁷ O’sha asar. –B.40.

g‘oyaviy-badiiy vazifani bajargan. Tasavvuf ilmini mukammal egallagan, karimul-axloq, shoh-darvesh Rustam Bahodirxonning teran tafakkuri va dunyoqarashi so‘zlari ifodasidan anglashilib turgan: “Tasavvuf ilmini yaxshi bilardi va so‘zlari mazasining me‘yori baland edi” ²²⁸ 1554-yilda Qarshi (Nasaf) shahri yaqinida Toshkent hokimi Navro‘z Ahmadxon bilan qattiq jang bo‘ladi. Shu jangda Rustam Bahodirxon alohida jasorat ko‘rsatgan va yaralangan. Shu jarohat ta‘sirida u 1554-yil 10-dekabrda vafot etadi. O‘limi oldidan quyidagi qit‘ani aytgan:

On k-o‘, maro fazl tanu aqlu jon bidod,
Z-on pesh k-oyad az mani bechora bandagy,
Bo on, juz gunoh nakardam, dame maro,
Be ne‘mate namond dar ayyomi zindagy.
Shoyad, ki lutf boz nagirad ba vaqti marg,
Hangomi bekasivu zamoni fikandagi. ²²⁹

Rustam Sulton haq. Haq subhanahu va taolo insonni jismonan go‘zal, bekamu ko‘st qilib yaratdi. Unga aqlu zakovat, his -tuyg‘u, nutq, tafakkur va boshqa juda ko‘p qobiliyatlarni berdi. Mutasavvif shoir o‘ziga “Men bechora Allohning shunchalik yaxshiliklariga javoban bandalik talablarini ado eta oldimmi?” degan savol beradi: “Z-on pesh k-oyad azmani bechora bandagi?”. Qit‘aning uchinchi misrasida shu savolga javob berilgan: “Bor on, juz gunoh nakardim dame maro”. Ko‘rinadiki, gunohdan boshqa ish qilmaganligini aytib, o‘zini o‘zi malomat qiladi, satrlar muallifi. Foniyl dunyoda yashayotgan har bir inson o‘z shaxsiga xuddi shunday malomat nazari bilan qarasa, anglaydiki bandalik shartlarini bajarishda zaiflik qilgan, nuqsonlarga yo‘l qo‘ygan. Bandalik adosida qanchalik g‘aflat va hayosizlikka berilgan bo‘lsa, havoyi nafsi buyruqlarini bajarishda esa shunchalik “jasorat” va ildamlilik ko‘rsatgan... Ammo har kim ham o‘z -o‘zini bunday taftish qila olmaydi. Rustam Sulton kabi zohiru botinini tavba saodati bilan isloh qila olgan, tasavvuf ilmini yaxshi bilgan shoh - darveshgina o‘z shaxsiga malomat nazari bilan qaray oladi. Qit‘aning navbatdagi satrlari qatiga singdirilganki,

²²⁸ O‘sha joyda.

²²⁹ O‘sha joyda.

Allohning dargohi – keng, ehsoni – cheksiz. Shoh- shoir hayotlik chog‘ida ehsonini bir dam ham darig‘ tutmagan Parvardigoridan boqiy dunyoda rixlat qilayotgan chog‘ida, yiqilgan mahalida O‘z lutfu karamini undan darig‘ tutmasligini iltijo qilib so‘raydi.

Hasanxoja Nisoriy Rustam Sultonning “muattar mushahhadi” Samarqandning Saripulidagi piri, murshidi komil Shamsi Xalaf maqbarasi yonida joylashganligini aytish bilan “Abulmuzaffar Rustam Bahodirxon ibn mag‘firatul-mabrur hazrat Jonibek sulton bin Xojagum sulton bin Abulxayrxonning muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi maqolaga nuqta qo‘yadi.

Hazrat Alisher Navoiy va uning tazkiranavis shogirdi Hasanxoja Nisoriy e‘tiqodiga ko‘ra, amalga bepisandlik, mansabdan o‘z ixtiyori bilan voz kechish yoki mansab kursisiga o‘tirish imkoni bo‘la turib uni rad etish, oliy himmat insonga xos xususiyatdir. Shoh-darvesh shaxsida shunday sifat mujassam bo‘ladi. “Muzakkiri ahbob” muallifi havoyi nafs ustidan g‘olib, mansab hirsidan ozod shoh-shoir Rustam Sultonni ana shunday yuksak maqomga ko‘tarib talqin qilgan.

IKKINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Janr qonuniyatlariga to‘la amal qilgan holda ham mazmun, ham badiiyat jihatdan mukammal tuyuq yaratish shoirdan katta mahorat talab qiladi. Muhammad Shayboniy devonida 13 tuyuqning mavjudligi uning o‘ziga xos iste’dod sohibi ekanligidan darak beradi. “Muzakkiri ahbob” muallifi shoh-shoirning tuyuqlaridan bir namuna keltirish va uni murshidi komil, kubroviya tariqatining XIII asrdagi yirik namoyandasi Sayfiddin Boharziy qalamiga mansub arab lisonida bitilgan janrning nodir bir namunasi bilan qiyoslash orqali Muhammad Shayboniyning o‘zbek mumtoz she’riyatidagi tajribasi va o‘ziga xos iste’dodini ilmiy jihatdan nozik asoslagan.

Mumtoz adabiyotimizning taniqli namoyandalari bilan qiyoslaganda mohir tuyuqnavis ijodkorlar qatorida turuvchi Muhammad Shayboniyning tajnisli so‘zlardan foydalanish, shakldosh so‘zlar vositasida qofiya yaratib, g‘oyalar mohiyati va timsollar qiyofasini ochish salohiyati uning g‘azal janrida bitilgan asarlarida ham yorqin nazarga tashlanadi.

Hasanxoja Nisoriy tazkira matnida Muhammad Shayboniyning Hirot shayx ul islomi va qozisi Ixtiyorga yo‘llagan g‘azalidan iqtibos keltirish hamda turkiy til grammatikasiga oid kitob yozib, Qozi Ixtiyorga yuborishi haqidagi tarixiy ma’lumotni qayd etish bilan Temur va temuriylardan keyingi yangi sulolaning asoschisi nafaqat o‘z davrining e’tiborli hukmdori, balki o‘z ona tilining ahamiyatini chuqur idrok eta olgan va uning nufuzini keng yoyishga intilgan madaniyat arbobi ekanligini teran dalillagan.

“Muzakkiri ahbob” muallifi Ubaydullo Bahodirxonning she’riyat va ilmu fazl sohasidagi kamolotini mukammal suratda va siyratda ta’rifu tavsif qilgan. Tazkirada qalamga olingan shaxs iste’dodining ayni qirrasini to‘la va batafsil, latif bir uslubda oyatlar va hadislardan dalillar keltirish bilan ilmiy va badiiy kalom bahsi asosida o‘quvchi hukmiga havola qilingan.

Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Ubaydullo Bahodirxon – oqil va tadbirkor davlat arbobi, mohir sarkarda. U jozibali sa’y-harakati bilan o‘z zimmasidagi ana shu

g'oyat og'ir va mas'uliyatli vazifalarni haqiqiy va daqiqiy tahsili, aqliy va ilohiy-irfoniy bilimlarni mukammal o'zlashtirish bilan nozik uyg'unlashtira olgan.

Qur'oni majidning balog'at va fasohat bilan bog'liq jihatlari juda nozik uslubda Ubaydiy she'riyatiga singgan. Shoh - shoir ijodining ayni muhim qirrasini alohida tadqiqot doirasida maxsus o'rganish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalardan biridir.

Tazkiranavis Rustam Bahodirxonni komil e'tiqodli, iymoni butun, ta'bi nazmi bor, karimul axloq, darvesh shoh sifatida talqin etgan. Muallif bitiklarini Rustam Bahodirxonning yaxshi amal, ixlos va Alloh taoloning roziligini istash yo'lidagi faoliyati ichdan nurlantirib turadi.

Hasanxoja Nisoriy Rustam Bahodirxon shaxsi misolida ma'naviy, ruhiy safar mohiyatini teran sharhlagan. Qur'oni karim oyatlari bilan uyg'un naqshbandiya tariqati rashhalari tazkiranavis fikrlaridan ko'zlangan hikmat va ma'nolarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilgan.

III BOB. SHOH - SHOIRLAR SILSILASINING TAZKIRANAVIS NAZARIGA TUSHGAN IZDOSHLARI

3.01. Shoh-shoir Aziziy: adabiyotimiz tarixining o‘z izohlari

Hasanxoja Nisoriy mansub bo‘lgan sulola vakillari riyozat nuri bilan nafsoniy hirslardan o‘z qalbini poklagan irfon va idrok sohiblari bo‘lishgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, “Muzakkiri ahbob” muallifi har bir shayboniy amaldorga bag‘ishlangan maqolani uning tariqatga va tariqat ahliga bo‘lgan munosabatini oydinlashtirish bilan boshlaydi. Tazkiranavis ilmiy uslubidagi ayni o‘ziga xoslik “Abdulazizxon bin Abulg‘ozi Ubaydullo Bahodirxonning muqaddas yodi” sarlavhali maqolaning ilk so‘zlaridanoq nazarga tashlanadi: “Baxt nishonli bu xon darvishlar muxlisi bo‘lib, ularga zo‘r e‘tiqod qo‘ygan edi. Sidq bilan iroda qaydida yetuk ustoz shayx Jalolga murid ham edi”.²³⁰ “Muzakkiri ahbob” dan ko‘chirilgan iqtibosda jiddiy ahamiyat berish zarur bo‘lgan bitta ifoda bor. Hasanxoja Nisoriy Abdulazizxonning tariqat borasidagi ustoz shayx Jalolni “sidq va iroda qaydida yetuk”ligini alohida ta’kidlaydi. Hazrat Alisher Navoiy “Nasoyimul-muhabbat” da qayd qilgan mashoyixu avliyullohga xos adab va tavozu’, saxoye mufrit, hilm va burdborlig‘, rizo, sabr, sidq, azim riyozat²³¹ kabi a’molu af‘oldan ba’zilari qaysidir shayxning zohiru botinida g‘oyat yorqin darajada namoyon bo‘lgan. Mashoyixu avliyullohning “a’moli af‘ol va muomilotu riyozotidin” sidq va iroda qaydida shayx Jalol mumtoz bo‘lgan. “Bu toifa mar’iy tutgan” (Navoiy) sidqqa Alisher Navoiy quyidagicha ixcham ta’rif beradi: “Yana sidqdurki, g‘ayri voqe’ so‘z tilga mutlaqo joriy bo‘lmag‘ay”.²³² Azim riyozatga ulug‘ mutafakkir bir tahorat va bir iftor bilan bir oy namoz o‘qish ba’zi mashoyixlar hayotida voqe’ bo‘lganligini misol qilib keltiradi. Azim riyozat har bir shayx hayotida turlicha shaklda namoyon bo‘lgan. Alisher Navoiy uch shayx hayotidan uch lavha keltiradi:

²³⁰ O‘sha joyda.

²³¹ Navoiy A. Muqammal asarlar tўplami. 20 jildlik, 17-jild. –To‘shkent: Fan, 2001. –B.18-22.

²³² Navoiy A. Muqammal asarlar tўplami. 20 jildlik, 17-jild. –To‘shkent: Fan, 2001. –B.21.

1. Sultoni tariqat Shayx Abusaid Abulxayr suluk avvalida har kecha bir chohga o'zini bosh tuban osib, tonggacha zikr aytgan. Oqibat shunday bo'lganki, muborak ko'zlaridan qon oqqan.

2. Shayx Abdulla Ansoriy Hirotda qahatchilik yuz bergan paytda hech qanday taom yemasdan faqat yoz giyohlari bilan kun kechirganlar.

3. Shayx Ahmadi Jom 18 yil Yazd tog'iga chiqib, o'sha tog'da toat-ibodat bilan shug'ullanganlar. "Nasoyimul-muhabbat" dan o'qiymiz: "El yuzin ko'rmaydurlar va onda yemak ma'lum emas erkondurki, qaydin va qishda kiymak qaydin?"²³³

Shayx Jalol naqshbandiya tariqatiga mansub Shamsiddin Muhammad Rujiy muridlaridan bo'lib, Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414-1492) bilan bir pirning muridi bo'lgan.

"Abdulazizxon bin Abulg'ozii Ubaydullo Bahodirxonning muqaddas yodi" sarlavhasi ostidagi maqola Abdulazizxonning piri Shayx Jalol shaxsiyatidagi fazilatlarni tahlil qilish bilan davom etadi: "Va mavlono Shayx Jalol xizmatlarikim, juda shirin kalom va muaddab kishi edi. Majlis ahlini hadis bilan rom qilardi va ma'nolar mag'zini chaqishda tengsiz edi".²³⁴ Shayx Jalol shirinso'z va muloyim takallum bilan odamlarni o'ziga rom etgan. So'z ma'nolarining g'oyatda chuqur anglagan. So'zni shunday muloyim, yoqimli qilib aytganki, so'z sehri bilan odamlar ko'ngliga kelishi mumkin bo'lgan g'amni qaytara olgan. Odatda, bir gapning takror aytilaverishi tinglovchilarning g'ashini keltiradi. Majlisda yurakni siqadigan, zerikarli, bir vaziyat yuzaga keladi. Shayx Jalolning favqulodda bir qobiliyati shu bo'lganki, so'zni qanchalik takror aytsa ham tinglovchilarga malol kelmagan. Aksincha anjuman ahli o'sha gapni yana takror eshitishga ishtiyoqmand bo'lib qolavergan. Voizning bir so'zni takrorlayverishi majlis ahliga malol kelmagan, aksincha malomat g'uboridan ularning ko'nglini tozalagan: "Deydilarki, odatdan tashqari ishlaridan biri shu ekanki, so'zni qanchalik takror

²³³ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: Фан, 2001. –Б.22.

²³⁴ О'sha asar. –В.42-43.

aytsa ham malol changini eshitguvchilarning dil oynasidan shunchalar ko‘proq ketkazarkan”.²³⁵

Tazkiranavis Shayx Jalolning yuqorida zikr qilingan g‘ayriodatiy qobiliyatiga g‘oyatda mos **tamsil** topa olgan: “Misra: Mushk qancha ko‘p sarflanmasin, iste‘moli me‘daga tegmaydi”.²³⁶

Shayx Jalol nozik ta‘b sohibi bo‘lgan. “Muzakkiri ahbob” muallifi uning ijodidan bir g‘azal matla‘i va bir ruboiyni namuna sifatida keltiradi. Hasanxoja Nisoriy Mavlono Shayx Jalol she‘riyatini g‘aybdan kelgan ilhomli damlar natijasi deb biladi: “Yaxshi ta‘b egasi bo‘lib, gohida g‘aybiya fikrlar durini nazm ipiga terib, dil sahfasiga to‘kardi. Va bu manzum uning dilga o‘tiruvchi she‘rlari va yoqimli so‘zlaridandir. Matla‘

To husni yor az ruhi xubon namudaast

Moro xayoli dilbaru shohid rabudaast”²³⁷

Murshidi komil ifodasidagi **“xo‘blar” (“xubon”)** – iloh muhabbatini qozongan, Alloh vasliga yetgan komil insonlar. Mahbub jamoli ularning yuzida aks etadi. Mavlono Shayx Jalolning lirik qahramoni: “Xo‘blar yuzida zuhur etgan yor husnini ko‘rgach, dilbari shohid xayoli yodimdan ko‘tarildi”, deydi. **Dilbari shohid** - Alloh. **“Dilbari shohid xayoli”** deganda Alloh yodi nazarda tutilgan. **Xo‘blar yuzi** –Alloh husnining mazhari va jilosi. **Xo‘blar yuzini ko‘rib ilohiy mazhardan ilohiy manbaga qarab borish haqiqatini angladim**, demoqchi bo‘ladi so‘fiy shoir.

Shayx Jalol qalamiga mansub ruboiyda **“xo‘blar” ishq jomidan sarmast bo‘lganlar**” - “jomi ishq sarmast shudand” ifodasi bilan berilgan:

Onho ki zi jomi ishq sarmast shudand,

Nodida ruxash tamom az dast shudand.

Dar rohi talab qadam nixodand zi sar,

Chun xok ba rohi ahli dil past shudand.²³⁸

²³⁵ O‘sha joyda

²³⁶ O‘sha joyda.

²³⁷ O‘sha joyda

²³⁸ O‘sha asar. –B.43.

Tasavvuf tarixi va talqiniga bag‘ishlangan mavjud tadqiqotlardan ma’lumki, so‘fiylar bir necha toifaga bo‘linadilar: orif so‘fiylar, oshiq so‘fiylar, obid so‘fiylar, faylasuf so‘fiylar, majzub so‘fiylar.²³⁹ Shayx Jalol ruboiysida **majzub so‘fiylar** haqida mulohaza yuritilgan. Ruboiy sulukning maqomot bosqichini o‘tamasdan bir yo‘la **hol darajasini** egallagan **solik obrazi** tahliliga bag‘ishlangan. Majzub solik murshid tarbiyasini ko‘rmasdan, pirga yetish mashaqqatlarini boshidan kechirmasdan hol martabasiga yetadi. Ruboiyning dastlabki ikki misrasida ayni masala xususida bahs yuritilgan. “Ishq jomidan sarmast bo‘lganlar yuzini ko‘rmas”, deganda – **tug‘ma jazba tekkan pir mulozamatiga bormasdan haqqa unsiyat kasb etgan** “faqiri zotiy va foniy jibilliy” (Navoiy) solik nazarda tutilgan. Tug‘ma jazba tegib, Haqqa yetgan solik ham komil **murshid qo‘lida tarbiya ko‘rishi** shart bo‘lgan. Hazrat Alisher Navoiy yozadilar:

Kimniki bu yo‘l qatiga soldi taqdir,
Pir amrini qilmasa kerakdur tag‘yir.
Onsiz qadam ursa, angla makru tazvir,
Ma‘lun desa behroqki, degaylar be pir.²⁴⁰

Taronayi ruboiy tarkibidagi qofiya hosil qiluvchi “tag‘yir” so‘zi o‘zgarmoq,²⁴¹ “tazvir” kalimasi esa aldash, firib, xiyla ma’nolariga ega. Pir rahnamoligi bo‘lmasa, solik to‘g‘ri yo‘lni yo‘qotib qo‘yishi, o‘zgartirishi, pir irshodisiz qadam ursa, hiyla yo‘liga, shaytonning yo‘rig‘iga kirib qolishi mumkinligidan qattiq ogohlantiradilar, Hazrat Alisher Navoiy.

Shayx Jalol ruboiysining uchinchi va to‘rtinchi misralarida mavzuning ayni muhim qirrasiga o‘quvchi e’tibori qaratilgan. Ruboiy matnidagi **“ahli dil”** ifodasi **murshidi komil** ma’nosiga ega. Tariqat pirlari “ahli dil”, “ahli ma’no”, “sidq ahli”, “dard ahli”, “suluk ahli”, “faqr ahli”, “vusul ahli”, “qabul ahli” va hokazo nomlar bilan atalgan. Mavloni Shayx Jalol ruboiysining 3-4 satrlari ichki mantig‘idan shunday xulosa kelib chiqadiki, **majzub solik ham komil bir pirning ostonasiga**

²³⁹ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. –Б.47.

²⁴⁰ Навоий А.Махбуб ул-қулуб.БСМ хазинасидан 27780 рақамли қўлёзма. –Б.70

²⁴¹ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б 604

bosh qo‘yib murshidi komilning xoki poyiga aylansagina Haq yodidan adashmaydi. Buxoro xoni Abdulazizxonning murshidi Shayx Jalol 70 yoshdan o‘tganda Hasanxoja Nisoriyning istiora san’ati bilan muzayyan so‘zlari bilan aytganda “fano uyidan baqo mulkiga ko‘chib o‘tadi”. “Muzakkiri ahbob” muallifi “Rahbari dini haq zi dunyo shud” (Haq - taolo dinining yo‘lboshchisi dunyodan ketdi) so‘zlarini Shayx Jalol vafotiga ta’rix qilib keltiradi. (955/1548-1549) Va uning qabri Buxoroning Xiyobon mavzeyiga yaqin joyda ekanligini aytadi.

Abdulazizxon diniy ilmlar va ilmal yaqin masalalari bo‘yicha ta’limni zamonasining yetuk olimi Nosiruddin Oxunddan olgan. “Muzakkiri ahbob” muallifi Nosiriddin Oxundni “Hazrati mukammal Nosirul-millati vaddin” ifodasi orqali g‘oyatda ulug‘ shayx, buyuk alloma ekanligiga ishora qiladi. “Alar musofihasi bu kaminaga ham yetishdi”- deb shukrona aytadi. “Muzakkiri ahbob” da zikr qilinishicha, Nosiriddin Oxund Hazrat Mavlono Kalon Ziyoratgohiy avlodidan bo‘lgan. Mavlono Kalon Ziyoratgohiy kim va u qachon yashagan? “Muzakkiri ahbob” tarjimoni kitobning “Izoh” qismida quyidagicha yozadi: Mavlono Kalon Ziyoratgohiy-xurosonlik tasavvuf olimi, shoir (XIV-XV asr).²⁴² Shunday shaxs nomi Hazrat Alisher Navoiyning “Mahbubul-qulub” asarida ham bor. Uning nomi Alisher Navoiy pandnomasida Shayx Shoh Ziyoratgohiy tarzida berilgan. “Mahbubul-qulub” ni izohlar bilan nashrga tayyorlagan professor S. G‘aniyeva “Shayx Shoh Ziyoratgohiy–XV asrdagi Xuroson mashoyixlaridan bo‘lsa kerak”, - degan mavhum bir izoh beradi.²⁴³ Murshidi komil nomi “Mahbubul-qulub” da **“Shayx Shoh Ziyoratgohiy”** tarzida berilganidek, “Muzakkiri ahbob” da **“Mavlono Kalon Ziyoratgohiy”** tarzida bitilgan, “Muzakkiri ahbob” da boshqa shayxlar yoki ijodkorlar nomini ham juz’iy o‘zgarishlar bilan ifodalash usuli bor. Masalan, tazkira birinchi bobining birinchi faslida “she’rlari qiyomiga yetgan, nafis va so‘zlari yoqimli” (Nisoriy) shoir **Devona Husomiyga** alohida maqola bag‘ishlangan.²⁴⁴ Hasanxoja Nisoriy butun

²⁴² O‘sha asar. –B. 301.

²⁴³ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. –Б.286.

²⁴⁴ Нисорий Х. Музакири аҳбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 83-85.

maqola davomida shoirni yuqoridagi nom bilan tilga oladi. Maqola yakunida esa **Mavlono Husomiy** deb atashni ma'qul ko'radi: "Mavlono Husomiy tushda faqirdan, tazkirangda qaysi g'azalimni yozding, deb so'radi. Faqir yuqorida keltirilgan g'azalni, dedim. Qabri Qorako'lda".²⁴⁵ Maqola birinchi ruknining birinchi fasli "Foniy davlatdan mangulik mulkiga safar qilgan chingiziy sultonlar jamoasi zikrida"gi firqaning yakunlovchi maqolasida esa Mavlono Husomiy "**Husomiy Qalandar**" nomi bilan tilga olingan va uning Nuriddin Abdurahmon Jomiy vafotiga bag'ishlab, tojik–fors tilida yozgan qit'asi keltirilgan".²⁴⁶

Bahsimiz asosida turgan "Shayx Shoh Ziyoratgohiy" va "Mavlono Kalon Ziyoratgohiy" ifodalarining ma'nolari orasida jiddiy farq yo'q. XVII asrning yirik shoiri Boborahim Mashrab ham manbalarda "Shoh Mashrab", "Devona Mashrab", "Rahimbobo Mashrab" nomlari bilan tilga olinadi.

Fikrimizcha, "Mahbubul-qulub" da "Shayx Shoh Ziyoratgohiy", "Muzakkiri ahbob" da "Mavlono Kalon Ziyoratgohiy" nomlari bilan zikr qilingan shayx aslida bitta odam.

Alisher Navoiy "Mahbubul-qulub" asarining "Hamida af'ol va zamima xisol xosiyati" sarlavhasi ostidagi ikkinchi qismi tariqat maqomlari sharhiga bag'ishlangan. Hech bir nazariy manba bu asardagi kabi tavba, vara', zuhd, faqr, sabr, tavakkul va rizo maqomlari haqida ixcham va teran ma'lumot bera olmaydi. Har bir maqom sharhidan keyin ulug' shayxlar, avliyoullohlar hayotidan dalillovchi hikoyatlar keltirilgan.

Ulug' mutafakkirning sehrli qalami nazariya va amaliyotning hayotdagi aksini mohirona uyg'unlashtirgan. Tasavvuf nazariyotchilari "Faqr" atamasi bilan yuritadigan to'rtinchi maqom asarning "Qanoat zikrida" gi 4-bobida talqin qilingan. Shu bobdagi dalillovchi hikoyat "Koshifi asrori ilohiy" (Navoiy) Shayx Shoh Ziyoratgohiy hayotidan olingan.

Hazrat Alisher Navoiy talqinicha, faqrlilik ibodatni ado etish madorini bag'ishlaydigan miqdordagi ozgina taom bilan kifoyalaniib, moddiy dunyoning

²⁴⁵ O'sha asar. –B.85.

²⁴⁶ O'sha asar. –B.42.

boshqa barcha narsalardan voz kechmoqdir. Yana solikdan nafsni bechorahollik ila ozurda tutmoq, shahvoniy hissiyotlarni soʻldirmoq ham talab qilinadi. Bordi-yu shu maqomga erisha olmasa, solik ibodatdan farogʻat topmaydi. Ibodat farogʻati uchun qanoatni shior qilgan Shayx Shoh Ziyoratgohiy xalqning nazr va hadiyasini mutlaqo qabul qilmagan. Shohlarning inʼomi va doimiy foydalanish uchun beradigan yer-suvlarini (suyurgʻol) ham koʻziga ilmagan. Oʻz hovlisi ichidagi yerga ekin va daraxtlar ekib, oʻz qoʻli bilan ularga ishlov bergan. Ibodatdan boʻshagan paytlarida ulugʻ shayxning qoʻlidan bel, tesha va arra tushmagan. Shayxning mislsiz qanoati haqidagi avoza Hirot poytaxti boʻlgan butun mamlakat hududlariga tarqalgan. Shohlar, din peshvolari, mashoyixu avliyullohlar Shayx Shoh Ziyoratgohiyning mulozamatiga borib, ostonasi tuprogʻini oʻpmoqni oʻzlari uchun faxr deb bilganlar. Yana “Mahbubul-qulub” dan oʻqiyimiz: “Ul zirot nonidin va ul favokih xonidin har ne iliklariga tushsa koʻzlariga surtib, qoʻyunlarigʻa solib tabarruk uchun shahrgʻa ayol va atfollari uchun kelturur erdilar va andin yeganlar oxirat najotigʻa ham umidvor boʻlur erdilar”.²⁴⁷ Odamlar Paygʻambar alayhisallom aytgan “Qanoatli azizdir” hadisining hayotiy ifodasini Shayx Shoh Ziyoratgohiy timsolida mushohada qilgan.

Alisher Navoiy oʻz asarlarida talqin qilingan qaysi ulugʻ inson bilan yuzma yuz uchrashgan boʻlsalar, albatta, buni qayd qilib oʻtadilar. Shuning uchun ham ulugʻ mutafakkir asarlarida “faqir ham Mavlono xizmatiga musharraf boʻldim”, “bu haqir ham alar shogirdligʻi sharafigʻa musharraf boʻlubmen”, “alarning muborak nazarigʻa yetib iltifot topib, fotihalariga musharraf boʻlubmen”, “Bu faqir hazrati Mavlono mulozamatlarigʻa borib erdim”, “Bu faqir ham Mavlono xizmatiga musharraf boʻlub siyratini ham bu tariq bila muvofiq toptim” kabi jummlalar koʻp uchraydi.

“Qanoat zikrida” gi bobdan oʻrin olgan hikoyat qahramoniga nisbatan bunday jummlalar ishlatilmagan. Demak, Alisher Navoiy Shayx Shoh Ziyoratgohiy bilan uchrashmaganlar. Shayx Shoh Ziyoratgohiy fano uyidan boqiy dunyoga rixlat

²⁴⁷ Навоий А.Маҳбуб ул-қулуб.БСМ хазинасидан 27780 рақамли қўлёзма. –В.36.

qilgan bo‘lganlar yoki Alisher Navoiy “alar zamonining oxirida bo‘lib mulozamatlari sharafiga muyassar bo‘lmaganlar”.²⁴⁸

“Muzakkiri ahhob” da Shayx Shoh Ziyoratgohiyning yashagan davri haqida muayyan xulosaga kelish imkonini beruvchi muhim bir dalil bor: “Mavlono Kalon Ziyoratgohiy ulug‘larning ulug‘i bo‘lganlar va **Shohruh Sulton-go‘ri nurga to‘lsin-qanchalik ular mulozamati orzusini qilmasinlar alar sharif ta‘biga maqbul tushmagan**”.²⁴⁹ “Muzakkiri ahhob” dan ko‘chirilgan iqtibos Alisher Navoiy hikoyatidagi **“Hirot dor us-saltanasidin salotini masnadrishin...ul buzurgvor xizmatiga borur erdilar**”.²⁵⁰ so‘zlari bilan muvofiq keladi. Bu o‘rinda Alisher Navoiyning **“Salotin in‘om va suyurg‘olin ko‘zga ilmadi.”**²⁵¹ degan gaplarini ham xotirdan uzoqlashtirmaslik kerak. “Muzakkiri ahhob” da keltirilgan lavhadan ayon bo‘ladiki, Shayx Shoh Ziyoratgohiy Shohruh Mirzoni unchalik yoqtirmagan. Shohruh Mirzo (1377-1447) Amir Temur farmoni bilan 1397-yildan 1405-yilgacha Xuroson hukmdori sifatida Xuroson, Seiston va Mozandaronni boshqargan. 1409-yildan umrining oxiriga qadar (1447-yil) Hirot poytaxti bo‘lgan Movarounnahr, Ozarbayjon, Iroq, Xuroson va Shimoliy Afg‘onistondan tarkib topgan katta bir davlatda “ulug‘ xoqon” sifatida saltanat surgan. Koshifi asrori ilohiy Shayx Shoh Ziyoratgohiyning ulug‘larning ulug‘i maqomiga ko‘tarilib, qanoat ramziga aylanishlari Hirot dorus-saltanidan sultonlar, din ulamolari, mashoyihu avliyullohning u kishining xizmatiga borishi ham shu yillarga to‘g‘ri keladi.

Shayx Shoh Ziyoratgohiyning yoki Mavlono Kalon Ziyoratgohiyning yashab faoliyat ko‘rsatgan davri masalasida “Muzakkiri ahhob” tarjimoni I. Bekjon ko‘rsatgan sana maqsadga muvofiqdir. O‘sha sanani XIV asrning oxirgi choragi va XV asrning birinchi yarmi tarzida ifodalasak yana-da aniqroq bo‘ladi. “Muzakkiri ahhob” yozilayotgan yilda (1566) Mavlono Kalon Ziyoratgohiy avlodidan bo‘lgan, Abdulazizxonning ustozlari Nosiriddin Oxund 84 yoshda bo‘lgan. Ulug‘ yoshli va

²⁴⁸ Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 10-жилд. –Тошкент: Фан, 1992. –Б.10.

²⁴⁹ О‘sha asar. –В 43.

²⁵⁰ Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. – Б.55.

²⁵¹ Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. – Б.55.

xasta bo‘lishiga qaramay, tolibi ilmlarga saboq berishni davom ettirgan. Turli ijtimoiy toifa kishilariga foydali maslahatlar bergan. “Muzakkiri ahbob” muallifi “Ulug‘ allomaning soyasini boshimizdan aritma” deb Allohga munojot qiladi.

Abdulazizxon o‘z zamonasining mashoyixlaridan Amir Abulqoga muridlaricha munosabatda bo‘lgan. “Muzakkiri ahbob” muallifi bu shayxning oila muhiti, piru ustozlari, fazilati, toliblarni kamolga yetkazish borasidagi fidoiyligi haqida ixcham, ammo aniq ma’lumotlar beradi. Ma’naviyatimiz tarixini imkon qadar o‘quvchiga mukammal yetkazish uchun Amir Abulqoga aloqador Amir Sadridin Yunus al-Husayniy, Safiddin Muhammad Hanafiy, Hoji Muhammad Habushoniy, Shayx Nuriddin Muhammad kabi ma’rifat darg‘alarining nomini tilga olishdan erinmaydi.

Abdulazizxon bin Ubaydullo Bahodirxon darveshlar, olimu shoirlar uchun himmat eshigini doimo ochib qo‘ygan. Shariat va tariqat talablari, ahloq-odob qoidalariga mos qadam bosgan. “Muzakkiri ahbob” dan o‘qiymiz: “Va bir necha muddat bu faqir (Hasanxoja Nisoriy-M.M) saltanatpanoh mulozamatida bo‘lganman. Hech qachon xon tomonidan odobga xilof bir ish ko‘zga chalinmasdi.²⁵²

Hasanxoja Nisoriy o‘z uslubiga ko‘ra, ilmiy matnning bevosita mantiqiy davomi sifatida “Muallif” dan sarlavhasi ostida she’r keltiradi:

Chunon tay kard dar mulki saxovat rohi ehsonro,
Ki sad chun Xotami Tay bar darash bahri savol omad.²⁵³

“Muzakkiri ahbob” muallifi talqinicha, Abdulazizxon saxovat saltanatini shu darajada zabt etdiki, Hotami Toyga o‘xshash yuz himmat sohibi saxovatdan ta’lim olish uchun uning eshigida navbat kutib turadi. Birinchi misrani yakunlovchi “mulki saxovat” (“saxovat mulki”), “rohi ehson” (“ehson yo‘li”) istioralari she’rning ikkinchi misrasida mubolag‘a san’ati bilan quvvatlantirilib, ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikr ta’sirchan, jozibali ifodalangan.

Nasx xatini chiroyli bitgan Abdulazizxon she’riyat bilan ham shug‘ullangan. Ilmiy matnda istioraning yangi, tarhi toza namunalarini yaratib, ularni o‘rnida va

²⁵² O‘sha asar. –B. 44-45.

²⁵³ O‘sha asar. –B. 45.

me'yorida mahorat bilan qo'llagan Hasanxoja Nisoriy yozadi: "Xon nasx xatini juda yaxshi yozardi. She'r bitish bilan mashg'ul bo'lardi va so'zamollik to'pini notiqlik maydonida olib qochardi".²⁵⁴ Ma'naviyatimiz tarixida shoirlik bilan xattotlik sanatini mohirona uyg'unlashtirgan iste'dod sohiblari ko'p bo'lgan. Xorazm adabiy muhitida ustozlik maqomida bo'lgan mutafakkir shoir, tarixchi tarjimon va siyosiy arbob Shermuhammad Munis (1778-1829) Hazrat Alisher Navoiyning "Mezonul-avzon" va "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarlarini kitobat qilgan. Xattotlik ilmiga bag'ishlab nazariy risola yozgan.²⁵⁵

"Muzakkiri ahhob"ning "Abdulazizxon bin Abulg'ozzi Ubaydullo Bahodirxonning muqaddas yodi" sarlavhasi ostidagi fiqrasi shayboniy hukmdorning tariqatga munosabati bilan boshlanib, uning piri Shayx Jalol shaxsiyatidagi fazilatlarni tahlil qilish bilan davom etgan.

Shayx Jalol rangin g'azallar, ilohiy-irfoniy ruh bilan yo'g'rilgan falsafiy ruboiylar yozgan. Ruboiyda sulukning maqomot bosqichini o'tamasdan bir yo'la hol darajasini egallagan solik obrazining mumtoz namunasini yaratgan.

Shayx Jalol, Nosiriddin Oxund, Amir Abulbaqo kabi mashoyixlardan ta'lim olgan Abdulazizxon bin Ubaydullo Bahodirxon o'zida hamisha darveshlarga ehtiyoj sezgan. Mulk va mamlakat istiqbolini ularning barokotidan deb bilgan.

3.02. Boburiylar va shayboniylar: adabiy aloqa va o'zaro ta'sir masalalari

"Muzakkiri ahhob" ijodkorlar o'rtasida asrlar davomida amal qilib kelgan adabiy hamkorlik, o'zaro ta'sir masalalari xususida ham nodir ma'lumot beruvchi adabiy manbadir.

Tatabbu' – Sharq adabiyotida keng tarqalgan adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning shakllaridan biri hisoblanadi. "Muzakkiri ahhob" da Abdulazizxon bin Ubaydullo Bahodirxon qalamiga mansub Komron Mirzoning ikki g'azaliga bitilgan ikki tatabbu' keltirilgan. Abdulazizxon har ikki g'azalda ham Aziziy taxallusini

²⁵⁴ O'sha joyda. –B 45.

²⁵⁵ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (XVI-XIX аср I ярми). Тошкент: Фан, 2006. –Б. 211.

qo‘llagan. Abdulazizxon tatabbu’laridan biri tojik-fors tilida bo‘lib, birining o‘zbek tilida ekanligi muhim ilmiy qimmat kasb etadi. Komron Mirzo va Abdulazizxonning ikki tilni birday bilgani va shu ikki tilda birday ijod qila olganiga yetarli dalil hisoblanadi.

Tatabbu’- adabiy aloqa va o‘zaro ta’sirning keng tarqalgan shakllaridan biri. Bunda shoir boshqa bir ijodkorning o‘z ko‘ngliga yoqqan, qalbiga cho‘g‘ tashlagan g‘azalining ruhidan bahra olib, o‘zining ijodiy qobiliyatini namoyon qiladi. G‘azalning vazn, qofiya, radif, obraz, misralar miqdori va badiiy-tasviriy vositalarini saqlab qolgan holda, uning ma’no-mohiyatini kengaytiradi. G‘azal mazmuniga yangi, toza ruh bag‘ishlaydi. Shu ma’noda tatabbu’ taqlid emas, balki u yoki bu shoirga izdoshlik qilish asnosida yuqori ijodiy maqomga intilishdir. Abdulazizxon nazira bitgan Komron Mirzo g‘azali an’anaviy mavzuda yozilgan. G‘azal ishq-muhabbat talqiniga bag‘ishlangan.

Ey, qadi ra’noi tu sarvi gulistoni husn,

Ro‘i diloroi tust lolavu bo‘stoni husn. ²⁵⁶

Matla’ning har ikkala misrasida istiora va tashbih san’ati unsurlari mohirona uyg‘unlashtirilgan. Oshiq ra’no guli bilan ma’shuqasi o‘rtasida, ma’shuqaning qaddi bilan xushqomat daraxt sarv o‘rtasida monandlik tuyadi. Ma’shuqani ra’noga guliga, uning xushbichim qomatini to‘g‘ri tik o‘sadigan sarv daraxtiga tashbih qilish mumtoz adabiyotimiz xazinasidagi yuzlab g‘azallarda bor. Komron Mirzo badiiy tasvirining o‘ziga xosligi shundaki, unda tashbih istiora san’ati bilan kuchaytirilgan. Ma’shuqa qomati tabiat qo‘ynidagi bog‘da yoki gulistonda o‘sadigan **sarvga** emas, **husn gulistonining sarviga o‘xshatilgan**. Xuddi shunday uslubiy o‘ziga xoslik g‘azalning ikkinchi misrasida ham kuzatiladi. An’anaviy g‘azallarda yor yuzi quyoshga, oyga, gulga, lolaga qiyos qilinadi. Komron Mirzo esa ma’shuqaning oshiq ko‘ngliga orom beruvchi yuzini tabiat qo‘ynida o‘sadigan **lolaga** emas, **husn bo‘stonining** lolasiga mengzaydi.

²⁵⁶ O‘sha joyda. –B 45.

Abdulazizxon Komron Mirzo g‘azalidan ta’sirlanib, an’anaga payravlik zaminida yangi bir g‘azal yaratgan:

Toqi du abro‘i tust matla‘i devoni husn,
Orazi nekui tust shamsayi ayvoni husn.
Husn turo ziynat ast, ey buti chun xattu hol,
Xollu xattat oyatest omada dar shoni husn.
Kast natavonad kashid poy ba domoni sabr,
To tu barovardayi sar zi gireboni husn.
Sabzayi tar bardamid girdi labat to kunad,
Jo chu Xizr bar labi chashmayi heyvoni husn.
Har gah Azizy bidid xat ba labi yor, guft:
Ro‘zi siyohast in yo shabi hijroni husn.²⁵⁷

Tatabbu’-g‘azal matla’sida ham istiora va tashbih san’atlari uyg‘unlashib, ma’shuqa vasfi, surati tasvirini badiiy bo‘yoqdor tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Aziziyning lirik qahramoni binolarning ustiga yarim doira shaklida ishlangan gumbaz bilan yoki masjid mehrobi tepasidagi qayrilma qism bilan ma’shuqa qoshi orasida monandlik ko‘radi. Va ma’shuqa ikki qoshining toqi **husn devonining matla’siga** o‘xshatiladi. She’riy asarning avvalgi ikki misrasi, boshlanmasi bilan ma’shuqaning ikki qoshi orasida tashbehiy muvozanat, mutanosiblik bor. Birinchi misrani yakunlovchi **“Matla‘i devoni husn”** (**“Husn devonining matla’si”**) esa fikriy topilma. “Ikki qoshining toqi” va husn devonining matla’si” bir-biriga shunday nozik ulanganki, mohir zargarning qo‘li bilan uzukka qo‘yilgan ko‘zday taasurot qoldiradi. Komron Mirzo g‘azalining matla’sida suyukli yor yuzi **husn bo‘stonining lolasiga qiyos qilingan edi**. Tatabbu’ – g‘azal matla’sining ikkinchi misrasida esa ma’shuqaning chiroyli yuzi **husn ayvonining quyoshiga** tashbih qilinadi. Matla’ning ikkinchi misrasida ham istiora san’ati bilan muzayyan tasvir davom ettirilgan. Ikkinchi misrada ham shoir **ramziy-istioraviy iboralarning tanosobiyatiga** jiddiy e’tibor qilgan. Besh baytdan iborat tatabbu’ g‘azalda

²⁵⁷ O’sha joyda.

ma'shuqa ko'rkam qiyofasining barcha manzaralari qalamga olingan. Har bir misra, har bir bayt o'ziga xos badiiy ohang va she'riy san'atlar bilan nurlantirib borilgan:

Sabzayi tar bardamid girdi labat, to kunat,
Jo chu Xizr bar labi chashmayi hayvoni husn.²⁵⁸

Mumtoz poetikaga oid manbalarda "Talmeh" arab tilidan olingan so'z bo'lib "yengil nazar tashlash, nimagadir ko'z qiri bilan qarash" kabi lug'aviy ma'nolarni anglatishi qayd qilingan.²⁵⁹ Mumtoz she'rshunos Shamsi Qaysi Roziyning talqinicha, "Talmeh kichik ishora bilan katta ma'no –mazmunni hosil qilish" san'atidir. Ilohiy voqea-hodisalar, shaxslar, Sharqda mashhur muhabbat qissalari va ularning qahramonlari, payg'ambarlar nomiga murojaat qilish bilan ham talmeh hosil qilinadi.

Aziziy g'azalidan ko'chirilgan baytda Xizr alayhissalom nomi tilga olingan. Rivoyatlarga ko'ra, Jahongir shoh Iskandar va Xizr zulmat qa'ridan abadiy tiriklik suvini ("obi hayvon") izlashgan. Uni topish Xizr payg'ambarga nasib etgan. Tahlil qilinayotgan baytda ma'shuqaning labi faqat Xizr alayhissalomgina bahramand bo'lgan mangulik suviga tashbih qilingan. Ma'shuqa labini Xizr suviga o'xshatish Sharq she'riyatining aksar namunalarida mavjud. Aziziy ifodasining o'ziga xosligi shundaki, unda ma'shuqa labi va "obi hayvon" qiyosi mushabbih va mushabbihin bih munosabatlari orqali amalga oshirilmagan. Shoh shoir bu badiiy maqsadini "hayot bulog'i" istiorasi orqali yuzaga chiqargan.

Aziziy talqinicha, baytda ma'shuqa labi ustidagi ko'z ilg'amas mayin, qora tukchalar Xizr payg'ambarga o'xshatilib, ularning lab ustida turishlari Xizr alayhissalomning "Obi hayvon" suvi qirg'og'ida o'tirishiga qiyoslangan. Badiiy matnda yorning xati "sabzayi tar" istiorasi orqali ifodalangan. "Muzakkiri ahbob" tarjimoni Ismoil Bekjon "Sabzayi tar" birikmasini "ko'k maysa" tarzida tojik-fors tilidan hozirgi o'zbek tilimizga o'g'irgan. Fikrimizcha, muhokamamiz asosida

²⁵⁸ O'sha joyda.

²⁵⁹ Хусайний, Атоуллох. Бадойиъус-санойиъ. – Тошкент: Ф.Фафур номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 134. Розӣ, Шамси Қайси. Ал-мўҷам. – Душанбе: Адиб, 1991–Б. 301.

turgan istiora hozirgi o‘zbek tiliga “namli sabza”, “mayin sabza”, “toza sabza” tarzida tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki ma’shuqaning labi ustidagi nafis, qora miyiqchalarga nisbatan ramziy-istioraviy tarzda bo‘lsa-da “ko‘k maysa” ifodasini ishlatish unchalik joyiga tushmaydi. Misra mantig‘i “ko‘k” kalimasini qabul qilmasligi xotimaviy baytda yorqin nazarga tashlanadi. G‘azal maqta’sida “xat” hech qanday badiiy bezaklarsiz qo‘llangan. Yakunlovchi baytda bilib bilmaslikka olish tajohul-ul-orif san’ati tavsif etilayotgan manzarani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Har gah Azizy bidid xat ba labi yor, guft:

Ro‘zi siyohast in yo shabi hijroni husn. ²⁶⁰

Tatabbu’- g‘azal haqiqiy so‘z san’ati namunasi sifatida taassurot qoldiradi. Abdulazizxonning o‘ziga xos shoirona zavq sohibi ekanligini namoyon etadi. “Muzakkiri ahbob” dan o‘qiymiz: “Va Komron podshohning bu g‘azaliga ham go‘zal, ham ravon javob qaytargan. G‘azal matla’si:

Xub erdi, mango bo‘lsa edi yor musohib,

Yo bo‘lmasa erdi ango ag‘yor musohib”. ²⁶¹

Suyukli yori bilan hamsuhbat bo‘lish, do‘st bo‘lish oshiqning azaliy va abadiy orzusi. Taqdir uning nasibasiga shunday yozuqni bitishini intiqlik bilan kutib yashaydi. Hijron azoblariga sabot bilan bardosh beradi. Hajr, ayriliq qo‘zg‘otgan yoqimli iztirob dilidan tiliga, tilidan satrlarga ko‘chadi. Ma’shuqaning vasfi, nafis jamolining ta’rifu tavsifi bilan o‘tlik ko‘ngliga taskin beradi.

Komron Mirzo oshiq qalbi tubidagi armonga aylangan orzuni she’rga olib kirgan. Shuning uchun ham uning g‘azali Abdulazizxon qalbiga cho‘g‘ tashlagan. Shoh-shoirning Komron Mirzoning o‘zbek tilidagi g‘azaliga bitgan nazirasi ham besh baytdan iborat:

Xushdur kishiga bo‘lsa agar yor musohib,

Gar bo‘lmasa aning bila ag‘yor musohib.

Bulbul boshig‘a kelmas edi muncha balolar,

²⁶⁰ O‘sha joyda.

²⁶¹ O‘sha joyda.

Gar bo'lmasa erdi gul ila xor musohib.
Yo rab ne balodur bu ki hijron alamidin,
Bormen g'amu anduh ila, ey yor musohib.
Ko'yung itidek yori vafodor topilmas,
Ko'rdum meni dil suxta bisyor musohib.
Bu telba ko'ngil bilan, Aziziy, ne qilursan,
Gar bo'lmasa ul sho'xi dilozor musohib.²⁶²

Komron Mirzo g'azali matla'sida kuzatilgani kabi Aziziy g'azali ham an'anaviy mavzuda yozilgan. Ishq-muhabbat talqiniga bag'ishlangan. Unda uch timsol—oshiq, yor va ag'yor (raqib) ishtirok etadi. Javobiya g'azalda vazn, qofiya, radif, timsollar saqlab qolingan. O'xshatma g'azalning g'oyaviy mazmun qirralaridagi, ohangidagi o'ziga xos jiloni his qilish qiyin emas. Komron Mirzo g'azali matla'sining dastlabki misrasida oshiqning xitobi, istagi o'ziga qaratilgan. Tatabbu' g'azalda esa oshiqning "ko'ngli tilagan murod" (Bobur) umumga, barcha oshiqlarga yo'naltirilgan. Tatabbu' g'azalga singdirilgan ayricha mazmun va uslubiy o'ziga xoslikni matla'ning ikkinchi misrasida ham mushohada qilish mumkin. Komron Mirzo g'azali matla'sidan: "Manga yor musohib bo'lsa, qanday yaxshi bo'lar edi. Yoki bo'lmasa, hech bo'lmaganda raqib yor bilan musohib bo'lmasa edi",-degan ma'no kelib chiqadi. Fikrimizcha, tatabbu'-g'azal matla'sining mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: "Yor bilan musohib bo'lish kishiga (oshiqqa) xush kayfiyat, farah bag'ishlaydi. Qani edi raqib yor bilan hech qachon musohib bo'lmasa". Tatabbu' g'azalning ikkinchi baytida oshiq o'z boshiga tushgan ofatlar yor va ag'yorning musohibliigi, do'stlashganining oqibati, natijasi ekanligini aytadi. Yor ag'yor bilan musohib bo'lmaganida edi, oshiqning boshiga buncha balolar tushmas edi.

Bulbul boshig'a kelmas edi muncha balolar,
Gar bo'lmasa erdi gul ila xor musohib.²⁶³

²⁶² O'sha asar. –B.46.

²⁶³ O'sha joyda.

Baytda istiora, tamsil va tashxis san'atlari uyg'unlashib teran mazmun va voqealar tizmasini mujassamlantirgan.

Chindan ham oshiq ma'shuqiga musohib bo'lishi mumkinmi? Yo'q. Ma'shuqaga musohib bo'lish oshiqning ishi emas. Oshiqning musohibi –hijron, alam, g'am, anduh...Azaliy qismat bu:

Yo rab ne balodur bu ki hijron alamidin,
Bormen g'amu anduh ila, ey yor musohib.²⁶⁴

Bag'ri kuygan oshiq ko'p kishilar bilan musohib bo'lgan. Lekin ma'shuqaning ko'chasiidagi it kabi vafodor musohibni topa olmagan:

Ko'yung itidek yori vafodor topilmas,
Ko'rdu men dil suxta bisyor musohib.²⁶⁵

Aslida mazkur bayt maqta'dagi xulosaga o'tish uchun ko'prikdir. Ishq maskani–ko'ngil.Oshiqni betoqatu beqaror qilib ma'shuqa bilan musohib bo'lishga undayotgan ham shu ko'ngildir. Yorga musohib bo'lish yoki bo'lmaslikda oshiqning ixtiyori o'zida emas.Uning jilovi telba ko'nglining qo'lida. Agar ma'shuqa musohib bo'lishga rozi bo'lmasa, inon-ixtiyori telba ko'ngilning hukmida bo'lgan oshiqning holi ne kechadi? Fikrimizcha shoh-shoir Aziziy o'zida ilhom qo'zg'agan g'azaldagi g'oyani takmilga yetkaza olgan. G'azal mutolaasi davomida tatabbu'-g'azal muallifining voqelikka o'z tafakkuri va nuqtayi nazari bilan nigoh tashlashga qodir ijodkor ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Tarixdan ma'lumki, otasi Ubaydullaxon vafotidan keyin (1540) Buxoro taxtiga o'tirgan Abdulazizxonning hayoti mo'tadil kechmagan. Yosh xon ko'p sargardonliklarni, notinch kunlarni boshdan kechirgan. Samarqand hukmdori Abdullatifxon uni bosh xon sifatida tan olmagan. Mamlakatda ikki hokimiyatchilik boshlangan. Abdullatifxon bilan Toshkent hokimi Navro'z Ahmad ittifoq tuzib, Buxoro ustiga qo'shin tortadilar. Abdulazizxon Balxga chekinishga majbur bo'ladi. Keyinchalik jo'ybor shayxlarining qo'llab-quvvatlashi bilan Buxoro saltanati yana unga nasib etadi.

²⁶⁴ O'sha asar. –B.46.

²⁶⁵ O'sha joyda.

Xonlik faoliyati toju-taxt janglari olovi ichida kechgan bo'lsa-da, qator bunyodkorlik ishlarini amalga oshira olgan. Abdulazizxonning xulqi ustozlariga, olimu fozilu shoirlarga munosabati haqida hayotiy dalillar keltirib, shoh-shoir ijodidan ayrim namunalarni o'quvchilar hukmiga havola etgan Hasanxoja Nisoriy uning obodonchilik sohasidagi ishlarini ham e'tibordan soqit qilmagan: "Bu xon davlati zamonida to's-to'polonlar ko'p bo'lganiga qaramay sa'lim ta'bi mamlakat obodligi va yurt qurilishiga kirishib, oliy imoratlar barpo etdi. Hazrat qutbul-abror xojayi buzrukvorning xonaqoh va xatiraasi shular jumlasidankim, bag'oyat xush va dilkash barpo etilmish".²⁶⁶ **"Muzakkiri ahbob" muallifi Abdulazizxon qurdirgan Hazrat Bahouddin Naqshband xonaqohini ta'riflab qasida yozgan.** Qasida matla'si tazkirada keltirilgan. Xonaqoh qurib bitkazilgan sana (951/1544) o'z ifodasini topgan ta'rix she'r ham Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan. Uning matni "Muallif ta'rixi" sarlavhasi ostida "Muzakkiri ahbob"da to'liq keltirilgan. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Hazrat Bahouddin xonaqohi oldida osmonning to'qqiz tabaqasi, misoli yer osmon ostida turgani kabi pastdir:

Hast no'h toqi falak dar janbi o',

Past chun go'i zamin zeri falak.

"Lafzo va ma'ni" torixi u,

Soli hijrat nuhsadu panjohu yak. (951-1544)²⁶⁷

Mavjud tadqiqotlarda jahongir Amir Temur va temuriylar davrida xattotlik va musavvirlik san'atining rivoji va uning atoqli namoyandalari haqida maroqli lavhalar keltiriladi. Milliy madaniyatimizning shu va shu kabi turli sohalari xususida mulohaza yuritilganda boshqa sulola vakillarining ma'naviyatimiz xirmoniga qo'shgan hissasi yetarli yoritilmay keladi. Ayni ta'kid shayboniylar sulolasiga ham daxldordir.

"Muzakkiri ahbob" eslatilgan bo'shliqni to'ldirishda ham nodir manbadir: "Va xonning (Abdulazizxonning-M.M) bir kitobxonasi bor edikim, o'sha paytda yer yuzida unga o'xshash kitobxona bo'lganmi, yo'qmi, bilmadik. Bu kutubxona

²⁶⁶ O'sha joyda.

²⁶⁷ O'sha joyda.

kotiblarning podshosi Amir Ali Husayniy edikim, nasta'liq yozuvini bitishda tengi yo'q edi".²⁶⁸ Mazkur satrlar Boysung'ur Mirzo boshida turgan Hirot matnshunoslik maktabi va unda kitobat ishlarining g'oyatda yuksak pog'onaga ko'tarilganligini tadqiqotchi xotirasida tiklaydi. "Muzakkiri ahbob" dan ko'chirilgan iqtibosdan ayon bo'ladiki, **temuriylar kitobiga yozilgan bitiklarni shayboniylar daftaridan ham topish mumkin. Abdulazizxon kutubxonasini o'z ko'zi bilan ko'rgan "Muzakkiri ahbob" muallifi** qalbida mavj urgan ehtirosni o'quvchi-avlodlardan yashira olmagan. Tasavvur olamiga sig'magan jozibani kitobiga ko'chirib qoldirgan. Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasining raisi ustod Behzod (Navoiy) bo'lganidek, Abdulazizxon kutubxonasini "Kotiblar podshosi" (Nisoriy) Amir Ali Husayniy boshqargan. Nisoriy talqinicha, Amir Ali Husayniyning "rayhon xati" o'quvchining ko'zidan g'uborni ketkizib, unga ravshanlik bag'ishlaydi. Xonning kitobxonasidagi boshqa kotiblar esa tiniq xatlari bilan Xizr payg'ambar tiriklik suvini topgan zulumotda oq qog'oz yuziga hayot zilolini oqizganday bo'ladilar. Muzahhib va musavvirlari esa: qil asboblari uchi bilan yuz-ko'zga chunonam bezaku pardoz berardilarki, ularning bu chehra ochuvchilik hunarida qil uchicha nuqsonlari ko'rinmaydi".²⁶⁹ "Muzakkiri ahbob" muallifi keyingi jumalalarda xon kitobxonasi kitobdori Sulton Mirak Munshiyning husnixat va naqqoshlik ilmi va amaliyotini mukammal egallaganini aytib, vasf etadi. Kitobdor sha'niga bayt keltiradi.

"Muzakkiri ahbob" tarjimoni Ismoil Bekjon "Nafoisul-maosir" kitobiga tayanib ma'lumot berishicha, Abdulazizxon Xurosonga harbiy yurishlarning birida Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasini ko'rgan va o'z kitobxonasini o'sha tarhda qurgan. Matnshunos Hamid Sulaymon Abdulazizxon kitobxonasining Angliya va Fransiyada saqlanayotgan namunalari aniqlagan.²⁷⁰

Yuqorida qiyosiy-tipologik tahlillar asosda ochib berilganidek, Abdulaziz Bahodirxon Komron Mirzoning o'zbek va fors-tojik tilida bitilgan g'azallariga

²⁶⁸ O'sha asar. –B.46-47.

²⁶⁹ O'sha joyda

²⁷⁰ O'sha asar. –B.302.

tatabbu' bog'lagan.U har ikki tilda bitgan g'azallarida ham Aziziy taxallusini qo'llagan.

Shoh-shoir Aziziy boburiy ijodkorning (Komron Mirzo) qalbini zabt etgan baytlaridan ta'sirlanib o'zining ijodiy qobiliyatini to'la namoyon qila olgan.Voqeylikka o'z tafakkuri, o'z nuqtayi nazari bilan qarashga qodir shoir ekanligini isbotlagan.

3.03.Abdullatif Bahodirxon:Ulug'bek Ko'ragonga payravlik hosilasi

Hasanxo'ja Nisoriy talqinicha, har bir insonning tabiatida yomon ishlarga, bashar zotining noshoysta istaklariga moyillik bo'ladi. Faqat qutlug' xilqatli, tabiati beg'ubor kishilargina bunday qusurlardan xoli bo'ladilar. Olim nazdi-nazarida, qadim Samarqandni uzoq yillar adolat bilan boshqargan Abdullatif Bahodirxon bin Ko'chkunchixon bin Abulxayrxon xuddi shunday saodatmand inson bo'lgan.

“Alisher Navoiy ijodida, xususan, uning nasriy asarlarida ko'p kuzatiladigan bir an'ana bor. Asar muqaddimasida muallif qahramonning shajarasi, nasl-nasabi haqida ma'lumot beradi”.²⁷¹ Ulug' mutafakkir ayni yo'nalishdagi axloqiy-ta'limiy, falsafiy-irfoniy g'oyalarini keng xalq ommasiga, o'z zamonasidagi turli ijtimoiy toifa vakillariga tez hamda ta'sirchan yetkazishning qulay vositasi – she'riyat imkoniyatlaridan ham o'rinli va unumli foydalangan:

Nokasu nojins avlodi kishi bo'lsin debon,
Chekma mehnat, yaxshi bo'lmas ul kasofat olami.
Kim kuchuk birla xo'tikka qancha qilsa, tarbiyat
It bo'lur, eshak bo'lur, bo'lmaslar aslo odami.

Inson balog'atida naslu nasabning o'rniga alohida urg'u berish Shayx Muslihiddin Sa'diy asarlarida ham kuzatiladi. Sa'diy Sheroziy “Guliston”ining “Podshohlar odati bayoni” deb nomlangan dastlabki bobida mazkur g'oya majoziy tasvir vositasida o'z in'ikosini topgan:

²⁷¹ Хайитов Ш.Баркамол инсон тимсоли.Тошкент:Фан,2003. –Б.19.

Keskir xanjar bo‘lmas yomon temirdan,
Odam qila bo‘lmas kim esa nokas.
Go‘zal tabiatli yomg‘ir ming yog‘sin :
Bog‘dan lola unar, sho‘rxok yerda xas.
Sho‘ra tuproq yerdan gul unib chiqmas,
Don sochmoq -ovora bo‘lmoq demakdir.²⁷²

Shayx Muslihiddin Sa‘diy pandnomalarida bunday tamsiliy, hayotiy qiyoslar ko‘plab keltiriladi:

Bulutdan chin hayot yomg‘iri yog‘sa ,
Tol daraxt shoxida meva pishmaydi.
Urinma yomonni yaxshi qilishga ,
Bo‘yrabop qamishdan shakar chiqmaydi.²⁷³

Shayx Muslihiddin Sa‘diy “Guliston”ining sakkizinchi bobidan o‘qiymiz: “Rahm ovardan bar badon sitam ast bar nekon, afv kardan az zolimon javr ast bar darveshon”.²⁷⁴ Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi hikmati Sa‘diy Sheroziyning yuqorida matni keltirilgan pandi asosida yuzaga chiqqan: “Yamonlarga lutfu karam, yaxshilarga mujibi zarar va alamdur. Mushukka rivoyat – kabutarga ofatdur. Shag‘ol jonibin tutmoq tovuq tuxmin quritmoqdur”.²⁷⁵ Buyuk o‘zbek shoirining ushbu tanbihini Shayx Sa‘diy hikmatining shoirona, ixcham sharhi deyish mumkin. Har ikkala ulug‘ ijodkor hikmatlari juda sodda, ammo g‘oyatda teran, o‘quvchini tafakkurga chorlovchi, tashbehli va bo‘yoqdordir. Shayx Muslihiddin Sa‘diy va Alisher Navoiy nasriy va nazmiy asarlarida bu kabi qiyoslar ko‘plab keltirilgan. Tarixiy, hayotiy, ilohiy voqealar, tabiat va nabotot olamiga xos turli hodisalar o‘ziga xos va mos talqinlarda o‘quvchilarga taqdim qilingan.

Ajdodlarimizning ming yillar davomida hayot saboqlaridan chiqargan xulosalari sa‘diyona va navoiyona hikmat va falsafa bilan yo‘g‘rilib, insoniy

²⁷² Саъдий Шерозий. Гулистон. – Тошкент: ЎзССР Давлат Бадий адабиёт нашриёти, 1960. –Б. 29.

²⁷³ Саъдий Шерозий. Гулистон. – Тошкент: ЎзССР Давлат Бадий адабиёт нашриёти, 1960. –Б. 27.

²⁷⁴ Саъдий шерозий. Гулистон.-Техрон:Иқбол,1352 хижрий-шамсий, –Б. 236-бет.

²⁷⁵ Навоий А.Маҳбуб ул-қулуб.БСМ хазинасидан 27780 рақамли қўлёзма. –В.59.

fazilatlar va illatlarni talqin qilishning betakror namunalari yaratilgan. Xuddi shunday qat’iy xulosani Sharq adabiyotining yirik namoyandalari Yusuf Xos Hojib, Adib Ahmad, Ahmad Yassaviy, Abulqosim Firdavsiy, Fariddidin Attor asarlari haqida ham aytish mumkin.

Hasanxoja Nisoriy buyuk salaflari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy , Shayx Ahmad Yassaviy , Abulqosim Firdavsiy , Fariddin Attor, Shayx Muslihiddin Sa’diy, Hazrat Alisher Navoiy kabi inson balog‘atida naslu nasabning muhim o‘rni borligiga alohida e’tibor qaratadi: “Va yomon xislatlardan Kayvon martabasigacha ustun turuvchi bu xon shahid sulton Ulug‘bek Ko‘ragonga – mushahaddasi nurga to‘lsin – farzandlik nisbati borligi orqasidan Utorid izzatlik munajjimlarga zo‘r muhabbat va hurmat bilan qarardi”.²⁷⁶ Tarixiy manbalarning guvohligiga ko‘ra, Muhammad Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxonning Ko‘chkinchi va Suyunchxoja nomli o‘g‘illari Mirzo Ulug‘bekning (1394-1449) Robiyasultonbegim (vafoti 1485-yil) ismli qizidan tug‘ilgan. Shuning uchun ham Abdulatif Bahodirxon Ulug‘bek Ko‘ragonning qizi tomonidan chevarasi hisoblanadi.

Abulxayrxon va Robiyasultonbegimning farzandi Ko‘chkunchixon (1452-1530) – Buxoro xonligida rasman shayboniylar sulolasining Shayboniyxon va Suyunchxo‘jaxondan keyingi uchinchi hukmdori. U 1510 – yildan boshlab davlatni boshqargan. XI asrning atoqli shoiri, yetuk olimi va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib xalqning hukmdorda uch xil haqi borligi xususida mulohaza yuritir ekan, bu haqning birinchisi – **pulning kursini ko‘tarish** ekanligini alohida uqtiradi. 1513-1523-yillarda **Ko‘chkunchixon pul islohotini o‘tkazib, o‘zbekxonlar davrida muomalada bo‘lib kelgan pul birligini yangilagan.** U o‘zining shunday yo‘nalishdagi islohotlari bilan moliya va savdo-sotiq rivojiga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Obodonchilik ishlariga katta ahamiyat bergan. Uning hukmronligi davrida Samarqandda xilma-xil binolar qurilgan, bog‘lar barpo qilingan, ariq va kanallar qazilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning mashhur “Zafarnoma”si hamda

²⁷⁶ O‘sha asar. –B.32.

Rashiduddin Fazlullohning uch qismdan iborat “Jome at-tavorix” (“Tarixlar to‘plami”) asarlari fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.²⁷⁷ Xon shoirlar, olimlar va san’atning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatgan kishilarga katta rag‘bat bilan qaragan.Ularning ijodiy ishlariga homiylik qilgan.Xususan, she’r ahlini va she’riyatni yuksak qadrlagan, o‘zi ham o‘zbek tilida she’rlar bitgan. Zahiriddin Muhammad Bobur davlatining poytaxti Agraga elchilar yuborgan.Mirzo Bobur Ko‘chkunchixon tomonidan yuborilgan elchilarga yuksak ehtirom ko‘rsatgan. Ko‘chkunchixonidan keyin Samarqand taxtiga uning to‘ng‘ich o‘g‘li Abusaidxon (1530- 1533), keyinchalik esa uchinchi o‘g‘li Abdullatifxon (1540-1551) o‘tirgan.

Ulug‘ bobosining ruhi poki hurmati va o‘zining fozillarga alohida ixlosu e’tiqodi tufayli Abdullatifxon Mirzo Ulug‘bekdan so‘ng so‘na boshlagan astronomiya ilmi rivojiga jiddiy e’tibor bilan qaragan. Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Vohid G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi kabi Samarqand munajjimlik maktabi darg‘alarining an’analarini tiklash borasida ko‘p sa’y-harakatlar qilgan. “Muzakkiri ahhob” muallifi Samarqand hukmdorining bunday fidoyiligini va ulug‘ bobosi Mirzo Ulug‘bek ruhiga yuksak hurmatini g‘oyatda ta’sirchan uslubda ifoda etadi: “Va munajjimlar baxti yulduzi o‘sha muhabbat asar nazar vositasi-la pastlik nuqtasidan izzat avjiga ko‘tarilib, rohat aylanasing yuqori nuqtasida o‘rnashib, zavol va pastga qulash xavfidan omon saqlanib turgan”.²⁷⁸ Ilmiy fikr ifodasida badiiy tasvir vositalaridan o‘rnida va me’yorida istifoda etish Hasanxoja Nisoriy uslubiga xos xususiyat.

Badiiyat asoslari va ularning amaliyotidan atroflicha xabardor bo‘lgan shoir va olim Hasanxoja Nisoriy ilmiy fikr bayonida “munajjimlar baxt yulduzi”, “muhabbat asar nazar”, “pastlik nuqtasi”, “izzat avji” ,“rohat aylanasi” kabi istiora va sifatlashlarni mohirona qo‘llagan. Olimning badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishdagi o‘ziga xos uslubi ilmiy mushohadaga lafziy nazokat va

²⁷⁷ уз.м. википедиа.орг. Rashiduddin Fazlulloh qalamiga mansub “Jome at-navorix”ning XVI asrda eski o‘zbek tiliga o‘girilgan ikki nusxasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti hamda,Turkmaniston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti qo‘yozmalari xazinasida mavjud bo‘lib, ulardan birining tarjimoni Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy, ikkinchisidiki esa Solur bobo ibn Qul Alidir.

²⁷⁸ O‘sha asar. –B. 2.

jozibadorlik bag‘ishlaydi. Ilmiy matnda qo‘llangan har bir badiiy-tasviriy vositaning o‘z vazifasi bor. Muhim g‘oyaviy maqsadni bajaradi. Masalan, “muhabbat asar nazar” ifodasi orqali muallif Abdullatifxonning ilm ahliga va Mirzo Ulug‘bekka bo‘lgan ixlosu e‘tiqodi poydor ekanligiga o‘quvchi e‘tiborini tortadi. Ana shu ixlosu e‘tiqod tufayli Abdullatifxon munajjimlik ilmini “pastlik nuqtasidan” “izzat avjiga” ko‘targan.

Sulton Ahmad Mirzo (1451-1494) vafotidan keyin avval temuriy shahzodalar o‘rtasida, keyinchalik temuriy va shayboniylar orasidagi toj-taxt kurashlari, bosqin va talonchiliklardan nochor holga tushgan Samarqand Abdullatifxon hukmronligi davriga kelib (1540-1551) ancha qaddini rostlagan. Mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy hayotida jonlanish boshlanib, mo‘tadil vaziyat vujudga kelgan. Qadimgi an‘analar tiklangan. Davlat rahbarining mamlakat va xalq taqdiridagi muhim o‘rnini chuqur anglagan olim Hasanxoja Nisoriy yozadi: “Abdullatifxon xonlik xususiyatlari jihatidan birodarlaridan ustun va shavkati yaqinlaridan afzun edi. Tarix sohasini yaxshi bilar edi, ilmi nujumdan xabardor edi. Kechayu kunduzning teng soatlarini taqsim qilib, har soatda munosib bir ishni bajarardi... Bu faqir ul janobdan maqtovli sifatlarni ko‘p ko‘rganman”.²⁷⁹

Xon hamisha Mirzo Ulug‘bekning chevarasi degan ulug‘ nomga loyiq, o‘z tabiiy zotiga muvofiq ish tutgan. O‘z qalamravidagi xalqqa faqat ezgulikni ravo ko‘rgan. Saltanatu joh ahli hayotida kuzatiladigan ba‘zi noxush sayu harakatlardan mutlaqo tiyilgan. Mashvaratu maslahatni olimu fozillar ishtirokisiz o‘tkazmagan. Xususan, Qur‘oni karimni yod olib, ilohiy kitob haqiqatlariga chin dildan amal qiladigan ulamolarning fikr-mulohazalarini ko‘proq tinglagan, ularga barchadan ko‘proq rag‘bat ko‘rsatgan. Shuning uchun ham Hasanxoja Nisoriy talqinicha, “Samarqand uning adolatli ayyomida shaharlar rashkiga aylanib, uning bog‘lari Eram bog‘idan ham xushu a‘loroq ko‘rinardi”.²⁸⁰

Davlatchilik tarixidan ma‘lumki, tarixni yaxshi bilmaydigan hukmdor mamlakatni risoladagidek idora eta olmagan. O‘z xalqi va qo‘shni xalqlarning

²⁷⁹ O‘sha asar. –B.31.

²⁸⁰ O‘sha asar. –B.31.

yaqin va olis tarixidan yetarli xabardorlik hukmdorga mustaqil millat va xalqqa oqilona sarvarlik qilish kalitini beradi. “Muzakkiri ahbob” muallifi Abdullatif Bahodirxonning tarixni yaxshi bilishini xonlik xususiyatlaridan biri sifatida qayd qiladi. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, davlatning birinchi rahbari yulduzlar ilmidan (astaronomiya) ham mukammal xabardor bo‘lishi kerak. Ulug‘bek Ko‘ragonga “farzand masobasida” (Alisher Navoiy ifodasi) bo‘lgan Abdullatifxon nujum ilmida ham mahoratli bo‘lgan. Shu fan mohiyatu ko‘rsatmalaridan kelib chiqib tunu kunning soatlarini taqsim qilgan. Har bir soatda davlat va xalq manfaatlariga molik o‘ziga xos va mos bir ishni bajargan.

Kuchli hofiza – ilohiy inoyat. Shaxs kamolining eng muhim belgilaridan biri. Shuning uchun ham Hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub badiiy va ilmiy asarlar qahramonlarining siymosini quvvayi hofiza kuchi hamisha nurlantirib turadi. Ulug‘ mutafakkir “Xamsa”sining ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin”dan o‘qiymiz:

Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni
Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.
Ne so‘z nikim o‘qib ko‘ngliga yozib
Dema ko‘ngliki, jon lavhiga qozib.

O‘qib o‘tmak, uqub o‘tmak shiori
Qolib yodiga safha-safha bori.²⁸¹

459 ta‘b ahli va tarixiy shaxslar haqida nodir ma‘lumotlar berilgan “Majolis un-nafois” sahifalarida komil inson shaxsining ayni qirrasiga jiddiy ahamiyat berilgan: “Kichik Mirzo – xub tab‘liq , tez idroklik , sho‘x zehnlilik , qaviy hofizalilik yigit erdi”.²⁸² “Shoh G‘arib Mirzo-sho‘x tab‘liq ... Hofizada adili noma‘lum”.²⁸³ Alisher Navoiy tazkirasining uchinchi majlisida Mavlono Hiloliyning turk elidan ekanligi qayd qilinar ekan, uning shaxsida nazarga

²⁸¹ Навоий А. Фарход ва Ширин. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик, олтинчи жилд.-Тошкент:Ф.Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. –Б.363-364.

²⁸² Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 13-жилд. –Тошкент: Фан, 1997. –Б.169.

²⁸³ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 13-жилд. –Тошкент: Фан, 1997. – Б. 170.

tashlanadigan yetuklik nishonasi quyidagicha ifoda etilgan: “Hofizasi yaxshidur, tab’i dag’i hofizasicha bor”.²⁸⁴ Alisher Navoiy manonqiblarida ham shaxs kamolotining ayni qirrasiga jiddiy e’tibor berilgan. Nuriddin Abdurahmon Jomiy Shayx Faxriddin Iroqiyning “Lamaot” risolasiga sharh yozar ekanlar, Muhyiddin Ibnal Arabiyning “Fususul hikam”, “Futuhotul- makkiya” va boshqa olimlarning yozilayotgan kitobga manba vazifasini o’taydigan asarlari olim qoshida turgan. Ammo yuksak hofiza quvvatiga ega bo’lgan ulug’ mutafakkir ularni ochib ko’rishga hech qanday ehtiyoj sezmagani: “Ul sharhni biturda “Fusus” va “Futuhot” va “Nusus” va “Fukuk” va aksar qavmning umda kutubi muborak nazarlarida erdi, agarchi hech qaysig’a boqq’ali ehtiyojlari yo’q edi. To ulkim, bu sharh bila “Lamaot”ni alar qoshida tugatdim, bironkim ul kitobni o’qisa, faqir bu varaqda bitgan so’zlardin nishonaliq so’zlar topar va mundog’ davlatg’a abnoyi zamondin oz kishi, balki hech kishi musharraf bo’lmaydur”.²⁸⁵ Hazrat Alisher Navoiyning tarixiy va badiiy qahramonlarida kuzatilgani kabi Hasanxoja Nisoriy ham hofiza qobiliyatini Abdullatif Bahodirxon kamolotining muhim qirralaridan biri sifatida talqin qiladi: “Kuchli hofizasi bor edi. Sharif qulog’iga biror narsa yetgan yoki kimyoasar nazariga tushgan bo’lsa, xotiriga o’rnashib, quyosh yog’duli ko’ngli sahifasidan ancha - muncha vaqt ichida o’chavermas edi”.²⁸⁶

“Muzakkiri ahbob” muallifi tazkirada Abdullatif Bahodirxon ijodidan namuna sifatida quyidagi matlani keltirgan. Matla o’zbek tilida bitilganligi bilan muhim ilmiy qimmat kasb etadi:

Moviy yog’lig’ini solibtur dilbarim qosh ustina,
Noz birlan har na qilsa ul pari bosh ustina.²⁸⁷

Har bir insonning o’z ta’bi, didi bor. Erkak orzusi, hirsini bilan emas, pok ko’ngil bilan dildorga moyil bo’lgan oshiqning beg’ubor manaviy dunyosi g’azal matlaining har bir so’zida muhrlangan. Tiniq ko’k, havorang, nafis durrachasini qoshlari ustiga tushirib bog’lagan dildorning nozik, latofatda misli yo’q gul

²⁸⁴ Navoiy A. Muqammal asarlar t’pplami. 20 jildlik, 13-jild. –Toshkent: Fan, 1997. –B.86.

²⁸⁵ Navoiy A. Muqammal asarlar t’pplami. 20 jildlik, 15-jild. –Toshkent: Fan, 1999. –B.56.

²⁸⁶ O’sha asar. –B.31.

²⁸⁷ O’sha asar. –B.32.

chehrasi, sho‘xchan qiyofasi o‘quvchi ko‘z oldida jilolanadi. Haqiqiy oshiq ma’shuqining har qanday xatti-harakatini xush qabul qiladi. Ko‘ksida yashnagan muhabbat oshiq uchun ma’shuqaning barcha qiliqlari – ishvasi, nozu karashmasini maftunkor qilib qo‘yadi.

Abdullatif Bahodirxon ijodidan keltirilgan g‘azal matla’i ifodaning ravonligi, ma’noning tiniqligi bilan e’tiborga molikdir.

Mumtoz she’riyatda qofiya asar badiiyatini ta’minlashda eng muhim unsurlardan biri sanaladi. Ammo ijodkor tanlagan qofiya ohangdor bo‘lsayu, she’r mag‘zida turgan g‘oya, timsollar qiyofasini ochishga yetarli xizmat qila olmasa, u o‘z qimmatini yo‘qotadi. “Muzakkiri ahbob”da keltirilgan matla’da qofiya uchun tanlangan “bosh” va “qosh” so‘zlari ma’naviy teranligi, inson jismida turgan o‘rni va bir – biriga yaqinligi bilan oshiq va ma’shuqa munosabatlarini ta’sirchan ifodalashga imkon bergan. Hissiyot olami ishqdan bahramand oshiqning g‘oyaviy-badiiy niyati matla’da teran tajassumini topgan.

“Muzakkiri ahbob” muallifi Samarqandning jug‘rofiyasi, tabiat manzaralari, olimu fozillari, bog‘-rog‘lari, mevalari, inshootlari haqida maroq bilan so‘zlaydi. “Muzakkiri ahbob”dagi aksar ma’lumotlar “Boburnoma”dagi tasviriy lahvalar bilan rost keladi.: “Rub’i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur”.²⁸⁸ “Samarqand Movarounnahrning katta shaharlaridan . Beshinchi iqlimdan hisoblaydilar”.²⁸⁹ “Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdir: sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand”.²⁹⁰ “Mevalari yaxshi bo‘ladi. Uzuming shirinligi ta’rifga sig‘maydi. Misra:Zavqi in may nashinosi, ba xudo to nachashi. Mazmuni: Bu mayning zavqin, Xudo haqqi tatib ko‘rmaguncha bilmaysan”.²⁹¹

“Abulmuzaffar Abdullatif Bahodirxon bin Ko‘chkunchixon bin Abulxayrxonning muqaddas yodi” sarlahvasi ostidagi fiqrada bunday tasviriy lahvalar ko‘p bo‘lib, ularni mufassal o‘rganish alohida tadqiqotni talab qiladi.

²⁸⁸ Бобур 3.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. –Б.43.

²⁸⁹ O‘sha asar. –B. 32.

²⁹⁰ Бобур 3.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. –Б.44.

²⁹¹ O‘sha asar. –B. 32.

Xulosa shuki, Ulug'bek Mirzoning qizi tomonidan chevarasi hisoblangan Abdullatif Bahodirxon astronomiya ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

U shoirlar, olimlar va san'atning turli sohalarida faoliyat ko'rsatgan kishilarga katta rag'bat bilan qaragan. Ularning ijodiy ishlariga homiylik qilgan. Xususan, she'r ahlini va she'riyatni yuksak qadrlagan, o'zi ham o'zbek tilida she'rlar bitgan.

3.04. Tazkirada ijodkor Sultonlar she'riyatiga munosabat

Sulton Said. "Muzakkiri ahbob" ning foniy davlatdan mangulik mulkiga safar qilgan chingiziy sultonlar jamoasi zikrida" gi birinchi faslida shoh va uning adolatiga qanchalik urg'u berilgan bo'lsa, "Davlat taxtida o'tirgan sultonlar zikrida" deb nomlangan ikkinchi faslida ham muallif podshohning adolatiga asosiy e'tiborni qaratadi. Hasanxoja Nisoriy shayboniy amaldorlarning adolatiga yo'naltirilgan mulohazalarini har bir maqolada yangi tahrir va yangi sayqalda beradi. Maqola birinchi ruknining ikkinchi fasli Ko'hkan taxallusi bilan she'rlar yozgan shayboniy hukmdor Sulton Said sulton bin Abusaidxon bin Ko'chkunchixon bin Abulxayrxonga bag'ishlangan fiqra bilan boshlanadi.

Sarlavha ostidagi dastlabki ikki jumladayoq muallif Sulton Said tabiatida kuzatilgan adolatga moyillikka o'quvchi e'tiborini qaratadi: "Yaxshi shaklu shamoil va latif ta'bi adolatga moyil podshohdir. Samarqand ahli aning iltifot daraxti mevasidan lazzat topgan va turli toifa xalq aning himoyasi qanoti ostida tinch-omon umr kechirmoqda".²⁹²

Hasanxoja Nisoriy e'tiqodiga ko'ra shoh qanchalik dunyoning mayda tashvishlari-yu ikir-chikirlaridan qo'l yuvgan, nafsini o'ldirib Alloh irodasiga bo'ysungan darveshlarga yaqin bo'lsa, mamlakat ravnaqi shunchalik baland bo'ladi. Tazkiranavis uchinchi jumlada shayboniyzodaning darveshdo'st ekanligini ta'kidlaydi: "Sulton zotli sulton bo'lishlariga qaramay, darveshlarga muxlis va ular e'tiqodida xolisdir".²⁹³

"Muzakkiri ahbob" muallifi har bir amaldorning tariqat sulukiga kirib, tariqatga suyangan holda davlatni boshqarishi hamda xalqni hidoyatga boshlashini

²⁹² O'sha asar. –B.48.

²⁹³ O'sha joyda.

istagan. Shuning uchun ham ta'bi nazmi bor shayboniy ijodkorlar haqida mulohaza yuritganida ilmiy mushohada asosida turgan shoh-shoirning qaysi shayxga irodati borligi ustida maxsus to'xtaladi. O'sha shayxning fazilatu solih amallari, silsilasi, kashfu karomatlari haqida birma-bir so'zlaydi. Badiiy ijodga aloqasi bo'lsa, she'rlaridan namuna keltiradi. Tazkiranavis ilmiy uslubiga xos xuddi shunday manzara Sulton Saidga bag'ishlangan maqolada ham kuzatiladi: "Iroduatu muridlik nisbati hazrat shayx Husayn Xorazmiygadir".²⁹⁴

Hasanxoja Nisoriy Sulton Said irodatda bo'lgan murshidi komil Shayx Husayn Xorazmiyning shayx Hoji Muhammad Xomushoniydan xojagon silsilasiga qo'shilishigacha bo'lgan 17 shayxning nomini alohida-alohida raqam qilishdan erinmagan.

Tasavvufda Alloh nomini ko'ngilda yod etish g'oyasi muhim o'rin tutadi. Zikr talqini Qur'oni karimning 2/152), 4/104), 7/205), 13 (28), 17, /111, 18 (23), 33 (41), 75 (25), 87 (1, 15) suralari zaminida shakllangan. A'rof surasining 205-oyati karimasida zikrning ikki xil (jahriya, xufiya) tarzda ado etilishiga ishora qilingan: "Robbingizni ichingizda tazarru va qo'rqinch bilan hamda gapirganda ovoznini ko'tarmasdan ertayu kech zikr (yod) eting! G'ofillardan bo'lmang".²⁹⁵ Naqshbandiya tariqatida oyati karimada amr qilinganidek, qalbiy zikrga rag'bat ko'rsatiladi. Buni Said Sultonning piri Shayx Xorazmiy timsolida ham ko'rish mumkin: "Va janob shayx Husayn Xorazmiy yoshlik ayyomida o'zining nafasini xilvatda jahdu jadal qolipiga solib, dil zikri sayqali bilan po'rfutuh ruhi oynasini shunday tip-tiniq qilgan va yarqiratgan edilarki, yashirin sirlar va ko'rinmas nurlar oshiq-talabgorlarning ko'rish ko'zgusiga aylangan ekan".²⁹⁶ Dildan chiqqan, bardavom zikr natijasida shayxning qalbi shunday tiniq, musaffo holga kelganki, unda pinhon sirlar oshkor bo'lib, botiniy nurlar jilolangan. "Baland maqomot va dilpisand karomatlar sohibi" (Nisoriy) murshidi komil ishq va ishtiyoq g'alabasidan ko'nglida paydo bo'lgan zavqu sururni nazm shaklida qog'ozga

²⁹⁴ O'sha joyda.

²⁹⁵ O'sha asar. -B.176.

²⁹⁶ O'sha asar. -B.48.

ko‘chirgan. “Muzakkiri ahhob” muallifi Shayx Husayn Xorazmiy ijodidan bir g‘azal matla’i va bir ruboiyni namuna sifatida tazkirada keltirgan. Matla’:

Meravam so‘i adam ishq tu hamrohi man ast,
Zor jon medihamu hamnafasam ohi man ast.²⁹⁷

G‘azal baytida o‘z asli Mutlaq ruh sari intilayotgan orif insonning Haq sari tavajjuhi badiiy inkishof etilgan. “Asliy vatanga azm etmak” (Navoiy) yo‘lida oshiq-musofirga faqat ishqgina hamroh bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham orif-shoir Allohga xitob qilib: “ishqu tu hamrohi man ast,”-deydi. Oshiq-larga o‘lim yo‘q. Haq oshiq-lari hech qachon o‘lmaydi. Odam sifatida yo‘q bo‘ladi, xolos. “Zor jon bermoqdaman” (“Zor jon mediham”) deyilganda shunday o‘lim nazarda tutilgan. Bunday o‘lim safarida oshiq aslo tanho emas. Rabbiga zorlanish, ohi nola, yalinish va yolvorish unga hamnafas: “Zor jon medihamu hamnafasam ohi man ast”. Matla’ boshida “Yo‘qlik sari ketmoqdaman” (“Meravam sui adam”) deganda, ruhning Allohga qaytishi nazarda tutilgan. Faylasuf shoir matla’sini **Qur’oni majidning “Hamma narsa o‘zimga qaytadi”** oyati karimasi ichdan nurlantirib turadi.

“Muzakkiri ahhob” dan o‘qiymiz: “Yurakka g‘avg‘o soluvchi va shakar qorishiqli bu ruboiy ham alarning totli so‘zlaridandir. Ruboiy:

Mo doiravash zi po‘stpo‘shoni tuyem,
Dar doirayi xalqa ba go‘shoni tuyem.
Gar binovozy chu nay xuro‘shoni tuyem,
Gar nanavozi ham az Xamo‘shoni tuyem.²⁹⁸

Ruboiy Shayx Husayn Xorazmiyning piri Hoji Muhammad Xomushoniya bag‘ishlab yozilgan.

Allohning marhamati va fayzu barokoti bilan yuksak maqomga erishgan tasavvuf shayxlarining ko‘plab muridlari bo‘lgan. Ma’rifiy majlislarda shayxning atrofini o‘rab, doira yasab, to‘garaksimon o‘tirish taomil bo‘lgan.

²⁹⁷ O‘sha joyda.

²⁹⁸ O‘sha joyda.

Shayx Husayn Xorazmiy ruboiysining dastlabki ikki misrasida muridlarning pir atrofida xuddi shunday doirasimon halqa yasab o‘tirishlariga o‘quvchi e‘tibori tortilgan. Darveshlar ko‘pincha jundan tayyorlangan to‘n yoki qo‘y terisidan tikilgan po‘stin kiyib yurganlar. Ruboiyning birinchi misrasini yakunlovchi kalimalar orqali darveshu so‘fiylarning shu kabi xos kiyimlariga diqqat qaratiladi: “Zi po‘stpo‘shoni tuyem”.

Murid necha yil shayx xizmatida tursa ham, shayx nazari iltifot qilmasa, muridning murodi hosil bo‘lmagan. Shuning uchun ham ayrim muridlar qancha riyozat cheksa ham, o‘z botinida hidoyatni ko‘rmagan. Yillab shayx eshigida qolib ketishga majbur bo‘lgan.

Muridning zohiru botinidagi hamma narsa pirga kunday ravshan bo‘lib turgan. Uning pir iltifotiga musharraf bo‘lishiga tabiatidagi zarracha noqislik ham mone‘lik qilgan. Xususan, kibr alomatlaridan mutlaqo poklanish murid uchun g‘oyatda og‘ir kechgan. Muridning bu yo‘lda chekkan riyozatlari xususida Abu Hoshim So‘fiyning quyidagi so‘zlari tiniq tasavvur hosil qiladi:

“Yurakdan kibr razolatini yuvishdan ko‘ra, tog‘ni igna bila qo‘porish oson”
²⁹⁹ **Muridning siniqligu xokсорligiga to‘la ishonch hosil qilmagan murshid unga nazari iltifot qilmagan.** Shayx Husayn Xorazmiy qalamiga mansub ruboiyning 3-4 misralari irshodning ayni o‘zak masalasi ustida bahs qiladi. Ruboiy matnidagi “binavozi” (“siylasang”) va “nanavozi” (“siylamasang”) so‘zlari yetakchi muddao ifodasi uchun xizmat qilgan. Ruboiyni yakunlovchi “Xamo‘shoni tuyem” shoir mahorati bilan 3 xil ma‘no ifodasi uchun xizmat qilgan.

1.Muridlaringmiz. Siylasang ham siylamasang ham sening (Hoji Muhammad Xamo‘shoni) muridlaringmiz.

2.Ruboiy yaratilgan joy ma‘nosini anglatadi.

3.Sukut saqlash. Muridlik odoblaridan biri. Futuvvatning 71 shartidan bittasi ³⁰⁰ badiiy ifoda mag‘ziga singdirilgan.

²⁹⁹ Жомий А. Бахористон. Тошкент: ёзувчи, 1997, –Б.5.

³⁰⁰ Кошифий, Хусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. –Б. 11.

Baholi qudrat tahlil qilingan ruboiyning yaratilish tarixi haqida “Muzakkiri ahbob”da berilgan qaydlar ham bizning yuqoridagi mulohazalarimiz foydasiga xizmat qiladi: “Shayx Husayn bu ruboiyni egnilariga po‘stteri yopinib, ustoz Hoji Muhammad Xamo‘shoniy huzurida alar xonaqohi oshpazlari orasida Xamo‘shon qishlog‘ida o‘tinkashlik qilib yurgan bir vaqtlarida aytganlar”.³⁰¹

Shayx Husayn Xorazmiy ulug‘ yoshga kirganida, jismiga qarilik madorsizligi yuzlangan bir paytda Makkayu Madina tavofiga yuzlanib, Haj sharafiga muyassar bo‘ladi. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, butun ruhi shuuri bilan Ka‘ba jamolini ko‘rishga mushtaq bo‘lgan insonning oyoqlariga Makatulloh yo‘lidagi Mug‘ilon cho‘lining tikanlari sanchilsa, bu xuddi yumshoq va nafis mato harirdek rohat bag‘ishlaydi.

Jamoli ka‘ba chunon medavondaam ba nishot,
Ki xorhoi Mug‘ilon harir meoyad.³⁰²

Murshidi komil Makatullohdan qayta turib, Shom o‘lkasida vafot etadi. “Muzakkiri ahbob” muallifi buni tongning tunga aylanishiga, quyoshning sharqdan g‘arbga o‘tib botishiga tashbih qiladi:

Sabohi ayshi ahli dil ba shomi g‘am badal z-on shud,
Ki xurshed az so‘yi mashriq ba mag‘rib raftu pinhon shud.³⁰³

Shoh-shoir Said Sulton Ko‘hkan taxallusi bilan ijod qilgan. Mazkur taxallusning tanlanish tarixi haqida “Muzakkiri ahbob” da nozik qaydlar mavjud. Muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun o‘sha lavhani to‘liq keltiramiz: “Naql qilishlaricha, Shayx Husayn Xorazmiy Shatriy qishlog‘ida ariq qazib yurgan ekanlar. Va saltanatpanoh Said Sulton ham yonlarida og‘ir-og‘ir toshlarni yengilgina qo‘porib, ularga yordamlashar ekan. Alar hazratlari sultonga qarab “Bu kishi bizning Ko‘hkanimiz” debdilar. Shunga ko‘ra **Sulton Said Ko‘hkan iborasini o‘zining totli she‘r va shirin guftorida taxallus qilib keladi.**”³⁰⁴

³⁰¹ O‘sha asar. –B. 49.

³⁰² O‘sha joyda.

³⁰³ O‘sha joyda.

³⁰⁴ O‘sha joyda.

Piri komil o‘z muridining himmati va g‘ayratini Sharq xalqlarining afsonaviy qahramoni Farhod shijoatiga tashbih qilgan.

“Muzakkiri ahbob”da Sulton Said ijodidan bir g‘azal namuna sifatida keltirilgan:

Az ko‘yi tu har subh nasime ba man oyad,
Shodam, ki az o‘ nakhati on pirahan oyad.
Bo xoki sari kui tu nisbat natavon kard,
Har nofayi mushke ki zi dashti Xutan oyad ³⁰⁵

Mumtoz adabiyotda yoqimli va nafis shamol- “nasim” ifoda va tasviridan foydalanish keng o‘rin tutadi. Ezgulikka mushtoq inson qalbi tongda yorishib, borliq uning ko‘zi oldida romantik ranglarda jilolanadi. Hayot nafosati butun go‘zalligi bilan namoyon bo‘ladi. Shunday zavqli damlarda mumtoz she‘riyatda tong yeli oshiq bilan ma’shuqa o‘rtasida vosita vazifasini bajaradi. Oshiq ma’shuqaga o‘z rozi dilini tong yeli orqali yo‘llaydi. Toza, beg‘ubor tuyg‘ularini tong yeli vositasida ma’shuqaga tuhfa etadi. Sa‘id Sulton satrlarida o‘ziga xos, o‘zgacha manzara kuzatiladi. Unda ma’shuqa ko‘chasidan esgan subh nasimi oshiq dargohiga yetib kelib oshiqqa farah bag‘ishlaydi. Oshiq ko‘nglini shodlikka to‘ldiradi. Ko‘hkan shoir talqinicha, suyuklining ko‘chasidan esib, har tong oshiq dimog‘iga uriladigan yoqimli shamol odatdagi subh nasimi emas, u yor yurganida egnidagi ko‘ylakning nafis chayqalishidan hosil bo‘lgan yeldir. Sa‘id Sulton mumtoz adabiyotdagi an’anaviy timsol- “subh nasimi” dan foydalanishda mohirlik ko‘rsatgan. Tabiiy hodisaning tong nasimi va oshiqlik mohiyatiga uyg‘un qirralariga mos tashbihni hayotdan izlagan. Va shunday nozik majoziy tashbihni topib uni she‘rga olib kirgan.

Xo‘tan-xushbo‘y mushklari va nafis ipak matolari bilan savdo ahlining e‘tiborini o‘ziga tortib kelgan maskan. Sharq mumtoz she‘riyatida ishq va oshiqlik talqinida Xo‘tan mushki ko‘pgina shoirlar ijodida mushabbihun bih vazifasini bajarib keladi. Tahlil qilinayotgan g‘azalning navbatdagi baytida shoir yor ko‘chasining tuprog‘ini qiyoslash uchun mushabbih izlaydi. Uni Xo‘tan dashtidan

³⁰⁵ O‘sha joyda.

keltirilgan mushk bilan qiyoslaydi. Ammo Xo‘tandan keltirilgan har qanday toza va eng xushbo‘y mushk ham yor ko‘chasining tuprog‘iga teng kela olmaydi, degan xulosaga keladi. Sirtan qaraganda mumtoz shoirlarimizning bunday talqinlari ancha mubolag‘ali, hayot mezonlariga unchalik rost kelmaganday taassurot qoldiradi. Ammo badiiy adabiyotning xos xususiyatlari, oshiq nigohi va ishq konsepsiyasi mezonlariga to‘la muvofiq keladi. Ko‘hkan shoirning buyuk salafi Yusuf shoirning quyidagi satrlari yana masalaga oydinlik kiritadi:

Seviklining yuzi ko‘ngil to‘qligi.

Ko‘ngil kimni sevsa, ko‘rar ko‘zda ul,

Ko‘ngul qayga boqsa, uchar yuzda ul.³⁰⁶

Sirtan qaraganda, bahsimiz asosida turgan g‘azal an‘anaviy oshiqona g‘azallar kabi ma‘shuqaga atalganday ko‘rinadi. Hasanxoja Nisoriy shoir va olim sifatida buni chuqur idrok qilgan. G‘azal matnini tazkiraga ko‘chirishni to‘xtatib qo‘yib, uning yaratilish tarixi haqida ixcham izoh bergan. Bu shunchaki izoh bo‘lmay, jodiy jarayonni bevosita o‘z ko‘zi bilan kuzatgan olimning fikri ekanligi bilan muhim ilmiy qiymat kasb etadi.

“O‘sha kezlari hazrat shayx Sultonga “Bizning oldimizga ko‘p kelib ketasiz, saltanat ishlariga xalali yetmasin tag‘in”, degan ekanlar. O‘sha g‘azal maqta’sida sulton shayxning mazkur e’tiroziga ham o‘z munosabatini bildirib o‘tgan. Maqta’:

Shirindahano, xotiri xud ranja mafarmo,

Har lahza ba ko‘i tu agar Ko‘hkan oyad”.³⁰⁷

G‘azal ma‘shuqaga emas, muallifning piri Shayx Husayn Xorazmiyga bag‘ishlab yozilganligi aniq bo‘ladi. G‘azal maqta’si “Shirindahano” (“Shirin kalom”) so‘zi bilan boshlangan va so‘zlovchining nutqi o‘z piriga qaratilgan. Pir muridni ohanraboday o‘ziga tortmasa va murid ham butun ruhi shuuri, husni tavajjuh bilan piriga intilmasa maqsad hosil bo‘lmaydi. Irshod murshidi komilga yakdil, yakro‘y, yakjihatik bilan yuzlanish, cheksiz sidqi ixlos g‘oyatsiz shavq, hadsiz sadoqat va muhabbat hosilasidir.

³⁰⁶ Юсуф хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 94

³⁰⁷ O‘sha asar. – В. 49.

Said Sulton saltanat ishlari bilan qanchalik band bo‘lmasin har dam pir xizmatiga intilgan. Bundan murshidi komil Shayx Husayn Xorazmiy qattiq xijolat tortgan. Mulk va mamlakat ishlariga xalaqit beryapman, deb o‘ylagan. G‘azal maqta’si piri komil qalbidan o‘sha xijolatni olib tashlashga yo‘naltirilgan.

Said Sulton, Shayx Husayn Xorazmiy va Hasanxoja Nisoriy zamonasining bastakorlari shoh-shoirning bu g‘azaliga kuy bastalab, hofizlar uni tarannum qilganlar. Shoh-shoir g‘azali odamlarning ko‘ngil mulkiga ezgu xayollar, go‘zal tuyg‘ularni olib kirgan: “Zamon musanniflari kuy basatalab, bu abyotni tarannum qiladilar va muloyim nag‘malar bilan dilni o‘g‘irlyadilar.”³⁰⁸

“Muzakkiri ahhob” yozib tugallangan vaqtda (1566-yil, avgust-noyabr) Said Sulton hayot bo‘lgan va tazkira muallifining ta’kidlashicha, olimu fozillarga yangi-yangi marhamatlar ko‘rsatib, cheksiz ehsonlari bilan ularni sarafroz etib turgan. Hasanxoja Nisoriy shohning shunday inoyatlari yanada ko‘payishini Allohdan so‘rash bilan “Said Sulton bin Abusaidxon” ga bag‘ishlangan maqolaga nuqta qo‘yadi.

Javonmardali Sulton. “Muzakkiri ahhob” shoirlarga bag‘ishlangan tazkira bo‘lganligi uchun Hasanxoja Nisoriy shayboniylar sulolasiga mansub ta’bi nazm bor, she’riyatning muayyan janrdagi ijod namunalari bilan ma’rifat ahlining e’tiborini tortgan shayboniyzodalar haqida mulohaza yuritadi.

“Muzakkiri ahhob” maqola birinchi ruknining birinchi va ikkinchi fasllari shayboniy ijodkorlarga bag‘ishlangan. 1530-1533-yillarda Samarqand taxtini boshqargan Ko‘chkinchixonning o‘g‘li Abusaidxonning nomi tazkira sarlavhalarida va ba’zi o‘rinlarda ijodkor o‘g‘illari munosabati bilan tilga olinadi. Chunki Abusaidxon badiiy ijod bilan shug‘ullanmagan. “Muzakkiri ahhob”da Abusaid bin Ko‘chkinchixonning badiiy ijod bilan shug‘ullangan ikkita farzandiga alohida sarlavha bilan maqola bag‘ishlangan. “Muzakkiri ahhob”dan o‘rin ajratilmagan bo‘lsa-da, Abusaidxonning Bahodir Sulton ismli uchinchi farzandi

³⁰⁸ O‘sha asar. –B.50.

ham she'riyat bilan shug'ullangan. Ammo u toju taxt uchun bo'lgan janglarda barvaqt halok bo'lgan.

Abusaidxonning ikkinchi o'g'li, Said Sultonning inisi Javonmardali sulton ham ta'bi nazmi bor shayboniylardan bo'lgan. "Muzakkiri ahbob" muallifi o'z tazkirasining birinchi rukni ikkinchi faslida "Mu'iniddin Javonmardali Sulton bin Abusaidxonning muqaddas yodi" sarlavhasi ostida unga maqola bag'ishlaydi. Javonmardalixonning Abulxayrxon va Muzaffar nomli o'g'illari ham she'r yozgan.³⁰⁹ "Muzakkiri ahbob" muallifi Javonmardalixonni ismi jismiga mos, vujudda futuvvat nuri bilan ravshan, shijoatli hukmdor sifatida talqin qiladi. "Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" kitobining muallifi Husayn Voiz Koshifiy futuvvat ahlining o'n xislatidan to'rtinchisi "ulug'larga hurmat" ekanligini qayd qilgan.³¹⁰ Mu'iniddin Javonmardali Sulton olimu fozillarga, avliyouллоhga ko'p ixlosli bo'lib, ularning izzat-ikromini o'rniga qo'ygan.

"Muzakkiri ahbob"dan o'qiymiz: "Oliy maqom otalarining hazrat shayx Xudoydodga muhabbat va do'stlik ehtiromi bo'lgani sababli uning ham yaxshi andishali Shayx Darvesh shayx tomon niyozu ehtiyoj yo'li bor".³¹¹ Javonmardali Sultonning otasi, Samarqand hukmdori Abusaidxon muhabbat va do'stlik ehtiromi bilan bog'langan shayx Xudoydod Valiy Shayx Jamoliddin Azizonning muridlaridan bo'lib, shayboniylar davrida juda katta nufuzga ega bo'lgan. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning boshlarida yashagan mutafakkir va tariqat arbobi Olim Shayx ibn Mo'min Shayx ibn Darvesh Shayx Azizon o'zining "Lamahot min nafahot ul-quds" kitobini Shayx Xudoydodning maqomoti sifatida yozgan.³¹² Javonmardalixon otasi Abusaidxon izidan borib, o'z zamonasining mashoyixlaridan Darvesh Shayx tomon "**niyozu ehtiyoj yo'lini ochib, lutf eshiklarini** alarning do'stlari uchun ochgan".³¹³ Hasanxoja Nisoriyning ilmiy

³⁰⁹ O'sha asar. –B.303.

³¹⁰ O'sha asar. –B.12.

³¹¹ O'sha asar. –B.50.

³¹² Каттаев К.Тасаввуф алломалари.-Тошкент: Фафур Фулом,2017. –Б.41-43.

³¹³ O'sha asar. –B.50.

uslubida ko‘p ishlatiladigan istiora san‘ati Javonmardalixonning tariqat arboblariga bo‘lgan ixlosu e‘tiqodini yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

“Muzakkiri ahbob”da Mu‘iniddin Javonmardali Sultonning rangin muammolar yozganligi haqida qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Fors-tojik adabiyotida XI asrda paydo bo‘lgan muammo janri o‘zbek adabiyotida XV asrda shakllangan. Mutaxassislar fikricha, o‘zbek tilida yozilgan dastlabki muammolar Alisher Navoiy qalamiga mansubdir.³¹⁴

Muammo shoirlar badiiy mahoratini baholashda mezon vazifasini o‘tagan.

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” tazkirasida Mavlono Abdulvahhob, Mavlono Ulon Shoshiy, Mavlono Siymiy, Mavlono Hoji Abulhasan, Xoja Fazlulloh Abullaysiy, Mavlono Muhammad Muammoiy kabi ellikdan ortiq ijodkorning muammolaridan namuna keltirgan.

Turkiyda yaratilgan birinchi nazariy qo‘llanma muallifi Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy 5 qismdan iborat “Funun ul-balog‘a” (1436-1437) asarining yaxlit bir qismini muammo va uning qoidalariga bag‘ishlagan. Alisher Navoiy muammo nazariyasiga oid “Mufradot” asarini yaratgan.

Muammo yozish va uni yechish uchun mumtoz she‘rshunoslikdagi ilmi bade‘ qoidalari (talmeh, kinoyat, tashif, aks, qalb, istiora tashbih va h.k), arab alifbosidagi harflarning xususiyatlari, ularning raqamdagi qiymati, abjad hisobi, yil va oy hisoblari, ilmi nujumga oid so‘z va atamalar, samoviy holat-hodisalar, arab, fors-tojik, turkiy so‘z va jumlalarning grammatik qoidalari, so‘zlarning ma‘no oqimlari, botiniy va zohiriy ma‘nolari, umuman, hayot, jamiyat, hayvonot va nabotot olamining siru asroridan xabardor bo‘lish talab etiladi. Bularning hammasi muammo adabiy janrlar ichida eng murakkab janr ekanligini ko‘rsatadi.

Ixcham hajmga muhim bir axloqiy-ta‘limiy, ijtimoiy-falsafiy g‘oyani singdirish, misralar mag‘ziga muhim bir ismni yashirish, shular bilan birga vazn, qofiya, badiiylik mezonlariga amal qilish uchun shoirda katta iste‘dod bo‘lishi zarur. Mazkur mulohazamiz ushbu janr nazariyasi va amaliyotining nozik did

³¹⁴ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 2- китоб. – Тошкент: Ўқитувчи. –Б. 435.

bilimdoni Alisher Navoiyning quyidagi fikrlari bilan asoslanadi: “Jami’ki muammo ayturlar, **base zahmat bila** bir baytdin yo bir ruboiydin bir ism hosil qilurlar”.³¹⁵

“Latif ta’bi fozillar suhbatiga moyil” (Nisoriy) Javonmardalixon muammo va unga yaqin turgan murakkab janrlaridan biri ta’rix janrida yaxshi she’rlar yaratib, ilm ahlining e’tiborini o’ziga tortgan.

“Muzakkiri ahbob” dan o’qiyimiz: “Muammo fanida **bilimi yetuk bir alpozda** bo’lib, mushkul tarkibotlar tahlilini osonlikcha chiqara oladilar. **Ta’rix aytishda shoirlardan so’zamollik to’pini notiqlik chovgoni bilan olib qochadilar**”.³¹⁶ “Muzakkiri ahbob” da Javonmardalixon ijodidan bir ta’rix va bir muammo namuna sifatida keltirilgan.

Do’st Muhammad Sulton. Shayboniylar davrining yuksak ilmiy ahamiyatga ega asarlaridan biri Faxriddin Ali Safoiyning “Rashahotu aynul-hayot” asari va boshqa manoqib asarlardan ma’lumki, Xoja Ahrori Valiy mamlakat ravnaqi va xalq farovonligi uchun tariqatni siyosatga, podshohlarga ta’sir ko’rsatuvchi amaliyotga aylantira olgan. Nazarimizda, Hasanxoja Nisoriy shayboniylar saltanatining barcha bo’g’inlarida ham tariqatning davlat boshqaruvi va xuddi shunday ta’sirini ko’rishni istagan. Tariqat arboblardan ta’lim olib, shohlar adolat va diyonat yo’lini belgilab olishlarini orzu qilgan. Shuning uchun ham “Muzakkiri ahbob” ning ijodkor shoh va shahzodalarga bag’ishlangan barcha maqola, fasl va firqalari amaldorning tariqatga va tariqat ahliga munosabatini yoritishdan boshlanadi.

“Muzakkiri ahbob” “Maqola birinchi ruknining ikkinchi fasli, davlat taxtida o’ltirgan sultonlar zikrida”gi qismining nihoyasidan o’rin berilgan ikki ijodkorga bag’ishlangan maqolada tazkiranavisning yuqorida zikr etilgan uslubi nazarga tashlanmaydi. O’sha fiqralarni sinchiklab o’rganish natijasida muallif uslubidagi bunday chekinishning sababi aniq bo’ldi. Maqola birinchi ruknining ikkinchi fasli oxirida qalamga olingan ijodkorlardan biri Do’st Muhammad Sulton Abulxayrxon

³¹⁵ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. –Тошкент: Фан, 1999. –Б.108.

³¹⁶ O’sha asar. –B.50.

naslidan bo'lsa-da, davlat tizimida muhim o'rin tutmagan. Biron rasmiy lavozimda faoliyat ko'rsatmagan. Maqola birinchi ruknining ikkinchi faslidagi xotimaviy maqolada talqin qilingan Avaz G'ozzi Sulton esa toju-taxt uchun bo'lgan jangu jadallar sababli 1536-yilda Xorazmni tark etib, otasi bilan birga Samarqandga kelgan. Hayotini ijodiy ishga bag'ishlagan. Do'st Muhammad Sultonning shajarasi unga atalgan maqolaning sarlavhasida o'z ifodasini topgan. U Toshkent hokimi Navro'z Ahmadning o'g'li, Navro'z Ahmad esa Abulxayrxonning farzandi Sevinchxojaning o'g'li bo'lgan. Maqola "Yaxshi xislatlari ko'p podshohzodadir", - deb boshlanadi.³¹⁷ Latif ta'bli bu podshohzoda har bir ishga qat'iyat va shijoat bilan kirishgan. Xushta'b va xushsuxanligi bilan olimu fozillar muhabbatini qozongan. Olimu fozillar uning diydori va suhbatini qo'msab hamisha uning ma'rifiy majlislarida hoziru nozir bo'lganlar. U ham o'z yig'inlarini ilm ahlining ishtirokisiz o'tkazmagan. Fozillar suhbatiga jonu dili bilan intilgan podshohzodaning go'zallikka moyil, ezgulikka tashna qalbi she'r zavqidan xoli bo'lmagan.

"Muzakkiri ahbob" dan o'qiymiz: "Ko'ngil quvonchi uchun gohida she'r va nafosat maishatiga ham mayl bildiradi. Va bu baytni uning latif she'ridan sanaydilar. Bayt:

Nofayi on xoli mushkin ohui Chin chun bidid,

Az xijolat po'st pushidu rahi sahro girift".³¹⁸

O'zbek mumtoz adabiyotining Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy kabi ulug' namoyandalari husni ta'lil san'atidan foydalanib, takrorlanmas timsoliy ifodalar yaratganlar. Tabiiy hodisaning g'ayritabiiy izohi Do'st Muhammad Sulton baytida ham nazarga tashlanadi. Toshkent shahzodasining satrlari malikul-kalom Lutfiyning mashhur

Yuzingdin lola rang eltib, uyolib shahrga kirmas,

Aning bo'ynin kishi bog'lab kelturmog'uncha sahrocin

satrlarini o'quvchi xotirasida tiklaydi. Ma'shuqa yuzining qizilligini lolaga tashbih qilish ko'plab mumtoz adabiyot namunalarida bor. Aslida bunday tashbihlarning

³¹⁷ O'sha asar. -B.51.

³¹⁸ O'sha joyda.

har biri tabiat va inson orasidagi uyg'unlik, ilohiy birlik mohiyatini ifoda etadi. Mavlono Lutfiy an'anaviy obraz zaminida mutlaqo yangi badiiy lavha yaratgan. Ulug' shoir talqinicha, lola o'zidagi qizil rangni ma'shuqaning yuzidan olgan. Shuning uchun ham uyalganidan shaharga kira olmaydi. Odamlar uni o'g'ri kabi bo'ynini bog'lab shaharga keltiradilar, Lola bahor faslida sahroda, cho'lu biyobonlarda o'sadi. Kishilar lola sayliga chiqqanlarida uni terib, dastalab, bog'lab, guldasta yasab o'zlari bilan olib qaytadilar. Ayni manzaradan shoir yorning jamoli (yuzi) tavsifida mohirona foydalana olgan.

Do'st Muhammad Sulton baytida tasvir asosida turgan obraz: mushkin xol va Xitoy ohusi. Mushk- qora tusli va xush isli narsa.³¹⁹ Sharq she'riyatida yorning sochi, qoshi, xoli mushkka tashbih qilinadi.

Do'st Muhammad Sulton baytida yorning mushkin xoli badiiy tavsif asosida turadi. Baytda tilga olingan ikkinchi obraz Chin ohusi. Chin (Xitoy) asl chinnisi, oynasi va xushbo'y mushki bilan dong taratgan. Shuning uchun "Chin chinnisi", "Chin oynasi", "Chin mushki" (nofayi Chin) mumtoz adabiyotning doimiy yo'ldoshiga aylangan.

Ba'zi manbalarda zikr qilinishicha, mushk kiyik jismining nozik bir uzvidan olinadi. Shuning uchun ham shoir badiiy mushohada uchun "Chin ohusi" ni ("ohui Chin") tanlagan. Mushk she'riy asarlarda "nofa" tarzida ham keladi. Bu forsiy kalimaga "Navoiy asarlari lug'ati" da quyidagicha izoh berilgan: "Xushbo'y qora modda bo'lib, Chin va Xo'tan ohulari kindigida yetishadi."³²⁰ Badiiy ifodada butunni qism, qismni butun bilan atash hodisasi bor. Do'st Muhammad Sulton mushk va xol qiyosida mushk tayyorlanadigan manbani, ya'ni "Chin ohu" sini badiiy mushohadaga tortgan.

Ohuning maskani – sahro. Shoir talqinicha, Chin ohusi yor mushkin holining muattar hididan uyalib, xijolat tortganidan egniga po'st yopinib sahroga qochgan. Tahlil qilinayotgan baytda husni ta'lil, tashbih (xol va mushk qiyosi) va

³¹⁹ Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: F. Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б. 433.

³²⁰ Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: F. Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 469.

tashxis (xijolat tortmoq, egniga teri yopinmoq) san’atlari imkoniyatlaridan mohirona foydalanib, yangi badiiy talqin yaratilgan.

Do‘st Muhammad Sulton bin Navro‘z Ahmad iste‘dodli olim ham bo‘lgan. Uning ayrim asarlari bizgacha yetib kelgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida uning “Silsilatus-salotin va anisul oshiqin” asari 2471 raqami ostida saqlanadi.³²¹

Avaz G‘ozi Sulton.Hasanxoja Nisoriy shayboniylar avlodidan bo‘lgan Avaz G‘ozi Sultonga g‘oyatda ixcham maqola bag‘ishlagan. Ammo Avaz G‘ozining shoirlik iste‘dodiga g‘oyatda yuksak baho bergan: “Yaxshi she‘rlari va yoqimli so‘zlari qalblarning yoqtirgani turur. So‘zining javohiri ma’no sarroflari oldida o‘zining baland bahosiga ega.”³²²

Tazkiranavis Avaz G‘ozi Sulton ijodidan bir g‘azal matla’i va yana bir uning ijodiga mansub shoh baytni namuna sifatida keltirgan. Shoir she‘riy merosidan tanlangan har ikkala misolning ham o‘zbek tilida ekanligi muhim ilmiy qimmatga ega. Matla’:

To telbaligim arsayi olamni tutubtur,

Majnunni, meni ko‘rgali, davron unutibtur ³²³

Majnunning telbaligi-uning butun vujudini egallagan ishqning oqibati. Shu ishq uning aqlu hushini yo‘q qilib, telbaga aylantirgan. Majnunda hushdan xabar, ruhdan asar qolmagan. Bu telbalikning qamrovi nihoyatda keng. Miskinlik, dardmandlik, mubtalolik, zorlik, xastalik, musibat, firoq, malomat, hajr, oh uning ayrim irmoqlari. Bu irmoqlarning hammasi birlashib, junun daryosiga quyiladi. Majnun mana shu junun daryosini o‘z qalbiga sig‘dira olgan sarhadsiz kenglik, ishq va oshiqlik timsoli. “Mening oshiqligim butun olamni tutdi. Shuning uchun ham davron meni ko‘rish uchun Majnunni unutdi,”-deydi Avaz G‘ozi Sultonning lirik qahramoni. G‘azalda ishtirok etgan obrazlar (oshiq va Majnun) an’anaviy, lekin ularning talqinida o‘ziga xoslik bor. Shoirning mahorati shundaki, u ishq va

³²¹ O‘sha asar. –B.303.

³²² O‘sha asar. –B.51.

³²³ O‘sha joyda.

oshiqlik ramzi Majnun timsolidan ijodiy foydalana olgan. O‘z ona tili imkoniyatlarini mukammal o‘zlashtirib, uni maqsadli tarzda ishga solgan. Matla’ ravon o‘qiladi. Unda vazn nuqta’i nazaridan ham, so‘z qo‘llash jihatidan ham noqislik nazarga tashlanmaydi. “Muzakkiri ahbob” dan o‘qiymiz: “Uning g‘azalidagi bu bayti raso xub va benihoya marg‘ub chiqqan. Bayt:

Novaklari mendin o‘tub ag‘yorga tegdi,

Men bildimu jonimki, nelar mendin o‘tubdur”.³²⁴

Fikrimizcha, tazkiranavis bayt ta’rifida bitgan: “raso xub va benihoya marg‘ub” so‘zlari zamonaviy adabiyotshunosligimizdagi “shoh bayt” ifodasi ma’nosiga muvofiq keladi.

Hasanxoja Nisoriy o‘quvchi hukmiga havola qilayotgan satrlar mazmunidan anglashiladiki, bayt tanlangan g‘azal mumtoz adabiyotning keng ommalashgan mavzui ishq talqiniga bag‘ishlangan. Unda ikki an’anaviy obraz oshiq va ma’shuqa ishtirok etadi.

Ma’shuqaning go‘zalligi tavsifi, tashqi qiyofasi manzaralari oshiq nigohi orqali beriladi. An’anaviy g‘azallarda yorning yuzi-gulga, lolaga, oyga, quyoshga, jannatga, navro‘zga, gulistonga, gulzorga; qomati-sarvga, shamshodga, ar’arga, to‘biga (jannat daraxti); labi-la’lga, uzukning ko‘ziga, qandga, asalga, kavsarga, tiriklik suviga (“obi hayvon”); zulfi-kamonga, sunbulga, mushkka, rayhonga, tunga; ko‘zlari-cho‘lponga, ohuga, nargisga, huru g‘ulmonga, lola jomiga; xattisabzaga, rayhonga, binafshaga, yosumanga (yasmin), laylatul-qadr kechasiga; sochi-sunbulga, mushkka, yaldo tuniga; qoshlari-kamonga, hilolga, osmonga, ikki tovusga, ikki hindubachchaga, xoli-zangi bachchaga, hinduga; kipriklari (mijgon)-kamonning o‘qiga; qovog‘i-bodomga; beli-qilga, xipchaga; tishi-durga qiyoslanadi.

Avaz G‘ozi Sulton ijodidan keltirilgan baytda yorning kipriklari tasvir asosida turadi. Bayt istiora san’ati bilan boshlangan. Shoir “novak” (kamonning o‘qi) so‘zini o‘z ma’nosida emas, majoziy ma’noda qo‘llagan. O‘q (“novak”) Sharq

³²⁴ O‘sha joyda.

mumtoz adabiyotida to'g'rilik ramzi sifatida ham ishlatiladi. Mazkur badiiy timsol iste'dodli o'zbek shoiri Yaqiniyning "O'q va yoy" munozarasida har ikki ma'noda talqin qilingan. Muhokamamiz asosida turgani uchun "novak"ning oshiqona satrlardagi badiiy ifodasi bilan muxtasar tanishamiz:

Havo qilsa o'qung jon saydi uchun,
Ani ko'nglum qushi tutqay havodin.
Gar havo qilsa yuraktin o'tkali novaklaring,
Jon bila ko'nglum qushi tutqay havodin, ey begim.³²⁵

Mavlono Yaqiniy fors-tojik tilida bitilgan baytlarida ham bu badiiy timsoldan mohirona foydalangan:

Zi dil bar mekasham sad novaki oh,
Ki, az jon biguzarad tiri tu nogoh³²⁶

Turkigo'y shoirning o'zbek tilidagi satrlarida "ko'nglum qushi" istiorasi yetakchi muddao ifodasi uchun xizmat qiladi. Oshiqning "ko'ngil qushi" go'yo jon va ko'nglining himoyachisi sifatida maydonga chiqadi. Mavlono Yaqiniy talqinicha, ma'shuqaning novaklari (kipriklari) oshiqning jonini ovlash uchun yuzlansa, ularni "ko'ngil qushi" oshiq vujudiga yetib kelmasidan havoda ushlab qoladi. Bordi-yu o'sha kipriklar (novak) oshiq yuragini teshib o'tishga yo'naltirilgan bo'lsa, unda "jon ila ko'ngil qushi" birlashib uni bo'shliqda tutib qoladilar. Mutafakkir shoir "havo" so'zining ma'no oqimlarini san'atkorona ishga solib, o'z fikrining ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi (tajnis san'ati).

Mavlono Yaqiniyning forsiy tildagi baytida "novak" timsolidan foydalanib, yana bir o'ziga xos yangi badiiy manzara yaratiladi. Unda oshiq yoriga qarab aytadi: Dilimdan oh tortib sug'urib olingan yuzlab kipriklaringni topa olasan. Buning ustiga yana sen otgan o'qlar (novak) jonimni ham teshib o'tadi. Jon, dil (ko'ngil) va novak (kiprik) bahsi forsiy tildagi g'azal matla'sida ham davom ettirilgan. Ammo bu timsollar ikki tildagi satrlarda yangi badiiy bo'yoqda, yangi qirralari bilan harakatga keltirilgan.

³²⁵ Муборак мактублар.-Тошкент:Ғафур ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1987. —Б. 259

³²⁶ O'sha asar. —B. 261.

Mavlono Yaqiniyning tojik tilidagi satrlari Avaz G‘ozi Sulton qalamiga mansub “shoh bayt”ning yangiligini anglashga yaqindan yordam beradi. Mavlono Yaqiniy talqinidagi ma’shuqa otgan kiprik o‘qlari oshiq jonini teshib o‘tadi. Avaz G‘ozi Sulton ifodasida esa yor novaklari oshiq jismidan o‘tib, ag‘yorga ham borib tegadi. Obraz-an’anaviy, ammo uning badiiy talqiniga Avaz G‘ozi Sulton yangilik qo‘sha olgan. O‘zigacha bo‘lgan shoirlarning an‘analarini rivojlantirib, g‘oyat dilkash va ijodiy g‘azal yaratgan.

Avaz G‘ozi Sulton satrlari xush ohangi, ravonligi, tilining soddaligi, tushunarligi, musiqiyliги bilan e’tiborni tortadi.

Ijodkorning yana bir mahorati shundaki, u xalqimizning “O‘zim bilaman, jonim biladi”, “Mendan o‘tganini kim bilsin” kabi ta’birlarini ijodiy laboratoriyasida qayta ishlab, badiiy asar mezonlariga moslab she’rga olib kirgan. Bularning hammasi Avaz G‘ozi Sultonni o‘z uslubiga ega bo‘lgan, ijodiy kengliklarga ko‘tarila olgan shoir, deyishga asos bo‘ladi.

“Muzakkiri ahhob” muallifini esa adabiy hodisalarning mohiyatini teran his qilishga qodir, nozikdid olim ekanligini ko‘rsatadi.

UCHINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR

“Muzakkiri ahhob” muallifi har bir shayboniy amaldorga bag‘ishlangan fiqrani uning tariqatga va tariqat ahliga bo‘lgan munosabatini oydinlashtirish bilan boshlagan. Shoh-shoir Aziziyning tariqat yo‘lidagi piri Shayx Jalol so‘z ma’nolarini g‘oyatda chuqur anglagan nozik ta’b sohibi bo‘lgan. Hasanxoja Nisoriy murshidi komil ijodidan bir g‘azal matla’i va bir ruboiyni namuna sifatida keltirib, uni g‘aybdan kelgan ilhomli damlar natijasi sifatida talqin qilgan.

Abdulazizxon diniy ilmlar va ilman yaqin masalalari bo‘yicha talimni zamonasining yetuk olimi Nosiruddin Oxunddan olgan. O‘z zamonasining ulug‘ shayxi va buyuk allomasi Nosiruddin Oxund Hazrat Mavloni Shoh Ziyoratgohiy avlodidan bo‘lgan.

Tasavvuf nazariyotchilari “Faqr” atamasi bilan yuritadigan to‘rtinchi maqom Alisher Navoiy pandnomasining “Qanoat zikrida” gi 4-bobida talqin qilingan. Shu bobdagi dalillovchi hikoyat Shayx Shoh Ziyoratgohiy hayotidan olingan. Hozirga qadar navoiyshunoslikda mavhum bo‘lib kelgan Shayx Shoh Ziyoratgohiyning yashagan davri va silsilasi dissertatsiyada (3.1.) “Muzakkiri ahhob” ma’lumotlari asosida aniqlandi.

Abdulaziz Bahodirxon sohib devon shoir Komron Mirzoning o‘zbek va fors-tojik tilidagi g‘azallaridan ta’sirlanib, an’anaga payravlik zaminida ikki tilda yangi g‘azallar yaratgan.

Aziziy tatabbu’lari haqiqiy so‘z san’ati namunasi sifatida taassurot qoldiradi. Abdulazizxonning o‘ziga xos shoirona zavq sohibi ekanligini namoyon etadi. Qiyosiy – tipologik tahlil orqali tatabbu’-g‘azallar muallifining voqelikka o‘z tafakkuri va nuqtayi nazari bilan nigoh tashlashga qodir ijodkor ekanligi asoslab berildi (3.2).

Samarqand podshosi (1540-1551) Abdulatif Bahodirxon Ulug‘bek Ko‘ragonning qizi tomonidan chevarasi hisoblangan. U Mirzo Ulug‘bekdan so‘ng so‘na boshlagan astronomiya ilmi rivojiga jiddiy e’tibor bilan qaragan. Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumi, Vohid G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi kabi Samarqand munajjimlik maktabi darg‘alarining an’analarini tiklash borasida ko‘p

sa'y-harakatlar qilgan. Tarix va nujum ilmini mukammal bilgan Abdulatifxon o'zbek tilida rangin g'azallar bitgan.

Ma'lum muddat Samarqandda saltanat surgan shoh-shoir Sulton Said Ko'hkan taxallusi bilan ijod qilgan. U yoqimli va nafis shamol – "nasim" ifoda va tasviridan foydalanib tarhi toza g'azallar yozgan.

1530-1533 – yillarda Samarqand taxtini boshqargan Ko'chkinchixonning o'g'li Abusaidxonning ikkinchi farzandi Javonmardali Sulton ham tabi nazmi bor shayboniylardan bo'lgan. Javonmardalixonning Abulxayrxon va Muzaffar nomli o'g'illari ham badiiy ijod bilan shug'ullangan. "Muzakkiri ahbob" da Muiniddin Javonmardali Sultonning rangin muammolar yozganligi haqida malumotlar berilgan. Hasanxoja Nisoriy Javonmardalixon ijodidan bir tarix va bir muammoni namuna sifatida keltirgan.

"Muzakkiri ahbob" Maqola birinchi ruknining ikkinchi fasli oxirida qalamga olingan ijodkorlardan biri Do'st Muhammad Sulton Abulxayrxon naslidan bo'lsa-da, davlat tizimida muhim o'rin tutmagan. Biron rasmiy lavozimda faoliyat ko'rsatmagan. Do'st Muhammad Sultonning shajarasi unga atalgan maqolaning sarlavhasida o'z ifodasini topgan. U Toshkent hokimi Navro'z Ahmadning o'g'li, Navro'z Ahmad esa Abulxayrxonning farzandi Sevinchxojaning o'g'li bo'lgan. Do'st Muhammad Sulton husni talil sanatiidan foydalanib latif g'azallar bitgan, takrorlanmas timsoliy ifodalar yaratgan.

Hasanxoja Nisoriy Shayboniy avlodidan bo'lib, Xorazmda saltanat surgan Avaz G'ozzi Sultonning shoirlik istedodiga yuksak baho bergan. Tazkiranavis Avaz G'ozzi ijodidan bir g'azal matlayi va yana bir shoh baytni namuna sifatida keltirgan. Tazkirada Avaz G'ozzi adabiy merosidan tanlangan namunalarning o'zbek tilida ekanligi muhim ilmiy qimmatga ega. Shoh – shoir o'z ona tili imkoniyatlarini mukammal o'zlashtirib, undan ijod jarayonida maqsadli tarzda foydalangan.

UMUMIY XULOSALAR

1. Hasanxoja Nisoriy ilmiy uslubining o‘ziga xos qirralaridan biri shundaki, istiora, sifatlash kabi badiiy-tasviriy ifodalar unda ilmiy tafakkur o‘zanlariga uyg‘un ravishda fikr bayoniga mantiqiy muntazamlik bag‘ishlaydi. Ilmiy tahlil tiniqligi, dalillash tadriji va ilmiy matnning ta’sir quvvatini ta’minlaydi. O‘quvchiga ilmiy ma’lumotlarni tez va oson idrok etish imkoniyatini beradi.

2. Nisoriy musiqa ilmining nozik qirralarini ham teran anglagan. She’rshunoslik, yulduzshunoslik, riyoziyot ilmini o‘z shaxsida uyg‘unlashtirgan. Sharq she’riyatidagi tarixiy voqealar sanasini abjad hisobi bilan ifodalovchi kichik she’riy janr – tarix yozish an’anasini yuksakka ko‘targan. Tarix san’ati va janrida nodir badiiy asarlar yaratgan.

3. “Muzakkiri ahbob” muallifi siyosatni ham, ilohiyotni ham, tasavvufni ham, tarixni ham yaxshi bilgan. “Muzakkiri ahbob” sahifalarida u tarix ilmining mukammal bilimdoni sifatida namoyon bo‘ladi. “Muzakkiri ahbob”da tarixiy jarayon bilan adabiy jarayon uyg‘unlikda tahlil qilingan. Tarixiy jarayonning ilmiy nasrdagi badiiy talqini tadqiq markazida turgan shoir satrlariga sharh vazifasini o‘tagan.

4. Tarix haqiqati adabiyotshunos olimning teran va tiyrak nigohi, sohir qalami bilan yoritilayotgani “Muzakkiri ahbob”ning har bir sahifasida o‘zidan xabar berib turadi. Tazkiranavisning o‘ziga xos uslubi va mahorati tufayli uning bitiklari ilmiy matn bilan badiiy matnda manba, g‘oya, timsol va tasvir uyg‘unligini ta’minlagan.

5. Tarixiy shaxsning ko‘p qirrali va keng qamrovli faoliyatni uyg‘unlashtirish salohiyati tazkiranavisning ilmiy-nazariy, poetik kashfiyotlari bois tom ma’noda dolzarb ko‘lam kasb etgan. Mamlakat olish va uni risoladagidek saqlash kabi shoh va sarkardaga tegishli faoliyat qirralari ilm-u kamolda mumtoz, fazlu fazoilda benazirlik, she’ru shoirlikda latiflik qirralari bilan uyg‘unlashtirib ifodalangan.

6. O‘z zamonasining zabardast adabiyotshunos olimi Hasanxoja Nisoriy boburiy va shayboniylar bilan tariqat pirlari orasidagi pir muridlik, adabiy-ilmiy munosabatlarga aloqador tarixiy lavhalarga e’tiborni tortish bilan shoh-shoirilar dunyoqarashi, estetikasining noyob qirralarini san’atkorona ko‘rsatgan.

7. Tazkiranavis “Muzakkiri ahbob”da boburiy va shayboniylarning yirik va mustahkam davlat vujudga keltirish yo‘lidagi intilishlari; ularning o‘tkir zehni, salim ta’bi, e’tiqod-irodati; astronomiya, tasavvuf, hadis, fiqh, qiroat, tafsir, husnixat; obodonchilik sohasidagi faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar bergan. Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Komron, Hindol, Askariy, Abdulqosim Mirzo; Shayboniyxon, Qul Ubaydiy, Rustam Bahodirxon, Aziziy, Abdullatifxon, Sulton Said, Javonmardali, Do’st Muhammad, Avaz G’ozi Sultonlar adabiy merosidan rangin namunalar keltirgan. Hasanxoja Nisoriy bitiklari talqinning ravonligi, dalillarning oydinligi, ma’nolarining yaqqolligi bilan e’tiborni tortadi. Tarixiy va adabiy ma’lumotlar ishonch va qat’iyat bilan ilmiy va badiiy uslub uyg‘unligida o‘quvchiga havola etilgan.

8. Boburiylar va shayboniylar davrining yuksak ilmiy ahamiyatga ega asarlaridan biri Faxriddin Ali Safiyning “Rashahotu aynul-hayot” asari va boshqa manoqib asarlardan ma’lumki, Xoja Ahrori Valiy mamlakat ravnaqi va xalq farovonligi uchun tariqatni siyosatga, podshohlarga ta’sir ko‘rsatuvchi amaliyotga aylantira olgan. Nazarimizda, Hasanxoja Nisoriy shayboniylar va boburiylar saltanatining barcha bo‘g‘inlarida ham tariqatning davlat boshqaruviga xuddi shunday ta’sirini ko‘rishni istagan. Tariqat arboblardan ta’lim olib, shohlar adolat va diyonat yo‘lini belgilab olishlarini orzu qilgan. Shuning uchun ham “Muzakkiri ahbob” ning ijodkor shoh va shahzodalarga bag‘ishlangan barcha maqola, fasl va fiqralari amaldorning tariqatga va tariqat ahliga munosabatini yoritishdan boshlanadi.

9. Hasanxoja Nisoriy e’tiqodiga ko‘ra shoh qanchalik dunyoning mayda tashvishlari-yu ikir-chikirlaridan qo‘l yuvgan, nafsini o‘ldirib Alloh irodasiga bo‘ysungan, darveshlarga yaqin bo‘lsa, mamlakat ravnaqi shunchalik baland bo‘ladi. “Muzakkiri ahbob” muallifi har bir amaldorning tariqat sulukiga kirib, tariqatga suyangan holda davlatni boshqarishi hamda xalqni hidoyatga boshlashini istagan. Shuning uchun ham ta’bi nazmi bor boburiy va shayboniy ijodkorlar haqida mulohaza yuritganida ilmiy mushohada asosida turgan shoh-shoirning qaysi shayxga irodati borligi ustida maxsus to‘xtalgan. O‘sha shayxning fazilatu solih

amallari, silsilasi, kashfu karomatlari haqida birma-bir fikr yuritgan. Badiiy ijodga aloqasi bo'lsa, she'rlaridan namuna keltirgan.

10. "Muzakkiri ahbob" Bobur va boburiylarning, Shayboniy va shayboniylarning hasbi holi, badiiy ijodga munosabati, o'z zamonasining Xoja Ahrori Valiy, Xoja Abdulhaq, Mir Muhammad Naqshband, Amir Abdulla Yamaniy, Maxdumi Azam Kosoniy, Mahmud Azizon, Yor Muhammad Qoriy, Shamsi Xalaf, Qosim Shayx Azizon, Xoja Mulloyi Nuriy, Shayx Jalol, Abdurahmon Jomiy, Xoja Husayin Xorazmiy, Darvish Shayx, Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja, Hasanxoja Nisoriy kabi ma'rifat darg'alari, tariqat pirlari, olimu shoirlari bilan insoniy va ijodiy munosabatlari haqida qimmatli ilmiy ma'lumotlar beruvchi nodir adabiy-tarixiy manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarga mo‘ljallangan nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2010 yil 7 oktabrdagi 222-son Farmoni // www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-sonli Farmoni // www.lex.uz.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2017. – 113-b.
4. Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkorlar bilan uchrashuvidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2019, 9-fevral.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. –464 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

II. Manbalar

7. Аёзий Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – 704 б.
8. Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ /Ишонарли тўплам/. 4 жилдлик. 1-жилд.– Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. – 560 б.
9. Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ /Ишонарли тўплам/. 4 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 560 б.
10. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – 367 б.

11. Бобур З.М. Маҳрами асрор топмадим... –Тошкент: Ёзувчи, 1993. – 80 б.
12. Bobur Z.M. Voburnoma. – Toshkent: O`qituvchi, 2017. – 368. b.
13. Кошифий, Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний. Ахлоқи Муҳсинӣ. Рисолаи Ҳотамия. – Душанбе: Адиб, 1991. –319 сах.
14. Кошифий, Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. –112 б.
15. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Истиқлол, 1994. – 174 б.
16. Маджалис ун-нафаис. Критический текст. Составитель Ганиева С.Г. – Ташкент: Фан, 1961. – 280 с.
17. Муҳаммад Али Содикбек Содиқий Афшар (Китобдор). Мажмаъу-л-хавос [Хослар мажмуаси]. Нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Болтабоев, Жалолоддин Жўраев. – Тошкент: Mumtoz So‘z, 2017. – 346 б.
18. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар.–Тошкент: Камалак, 1991. –301 б.
19. Навоий А.Маҳбуб ул-қулуб. БСМ хазинасидан 27780 рақамли кўлёзма. – 121 б.
20. Навоий А. Муҳокаматул – луғатайн. – Тошкент: Тафаккур, 2014. – 144 б.
21. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 7-жилд. –Тошкент: Фан, 1991. – 392 б.
22. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 8-жилд. –Тошкент: Фан, 1991. – 544 б.
23. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 9-жилд. –Тошкент: Фан, 1992. – 356 б.
24. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 10-жилд. –Тошкент: Фан, 1992. – 448 б.
25. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 11-жилд. –Тошкент: Фан, 1993. – 640 б.
26. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 13-жилд. –Тошкент: Фан, 1997. – 284 б.

27. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. – 304 б.
28. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. –Тошкент: Фан, 1999. – 236 б.
29. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 16-жилд. –Тошкент: Фан, 2000. – 336 б.
30. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 17-жилд. –Тошкент: Фан, 2001. – 520 б.
31. Навоий А. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 9-жилд. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 768 б.
32. Низами Арузи. Собрание редкостей или четыре беседы. – Москва: Изд. Восточной литературы, 1963. – 174 с.
33. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. – Тошкент: Адолат, 1997. – 256 б.
34. Нисорий Ҳ. Музакири аҳбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. – 444 б.
35. Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 236 б.
36. Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 273 б.
37. Румий, Жалолиддин. Ичиндаги ичиндадир. –Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 192 б.
38. Самарқандий Давлатшоҳ. Шоирлар бўстони (“Тазкират уш-шуаро”дан). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. –224 б.
39. Термизий, Абу Исо Муҳаммад. Шамоили Муҳаммадия. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 107 б.
40. Қуръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. – 624 б.
41. Қуръони азим мухтасар тафсири. Алоуддин Мансур. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2019. – 981 б.

III. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

42. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи (XVII асрдан XIX асрнинг иккинчи ярмигача) Тошкент: Ўқитувчи, 1967. 8-12 б.
43. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Писменные памятники). - Ташкент: Фан, 1985. – С. 165-173.
44. Ахмедов Б. Мутриби и его антологии / Сборник: Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. Ташкент: Фан, 1986. – С. 33-44.
45. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. -Тошкент: Ўқитувчи, 1994. 277-286 б.
46. Адабиёт назарияси. Икки томлик 1-том. – Тошкент: Фан, 1979. – 416 б.
47. Адабиёт назарияси. Икки томлик 2-том. – Тошкент: Фан, 1979. – 448 б.
48. Адабиётшунослик энциклопедияси (Тузувчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015. – 664 б.
49. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.
50. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 644 б.
51. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1984. – 624 б.
52. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1985. – 636 б.
53. Алишер Навоий “Хамса”си. Тадқиқотлар. –Тошкент: Фан, 1986.–142 б.
54. Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар. –Тошкент: Камалак, 1991. – 176 б.
55. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 1-жилд. –Тошкент: Шарқ, 2016. – 536 б.
56. Аристотель. Поэтика. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 151 б.
57. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент: Фан, 1990. – 171 б.
58. Бекчанов.И. Мутрибий тазкиралари муҳим адабий манба (“Тазкират уш шуаро “Нусхаи зебои жаҳонгир”. XVI аср иккинчи ярми – XVII асрн биринчи чораги) Тошкент : Мумтоз сўз , 2009.

- 59.Бертелс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 529 с.
- 60.Брагинский И.С. К изучению узбекско-таджикских литературных связей. В кн. “Взаимосвязи литератур Востока и Запада”. – М.: изд. ИВЛ, 1961. стр. 7-5.
61. Дурдона. Мир Кулол ва Шоҳи Нақшбанд мақомотлари. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа концернининг босмахонаси, 1993. – 75 б.
62. Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Иборат аз ду жилд. Душанбе: сарредакцияи илмии энциклопедияи советии тожик, 1988. – 543 саҳ.
- 63.Энциклопедияи адабиёт ва санъати тожик. Иборат аз ду жилд. Жилди 208. Душанбе: сарредакцияи илмии энциклопедияи советии тожик, 1989. – 559 саҳ.
- 64.Фарҳанги забони тожики. Иборат аз ду жилд. Жилди 1. Москва: нашриёти Советская энциклопедия, 1969. – 952 саҳ.
- 65.Фарҳанги забони тожики. Иборат аз ду жилд. Жилди 2. Москва: нашриёти Советская энциклопедия, 1969. – 952 саҳ.
66. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.
67. Ҳасанов Ҳ. Бобир сайёҳ ва табиатшунос. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – 62 б.
- 68.Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. Тошкент: Фан, 1961.– 326 б
- 69.Ҳайитметов. А Алишер Навоийнинг адабий – танқидий қарашлари. – Тошкент : ЎзФА , 1959.
- 70.Ҳазраткулов М. Тасаввуф. Душанбе: Маориф, 1988. – 126 б.
- 71.Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Тошкент: ЎзССРФА нашриёти, 1963. – 173 б.
- 72.Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Тошкент: Фан, 1970. – 330 б.
- 73.Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996. – 160 б.

74. Ҳайитов Ш. Алишер Навоийнинг кўнгил гулшани. – Бухоро: Бухоро давлат университети нашриёти, 2000. – 166 б.
75. Ҳайитов Ш. Баркамол инсон тимсоли. Тошкент: Фан, 2003. – 96 б.
76. Ҳайитов Ш. Жавоммардлик ҳақиқати, Тошкент: Фан, 2005. – 176 б.
77. Ҳайитов Ш, Ахмадова З. Қўлзмада тарих садоси. Тошкент: Наврўз, 2017. – 116 б.
78. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 184 б.
79. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 160 б.
80. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1990. – 240 б.
81. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 208 б.
82. Ҳусайний, Атоуллоҳ. Бадойиъус-санойиъ. – Тошкент: Ғ.Ғафур номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.
83. Иброҳимов А. XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари. Тошкент: Фан, 1976.
84. Иброҳимов А. Бобурийлар мероси. – Тошкент: Мехнат, 1993. – 63 б.
85. Ислом тасаввуфи манбалари. Тўпловчи Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 400 б.
86. Ислом энциклопедияси. Тошкент: Шарқ, 2004. – 450 б.
87. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърят. – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015, – 304 б.
88. Жирмунский В. Теория литературы. Поэтика, Стилистика. – Москва: Наука, 1972. – 407 б.
89. Жумахўжа Н., Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи XVI -XIX аср биринчи ярми -Тошкент . Ношир, 2019, 5-147 б.
90. Жўшон, Маҳмуд Асъад. Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Тошкент: Чўлпон, 1998. – 78 б.
91. Жўшон, Маҳмуд Асъад. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ. – Тошкент: Истиклол, 2000. – 240 б.

92. Каримов У. Адабиёти тожик дар асри XVI. -Душанбе: Дониш – 1885.-С .87-107.
- 93.Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси. Тошкент: Маънавият, 1997. – 180 б.
- 94.Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1996. –272 б.
- 95.Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда Ўзбекистон нашриётлари, 1999. – 204 б.
- 96.Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 96 б.
- 97.Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1- китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 663 б.
- 98.Махдуми Аъзам Даҳбедий. Рисолаи Бобурия. Таржимон, сўзбоши ва тадқиқот муаллифи Комилжон Каттаев. – Самарқанд, 2015. – 186 б.
- 99.Мирзоев А. Адабиёти (ёри барои дарси адабиёти асрҳои XVI-XIX) тоҷик. Душанбе: 1964;
- 100.Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. –Тошкент: Мовароуннаҳр, 1999. –100 б.
- 101.Муҳаммадсодиқ М.Ю. Тафсири Ҳилол. 30-Амма пораси. – Тошкент: Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси нашриёти, 1991. – 189 б.
- 102.Муҳаммадсодиқ М.Ю. Тафсири Ҳилол. 29- Таборак пораси. – Тошкент: Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси нашриёти, 1991. – 158 б.
- 103.Муҳаммадсодиқ М.Ю. Тафсири Ҳилол.1-жуз.Тошкент:Ҳилол – нашр, 2022.- 638 б.
- 104.Муҳаммадсодиқ М.Ю. Тафсири ҳилол, .1-жуз.Тошкент:Ҳилол – нашр, 2022.- 638.
- 105.Муҳаммадсодиқ М.Ю. Шоядки тақвадор бўлсак.: – Тошкент Чўлпон, 1992. – 175 б.
- 106.Муҳаммедходжаев А. Идеология накшбандизма. – Душанбе: Дониш, 1991. 240 б.

107. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. Тошкент: Фан, 1971. 65-бет.
108. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.
109. Навоий ва ижод сабоқлари. Илмий тўплам. – Тошкент: Фан, 1981. –153 б.
110. Навбахорий, Сайф уз-Зафар. Дурр-ул-мажолис. – Тошкент: Ёзувчи, 1992. – 148 б.
111. Насафий. Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд. –Тошкент: Фан, 1993. – 48 б.
112. Қасас ул-анбиё. – Душанбе: Ориёно, 1991. – 398 сах.
113. Қаюмов А. Бу оҳанг ила бўлғасен нақшбанд... – Тошкент: Қўлёмалар институтининг ихтисослашган босмаҳонаси, 1993. – 26 б.
114. Қосимов Б. Жумаҳўжа Н. Ўзбек адабиёти. 10-синф учун дарслик. Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 464 б.
115. Қудратуллаев Ҳ. Навоийнинг адабий эстетик олами. – Тошкент Адабиёт ва санъат , 1991.
116. Розй, Шамси Қайси. Ал-мўжам. – Душанбе: Адиб, 1991. – 464 б.
117. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 213 б.
118. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 247 б.
119. Сафарова Ҳ. Ҳазрати Юсуф-ғўзаллик тимсоли.-Тошкент: Ислон университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2003.119-б.
120. Садриддин Салим Бухорий. Дилда ёр. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – 77 б.
121. Саъдий Шерозий. Бўстон. – Тошкент: ЎзССР Давлат Бадий адабиёт нашриёти, 1960. – 140 б.
122. Саъдий Шерозий. Гулистон. – Душанбе: Дониш , 1988. – 216 сах.
123. Саъдий Шерозий. Гулистон. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 101 б.
124. Салоҳий Д. Тасаввуф ва бадий ижод. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 184 б.

125. Салоҳий Д. Бобурнинг буюк эътиқоди. Самарқанд: Имом Бухоро халқаро маркази, 2019. – 96 б.
126. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978. – 151 б.
127. Степанянс М.Т.Философски э аспекты суфизма. Москва: Наука, 1987. – 191 стр.
128. Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.
129. Султон Иззат. Баҳоудин Нақшбанд абадияти. Тошкент: Фан , 1994. – 87 б.
130. Тарозий Шайх Аҳмад Худойдод. Фунунул-балоға. – Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2002 йил, 1-сон. 73 – 86 б.
131. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. Москва: Просвещение, 1971. – 464 стр.
- 132.Трименгем Дж.С. Суфийски э ордены в Исламе. – Москва: Наука, 1989. – 328 стр.
- 133.Усмон О. Баҳоуддин Нақшбанд ва унинг таълимоти ҳақида. – Тошкент: Университет, 1993. – 34 б.
- 134.Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 180 б.
- 135.Валихўжаев Б. Заҳриддин Муҳаммад Бобур ва адабиёти тожик.// Масъалаҳои филология ва робитаи адабий. – Самарқанд, 1977. Б. 5-11.
- 136.Валихўжаев Б. Заҳриддин Бобур ва тожик адабиёти. // Адабий мерос. – 1977, 8-сон, Б. 78-90.
137. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – 94 б.
138. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X – XIX асрлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – 192 б.
- 139.Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. – 149 б.
- 140.Валихўжаев Б, Воҳидов Р. Навоий ижоди – илҳом манбаи. – Тошкент: Фан, 1981. – 74 б.
- 141.Валихоча, Ботурхон Хилъатпури. Хоча Аҳрори Вали. – Самарқанд: Сўғдиён, 1992. – 61 сах.

142. Воҳидов Р. XV асрнинг иккинчи ярми XVI асрнинг бошларида ўзбек ва тожик шеърляти /Адабий алоқа ва ўзаро таъсир масалалари/. – Тошкент: Фан, 1983. – 141 б.
143. Воҳидов Р. Неъматов Ҳ. Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. Тошкент: Ёзувчи, 2001. – 144 б.
144. Воҳидов Р. Эшонқулов Ҳ. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. – 523 б.
145. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 118 б.
146. Воҳидов Р. “Навоийнинг икки дурдонаси”. Тошкент: Фан, 1992. 53 – 110 б.
147. Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – 964 б.
148. Заринқўб Абдулҳусайни. Жустужў дар тасаввуфи Эрон. – Душанбе: “Ирфон”, 1992. – 396 б.
149. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик, 2-том. – Тошкент: Фан, 1977. – 447 б.
50. Ўзбек-адабиёти тарихи. 3-том (XVI асрдан XVII асрнинг 70-йилларигача.)- Тошкент: Фан, 1978. 143-144 б.
151. Шайхзода М. Тазкирачилик тарихидан.- Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик, 4 – том.- Тошкент, 1972. 295-346 б.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

152. Абд-ур-раззак З. Текстологическое исследование антологии Афзаля Пирмасти “Афзал-ат-тазкар фи зикр-аш-шуара в-ал -ашъар”: дисс. канд. фил. наук. – Ташкент, 1973. – 182 с.
153. Абдуллаев И. “Йатимат ад-дахр” источник по истории арабоязычной литературы народов Моварауннахра и Хорасана. Дисс. докт. филол. наук. - Москва, 1977.
154. Абдуллаев И. Поэзия на арабском языке в Бухаре при Саманидах (X в.). Дисс. ... канд. филол. наук Ташкент, 1963.

155. Абдураззак Захир. Текстологическое исследование антологии Афзаля Пирмасти “Афзалат-тазкор фи зикр- иш-шуаро в-ал-ашъор”. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Ташкент, 1973.
156. Абдуллаев М.А. Убайдий хаёти ва адабий фаолияти. Ф.ф.н.диссертациясининг автореферати. –Тошкент: 2000, Б.11-12
157. Акрамов Ф.М. Тазкира “Нусхаи зебои Джахонгир Мутриби источник к изучению литературной жизни Мавераннахра и Индии XVI - начала XVII вв”. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук -Душанбе, 1998.
158. Бекчанов.И Ҳасанхожа Нисорийнинг “Музакири аҳбоб” тазкираси ва XVI аср ўзбек адабиёти.Филол.ф.номз.дисс. – Тошкент:1993.
159. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini. F.f.f.d. diss... avtoref. – Samarqand: 2017. – 45 b.
160. Ганиева С. “Мажолис ун-нафоис” Алишера Навои (литературно-исторический анализ и критический текст 3 и 4 маджинсов). Дисс. ... канд. филол. наук. – ЛГУ, 1956.
161. Ҳаққулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва таракқиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами). Филол. фанл. докт. ...дис. – Тошкент, 1995. – 282 б.
162. Хабибуллаев А. Антология “Ал-иджаз вал-иджаз” ас-Саалиби как литературный памятник. Дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1994.
163. Хайитов Ш. Алишер Навоий насрида комил инсон образи. Филология фанлари бўйича докторлик (ДSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация, – 307 б.
164. Хайитов А.Ж. Алишер Навоий “Хамса”сини насрийлаштириш: анъана, табдил ва талқин: филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2000. – 168 б.
165. Кабулова Р.В. Традиции “Маджалис ун-нафаис” Алишера Навои в тюркоязычной литературе (на материале антологии Садикбека Садики “Маджмаъ ул-хавас”): дисс. канд. фил. наук. – Ташкент, 1979. – 174 с.

166. Кароматов Х. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари: Филол. ф. докт. дисс. – Тошкент: 1993. – 281 б.
167. Мамедова М.К. Жизнь и творчество Лютф-али-бека Азера Бекдели: дисс. канд. фил. наук. – Баку, 1974. – 194 с.
168. Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. Филология фанлари номз... дисс... автореф. – Тошкент: 2005. – 26 б.
169. Муталлибов Абду Гани. “Тухфат ул-ахбоб” - антология Кары Рахматуллы Ашур Мухамедова. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1945;
170. Норик Б.В. Антологии Хасана Нисари и Мутриби Самарканди как источники по истории письменной культуры Мавераннахра XVI - первой трети XVII вв. Автореф. дисс. канд. ист. наук.С. - Петербург, 2005.
171. Самандарова С. XX аср ўзбек тазкиралари Филол. ф. номз... дисс. - Тошкент: 1996;
172. Саримсоқов Б. Сажъ ва унинг ўзбек фольклорида тутган ўрни. Филол. фанлари номзоди ...дис. – Тошкент, 1973. – 156 б.
173. Қурбоналиева М. Мутрибий Самарқандийнинг “Тазкират уш-шуаро” асари ва унинг адабий аҳамияти. Ф.ф.ф.д. дисс... автореферати. – Самарқанд, 2022. – 49 б.
174. Саттаров Абдулло. “Тухфаи Соми” Сом Мирзо Сафави как первоисточник для изучения персидско-таджикской литературы XV первой половины XVI вв. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Душанбе, 1972;
175. Sulaymonov I. “Boburnomada g’olib va mag’lub shaxs ruhiy holatining badiiy tasviri”. – Samarqand, 2020.
176. Султанов Т. Алишер Навоий ва Озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, анъаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида). Ф.ф.ф (PhD) дис. автореф.: - Тошкент, 2019.

V. Ilmiy maqolalar

177. Абдуллаев В. Валихўжаев Б. “Мажолис ун-нафоис” типигаги бир тазкира хақида (Мутрибий ва унинг “Тазкират уш-шуаро”си) Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1965. - № 5.18-23 б.
178. Исҳоқов Ё. Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг форс-тожик тилидаги шеърлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1967, 3-сон. 47-50 б.
179. Матякубова М. Огаҳий ижодида кичик шеърлий жанрлар. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Тошкент, -2000, -24 б.
180. Мирзааҳмедова М. Ҳасан Нисорий ва унинг “Музаккири аҳбоб” тазкираси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1965. - № 4. - 5. 70-73 б.
181. Мукимов Р., Валихўжаев Б. Чанд сухан оид ба як тазкира // Садои Шарк. - Душанбе, 1961. - №9. - С.150-154;
182. Олимов М. Ўзбек бобуршунослиги тарихидан. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1989, 3-сон. 3-9 б.
182. Ochilov E. Shayboniy ijodida Navoiy an’analari. //O‘zbek tili va adabiyoti. TA. 2020, №1 39-43 б.
183. Қурбонов А. Навоий ижодида “қўнгул” талқини. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2019. 3-сон, 36-43 б.
184. Раҳимжонов Д. Ҳадис илмининг Насафдаги ривожини. Имом ал Бухорий сабоқлари. 2006, №3, 1758-б. 173-174 б.
185. Ражабова Б. “Равзат ус-салотин” да Бобур подшоҳ зикри. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2019, 4-сон. 77-81 б.
186. Валихўжаев Б. Комил инсон – комил жамият: Алишер Навоий талқинида. // Маърифат, 2002, 23 янв.
187. Валихўжаев Б. Мукимов Р. Оид ба як тазкираи авали асри XVII ва муаллифи он / СамДУ асарлари. Янги серия. Самарканд, 1961. - № 114;
188. Валихўжаев Б. XV-XIX асрлар ўзбек адабий-танқидий қарашлари тарихидан /СамДУ асарлари. Янги серия №138. Самарканд, 1964.16-19 б.
189. Валиходжаев Б. Мутриби и его “Тазкират уш-шуаро” // Материалы третьей объединенной научной конференции ученых города Самарканда. - Самарканд, 1961. - С. 182- 185;

VI.Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

190.www.3uёuz.kom. Shahid bo‘lgan baxtli hoqon Abulfath Muhammad Shayboniyxon Shoh budog‘ Sulton bin Abulxayrxonning muqaddas yodi (Tarjimon va izohlar muallifi Ismoil Bekjon)

191.www.хуршид даврон.уз.Ismoil Bekjon.Bobur va Boburiylarga oid uch maqola

192.www.китоблар.ком. Ismoil Bekjon. Hind safari yoxud Imomqulixonning maxfiy topshirig‘i va Boburiylar va Go‘ri Amir maqbarasi

193.www.нукф.интал.Уз.Ismoil Bekjon qo‘l yetmas yulduz (Bobur va Jom jangi)